

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMINI
RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

**S.A. KARIMOV,
SH.M. MAXMATMURODOV, O.N. KARIMOVA**

NUOQ MADANIYAËI VA DAVLAË ÆILIDA ISH YURIËISH

*Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari
talabalari uchun o'quv qo'llanma*

-7*81.2

K 25

Karimov S.A. va boshq. Nutq madaniyati va davlat
K 25 tilida ish yuritish/Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari
talabalari uchun o'quv qo'llanma. — Ö.: O'zbekiston,
2003. — 192 bet.

ISBN 5-640-03201-4

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimi uchun tasdiqlangan Davlat ta'lim standarti talablari asosida tuzilgan hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari "Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish" fani bo'yicha o'tiladigan dars jarayonida foydalanishga mo'ljallangan.

Undan nutq madaniyati hamda ish yuritish hujjatlarini rasmiylashtirish masalalari bilan qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

BBK. -7*81.2

N 460200000 - 120 2003
M 351(04)2003

© «O'ZBEKISTON» nashriyoti, 2003 y.

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasining "Oa'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda ularning hayotga tatbiq etilishini ta'minlovchi hukumat qarorlari shaklidagi me'yoriy hujjatlar asosida respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining poydevori yaratildi. Uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarini boshqarish, jahon andozalari va zamon talablari darajasida yo'lga qo'yish, ularning har biri uchun xos bo'lgan xususiyatlar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiyaning yangicha tizimini shakllantirish mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining negizi sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Mamlakatimiz rahbari I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustida bo'lib o'tgan sessiyasida quyidagilarni aytgan edi: "Biz shoshilmasdan, asosiy maqsaddan og'ishmay, izchillik bilan Milliy dasturni amalga oshirishimiz lozim. Shundagina u umumiy madaniyatni yuksaltirishga, farzandlarimizning jamiyatda o'z munosib o'rnini topishiga xizmat qiladi. Ularning kasbiy va ta'limiy dasturlarini ongli ravishda tanlash va egallashlari uchun huquqiy me'yorlarni, tashkiliy, ruhiy-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlashga ko'maklashadi. Yigit-qizlarimizni jamiyat, davlat, oila oldida o'z mas'uliyatini chuqur anglab yetuvchi shaxslar etib tarbiyalashga zamin bo'lib xizmat qiladi" (*Karimov I.A.. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston», 1997, 14-bet*). Shundan so'ng Prezidentimiz kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillari xususida so'z yuritib, davlat ta'lim standartlarini joriy etish va ularning faoliyat ko'rsatish mexanizmini ishlab chiqish lozimligini uqtirgan edi. Milliy dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichidayoq o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimida bu vazifa bajarildi. Bu sohada islohotlarni amalga oshirishning nazariy va huquqiy negizlari yaratildi.

Oa'lim-tarbiya jarayonining barcha jihatlarini qamrab oluvchi davlat ta'lim standartlari bugungi kunda yosh avlodning Vatanga

sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish hamda o'zi sevgan kasbini mukammal egallash yo'lida qunt bilan bilim olishlari uchun kafolat bo'lib xizmat qilmoqda.

O'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimi uchun yaratilgan Davlat ta'lim standartiga unumta'lim fanlaridan biri sifatida "Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish" predmetining ham kiritilishi, talabalarning o'quv yurtlarini bitirgach, ish faoliyatlarida foydalanishi mumkinligini ko'zda tutib, qolaversa, ko'pchilikning manfaatini o'ylagan holda amalga oshirilgan vazifadir.

Ushbu qo'llanma yordamida talabalar ma'lum darajada o'z ona tillaridan foydalanish sirlarini o'rganadilar. O'zbek tilining boyligi, amalda bo'lish imkoniyatlari naqadar keng ekanligini anglab yetadilar, muomala madaniyatini egallaydilar. Ayni paytda, ish yuritish jarayonida qo'llaniladigan hujjatlarni rasmiylashtirish, ulardan foydalanish yo'llarini bilib oladilar.

Davlat ta'lim standarti talablari asosida yozilgan mazkur qo'llanma Samarqand viloyati hududidagi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun ushbu predmetni o'tish jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lidagi urinish bo'lib, mualliflar uning mukammalligiga da'vo qilishmaydi. Qo'llanma shu sohada ishlayotgan mutaxassislarning, pedagog va o'qituvchilarning nazaridan o'tgach, ularning fikr-mulohazalari bilan to'ldiriladi va qayta ishlanadi.

O'z fikr-mulohazalarini bildirgan muhtaram o'quvchilaringizga minnatdorchiligimizni oldindan izhor etamiz va ularni mamnuniyat bilan qabul qilamiz. Manzilimiz: Samarqand Davlat universiteti, telefonlar: 31-23-22, 22-38-73.

**"NUTQ MADANIYATI VA DAVLAT TILIDA ISH
YURITISH" PREDMETINING MAVZUVIY
R E J A S I**

Ö/r	Mavzular	Ajratilgan soat
I. <i>Öil va nutq</i>		
1	Öilning ijtimoiy mohiyati.	2
2	Nutqiy savodxonlik va nutq madaniyati asoslari	2
3	Nutqning asosiy xususiyatlari	2
4	Nutq odobi	1
5	Nutqiy muomala shakllari	1
II. <i>Nutqiy faoliyat turlari</i>		
6	Nutqning dialogik va monologik shakllari	10
7	Nutqning uslubiy shakllari	2
8	Rasmiy uslubning til xususiyatlari	2
9	Nutq uslublarida sinonimiya	2
III. <i>Matnning mazmuniy-vazifaviy belgilari</i>		
10.	Matn tuzilishi va matn ustida ishlash	4
11.	Atamalar va kasb-hunar so'zlarining ma'noviy va vazifaviy xususiyatlari	9
IV. <i>Munshaot va ish yuritish</i>		
12.	O'zbek munshaoti tarixi, uning an'analari	2
13.	Rasmiy va shaxsiy xat, ularning farqlari	4
14.	Xizmat doirasidagi kommunikatsiya shakllari	2
15.	Hujjatlar va ularning turlari	2
16.	Ariza	1
17.	Annotatsiya	1
18.	Bayonnoma	2
19.	Bildirishnoma	1
20.	Buyruq	2

21.	Guvohnoma	1
22.	Dalolatnoma	2
23.	Ishonchnoma	1
24.	Ma'lumotnoma	1
25.	Nizom	2
26.	Rezyume	1
27.	Òavsifnoma	2
28.	Òavsiyanoma	2
29.	Òaklifnoma	1
30.	Òarjimai hol	1
31.	Òaqriz	2
32.	Òelegamma	1
33.	Òelefonogramma, modemogramma, faksogramma	2
34.	Òilxat	1
35.	Òushuntirish xati	1
36.	Farmoyish	1
37.	Shartnoma	2
38.	Hisobot	2

I b o b

ÕIL VA NUÒQ

1-MAVZU: Õilning ijtimoiy mohiyati

R e j a:

1. Õilning ijtimoiy hodisa ekanligi.
2. Õil va tafakkur birligi.
3. Õil va nutq.
4. Fikr va nutqning o'zaro bog'liqligi.
5. Õil va jamiyat.
6. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni.

Õayanch so'z va iboralar : Õil – aloqa vositasi. Nutq tilning harakat shakli. Og'zaki va yozma nutq. Õil – tizim. Fonetik, leksik va grammatik birliklar va nutq. Me'yor – til tizimini nazorat qilish vositasi. Nutq insonning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashini aks ettiruvchi amil. Nutq ko'rinishlari, nutq uslublari.

Õabiiyki, inson tabiat va jamiyat mahsuli sifatida ularning qurshovida yashaydi. Ayni paytda, ularning oliy mahsuli ham sanalib, ana shu qurshovni narsa va predmet shaklida, voqea va hodisa tarzida miyasida aks ettiradi, idrok qiladi, fikrlaydi. Bu jihatdan tilning ahamiyatini hech narsaga qiyoslab bo'lmaydi. Shuning uchun ham til tafakkur quroli deb bejiz aytilmaydi. "Õil bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Õilsiz tafakkur bo'lmaganidek, til ham tafakkursiz bo'lmaydi" [4, 20-b.]*.

Õilning inson uchun fikrlash vositasi bo'lishini, moddiy asos sifatida xizmat qilishini hali birinchi bosqich deyishimiz mumkin. Ikkinchi bosqichda esa fikrlash natijasida tafakkur mahsuli reallashmog'i, ya'ni fikrlash markazi bo'lgan miyadan tashqariga chiqishi lozim. Bunda esa tilga bo'lgan ehtiyojning ikkinchi bosqichi boshlanadi – u kommunikativ vazifani bajarishga kirishadi.

* Izohlarga havolani adabiyatlar ro'yhatidan qarang.

Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar turli tillarda turlicha nomlanishidan qat'i nazar, mana shu jarayonda u insonlar faoliyatida fikrlash va o'zaro ijtimoiy munosabat – muomala vositasi, materiali bo'lib qolaveradi. Oil muomala vositasiga aylandimi, uning imkoniyat doirasi ham tabiiy ravishda kengayib boradi. Endi u nutq, nutqiy jarayon quroliga aylanadi.

Bu holni uchinchi bosqich deb atash mumkin. Bosqichlar soni ortib boravergani sari tilning ijtimoiylik imkoniyati ham tobora kengayishi ma'lum bo'lib qoladi. Ya'ni, inson nutqiy faoliyatida kommunikativ vazifani bajarayotgan til ko'magida suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum axborot ham yetkaziladi. Demak, tilga bo'lgan munosabatda to'rtinchi bosqich yuzaga keladi.

Shu o'rinda akademik V.V.Vinogradovning muhim bir fikrini eslamaslik aslo mumkin emas. U tilning uchta eng muhim vazifasi mavjudligini ta'kidlagan edi: aloqa, xabar, ta'sir etish [2, 6-b.].

Oil insonlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lishi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar to'g'risida xabar berishidan tashqari suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum ta'sir o'tkazish, hissiyotini qo'zg'atish kuchiga ham ega. Agar bu holatni shartli ravishda beshinchi bosqich deb ataydigan bo'lsak, ta'kidlaganimizdek, tilning bosqichma-bosqich takomilla-shib, mukammallashib va imkoniyatlari ham asta-sekinlik bilan kengayib borishini kuzatamiz.

Mana shu o'rinda tilning hech bir imkoniyati nutqsiz, nutqiy jarayonsiz amalga oshmasligi, yuzaga kelmasligiga amin bo'lamiz. "Oil va tafakkurning birligi nutoqa o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma holda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya'ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo'lib qoladi [5, 31-b.].

Ma'lum bo'ladiki, til nutqning o'ta muhim unsuri sifatida aloqa, xabar, ta'sir etish, shu bilan birga, imkoniyatlari nihoyatda kengayib borishi natijasi o'laroq kishilik jamiyati to'plagan tajriba va bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazishdek ulug'vor ijtimoiy vazifani bajaradi.

Aytilganlardan anglashilayaptiki, til va nutq tizimida me'yor ham o'z o'miga ega. Binobarin, til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan oq uni me'yorlashtirish jamoa,

jamiyat ehtiyojiga aylangan, me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan. Mana shu o'rinda tilshunos olimlarimizning quyidagi fikrlarini keltirish muhim: "Me'yor ta'rifida "jamiyat (ijtimoiy) tomonidan belgilangan, aniqlangan qonuniyatlardan va imkoniyatlar" tushunchasi mavjud. Bu tushuncha quyidagi izohlarni talab etadi. Birinchidan, tilning moddiy tomoni haqidagi bizning tasavvurimiz nutqda yuzaga chiqar ekan, uning qanday shakl va ko'rinishda voqelanishi jamiyat tomonidan muayyan me'yorlar bilan belgilangan bo'ladi. Masalan, "bu yoqqa kel" tushunchasini imo-ishora bilan ifodalamoqchi bo'lsak, ko'rsatkich barmoqni yoki qo'lning ishora qilinayotgan kishidan o'zimiz tomon harakatlantirishimiz lozim. Og'zaki nutqda esa jamiyatimiz tomonidan qabul qilingan maxsus tovushlar tizmasi mavjud bo'lib, biz ularni talaffuz etishimiz—aytishimiz shart. Aytilganlarning barchasi me'yorning tarkibiy qismlaridir. Shunga ko'ra til imkoniyatlari me'yor darchasidan o'tib, nutqda yuzaga chiqadi" [3, 27-b.].

Jamiyat taraqqiyoti bilan bab-baravar aholi soni, binobarin, ularning tilga bo'lgan ehtiyoji ham o'sib boraveradi. Bu ehtiyojlarni qondirish zarurati esa o'z navbatida tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi tabiatini, mohiyatini, vazifasini o'rganishni taqozo qiladi, nutq jarayonidagi iste'molda bo'lish xususiyatlarini kuzatish zaruratini keltirib chiqaradi. Agar mana shu aytilganlarni boshqacharoq tarzda izohlash mumkin bo'lsa, til va nutq me'yorini o'rganish, tahlil qilish kuzatuvchilarning asosiy muddaosiga aylanib qoladi.

1989 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonunini katta quvonch bilan kutib oldik va uni amalda tatbiq etishga ishtiyoq bilan kirishdik. Ammo uning hamma moddalarini birdaniga va tezlikda bajarishning imkoni bo'lmadi. O'sha paytda qonuniy bo'lmasa-da, amaldagi ish yuritish tili rus tili ekanligi, bir qism o'zbek millatiga mansub kishilarning sharoit taqozosi bilan rus tilida savod chiqarganligi, farzandlarini ham bog'chalar va maktablarda ana shu tilda ta'lim-tarbiya olishga jalb qilganligi, buning ustiga respublikamizdagi aholining ko'pmillatli ekanligi bunga sabab bo'ldi. Oqibatda ma'lum muddat muomala jarayonida, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishda, turli darajadagi anjumanlarni o'tkazishda rus tilidan foydalanishdagi mavjud an'analar o'z

kuchini saqlab turdi. O'g'risini aytganda, oradan o'n to'rt yildan ortiq vaqt o'tsa ham bu nuqsonlardan to'laligicha qutila olgan emasmiz. O'zbek tilidan foydalanishdagi qiyinchiliklarning ko'plari bartaraf etilganligini, til amaliyotiga oid masalalarning bosqichma-bosqich hal bo'lib borayotganini ham kuzatamiz. Buning obyektiv va subyektiv omillari ham bor, albatta. Harqalay o'tgan vaqt mobaynidagi tildan foydalanish jarayoni bir narsani isbotladi – til me'yoriy muammolarining talqin etilishi va ijobiy hal qilinishi vaqt degan hakamga ham bog'liqligi ma'lum bo'ldi.

"Davlat tili haqida"gi Qonun o'zbek tilining amalda bo'lishi uchun yangi istiqbollarni ochib berdi. Ona tilimiz qo'llanish ko'lamining, ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavqeining kengayishi, ayni paytda, rus tili tazyiqining susayib borishi ana shu istiqbol yo'lidagi imkoniyatlar edi.

1991 yilning 1 sentabrida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi bilan bu imkoniyatlar doirasi yanada kengaydi. Oqibatda tilimizning orfografik me'yorlarini belgilashdagi muammolarni hal qilish yangicha mazmun kasb etdi. 1993 yilning 2 sentabrida mustaqil O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. 1995 yilning 6 mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida" qaror qabul qilindi. Nihoyat 1995 yil 24 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qarori chiqdi. O'zbek tilining imloviy me'yorlarini belgilash ana shu qonuniy hujjatlarga tayanilgan holda olib borilmoqda. Ayni paytda, 1940 yilning 8 mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti sessiyasi qabul qilgan kirill alifbosi asosidagi o'zbek imlosi hamda "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Prezidiumining 1956 yil 4 aprel Farmoni bilan qonun kuchiga kiritilgan me'yoriy hujjatlardan ham foydalanib kelinmoqda.

Binobarin, o'zbek tilining imloviy me'yorlari hozirgacha ana shu qoidalarga muvofiq amal qilmoqda va bu jarayon, ya'ni kirill alifbosidan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonunining yangi tahririni amalga kiritish

tartibi to'g'risida"gi 1995 yil 21 dekabr qaroriga asosan 2005 yilgacha davom etadi.

Undan keyin esa to'lig'icha O'zbekiston Respublikasi-ning 1993 yil 2 sentabrda qabul qilingan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini hayotga joriy qilish to'g'risida"gi hamda 1995 yil 6 maydagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlariga asosan ish ko'riladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonunining quyidagi moddalarini qanday tushunishingizni yozma ravishda bayon qiling:

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normala-riga rioya etiladi.

8-modda. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Oil jamiyat taraqqiyotiga qanday ta'sir etadi?
2. Oil va tafakkur, til va nutq tushunchalarini farqlay olasizmi?
3. Oil haqida donolar nimalar deyishgan?
4. Alisher Navoiyning "Oilga ixtiyorsiz—elga e'tiborsiz" degan hikmatli iborasini tushuntirib bering.

A D A B I Y O T L A R

1. *Abdullayev M.* Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2000 yil 28 iyul.
2. *Vinogradov V.V.* Stilistika. Òeoriya poeticheskoy rechi. Poetika. — M., 1963.
3. *Ne'matov H., Rasulov R.* O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. — «O'qituvchi», 1995.
4. *Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M.* Oilshunoslikka kirish. — «O'qituvchi», 1981.
5. *Xayrullayev M., Haqberdiyev M.* Mantiq. — «O'qituvchi», 1993.

2-MAVZU: Savodxonlik va nutq madaniyati asoslari

R e j a :

1. Nutq madaniyati tushunchasi.
2. Nutqiy madaniyatni shakllantiruvchi omillar.
3. Nutqiy savodxonlik o'lchovlari.
4. O'zbek nutqidagi kamchiliklar va ularni tuzatish yo'llari.

Öayanch so'z va iboralar : *nutq, madaniyat, me'yor, to'g'rilik, aniqlik, ta'sirchanlik, maqsadga muvofiqlik, adabiy til me'yorlariga mos kelish, mukammallik, muammolar bilan shug'ullanish, Praga, Moskva, o'zbek tilshunosligi, Öl va adabiyot instituti, nutq madaniyati sektori, E.Begmatov, til madaniyati, nutq madaniyati, bġg'liq sohalar, ruhshunoslik, etika, estetika, pedagogika, til tarbiyasi, til taraqqiyotida ommaning, mutaxassislarining roli, merosiylik, badiiy adabiyot, yozuv, me'yor va davr, kalka.*

Nutq madaniyati nima, uni yetarli darajada egallash uchun qanday vazifalarni amalga oshirish lozim va bunda adabiy til me'yorlarining o'rni qanday bo'ladi? Bu savolga javoblarni, avvalo taniqli tilshunos olimlarning asarlaridan topamiz. S.I.Ojegov shunday degan edi : " Yuqori nutq madaniyati nima? Yuqori nutq madaniyati – bu o'z fikrlarini til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib bera olishdir. Öo'g'ri nutq deb esa hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib tuzilgan nutqqa aytiladi. Ammo yuqori nutq madaniyati faqatgina me'yorga rioya qilishdan iborat emas. U yana fikrni ifodalashning aniq vositasini topishdangina iborat bo'lib qolmasdan, birmuncha ta'sirchan va maqsadga muvofiq vositalarni topish uquvini ham o'z ichiga oladi" [10, 287-288-b.].

L.I. Skvorsov : "Nutq madaniyati" tushunchasi bir tomondan nutqning adabiy til me'yorlariga mos kelish darajasini bildirsa, ikkinchi tomondan tilshunoslik fanining madaniyat quroli bo'lgan adabiy tilni mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish muammolari bilan shug'ullanuvchi sohadir"[11, 29-b].

Ma'lum bo'ladiki, nutq madaniyati, agar masalaga til nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, bu dastlab nutqning grammatik to'g'riligi demakdir. Ikkinchidan esa, u uslubiy jihatdan ham

to'g'ri bo'lishi kerak, ya'ni yaxshi nutqda noaniqlikka, ikki ma'nolilikka, uzundan-uzoqlikka yo'l qo'yilmasligi, qisqalik, aniqlik va soddalik uning o'lchovi bo'lishi lozim. Keng ma'noda esa nutq madaniyati nutqiy ta'sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o'tkirlilik va obrazlilikni ifoda etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, nutq madaniyati muammolari bilan olimlar hamma zamonlarda ham shug'ullanib kelishgan. Bu sohada Praga lingvistik to'garagi, rus tilshunosligi katta yutuqlarga erishganligini ta'kidlab o'tish lozim. Keyingi 40-50 yil ichida bu sohada o'zbek tilshunosligida ham ma'lum ishlar amalga oshirildi va bu ishlar davom ettirilmoqda.

O'zbek tilshunosligi erishgan yutuqlardan biri shu bo'ldiki, nutq madaniyati alohida o'rganish obyekti qilib olindi va u alohida fan sifatida nazariy asosga qo'yildi, ilmiy o'rganish metodlari ishlab chiqildi, u bilan aloqador tushunchalarning chegaralari belgilandi. Bu borada O'zbekiston Fanlar akademiyasi Òil va adabiyot institutida tashkil etilgan Nutq madaniyati sektorining, ayniqsa, unda uzoq yillar sektor mudiri bo'lib ishlagan professor E.A. Begmatovning xizmatlari katta bo'ldi. Olimning qalamiga mansub "Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi" (1973), "Òilshunoslikning muhim sohasi" (1973), "Nutq madaniyati tushunchasi haqida" (1975), "Nutq madaniyati mezonlari" (1976), "O'zbek nutqi madaniyati masalalari" (1980), "Notiqning nodir boyligi" (1980), "Adabiy norma va nutq madaniyati" , "O'zbek nutq madaniyati ocherklari" (1989), "O'zbek nutqi madaniyati asoslari" (1991), "Nutq madaniyati va uslubiya asoslari" (1992), "Adabiy norma nazariyasi" (1997, 1998, 1999) singari asarlarida nutq madaniyatiga oid ko'plab ilmiy-nazariy fikrlar bayon etilgan (Ularning ayrimlari hammualliflikda yozilgan) [13, 9-b.].

Nutq madaniyatini yuksaltirish muammolarini aniq ko'ra bilgan olim bundan 30 yil muqaddam quyidagilarni yozgan edi: "Bizning fikrimizcha, nutq madaniyati sohasi o'z o'rni va fandagi mavqei to'la egallashi uchun u nazariy jihatdan asoslangan bo'lishi lozim. Birinchidan, bu tushunchaning til hodisasi va ilmiy problema sifatida tarixi yoritilmog'i kerak. Ikkinchidan, nutq madaniyati sohasini o'rganuvchi asosiy obyekt bo'lgan til hodisasi aniqlanishi kerak. Uchinchidan, nutq madaniyatining ilmiy-tadqiqiy obyekti bilan bog'liq problemalar belgilanishi lozim. Ò'rtinchidan esa, nutq madaniyatini

o'rganish aspektlari (lingvistik va ekstralingvistik) chegaralanishi zarur" [4, 156-b.].

XXI asrga kelib bu masalalarning ko'plari hal bo'ldi. Bu borada yana E.Begmatovning xizmatlari katta ekanligini ta'kidlashimiz zarur.

Birgina "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalarini chegaralash masalalarini olib qaraylik. Olimning fikrlarini keltiramiz: "...nutq madaniyati tushunchasi bu, avvalo to'g'ri, shu bilan birga, yaxshi so'zlash, ya'ni madaniy nutqiy protsess demakdir. Ammo madaniy gapirish uchun nutqda xizmat qiluvchi madaniy vositalar, ya'ni aniqrog'i madaniy til vositalari lozim bo'ladi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, madaniy nutq ikki faktor asosidagina yuzaga chiqa oladi: a) madaniy til (adabiy til) vositalarining mavjudligi, ushbu madaniy til vositalaridan gapirganda yoki yozganda maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish.

Keltirilgan ikki omil asosida nutq madaniyati hodisasi ham, bizningcha, ikki xil talqin qilinishi va nomlanishi lozim bo'ladi.

1.Öil madaniyati. 2. Nutq madaniyati yoki so'zlashuv madaniyati.

Öilshunoslikda nutq madaniyati tushunchasini til madaniyati va so'zlash madaniyati tushunchasiga ajratish izchillikka ega emas. Umuman, bu ikki tushuncha, asosan, birga yoki qorishtirilgan holda nutq madaniyati yoki til madaniyati termini bilan yuritilmogda. Demak, bu holda til madaniyati termini nutq madaniyati terminiga ekvivalent bo'lib kelmogda. Shu sababli ham, biz nutq madaniyati nomi bilan umumiy tarzda yuritilayotgan tushuncha (hodisa)dagi ikki holatni til madaniyati va nutq, ya'ni so'zlash madaniyatini farqlash tarafdorimiz. Nutq madaniyati tushunchasi va termini keltirilgan ikki hodisa uchun umumiy tasavvur va umumiy nom tarzida tushunilishi mumkin. Xo'sh, til madaniyati tushunchasi nima?

Öil madaniyati tushunchasi nutq madaniyati sohasida til sistemasining o'zini, masalan, o'zbek adabiy tilining vosita va imkoniyatlarini, "madaniylashtirishni" ko'zda tutadi. Demak, til madaniyati termini bilan ataluvchi tushuncha til sistemasining madaniylik darajasini, ya'ni uning qanchalik ishlanganligi, normalanganligini ko'rsatadi" [5, 50-58-b.].

Ko'rinadiki, garchi "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalari tilga oid atama sifatida bir-biridan farqlansa

ham, aslida ularning birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan tushunchalardir. "Nutq madaniyati" aniq ma'noda til birliklarini nutq jarayonida qo'llashning me'yori, maqsadga muvofiqligini anglatsa ham, umumiy ma'noda ma'lum millatning umumtil doirasida qaraladi. O'g'ri, nutq til va tildan tashqaridagi (lingvistik va ekstralingvistik) omillarni o'z ichiga oladigan murakkab jarayon bo'lib, u mantiq, ruhshunoslik, pedagogika, etika, estetika masalalari bilan ham bog'liq. Ammo nutq uchun tilning birinchi darajada turishini hech kim inkor eta olmaydi.

Ma'lum bo'ladiki, til birliklarini me'yorlashtirish, hamma uchun umumiy va tushunarli bo'lgan bir qolipga keltirish umuman tilshunoslikning vazifasi sanalsa ham, u nutq madaniyati sohasining xizmatlarini inkor etmaydi. Binobarin, me'yor muammolari hamisha ushbu sohaning tadqiqot obyekti bo'lib qolaveradi. Nutq madaniyati tilda ma'lum me'yorda keltirilgan til birliklarining nutqda qo'llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me'yorga amal qilishni ma'lum ma'noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, kamchiliklarni tugatishning eng ma'qul yo'llari ko'rsatib turiladi. "Nutq madaniyati keng miqyosdagi til tarbiyasini va ommaiy stilistik savodlilikni, boshqacha aytganda, so'zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tatbiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi" [11, 39-b.].

O'il elementlarining me'yorlashishidek uzluksiz jarayonda eskilik bilan yangilik o'rtasida kurash hamisha davom etadi. O'ilda yashab turgan so'z va iboralar ularning o'miga kelayotgan yangilariga osonlikcha o'mini bo'shatib bema'iydi. Ma'lum muddat ular teng darajada, parallel qo'llanilishi va vaqtlar o'tishi bilangina o'mini bo'shatib berishi mumkin.

Ba'zan buning aksi ham kuzatiladi. Bunday birliklar orasida til tizimiga to'g'ri kelmaydigan, tasodifiylari uchrab qolishi, omma o'rtasida me'yorlashmasdan, adabiy til doirasining tashqarisida qolib ketishi ham mumkin.

Shu tariqa amaldagi me'yor va yangilik o'rtasida doimiy kurash davom etadi. "Biz yangi me'yorlarning grammatika va lug'atlarda qoidalashtirilishi (kodifikatsiya) va joylashish vaqtini qayd qilishimiz mumkin, – deb yozadi V.A. Iskovich. – Ammo eski me'yorni yangisining siqib chiqarishi uzoq

va ko'p bosqichli jarayondir. Yangi birlik adabiy qo'llanishning tashqarisida – jonli so'zlashuvda, kasb-hunarga oid va kundalik maishiy nutqda paydo bo'lib, faqat asta-sekinlik bilangina adabiy tildan o'rin oladi" [8, 47–48-b.].

Xuddi mana shu eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurash va bu kurashda tildagi me'yoriy ko'rinishlarning tanlana borishi jarayonida adabiy til shakllanib boradi. O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalardan, jargonlardan, oddiy so'zlashuv tilidan, umuman xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi.

Garchi umumxalq tilining hamma ko'rinishlarida, barcha til jamoalarida o'ziga xos tarzda amal qiladigan me'yorlar mavjud bo'lsa ham kodifikatsiyalashtirilgan, ya'ni ma'lum qoidalarga kiritilgan me'yorlar faqat adabiy tilga xos xususiyatdir. "Faqat adabiy tildagina, – deydi V.A. Iskovich, – qanday gapirish va qanday gapirmaslik; me'yoriy grammatikalarda, lug'atlarda, ma'lumotnomalarda qayd etilgan; maktablarda o'rganiladigan qoida va ko'rsatmalar amal qiladi". [8, 8-b.]. Shuning uchun ham adabiy tilning umumxalq tilidan farq qiluvchi tomoni unda yagona me'yorning qat'iy amal qilishi hisoblanadi.

Öilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jumalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jumalistlarimizning xizmatlari katta bo'ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko'pgina yo'nalishlari bo'yicha qat'iy me'yorlar belgilandi, ona tilimiz rivojiga oid yangi qoidalar va qarorlar inobatga olingan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko'pgina munozarali masalalar o'zining nazariy asosiga qo'yildi.

Ammo adabiy til muntazam taraqqiyot va takomillashuv jarayonini boshidan kechirar ekan, bu jarayonni faqatgina soʻz ustalarining xizmatlariga bogʻlab qoʻyish ham toʻgʻri boʻlmaydi. Shu oʻrinda A.I. Yefimovning "Agar adabiy til tarixan taraqqiy etgan, oʻzaro hamkorlikda boʻlgan va boʻlib kelayotgan uslublarning murakkab tizimi hisoblanar ekan, unda alohida bir kishining rolini ular orasidagi maʼlum bir uslubning ishlanuvi doirasida eʼtirof etish mumkin" [7, 7-b.] degan fikrini esga olishimiz lozim. Olimning taʼkidlashicha, adabiy qayta ishlash (binobarin, meʼyorlashtirish—mualliflar) umumxalq tilining juda katta zahirasidan nisbatan yorqin, hayotiy va tipik nutqiy vositalarni tanlab olish va ijodiy boyitishdan iboratdir.

Soʻz ustalari, ijodkorlar adabiy tilning boyishiga, undagi ifoda imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilsa, tanlangan ushbu til boyliklarining adabiy nutqda mustahkamlanishida jamiyatdagi yana bir katta kuch—ziyolilar, ayniqsa, oʻqituvchilar yordamga keladi. "Aynan shu maktab, —deydi Ò. A. Degtereva, —soʻz ustalari tomonidan koʻproq umumiy, kamroq individual nutqiy vositalarni tilda mustahkamlaydi, ularni adabiy nutq meʼyorlariga aylantiradi, avloddan-avlodga oʻtishini taʼminlaydi. Bironta yozuvchi, bironta siyosiy va ilmiy asarlar muallifi, bironta notiqlik sanʼatining dahosi u yoki bu maʼnoda nutqiy madaniyat tayyorgarligining maktab bosqichini chetlab oʻtgan emas" [6, 170-b.].

Òil birliklarining adabiy shaklda meʼyorlashuvida shoir va yozuvchilar ijodi namunalari koʻrinishidagi badiiy adabiyotning oʻmi ham alohida. Ayni paytda, badiiy adabiyot tilidagi meʼyorni belgilashning oʻzi murakkab vazifa ekanligini taʼkidlash lozim. Chunki badiiy matnda ijodkor niyati, oʻy-xayoliga bogʻliq ravishda adabiy meʼyor doirasidan tashqarida boʻlgan til shakllari ishlatilishi ham mumkin.

Ammo gap shundaki, bu meʼyordan tashqarida boʻlgan holatlar badiiy-estetik jihatdan oʻzini oqlaydigan, kitobxon tomonidan tushunarli va qabul qilinadigan boʻlishi lozim.

Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar oʻz fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, favqulodda original ifodalarda berishga intiladilar. Bu yoʻlda ular yangi soʻz va iboralar yaratadilar. Yaratilgan birliklar oʻsha matnning oʻzida qolib ketaverishi, omalashmasligi, adabiy tildan oʻrin

olmasligi, bir so'z bilan aytganda, tilda me'yorlashmasligi mumkin. Ularning me'yorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi.

Ammo bir narsa ravshanki, bu birliklar o'zi qo'llangan matnda badiiyat uchun, obrazli tasvir va ifoda uchun xizmat qiladi. Shunday ekan ularni, bir uslub doirasida me'yoriy deb hisoblashga asosimiz bo'ladi. Adabiy asarlardan namunalar keltiramiz: *Shovillaydi tun bo'yi shamol. Qaldirg'ochlar uchun larzakor* (A.Oripov. Shovilladi tun.), *lekin faqirga eng ulug' tuyulgan fazilatlarini – Hazrat Mirning iste'dodshunosliklari-yu, zakovatparvarliklari* edi (P.Qodirov. Yulduzli tunlar), *Ammo samo o'g'li yashinvor, Oashlanmasdan ohuga yovqur, Changalidan ketgandi mador, Ko'zlarida so'ngan edi nur* (O.Matjon. Aks-sado) kabi.

Lekin badiiy adabiyot matnida ba'zan boshqa manzaraga ham duch kelib qolamiz. Olloyor Begaliyev "Yo'qolgan tabassum" hajviy hikoyasida (Sharq yulduzi, 1988,7) qo'llagan ayrim so'z va iboralarni til me'yori va mantiq me'yori nuqtai nazaridan qanday tushunish lozimligiga o'quvchi qiynaladi. Jumladan hikoyada shunday ibora va jumlar bor : *tabassumni tashlab kirmoq; tabassumini katta-kichik, qalin va yupqa, bo'yalgan va tabiiy, samimiy va g'arazli tabassumlarni tartibsiz qalashib yotgan kotibaning stoli ustiga tashlab ketmoq; tabassumlarini qabulxonada qoldirmoq; tabassumidan ayrilmoq; mo'jaz tabassum; tabassumini yechib-kiyib yurmoq; tabassumi bilan kirmoq; tabassumidan ayrilmay o'tirmoq; tabassumini uyiga tashlab kelmoq; tabassumini supurib, o'raga tashlab kelmoq; tabassumlarini o'z joyiga qo'ndirmoq; o'z tabassumini olish uchun kotibaning stoliga engashmoq; tepkilangan tabassumini bukilib olmoq; tabassumining changini qoqmoq; tabassumini joyiga o'rnatmoq; elliginchi razmer tabassum; yangi tabassum; barkashdek yuzidagi qovunning tilimini eslatuvchi tabassum; baxtsiz tabassum; kichkina tabassumni kattalashtirmoq; o'z tabassumiga tikilmoq; tabassumli kulishni o'rganmoq* kabilar.

Bu iboralar va jumladan tabassumning nima ekanligini bila olmay qolasan kishi. Hikoyani kulgili chiqarish maqsadida tasvirni bu qadar bachkanalashtirib yuborish asarni badiiyatdan ancha olislashtirib yuboradi.

L.V.Sherba me'yordan chekinmagan yozuvchining bo'lmasligi, chekinilmasa asarning zerikarli bo'lishi mumkinligi haqida

yozib, "insonda me'yorni his qilish xususiyati tarbiyalangan bo'lsa, u yaxshi yozuvchilardagi asosli chekinishlarni butun go'zalligi bilan his qila boshlaydi", deb ta'kidlagan edi. [12, 10-b.].

Öildagi birliklar va hodisalarning reallashuvi, mustahkamlanuvi hamda me'yorlashuvida yozuvning xizmati katta bo'lib kelayotganligi shubhasiz. Nafaqat tilning me'yorlashuvi, balki dunyo xalqlari taraqqiyotida ham yozuvning o'rmini chetlab o'tib bo'lmaydi. Zero, har bir xalq, millat sivilizatsiyasi u yaratgan yoki foydalangan yozuvga ham bog'liq.

O'zbek davlatchiligining shakllanishi hamda xalqimizning dunyo fani va madaniyatida, binobarin, til va nutq madaniyatida tutgan o'rni, egallagan mavqei haqida so'z yuritganda bu xalqning necha ming yillar davomida foydalanib kelgan oromiy, yunon, karoshta, sug'd, xorazm, kushon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uyg'ur, arab, lotin, rus (kirillitsa) yozuvlarini va yana lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tayotganligimizni eslash kifoya. Shunday ekan, o'zbek adabiy tilining shakllanishi, shubhasiz, o'zbek xalqi asrlar davomida foydalanib kelgan yozuv madaniyatining takomili hamdir.

Öil tadqiqotchilarining tasdiqlashicha, davlatchilik darajasida, ya'ni rasmiy muomalada tildan foydalanish uning me'yorlashuvini, binobarin, adabiy tilning shakllanuvini tezlashtirgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, qayerda davlatchilik taraqqiy etgan, mustahkamlangan va bu davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan va rivojlangan bo'lsa, shu yerda tilning me'yorlashuvi va madaniylashuvi ham tezroq analga oshgan. Xirbi ana shu fikmi dunyo sivilizatsiyasiga o'zlarining munosib hissasini qo'shgan xalqlarning badiiy va ilmiy tafakkuri haqida aytish mumkin.

Darhaqiqat, davlat olib borgan ijtimoiy siyosatning til rivoji va uning me'yorlashuviga ta'siri sezilarli bo'lishi mumkin. Buni sobiq Ittifoq hududida yashovchi xalqlar tillariga bo'lgan munosabatdan ham anglasak bo'ladi. "Rus tili – ikkinchi ona tilimiz " degan sun'iy shior bir asrga yaqin vaqt mobaynida asta-sekinlik bilan tilimizga rus yoki u orqali boshqa tillardan so'z qabul qilish va ularning me'yorlashib borishini ta'minladi. Biz hech ikkilanmasdan, xuddi shunday bo'lishi kerakdek, **absolyut, avangard, avantyura, avariya, avtobi-ogرافيya, avtonom, avtor, agitator, agressiv, agressor, ak-**

tiv, aktual, alfavit, alyans, amnistiya, anonim, arbitr, aristokrat, aristokratiya, arsenal, arxaik, ataka, attestat, auditoriya, aforizm singari so'zlarni qo'llayverdik va ularni shunday qo'llashga ko'nikdik. Ularning tilimizda muqobillari yo'qnikan deb o'ylab ko'rmadik. Oo'g'risi, bunga imkon ham, umumiy oqimdan chetga chiqishning iloji ham yo'q edi. Loqaydligimiz esa bunga ko'maklashdi.

Rus tilining tazyiqi kuchayib borgan sari, asta-sekinlik bilan, o'zimiz sezmaganda holda o'z so'zlarimiz va ifoda usullarimizdan voz kecha boshladik. *O'nta sigir, o'nta qo'y* deyish mumkin bo'lgani holda *o'n bosh qo'y, o'n bosh sigir, o'n bosh qoramol* deb ishlata boshladik. Chunki ba'zi mutaxassislarimizga bosh qotirib, tilimizda mavjud bo'lgan so'z va iboralarni axtarib o'tirishdan ko'ra rus tilida yozilgan ayrim birliklarni so'zma-so'z tarjima qilib qo'ya qolish oson tuyuldi. Bu ruscha matnlarda esa "desyat golov ovets", "desyat golov korov" deb yozilgan. Shu darajaga borib yetdikki, tilimizdagi oddiy *sovliq, qoramol, uloq* so'zlarini unuta boshladik. Ularni rus tilidan kalkalab, *ona qo'y (ovsematok), yirik shoxli qoramol (krupniy rogatiy skot), mayda shoxli mol (melkiy rogatiy skot)* tarzida ishlatishdan tortinmadik. Achinarlisi shu bo'ldiki, qishloqlik oddiy o'zbek chorvadorlarimizning, cho'ponu molboqarlarimizning o'zlari ham gazeta yoki radiodan muxbir kelib suhbatlashganda shunday deb gapiradigan bo'ldilar.

O'zbek tiliga chetdan kirib kelgan birliklarning me'yorlashish sabablarini shu tarzda angelaydigan bo'lsak, uning lug'at tarkibidagi grekcha-yunoncha, mo'g'ulcha, ayniqsa, arabcha so'zlarning paydo bo'lish omillarini ham to'g'ri tushunamiz. Xayriyatki, mustaqilligimizni qo'lga kiritib, kamchiliklardan asta-sekinlik bilan qutulib borayapmiz.

Shunday qilib, o'zbek adabiy tilining qanchalik me'yorga keltirilganligi va unga qay darajada amal qilinishi umummilliy o'zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan sanalar ekan, bu muammo bilan shug'ullanish ziyolilar, xususan tilshunoslarning bundan keyin shug'ullanishi va hal qilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifasi bo'lib qolaveradi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Quyidagi matnni leksik-grammatik tahlil qiling, qo'llanishi noto'g'ri deb hisoblangan so'z va iboralarni ularning sinonimlari

bilan almashtiring: 1. Hali amalga oshiradigan ishlarimiz ko'p. 1-maktabning tevarak atrofini tartibga keltirish, "Qipchoq" uchastkasidagi meʼd punktni rayon bo'yicha tajriba o'rganish meʼd punktiga aylantirishimiz, uch gektar yerda mehnatkashlarning hordiq chiqaradigan manzilgohi – bog' tashkil etishimiz darkor. 2. Yangi uch yuz ming kilovatt quvvatli energetika bloki shu tariqa plandan ildanroq ishlay boshladi. 3. Bemor o'z badanida g'udda-g'udda shish paydo bo'lganidan, yuzi va ko'z-qovoqlari salqiganidan, dili o'ynab ketayotganidan shikoyat qila boshladi. 4. G'o'zanni yashnataman, uning bejirim rivojlanishini ta'minlayman.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. "Nutq madaniyati" deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq madaniyati qoidalarini o'rganish nima uchun kerak?
3. Nutq madaniyatiga rioya qilish nimalarni talab etadi?
4. Savodxonlik nimalarga asoslanishini tushuntiring.

A D A B I Y O T L A R

1. Karimov I.A. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, Ò., «O'zbekiston», 2000.
2. Abdusaidov A. Gazeta tili va adabiy norma, Samarqand, 1986.
3. Begmatov E. Nutq odobi. – «O'qituvchilar gazetasi», 1969 yil 25 may.
4. Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi // "Nutq madaniyatiga oid masalalar" to'plami., Ò., «Fan», 1973.
5. Begmatov E. "Nutq madaniyati" tushunchasi haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1975, 5-son.
6. Degtereva Ò.A. Stanovleniye norm literaturnogo yazika, M., 1963.
7. Yefimov A.I. Istoriya russkogo literaturnogo yazika. Kurs leksiy. – M., izd. MGU, 1954.
8. Iskovich V.A. Yazikovaya norma, M., 1968.
9. Karimov S., Jo'rayev Ò. O'zbek tili uslubiyati va nutq madaniyati. Bibliografik ko'rsatkich. – Samarqand, SamDUnashri, 2001.
10. Ojegov S.I. Leksikologiya. Leksikografiya. Kultura rechi. M., 1974.
11. Osnovi kulturi rechi. Xrestomatiya. – M., Visshaya shkola, 1984.
12. Sherba L.V. Spornie voprosi russkoy grammatiki // Russkiy yazik v shkole, 1939, '1.
13. Qo'ng'urov R., Karimov S. O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati. Bibliografik ko'rsatkich. – Samarqand, SamDUnashri, 1984.
14. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvatnomai sul-toniy // Sharq yulduzi, 1993, 3–4-sonlar.

3-MAVZU: Nutqning asosiy xususiyatlari

R e j a:

1. Nutqning to'g'riligi.
2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning mantiqiyliigi.
4. Nutqning tozaligi.
5. Nutqning ta'sirchanligi.

Öayanch so'z va iboralar: *nutq matnning tashqi ko'rinishi, namunaviy nutq, nutq oldiga qo'yiladigan talablar, to'g'rilik, mantiqiylik, chiroylilik, yorqinlik, ta'sirchanlik, jozibadorlik, obrazlilik, ortologiya, notiqlik san'ati, Sitseron, Dianis Galikamas, Husayn Voiz Koshifiy, har bir xususiyatga xos fonetik, leksik, grammatik jihatlar, urg'u, morfologik va sintaktik chalkashliklar, ta'sir, ruhiyat, tildan tashqari omil, mavzu, muvofiqlik, ruhiy vaziyat, auditoriya, bilim, savodxonlik, samimiyat, e'tibor, subyektiv mulohaza, nutq rejasi, nutqiy mashq.*

Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina tilga bog'liq hodisa sanalmasdan, shu bilan birga, ham ruhiy, ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun ham unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxoniga ko'zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo'lgan muddaoning to'liq borib yetishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo'yiladi. Bu talablar grammatik jihatdan nutqning to'g'ri bo'lishini, so'zlar ko'zlangan ma'noni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va ta'sirchan bo'lishini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi. Nutq haqidagi ta'limot – ortologiya ana shu sifatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Qadimgi davrlarda ham nutqning bu jihatlariga alohida e'tibor berib kelishgan. Masalan, rimliklar namunaviy nutqning sifatlarni o'zida aks ettiruvchi qoidalar ishlab chiqishgan. Mashhur notiq Sitseron fikricha, aniqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab o'ttirishning ham hojati yo'q. Ammo notiq tinglovchilarni o'ziga jalb qilishi uchun bu sifatlari hali

yetarli emas. Buning uchun nutq jozibador bo'lishi ham kerak. Notiq Dionis Galikarnas esa nutqda maqsadga muvofiqlikni muhim deb hisoblagan. XV–XVI asr O'rta Osiyo ma'naviyatining yirik vakili hisoblangan Mavlono Husayn Voiz Koshifiy ham "Futuvvatnomai sultoniy" asarining "O'zariqat ahlining odobi" deb nomlangan beshinchi bobida nutqning bu fazilatlarini haqida muhim tezislarni ilgari surgan.

Xullas, ma'naviyati va madaniyati shakllangan xalqlar uchun notiqlik san'ati inson faoliyatida muhim omillardan sanalgan hamda asosiy e'tiborni nutqning yaxshi bo'lishiga qaratgan o'z nazariyotchilari ham bo'lgan.

Agar nutq ma'lum vaziyat va shart-sharoitlarda amalga oshirilishi nazarga olinsa, bunda joy, vaqt, mavzu va muloqot jarayonining maqsadi kabi omillar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Aytilganlarni qisqacha umumlashtiradigan bo'lsak, nutqning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni belgilash lozim bo'ladi: to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ta'sirchanlik, obrazlilik, tushunarlilik va maqsadga muvofiqlik. Quyida ular haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi.

Nutqning to'g'riligi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uning bosh kommunikativ xususiyati hisoblanadi. Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi tomonlarning – so'zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi. Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo'lmaydi. "O'g'rilik deganda, – deb yozadi rus tilshunosi V.G.Kostomarov, – nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan me'yoringa qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, orfografik, lug'at va grammatik me'yorlarini egallashni tushunish lozim bo'ladi" (Kostomarov V.G. Kultura rechi i stil. – M., 1960, s.24). Demak, nutqning to'g'ri bo'lishi dastlab uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishi bo'lib hisoblanadi.

Nutqning to'g'ri bo'lishi asosan ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga amal qilishni taqozo qiladi. So'zlardagi ayrim bo'g'inlarning zarb bilan talaffuz qilinishi, ya'ni ularga urg'uning tushishi hamma tillarda ham bir xil xususiyatga ega emas. Masalan, rus tilida urg'u so'zlardagi har xil bo'g'inlarga tushishi mumkin bo'lgani holda, o'zbek tilida u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zga qo'shim-

chalar qo'shila borishi bilan urg'uning o'rni ham o'zgarib boraveradi. Masalan: *uy – uyi* – uyimi*z – uyimizda* – uyimizdagi* – uyimizdagila*r – uyimizdagilarda*n* kabi. Oalaffuzda ana shu me'yorni saqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo ba'zi hollarda so'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noning ham o'zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmasligimiz kerak. O'zbek tilida shunday hodisa kuzatiladi. Masalan, *olma* so'zini olaylik. Bu so'zni alohida, urg'usiz olib qaraganda uning qanday ma'no anglatayotganini bilish qiyin bo'ladi. Urg'u esa undagi ma'noning reallashuviga ko'maklashadi, ya'ni *o*лма* tarzida urg'u birinchi bo'g'inga tushganda harakat, *olma** tarzida oxirgi bo'g'inga tushganda esa mevaning bir turi ma'nosi anglashiladi. O'limizda bunday so'zlar anchagina: *qa*tlama – qatlama**, *ho*zir – hozi*r*, *yigitcha* – yigi*tcha*, *o'quvchi*miz – o'quvchimi*z*, *ya*ngi – yangi** kabi. So'zlardagi bu xususiyatlarni farqlamasdan, urg'uni noto'g'ri qo'llash so'zlardagi ma'noning buzilishiga olib keladi. So'zlar talaffuzidagi bu kabi holatlarga, ayniqsa, maorif va madaniyat xodimlari e'tibor berishlari va boshqalarga o'mak bo'lishlari lozim.

Biz hozir urg'uning so'zlardagi qaysi bo'g'inlarga tushishi bilan ma'noning farqlanishi mumkinligini ko'rdik. Shu holat gaplar doirasida ham kuzatiladi. Gap tarkibidagi so'zlarni alohida urg'u bilan qo'llash ham gap mazmunining va ottenkasining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, *men choy ichdim* gapida kim ichganligi, nima ichganligi yoki nima ish qilinganligi nazarga olinib, gapdagi so'zlarning har uchallasidan biriga urg'u tushadi: *men choy ichdim* (boshqa kishi emas), *men choy ichdim* (boshqa narsani emas), *men choy ichdim* (ichmadim emas). Bunday paytlarda mantiqiy urg'u har bir so'zdagi ma'noni ta'kidlash uchun zarur. Ammo shunday holatlar ham bo'ladiki, bo'g'in urg'usida bo'lgani kabi so'z urg'usini ham to'g'ri ishlata bilmaslik ma'noning buzilishiga olib keladi. Masalan, *Onasiz bola o'ynamas* gapini olib ko'raylik. *Onasi yonida bo'lmagan bola o'ynamaydi* deyilayaptimi yoki onasi bo'lmagan bola haqida fikr yuritilayaptimi – bu tinglovchi yoki o'quvchiga qorong'i bo'lib qoladi. Bu bahsga faqat so'zga tushgan urg'u aniqlik kirita oladi. Urg'u *onasiz* so'ziga tushsa birinchi ma'no, *bola* so'ziga tushsa, ikkinchi ma'no anglashiladi. Demak, nutq jarayonida ma'noni to'g'ri anglatish uchun so'zdagi bo'g'in,

gapdagi so'z urg'usining to'g'ri ishlatilishiga e'tibor qilishimiz lozim bo'ladi.

Nutq qurilishining grammatik shakllarini farqlay olish, so'zlarni mazmuniy bog'lanishlariga qarab joylashtirish grammatik me'yorlarni belgilar ekan, nutqning to'g'ri ifodalanishi uchun gap tuzish qoidalarini o'zlashtirish, o'zak va qo'shimchalar o'rtasidagi munosabatlarni, ega-kesim mosligini, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish yo'llarini yaxshi anglash lozim bo'ladi. Aks holda nutqda kamchilik ro'y beradi. Misol: *Alfavitimizga qo'shimcha harflar kiritish yoki chiqarish bilan nutq madaniyatimizni oshirish uchun imkoniyat yaratilmay, balki nutq madaniyatimiz takomillashuvida chalkashlik sodir bo'lishi **mumkin emasmi?*** (Gazetadan).

Nutq jarayonida morfologik va sintaktik chalkashliklar tez-tez uchrab turadi. Qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalarining farqlanmasdan ishlatilishi bunga misol bo'la oladi. Abdulla Qahhor bu holatdan "San'atkor" hikoyasida asar qahramonining savodsizligini fosh etishda foydalangan: *Pojarni **gurgutni yerga tashlamang** dedi, rejesserimiz esa **gugurtning yerga tashamang** dedi. Qanday chiroylik! Pojarnimi, Pojarningmi? Shoshma, nima uchun pojarni? Pojarni, albatta!*

Kichkina bir parchada nutqiy buzilishlar anchagina: ***gurgutni-gurgutni-gurgutning, tashlamang-tashamang, chiroyli-chiroylik, pojarniy-pojarni-pojarning*** kabi. Ular nafaqat so'z qo'llash, shu bilan birga, qo'shimchalarni (***-ni -ning, -li -lik***, hatto ***pojarni*** so'zini ham o'zbekcha anglab, tilimizga moslashgan ***-niy*** o'mida ***-ni*** va ***-ning*** ni qo'llash) buzib ishlatish natijasida sodir bo'lgan.

Darhaqiqat, nutqda sifat yasovchi ***-li*** va ***-lik*** qo'shimchalari ham ba'zan farqlanmayapti: ***xorazmlik paxtakorlar - xorazmli paxtakorlar*** yoki ***guruchli ovqat - guruchlik ovqat***.

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga qo'shilib, orttima daraja hosil qiluvchi ***-kaz*** va ***-qaz*** qo'shimchalari ham og'zaki nutqda ko'pincha farqlanmayapti: ***elektr liniyalari o'tqazish - daraxt ko'chatlari o'tkazish***.

O'zbek tilida ko'plik ma'nosini ifodalashning yo'llaridan biri ***-lar*** qo'shimchasi ekanligi ma'lum. Shu bilan birga, bu qo'shimchani ko'plik doirasidan chiqib, asosan ot va fe'llarga qo'shilganda hurmat, kinoya, piching, noaniqlik,

kuchaytirish, takrorlash, ta'kid, predmetning turi, unumlashtirish, so'zlovchi munosabatini alohida bildirish singari turli xil ma'nolarni ifodalashi uning grammatik-uslubiy imkoniyatlarining kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Garchi qo'shimchani bu kabi ma'nolarni anglatish jarayonidagi so'zlarga qo'shilish tarzi morfologik me'yorning buzilishi sanalsa-da, uni uslubiy me'yorning buzilishi deb bo'lmaydi: **tillar, yuraklar, jigalar, burunlar, boshlar, suvlar, qonlar, sutlar, saroblar, barglar, yo'qlar, (ketmaydimi) chiriblar** kabi.

Shunday holatlarga ham duch kelamizki, uning ayrim otlarga qo'shilishida go'yo morfologik me'yor buzilmaganday ko'rinsada, uslubiy me'yorga jiddiy putur yetgani seziladi: **dadamlar keldilar**. — **lar** ning fe'lga qo'shilishining o'ziyoq hurmat ma'nosini bildiradi. Ammo negadir keyingi paytlarda, ayniqsa so'zlashuv nutqida bu qo'shimchani **dada** so'ziga qo'shib ishlatish kuchayib bormoqda. Unga mana bunday holatgina sabab bo'lishi mumkin: Eshik ochilib, kirib kelgan odamning kimligini bilish maqsadida yangi oila qurgan yigit kelinchagidan: — *Kim keldi?* — deb so'raganida — *Dadamlar*, — deb javob berishi kabilar.

Hargalay, bu o'rinda **-lar** ning hurmat bildirishiga nutqiy vaziyat nuqtai nazaridan baho berish to'g'ri bo'ladi. (Ilmiy adabiyotlarda "Hurmat ma'nosini ifodalovchi — **lar** alohida affiks deb, son kategoriyasi va egalik kategoriyasi sistemasidan tashqarida turuvchi mustaqil forma deb qaralishi lozim" degan fikrlar ham bor. (Q a r a n g: O'zbek tili grammatikasi, 1-tom, . Ò., 1975, 187- bet).

Kelinchakning yoki boshqa bir farzandning javobida birgina **dadamlar** so'zi ishlatilganda u hurmat ma'nosini o'z zimmasiga olar, ammo **dadamlar keldilar** gapidagi **dadamlar** so'zi tarkibidagi **-lar** ga me'yorning va bundan kelib chiqadigan mantiqning buzilishi deb qaralishi to'g'ri bo'ladi. Chunki diqqat qilgan odam **dadamlar** so'zidan gapiruvchining bir necha dadasi borligi ma'nosini tushunishi ham mumkin.

Afsuski, O'zbekiston televideniyesi ko'rsatuvlarida ayrim jurnalistlarimiz qo'shimchadagi bu noziklikni ba'zan payqamasdan, suhbatdoshlarini teletomoshabinlarga tanishtirayotganlarida bir kishiga nisbatan ham **ular, bular** so'zlarini (hatto **ula, bula** shaklida) qo'llashib, "hurmat bildirishmoqda". Yozuvchi Said Ahmad esa **ular, bular** o'rnida **u kishi** jumlasini qo'llaydi va ko'zda tutilgan ma'noni to'li-

g'icha saqlab qoladi: *Ammo G'afur aka yozishga shoshilmasdi. Sababini so'raganimda, u kishi shunday deb javob bergan edilar* (Nazm chorrahasida).

Yana bir holatga e'tibor beraylik. Fe'llarga qo'shilganda - **lar** qo'shimchasi hurmat yoki boshqa ma'nolarni anglatar ekan, uni mana bu misoldagidek ishlatish ham me'yorning, binobarin, mantiqning buzilganligi deb qaralishi kerak: *Intellektual so'zlar umumiste'moldagi leksikaga xos bo'lganliklaridan*, har qanday janrda **ishlatilaveradilar** va stilistik jihatdan chegaralannagan **bo'ladilar**. Shunga ko'ra ularni stilistik neytral bo'lgan leksika deb ham ataydilar (A.Shomaqsudov). Misoldagi **ularni, ataydilar** so'zlari haqida bu gapni aytib bo'lmaydi. Ular grammatik-uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llangan.

Nutqda sintaktik me'yorlarning buzilishi ham kuzatiladi. Shukrullo, Mirmuhsin, Òurob Òo'la, Po'lat Mo'min asarlari sintaksisini tahlil qilgan F. Is'hoqov bu buzilishlarni tanqid qilib, quyidagi misollarni keltiradi: so'z tartibining buzilishi: **Otadek farzandiga kim kuyar axir, / O, naqadar og'ir farzandning dog'i** (Shukrullo), **G'alvirakning o'zi xunuk, lekin mag'zi soz bo'lur, / Pistaning ham qattig'idan ochiq og'zi soz bo'lur** (Shukrullo); ega-kesim nomuvofiqligi: **Nima yetishmasdi? Yetishmasdi faqat / Mangu bahor olib keluvchi bizlar** (Mirmuhsin). F. Is'hoqov shoir Òurob Òo'la ijodida, hatto uning prozaik asarlarida inversiyaning haddan tashqari, cheklamagan darajada ko'p ishlatilishini achinib gapiradi. Ayrim namunalar: *Mana kim bo'lsa, deydi farzandim inson. Domla o'ylab turib, bu "Sadrash" bo'lsin dedi, bo'lmasa. O'shanda o'sha shoir ukrain tilida "Pushkin va chaqmoq" degan she'r o'qib ketdi, yodaki birdaniga* (Is'hoqov F. E'tiqodimiz ham bor, e'tirozlarimiz ham // "Nutq madaniyatiga oid masalalar" to'plami, Ò., 1973, 112-119-b.).

Òo'g'ri, poetik sintaksisda inversiya me'yoriy hodisa sanaladi, ammo unga murojaat qilishda ham andisha kerak. Gapdagi har qanday o'rin almashtirishlarni ham inversiya deyaverish ma'qul bo'lmaydi.

Ma'noning to'g'ri, maqsadga muvofiq ifoda etilishida changning ham xizmati katta. So'zlarga qaysi yo'sinda urg'u berilishiga qarab ma'no ottenkalari o'zgarib borishi mumkin. Masalan, nutq jarayonida **keling** so'zidagi samimiyat, piching, masxaralash, norozilik kabi ottenkalar faqat chang yordamidagina reallashadi.

Xullas, ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni joy-joyida ishlatish, nutqni to'g'ri tuzishga erishish, har bir til birligini o'rni qo'yib talaffuz qilish nutq madaniyatining asosiy talablaridan sanaladi.

Nutqning aniqligi. Aniqlik ham nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan biridir. Agar to'g'rilik nutqning yuzaga kelishida faqat til omili, zaruriy belgisi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiladigan, tildan tashqarida bo'lgan omillarni ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Bunda dastlab til va tafakkur munosabati turadi. Chunki, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi mutanosiblik va uning nutqda aks etishi ana shu aniqlikning xuddi o'zidir.

Boshqacha aytganda, tabiat va jamiyatdagi turli voqea-hodisalar, predmetlar, olamning jug'rofiy tuzilishi, kishilarning his-tuyg'ulari, harakat va holatlari har bir tilda o'z atamasiga-nomiga ega. Ana shu atamalar yordamida bu hodisalar inson tomonidan anglanadi, tushuniladi, idrok qilinadi va fikr almashinadi. Shuning uchun ham, nutq oldiga u aniq bo'lishi kerak deb talab qo'yilganda til birligi hamda u ifodalayotgan tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi muvofiqlik tushuniladi. Masalaga shu talablardan kelib chiqib yondoshiladigan bo'lsa, nutq aniqligi nutq madaniyati va mas'uliyatining g'oyat zarur sharti bo'lib qoladi. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzayev, Ög'ay Murod va boshqa ko'plab adiblarimizning tilga bo'lgan munosabatlarini ana shu mas'uliyat samarasi deb tushunish to'g'ri bo'ladi.

Bu jihatdan A. Qahhorning ijodi hamda til mahorati haqidagi ayrim mulohazalari diqqatga sazovordir. Ma'ruf Hakimning "Qahramonning o'limi" hikoyasini tahlil qilgan yozuvchi *Botir beliga qator beshta bomba qistirib, qo'lida bomba ushlagan holda ko'chaga yugurdi* jumllaridagi *bomba* so'zining noto'g'ri qo'llanganligini, yozuvchining bomba va granatani farqlamasligini tanqid qiladi. A. Qahhor tahlilda davom etib, hikoyadan yana misollar keltiradi: *Botir "Sulton akaning oyoqlarini silaganda qo'lga yelimga o'xshagan bir narsa yopishganligini sezdi: qorong'ida nima ekanligini bilolmay qoldi". Shu yerning o'zida "Jenya yigitning ko'ziga uzoq tikilib qoldi". Qo'lga tekkan qon ko'rimagan qorong'ida ko'z ko'rinadimi, deydi yozuvchi. U yana yozadi: "Adabiyotda yolg'orning katta-kichigi yo'q. Hammasi ham baravar*

zarardir. "Uchrashuv" (M.Hakim)da mana bunday yolg'on gap bor: "Ahmad osmonga qaradi. Haqiqatan ko'kni bulut bosgan. Birona ham yulduz yo'q edi!" Shundan besh satr pastda: "Ahmad osmonga nazar tashladi. Haqiqatan uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlarning ko'rinishi xunuk edi". Uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlarni ko'rish uchun havo qisman bo'lsa ham ochiq bo'lishi kerak. Bu yerda yo "ko'kni bulut bosgan"i, birona ham yulduz yo'qligi yolg'on yoki "uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlar" to'g'risidagi gap behuda (Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. Ò., "Yosh gvardiya" 1968, 44-46-betlar).

O'zbek tilining aloqa vazifasi doirasida, yozuvchilik va jurnalistlik faoliyatida, o'qish-o'qitish jarayonida, millat vakillarining kundalik muloqot jarayonida bunday kamchiliklar uchrab turibdi. Òildagi bu nuqsonni V.V.Vinogradov ham o'z vaqtida qayd qilgan edi: "uchinchi keng tarqalgan stilistik kasallik—bu so'zning voqelikka mos kelmasligidir, so'zning predmetdan uzilib qolishi—bu buzilish, hatto ba'zan uning predmet (asosiy) ma'nosini yo'q qilishidir. Bu kasallik tasvirlanayotgan hayot bilan tanish bo'lmaslikdan, yozuvchilar o'zlari chizayotgan narsa va hodisalarni yaxshi bilmasligidan kelib chiqadi" (Vinogradov V.V. Zametki o yazike sovetskix xudojestvennix proizvedeniy // V kn.: Voprosi kulturi rechi.—M.,1955, s.63).

Shunday qilib, aniqlik—bu so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mos va muvofiq kelishidir.

Aniqlikni boshqacha tushunish ham mumkin. Bu so'z va uning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ma'nosi hamda uning nutqda qo'llanishi bilan muvofiq kelishidir (Golovin B.N. Osnovi kulturi rechi.—M.: Visshaya shkola, 1980, s.126).

Ko'rinadiki, aniqlik nutqning asosiy xususiyati sifatida, eng avvalo, til tizimidagi leksik daraja bilan bog'lanadi. "Nutq aniqligi" atamasi ostida voqelik va uning tildagi ifodasi bo'lgan leksik birlik—so'zlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik anglashiladi.

Xo'sh, qaysi til birligi namunaviy nutqning yaratilishiga ko'proq xizmat qiladi? Bu savolga sinonimlar, deb javob berish ma'qul bo'ladi. Chunki ular mazmunan bir-birlariga yaqin bo'lsa ham, ma'no ottenkalariga ko'ra farqlanadi. Ana shu ottenkalardagi farqlar ularni tanlab ishlatish imkoniyatini beradi. Masalan, *aniq, ochiq, yaqqol, ravshan, yorqin, oydin, ayon* sinonimlarini olib ko'raylik. Garchi ular umu-

miy ma'noda bir sinonimik qatorni tashkil qilishsa ham. Birining o'rnida ikkinchisini qo'llash hamma vaqt mumkin bo'lmaydi. *Aniq eshitdim* deyish to'g'ri bo'lgani holda *oydin eshitdim* deyish mumkin emas, *hamma narsa ayon*, *hamma narsa ravshan*, *hamma narsa aniq*, *hamma narsa oydin* deyish mumkin bo'lgani holda *hamma narsa yorqin* deb bo'lmaydi. Chunki asosan *aniq* eshitishga, *ochiq* va *oydin* tushunishga, *yaqqol* va *yorqin* ko'rish va eshitishga, *ravshan* ko'rish va tushunishga xos (Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izchli lug'ati. Ò., "O'qituvchi" 1974, 30-bet).

Bu kabi ma'no nozikliklarini payqamaslik ifodada g'alizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, **katta** va **uzun qadam qo'ymoq** va **qadam tashlamoq** juftliklarini olib qaraylik: *Bo'yi mendan kattaroq*, *o'zi sap-sariq* (O'.Hoshimov). Uzun-qisqalik va katta-kichiklik ikki xil o'lchov sanaladi. Birida ikki nuqta orasidagi masofa, ikkinchisida hajm o'lchanadi. Shuning uchun bo'yni katta deb bo'lmaydi. Uni baland yoki uzun deyish ma'qul. Yana: *Mustaqil hayotga qadam tashlayotgan yoshlarimiz nikohdan o'tishganlaridan keyin qishloq markazidagi yodgorlik poyiga hurmat-ehtiram bilan gulchambarlar qo'yadilar* ("Sharq tongi" gazetasi). O'qiganda ma'nodagi noziklik go'yo sezilmayotgandek tuyulsa ham, bu o'rinda **qadam qo'ymoq** iborasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki **qadam qo'ymoq** da harakatni endi boshlash ma'nosi mavjud, **qadam tashlamoq** esa harakatdagi bu chegarani ko'rsata olmaydi. Mana bu *Meni yangi ishga yo'rgaklagan hamqishloqlarim, shuningdek, ustoz Ma'rifat Rofiyevalar foydali maslahat va analiy yordamlarini mendan ayamay, kasbni o'zlashtirib olgunimcha madadkor bo'lib turdilar* misolidagi **yo'rgaklamoq** so'zi umuman noto'g'ri qo'llanilgan. U **o'rgatmoq**, **jalb qilmoq** ma'nolarini ham bera olmaydi, **ishga yo'rgaklamoq** deb ibora tuzib ham bo'lmaydi.

Ko'p ma'noli so'zlardagi ma'no nozikliklarini payqash ham nutq jarayonida aniqlikka xizmat qiladi. Zulfiya ijodidan misol keltiramiz. Shoira **simob** so'zining quyidagi ma'no ottenkalarini farqlagan: a) yaltiroqlik: **Simob** *to'lqinlari tutib osmonni*, / *Muttasil yong'irlar zeriktirsa ham*; b) tozalik, musaffolik: *Kuyini tinglab simobday chashma* / *Jilvalanib qildi karashma*; v) belgini kuchaytirish: **Oq simob rang bulutday siljib** / *Biz tomonga kelar qo'ylar galasi* kabi.

Ko'p ma'noli so'zlardagi ana shu nozikliklarni payqamaslik fikrining noaniq, ba'zan noto'g'ri ifodalanishiga olib kelishi mumkin. *Shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovut tobora qisqarayotir* ("Guliston" jurnali) misolida *qisqarayotir* so'zi maqsadni aniq ifoda eta olmaydi. Chunki bu so'z odatda uzunlik, miqdor va hajm o'lchoviga aloqador. O'afovut esa mavhum tushuncha bo'lib, unga nisbatan *kamaymoq* so'zini qo'llash ma'quldir.

Aniqlikni vazifaviy uslublar doirasida tushunish ham o'ziga xos. Masalan, u so'zlashuv uslubida vaziyatga bog'liq bo'ladi. Rasmiy uslubda esa, tildagi tayyor, shtamp holiday so'z va iboralardan foydalanishni taqozo qiladi. Ilmiy uslubda atama va uning ifodalanish aniqligi asosiy o'rinda turadi. Ommabop va badiiy uslublarda esa so'z va iboralar faqatgina badiiy-estetik vazifani bajarishdan tashqari yozuvchining maslagi, g'oyaviy maqsadiga mos bo'lishi va shunga xizmat qilishi lozim bo'ladi.

Ana shu sabablarga ko'ra so'z qo'llash aniqligining chegarasini belgilash bimuncha murakkab ish bo'lib, u tilni yaxshi bilishni va uning vazifaviy uslublar doirasida qo'llanish imkoniyatlarini o'rganishni taqozo qiladi.

Nutqning mantiqiyliqi. Nutqning mantiqiyliqi uning asosiy sifatleri – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikmi ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan unuman anglashilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Nutqni shakllantirishdagi e'tiborsizlik oqibatida ba'zan mantiqsizlik ham yuz beradi. Quyidagi misolga diqqat qilaylik: *Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajardilar* (gazetadan). Gapda so'zlarning tartibi to'g'ri bo'lmaganligi, *olti oylik* birikmasining *davlatga* so'zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur yetayapti, fikrni bayon qilishda xatolik yuz berayapti.

Nutqning mantiqiy bo'lishi so'zlovchi yoki yozuvchining tafakkur qobiliyati bilan bog'liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina til hodisasi sanalmasdan, tildan tashqarida bo'lgan omil sifatida ham qaraladi. Ya'ni bunda notiقدan tilni yaxshi bilish bilan birga, o'zi mulohaza yuritayotgan mavzu atrofida keng bilimga ega bo'lish ham talab qilinadi.

"Nutq madaniyati asoslari" asarining muallifi B.N.Golovnin mantiqiylikni ikki guruhga bo'lib—predmet va tushuncha mantiqiylikni tarzida o'rganishni tavsiya etgan edi. Predmet mantiqiylikni nutqdagi til elementlari bilan real voqealardagi predmet va hodisalarning mazmuniy aloqasi hamda munosabatidir. O'shuncha mantiqiylikni esa nutqda mantiqiy tafakkur qurilishi va uning til elementlari semantik aloqadorligida mantiqiy rivojlanishning aks etishidir, deydi u (145-bet).

Ko'rinadiki, so'zlarning o'zi ifodalayotgan predmet va hodisalarga mos ravishda fikrni aniq ifodalashi predmet mantiqiylikni bo'lsa, so'z birikmalarining, gaplarning, abzatslarning, hatto butun-butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga bo'ysundirilishi tushuncha mantiqiylikdir.

O'shuncha mantiqiylikni haqida aytilgan fikrdan xulosa chiqarish mumkinki, nutq mantiqiylikning asosiy lingvistik sharti—leksik-semantik va sintaktik me'yorga amal qilishdir.

So'zlarni bir-biriga mazmunan bog'lash, ular o'rtasidagi grammatik aloqani to'g'ri shakllantirish sintaktik me'yorga amal qilishning asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Mana bu misolda **kuy va raqs** so'zlarining diktor tomonidan uyg'un tarzda qo'llanib yuborilishi mantiqning buzilishiga olib kelgan: **Endi kuy va raqs** tinglab, dam oling (televideniya). Kuyning tinglash mumkin, ammo raqsni-chi? **Hammomda qatiq va shisha idishlar iste'mol qilish** man etiladi ("Mushtum" jurnali) misoli to'g'risida ham shu gapni aytish mumkin.

Ba'zan esa so'zlar tushirib qoldiriladi: **22-maktab bufet-chisi Oo'zi Ibrohimov bir kitobga 5 tiyindan qo'yib sotmoqda** ("Mushtum" jurnali). Kitobgami yoki kitobning narxigami? So'zlarni bunday tushirib qoldirishlar natijasida yuz beradigan metonimiya hodisasi hamma vaqt ham to'g'ri tushunilavermasligi mumkin: **Oyposh xola gorchichnik qo'yib bo'lib, ketmoqchi edi, Davron uni qo'yarda-qo'ymay choyga o'tqazdi** (M.Jaloliddinova).

Gapda so'zlar va birikmalar tartibining ham nutq mantiqiylikda ahamiyati katta. Masalan, **Suratga olingan akula quruqlikdagi sut emizuvchilarga o'xshab, tuxum qo'ymaydi, balki tirik bola tug'adi**. Ifoda aniqligi nuqtai nazaridan gap **Suratga olingan akula tuxum qo'ymaydi, balki quruqlikdagi sut emizuvchilarga o'xshab tirik bola tug'adi** tarzida tuzilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ko'r-ko'rona qilingan tarjimalar ham kulgili holatni yuzaga keltiradi: ***Erkak paypoqlar narxi 30 foizga arzonlashdi*** ("Mushtum" jurnali). Paypoqning erkak-urg'ochisi bo'lmasligini hamma biladi. Bunday qo'llanishni esa faqat nutqdagi e'tiborsizlik natijasi deb tushunish kerak. Quyidagi misol ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi: *Bugun O'shkentda nol daraja issiq bo'ladi* ("Mushtum" jurnali).

Mantiq talabiga ko'ra nutqda gaplar o'rtasida izchillik bo'lishi, ularning birida bayon etilgan fikr ikkinchisida davom ettirilishi lozim bo'ladi. Bu hol ma'lum bir fikrning tugashiga qadar davom etishi kerak. Gaplar o'rtasida fikriy izchillik yo'qolishi bilan mantiqiylikka ham putur yetishi mumkin. Misollar: *Redaksiyaga kelgan she'rlarni o'qib, bunisi yaxshi, bunisi yamon deyishga tilimiz bormaydi. Ularda avtorlarning nimadir demog'chi bo'lishayotgani sezilib turadi* ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi), *Visolingga yetishni azaldan jazm etardim, / Joziba yarashmish sizga shunchalar* (P.Mo'min).

A.Qahorning "Adabiyot muallimi" hikoyasidagi qahramon – "nafis adabiyot muallimi" Boqijon Baqoyevning nutqi bu o'rinda xarakterli misol bo'la oladi: – *Chexovmi? Himm, burjuaziya realizmi to'g'risida so'zlaganda eng avval uning obyektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo'ladi. O'urgan gapki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya'ni himm. Mukarram, tovuqqa moyak qo'ydingmi? Qo'yish kerak, bo'lmasa daydi bo'lib ketadi. O'avba, tovuqdan ahmoq jonivor yo'q – moyak qo'ysang tug'adi! Nima uchun moyak qo'ysang tug'adi? Xo'roz nima uchun saharda qichqiradi? Ajoyib psixologiya! Biologiya o'qiysizlami?*

Yozuvchi ana shunday nutq yordamida badiiy xarakter yaratadi. Shu o'rinda A.Qahorning "Palag'da gaplar" maqolasida aytilgan fikrlarni eslash o'rinli bo'ladi: "Uslubni buzadigan narsalardan biri mubolag'ani ishlata bilmaslikdir, mubolag'a qilishda jiddiy asarlarda qancha ehtiyot kerak bo'lsa, hajvda ham shunday bo'lishi kerak. Bir narsani anglatishda bo'lganidan bir oz bo'rttirib ko'rsatish mubolag'a bo'ladi. Biroq mubolag'ani qolipdan chiqarib yuborish har qanday asarni sovuq qilib yuboradi. "Qayg'uli kechalar"da "Ko'kada qizargan bulutni ko'rgach, bu mening ko'zimdanda oqqan qonning aksidir", "Ikki og'aynimni qo'ltiqqa qistirib yo'rg'alab qoldim"

(juda tez demoqchi bo'lsa kerak), "Novvoydan bir qadoq non olsam, ichidan bir kurak mix bilan ikkita olti gazlik arqon chiqdi". Mana bular juda qalbsiz mubolag'alar".

Yuqorida bir o'rinda ta'kidlab o'tganimizdek, matndagi abzatslar o'rtasida ham mantiqiy bog'lanish bo'lishi zarur. Odatda, ma'lum bir fikr tugab, ikkinchisi boshlangan joyda ular abzats bilan ajratiladi. Bu yerda fikr tugalligi deganda yaxlit fikr nazarda tutiladi va abzats umumiy matn mazmunining bir qismi sanaladi. O'ilda abzatslarni bir-biriga bog'laydigan ko'rinadiki, demak, xulosa qilganimizda, shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, boshqacha qilib aytganda, xullas singari so'z va birikmalar mavjud. Xuddi ana shu til birliklari bir abzats ichida ham fikrlarni bir-biriga bog'lashga, izchillikka xizmat qilishi mumkin. Misol: *Demak, adabiyot nazariyasi adabiy jarayonning tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlari, adabiy-badiiy tafakkur va uning muhim sohalari, chunonchi, obraz va obrazlilik, xarakter va tip, adabiy metodlar va janrlar, badiiy nutq uslub rang-barangligi kabi qator masalalarni atroflicha o'rganishga yordam beradi. Bugina emas. Adabiyot nazariyasi adabiyotning ijtimoiy ahamiyati, ya'ni jamiyat hayotida o'ynagan, o'ynayotgan va o'ynashi kerak bo'lgan roli, unga obyekt bo'lgan narsalarning sotsial mohiyati haqidagi, shuningdek, badiiy asarlarni tahlil qilish metodikasi va prinsiplari haqidagi fan hisoblanadi* (J.Hojimatov).

O'shuncha mantiqiyiligi alohida olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchillik bo'lishini taqozo qiladi. Ammo bu talabni nutqiy jarayonning hamma ko'rinishlarida ham o'rta qo'yib bo'lmaydi. Masalan, vazifaviy uslublarda, xususan ilmiy va badiiy nutq uslublarida bu talabga qanday amal qilinishini olib ko'raylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir qurilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo'lib, ular yagona bir halqaga birlashadi. Matnda bayon qilinayotgan fikrlar qat'iy izchillikda bayon qilinadi. Badiiy nutq qurilishi esa bir oz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelinadiyu, birdaniga uzilish yuz beradi va endi boshqa voqealar hikoya qilinib ketiladi. Bu narsa go'yo mantiqiy izchillikka putur yetkazganday ko'rinsa-da, aslida unday emas. Badiiy asarlarda, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng ko'lamlilik tasvir kompozitsiyasini ana shunday tuzishni

taqozo qiladi. Mantiqqa putur yetmaganligi bunday asarlarning oxirida ma'lum bo'ladi.

Badiiy asarlarning qurilishidagina emas, balki alohida olingan so'zlar o'rtasidagi logik-grammatik munosabatda ham izchillik buzilganday bo'lishi mumkin: **qayg'uli quvonch, ojiz jasorat, totli azob, buyuk ahmoqlik** kabi. Birikma tarkibidagi ma'nosi zid so'zlarning har birining ma'nosi saqlab qolingan holda yangi bir matniy ma'no kelib chiqadi va ular badiiy san'atlar doirasida oksyumoron deb ataladi. Yana:

Men-chi, u kun, ne so'z bilan bayon etayki,
O'z qabrimning tepasida o'zim turardim.
Dedim, falak nega meni shu holga solding,
Haddu poyon bormi alam, dardu sabringa.
O'zim **tirik mozor** bo'lib kelib turibman
Menga nasib etmagan shu sovuq qabringa.

(E.Vohidov)

Xulosa qilganimizda, mantiqiy nutq deganda yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutqni tushunamiz.

Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me'yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda shakllangan bo'lishi, turli g'ayriadabiy va g'ayriaxloqiy til elementlaridan xoli bo'lishi kerak. Bu masalaning til jihati bo'lib, nutqiy tozalikning tildan tashqari –paralingvistik jihatlari ham undan kam bo'lmagan ahamiyatga ega. Chunki u boy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo'lgan va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqeda mulqotda bo'layotgan o'zbek xalqining madaniy darajasiga mos bo'lishi lozim.

Xo'sh, nutqimizning toza bo'lishiga xalaqit berayotgan lingvistik elementlar qaysilar? Bular asosan dialektizmlar va varvarizmlardir. O'g'ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, busiz bo'lmaydi. Chunki badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar ma'lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Aytaylik, muallif milliy ruhni bermog'chi, asar qahramonining qayerlik ekanligiga ishora qilmoqchi yoki boshqa bir maqsadni ko'zlagan bo'lsin. Ana shunday paytlarda tilning

bu unsurlariga murojaat qilish hatto zarur. Masalan: **Yoshulli, saning qizing bunda gətirilmagan. Ova, yoshulli. San, manglayi qara badkirdor na sababdan mundoq yomon so'zlarni elga tarqatding** (Mirmuhsin). Ushbu misolda dialektizmlar hududiy ruhni (xorazm ruhini) berishga xizmat qilayotgani kabi quyidagi misolda varvarizmlar – chet so'zlar badiiy matnda xarakter yaratishda yozuvchiga ko'maklashgan : **Dubora yana bordi bir ishga shul, / So'kib –net, –dedi, kelma durrak, poshul!** (Muqimiy). Yoki H.H. Niyoziyning "Boy ila xizmatchi" dramasidagi qozi nutqini olaylik. U o'zining bilimsiz ekanligini yashirish uchun ataylab arabcha-forscha so'zlarni ishlatishga intiladi: **Qozi. Ayni hikmat so'zlaysiz! (G'ofirga) Hozirgi inoding ayni hamoqat!**

Dialektal so'zlarning badiiy adabiyotda o'mi bilan ishlatilishi faqatgina maqsadga muvofiq bo'lib qolmasdan, adabiy tilimizning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim elementlarning saqlanib qolishiga xizmat qilishi ham mumkin. Shuning uchun ham dialektizmlar va adabiy til me'yori doirasida me'yorni belgilash tilimizdagi mas'uliyatli masalalardan biri sanaladi.

Shevalarimizda shunday leksik birliklar mavjudki, ular adabiy tilimizga kirib ulgurmagan yoki shu holicha qolib ketgan. Bu kabi so'zlarning adabiy me'yori haqida nima deyish mumkin? A.Yu.Aliyev "O'zbekiston jumhuriyatining davlat tili haqidagi qonuni va o'zbek tili nutq madaniyati" nomli ma'ruzasida "Ayrim narsa va hodisalarning nomlari adabiy til va uning lug'atlarida uchramaydi. Lekin dialekt va shevalarda mavjud bo'ladi. Bunday vaqtda aniq narsa va hodisalarning nomlarini anglatuvchi so'z va atamalarni hech ikkilanmasdan shevalardan olib adabiy tilga kiritishimiz kerak", –degan fikrni aytib, uning tasdig'i sifatida quyidagi misollarni keltirgan edi: **cho'kkala (laganbardor), o'tik (o'tadigan joy), kechik (kechib o'tadigan joy), sarimsoq (go'dakning nomi go'yilguncha bo'lgan ismi), uzuchak (uchta bola tuqgan xotinning bolalari yoki go'yning go'zilari), madang (yog'ochdan qilingan eshik qulfi, tanba), qalang'i-qasang'i (yengiltabiat odam), o'mgan (ko'krak), arpabodiyon (ukrop turi), o'ymoq (angishvona)** singari. (Aliyev A.Yu. O'zbekiston jumhuriyatining davlat tili haqidagi qonuni va o'zbek tili nutq madaniyati // "O'zbek nutqi madaniyatining dolzarb muammolari" to'plami. Ò., "Fan", 1990, 8-bet.)

Öadqiqotchining aytgan fikrlariga qo'shilish mumkinu, keltirgan misollarini ma'qullab bo'lmaydi. Chunki **kechik, qalang'i-qasang'i, arxapodiyon, o'ymoq, o'mgan** so'zlari "O'zbek tilining imlo lug'ati"da bor, demak, allaqachon adabiy tilga qabul qilingan, me'yorlashgan. **O'tik** so'zi ham **o'tuv** va **o'tadigan joy** tarzida iste'molda. **Cho'kkala** so'zini adabiy tilga qabul qilganda ham endi uning **laganbardor** so'zini siqib chiqarishi qiyin. **Sarimsoq** so'zini balki o'ylab ko'rish mumkindir, ammo **madang** so'zini adabiy tilga olib kirib bo'lmaydi. U umumxalq tili mulki bo'lib qolaveradi, ammo ilmiy-texnika inqilobi ro'y bergan hozirgi zamonda yog'ochdan qilingan eshik qulfining-o'zi yo'q bo'lib ketgan narsaning nomini adabiy tilga olib kirishga hojat yo'q.

Öo'g'ri, umumxalq tilidagi ayrim so'zlar, haqiqatan ham adabiy tilga kirmasdan qolgan. Bu holni faqat lug'atlarni tuzuvchilarning kamchiligi yoki ana shunday so'z va tushunchalarning mavjudligidan xabardor emasligida deb baholanishi mumkin. Masalan, yangi tuqqan sigimning sutidan tayyorlangan taomning **kilagay/ gilagay/ galagay**, yangi tuqqan qo'y-echkning sutidan tayyorlangan taomning esa **qag'anoq/ /qog'onoq** deyilishi o'zbek tili vakillarining hammasiga, jumladan, tilshunoslug'atshunoslarning barchasiga ham ma'lum bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham "O'zbek tilining imlo lug'ati"ga bu so'zlarning ikkinchisi kirgan, birinchisi kirmasdan qolgan. Aslida o'zbeklarning chorvachilik bilan shug'ullanadigan qismi yoki uylarida sigir, qo'y, echki boqadigan aholi ana shu taomlarni tayyorlashadi va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Shunday ekan, bu so'zlarni faqat sheva so'zlari deb bir chetga surib qo'yib bo'lmaydi va ular adabiy tilga kirishga haqli. Shu ma'noda A.Yusupov keltirgan **to'tra / to'rta (sariyog', qaymoq quyqasi)** so'zini ham adabiy tilga kiritish mumkin. Bu kabi lingvistik birliklar turli kasblar va sohalarda kuzatiladi.

E'tirof etish kerakki, o'zbek tilidagi ko'p shevalilik sharoitida leksik me'yorlarni belgilashning o'ziga xos qiyinchiliklari ham bor. Har bir sheva vakilida ma'lum tushunchani ifodalaydigan so'zning tabiiy ravishda o'z shevasidagi variantidan foydalanishga moyillik seziladi. Bu holatni hatto ayrim sheva vakillari bo'lgan shoir va yozuvchilar ijodida ham kuzatish mumkin. Buning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor, albatta. Ijobiy tomoni – adibning, ya'ni sheva vakili bo'lgan ijodkorlarning sharofati

bilan ma'lum so'z adabiy tilga kirib qolib, me'yorlashishi mumkin. Agar bu birlik ko'pchilik tomonidan qabul qilinmasa, uni endi til leksik me'yoringing buzilishi deb qarash kerak.

Ijtimoiy muhitning tildan foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi tabiiy bir holdir. Kishilar o'z nutqlarida bilib-bilmay yoki e'tiborsizlik oqibatida boshqa til elementlaridan ham foydalanadilar. Boshqa millat vakillari bilan birgalikda yashash, mehnat qilish, ta'lim olish, xullas, muomala jarayonida shunday hollar yuz beradi.

Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish nutqda zaruriyatga ko'ra ulardan foydalanish salbiy hodisa emas. Ammo bunday so'zlar orasida varvarizm deb ataluvchi shunday bir qatlam mavjudki, ularni nutqda qo'llash-qo'llamaslik masalasiga adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish lozim.

Gap shundaki, varvarizm sifatida qaraladigan *nu, tak, vot, sovsem, voobshe, tolko, tolko tak, yestestvenno, ob'ya-zatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem bolee, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni* kabi so'z va birikmalarning o'zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud. Buning ustiga ular adabiy tilimizga kirgan emas. Demak, bu so'zlar o'zbek tili uchun me'yor emas. Ammo biz ularni, ijtimoiy muhit ta'siridan bo'lsa kerak albatta, farqiga bormasdan ishlataveramiz, nutqimizni nazorat qilmaymiz. Shu tarzda leksik me'yor ham, nutq ham buziladi.

Shuning uchun ham tilda varvarizmlarning ishlatilishini ijobiy hodisa sifatida emas, balki me'yorning buzilishi deb qarash va ularni nutqda qo'llamaslik lozim.

Ruscha so'z va iboralaming, sintaktik qurilishlaming tilimizdan juda sekinlik va qiyinchilik bilan chiqib ketayotganini ham tarixiy jarayon sifatida qabul qilishga to'g'ri keladi.

Öildagi kanselyarizm deb ataladigan rasmiy-idoraviy uslubga xos bo'lgan so'zlar ham nutqning tozaligiga hamisha xavf solib turadi. Ular rasmiy uslubda fikrni ixcham va mantiqiy ifodalashga juda qulay. Ilmiy uslubda ham tayyor jumlar, shablon iboralardan foydalaniladi. Ammo bunday so'z va iboralarni so'zlashuv va badiiy nutq uslubida ishlatish matnga putur yetkazishdan boshqa narsa emas. Bunga A.Qahorning "Nutq" hikoyasi qahramonining tabiiylik va samimiyatdan xoli bo'lgan

hamda shu yo'l bilan g'oyatda kuchli badiiy obrazni yuzaga keltirgan nutqi misol bo'la oladi. Parcha keltiramiz: *O'rtoq rafiqam! Ijzat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!* E'tibor beraylik: suhatda o'nlab yoki yuzlab kishi emas, ikki kishi – er va xotin ishtirok etayapti. Avval xotin bu gaplarni hazil deb o'ylaydi, "qiyqirib chapak chaladi". Ammo notiq jiddiy qiyofada so'zida davom etadi. *Birinchidan, ikkinchidan* deb oilada bir yil davomida yuz bergan yutuq-kamchiliklarni rasmiy ravishda sanab o'tadi va nutqni quyidagicha yakunlaydi: *-Lekin bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni a'lo darajada olib borayotganligimizga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas deb hisoblash mumkin. Shu bilan qisqacha so'zimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharafilar bilan qoplanajagiga to'la ishonch bildirishga ijzat bering!*

Notiq nutqini tugatgandan keyin yana asliga qaytadi. Xotini uning har bir so'zidan zavqlanadi, kuladi. Nima uchun notiq bir vaziyatda o'zini ikki xil tutayapti? Sababi shundaki, u garchi o'zini "keng eshituvchilar ommasiga mo'ljallangan notiq" deb hisoblasa ham, qaysi holatda, vaziyatda qanday gapirish kerakligini bilmaydi. Oilning vazifa va uslub jihatdan amal qilish qonuniyatlarini sayoz tushunadi. Shuning uchun ham uning nutqi notabiiy va kulgilidir.

Parazit so'zlar deb ataluvchi leksik birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular asosan so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi natijasida paydo bo'ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar o'zlari sezmaganda holda **demak, xo'sh** kabi so'zlarni qaytaraverishga o'rganib qolganlar. "Bir dokladchining bir soatlik nutqida, – deb yozadi A.Ahmedov, – "o'rtoqlar" so'zi 101 marta, "ya'ni" so'zi 73 marta, "demak" so'zi 60 marta takrorlanganligining guvohi bo'lganmiz. Qarang, bir soatlik nutqda 234 ta ortiqcha, "bekorchi" so'z ishlatilgan-a" (Ahmedov A. Oil boyligi. O., "Fan", 1968, 27-bet).

Vulgar so'zlarning uchrashi ham nutqimiz tozaligiga salbiy ta'sir qiladi. Og'zaki nutqda ba'zan uchrab qoladigan so'kinish, haqorat so'zlarni ishlatish axloq me'yorlariga, sharqona muomala madaniyatimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan ishdir. Ammo badiiy adabiyotda personajlarning kuchli hayajonini, g'azabini

ifoda etish maqsadida vulgar so'zlarga murojaat qilgan holatlarga duch kelamiz: *Qarg'ash uchun so'z topolmadi, / G'azabini hech bosolmadi. / "O'ynash" so'zin hadeb hijjalab, / Oxir dedi "Fohisha, ..."* (H.Olimjon). Inkoni boricha badiiy adabiyotda ham vulgar so'zlarni ishlatishdan qochish kerak. Chunki badiiy adabiyot kishilarga estetik ta'sir o'tkazish vositasi bo'lish bilan birga tarbiya manbai ekanligini ham unutmasligimiz kerak.

Xullas, nutqimizning tozaligi uchun kurash undan foydalanuvchi har bir kishining vazifasi bo'lishi kerak. Ana shundagina umummilliy til madaniyati haqida gapirishimiz mumkin bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi. Nutqning ijro etilishida unga ma'lum bir voqea-hodisa haqida ma'lumot berishdan tashqari yana bir maqsad—tinglovchi ongiga va ruhiyatiga ta'sir etish vazifa qilib qo'yiladi. Shuning uchun ham ta'sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi hamda to'g'rilik va aniqlik ham, mantiqiylik va tozalik ham suhbatdoshga, tinglovchiga yoki o'quvchiga ta'sir etishga qaratilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan xususiyatlarda til omillari birinchi o'rinda tursa, ularning barchasidan foydalangan holda ta'sirchanlik keng doirada tildan tashqaridagi omillarni ham qamrab oladi.

Øildan tashqaridagi omillar qaysilar? Eng avvalo, notiqning mavzu atrofida yetarli bilimga ega bo'lishi. Mavzuni yaxshi bilmagan notiqning ta'sirli nutq ijro etishi haqida gap bo'lishi ham mumkin emas.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhim sanaladi. Ya'ni, notiq auditoriyani hisobga olishi—ularning bilim darajasidan yoshigacha, hatto nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatigacha kuzatib turilishi, nutqning tinglovchilar tomonidan qabul qilinishi nazorat qilib borilishi lozim bo'ladi. Malakali bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagani kabi, oddiy, yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmagan auditoriya oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi. Va butun diqqat-e'tibor ifodalovchi bo'lgan fikmi to'laligidicha tinglovchilarga yetkazish vazifa qilib qo'yiladi.

Øinglovchining e'tiborini qozongan nutqgina ta'sirchan nutq hisoblanishi mumkin. Buning uchun, yuqorida ta'kidlanga-

nidek, suhbat mavzusini yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq rejasi ham bo'lishi zarur. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tushuntirib, shundan keyingina gapni boshlash lozim.

So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhim. Shunday bo'lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochish mumkin bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasida samimiyat paydo bo'ladi. Notiq fikrlarini o'zi yoki auditoriyadagi kishilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir subyektiv mulohazalarini bildirsam, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli chiqadi.

Öinglovchiga emotsional ta'sir o'tkazishga muvaffaq bo'lish esa notiqning yutug'i hisoblanadi. Bu haqda mashhur rus notig'i prof. V.O.Klyuchkovskiy shunday degan edi: "Jamoat orasida gapirganimizda tinglovchilarning qulog'iga, aqliga murojaat qilmang, shundoq gapiringki, ular sizni tinglab turib, so'zlaringizni eshitsin, predmetlarni siz bilan ko'rib, sizning holatingizga kirishsin. Öinglovchilar sizning tasviringizsiz ham aqli, yuragi, fikri bilan shu predmetni yaxshiroq kuzatadi.

Nutqda fikrni rivojlantira borib, dastlab uning sxemasini tinglovchining ongiga yetkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, nihoyat chiroyli lirik tasvirlar bilan uni ehtiyotkorlik bilan tinglovchining yuragiga jo qiling, o'shanda tinglovchi – asiringiz qochib ketmaydi, hatto siz uni erkin qo'yib yuborsangiz ham sizning abadiy itoatgo'y mijozingiz bo'lib qoladi" (Ko'chima quyidagi manbadan olindi: *Razumova L., Sharov V. Lektor nutqining ta'sirchanligi. Ö., 1973, 21-bet*).

Nutqning tinglovchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, jest va mimikalari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham ahamiyati bor. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, auditoriyaga humat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning tinglovchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi haqidagi gap, ma'lum ma'noda, nutq sifatlari haqida aytilgan mulohazalarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatolarni tahlil qilish

pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida namunaviy nutqning asosiy talablariga qisqacha to'xtalib o'tildi. Ulardan xulosa qilib aytish mumkinki, yaxshi nutq so'zlovchi va yozuvchidan savodxonlikni, katta mehnatni talab qiladigan murakkab jarayondir. Umuman, nutq aniq va ravon, grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan bo'lishi va orfoepik talablar darajasida talaffuz etilishi, boshdan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim bo'ladi. Ana shunday nutqgina tinglovchi va o'quvchi qalbiga borib yetadi. Shunday nutqgina madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun esa yozuvchidan va omma oldiga chiqib nutq so'zlaydigan kishidan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Quyidagi gapdan noto'g'ri qo'llangan grammatik vositani toping va uni ma'quli bilan almashtiring: *Ana shu azamatlarning g'ayrat-himmatlari tufayli kanalda hozirgachayoq 300 ming kubometrqa yaqin tuproq ishlari bajarib qo'yildi. Biz govmishlarni sershira yemishlar bilan boqib, ularni qishdan betalofatsiz olib chiqdik.*

2. Quyidagi gapdan noto'g'ri qo'llangan leksik vositani toping va uni ma'quli bilan almashtiring: *Juda ham ingichka hislar bilan o'ralgan bunday sodda-nafis misralarni o'qib yuqorida aytilgan fikrlarni qayta takrorlagim keldi. Sulaymon Safoyev bemor – Zulayhoni qanday davolash haqida fikrga sho'ng'iganida birdan telefon jiringladi.*

3. Quyidagi gapdagi mantiqi buzilgan holatni aniqlang va uni tahrir qiling: *Darslardan uzrsiz sabablar bilan qoluvchi yoki uy vazifasini bajarmaydigan o'quvchilar butunlay tugatiladi. Uxlashdan oldin uch soat ovqatlanish kerak.*

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. "Nutqning to'g'riligi" deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq aniqligi talablarini tushuntirib bering.
3. Nutqning mantiqiyliigi tildan boshqa yana nimalarga bog'liq?
4. O'zbek tilining tozalik darajasini izohlang.
5. O'ilning ta'sirchan vositalarini badiiy adabiyot matnidan olingan misollar asosida ko'rsating.

A D A B I Y O T L A R

1. *Begmatov E.* O'zbek nutqi madaniyati masalalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1980, 4-son.
2. *Qo'ng'urov R.Q., Karimov S.A., Qurbonov O.I.* O'zbek tilining funksional stillari. Samarqand, SamDU nashri, 1984.
3. *Qo'ng'urov R., Karimov S., Qurbonov O.* Nutq madaniyati asoslari, II qism. – Samarqand, SamDU nashri, 1986.
4. *Shomaqsudov A.* O'zbek tili stilistikasi. –O., «O'qituvchi», 1983.
5. *Qilichev E., Qilichev B.* Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2001.

4-MAVZU: Nutq odobi

R e j a :

1. Nutq madaniyati va nutq odobi tushunchalari.
2. Donolar nutq odobi haqida.
3. Nutqning shakllanishidagi shart-sharoitlar va nutq odobi.
4. Nutqiy vaziyat va nutq odobi.

Öayanch soʻz va iboralar : *samimiyat, xushmuomalalik, suhatdoshga hurmat, muloyimlik, hovliqmaslik, aniq va ravshan soʻzlash, qisqalik, parazit –tekinxoʻr soʻzlarni ishlatmaslik, shevachilikka yoʻl qoʻymaslik, soʻzlashganda kayfiyatni, yoshni, jinsni, mavqeni hisobga olish, oʻz shaxsini ustun qoʻymaslik.*

O'zbek millatining ko'pming yillik tarixida keyingi o'n yillikda erishgan yutuqlarimiz alohida o'rin tutadi. Mustaqillik necha asrlar davomida yaratilgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosimizni nafaqat o'rganish, balki uni davr talablari asosida qaytadan idrok etish va milliy manfaatimizga xizmat qildirish vazifasini oldimizga qo'ydi. Boy tajribalarimiz negizida milliy istiqloq mafkurasining yangicha tamoyillari yaratildi. Davr barcha ziyolilar qatori tilshunoslar oldiga ham yangi va ulkan vazifalarni qo'ydi. Bu vazifalarni lo'nda qilib, bir tomondan, tilshunoslikning nazariy masalalarini jahon andozalari darajasida tadqiq etish, ikkinchi tomondan, uning amaliy jihatlari, aniqrog'i, nutqiy madaniyat masalalari bilan shug'ullanish tarzida tushunish to'g'ri bo'ladi.

Darhaqiqat, tilning barcha qatlamlaridagi birliklarni tartibga keltirish, ya'ni adabiy tilimizning qat'iy me'yorlarini belgilash, ularni imlo va talaffuz qoidalari asosida yozish va so'zlashni

xalqimiz orasida ommalashtirish, bu oqidalarni lug'atlar shaklida mustahkamlash bugunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bular orasida xalqimizning nutq madaniyatini yuksaltirish muhim bo'lib qoladi. Chunki milliy istiqlol g'oyasi yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, yoshlarimizni esa erkin, shu bilan birga, odatdagi, an'anaviy usullardan voz kechib, yangicha fikrlashga o'rgatishni maqsad qilib qo'yar ekan, bunga til madaniyatisiz erishib bo'lmaydi.

Do'g'ri, nutq madaniyati muammosi insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida o'rtaga qo'yib kelinganligi ham sir emas. U ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, shunga qadar Misr va Assuriyada, Hindiston va Xitoyda mavjud bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Gap shundaki, u paytlarda davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Yunon notig'i Demosfen (eramizdan oldingi 384-322) va Rim notig'i Sitseron (eramizgacha 106-43) larning hayoti bunga misol bo'la oladi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati bilan shug'ullanish o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. Ulug' turkolog olimlar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari bu masalaning juda qadimdan o'rtaga qo'yib kelinganligidan dalolat beradi. U paytlar "nutq odobi" deb yuritilgan sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik va laqmalikni qoralash, keksalar va ustozlar oldida gapirganda odob saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik va tilyog'lamalikni qoralash singari bir qator qoida va ko'rsatmalar bugun biz "nutq madaniyati" deb atab kelayotgan tushunchaning aynan o'zidir.

Mahmud Koshg'ariyning "Devon"ida nutq odobi uchun ahamiyatli bo'lgan til ma'lumotlari bilan birgalikda nutq, nutq madaniyati, nutqiy go'zallikka oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Birgina misol:

Ko'p sukutga qush qo'nar,

Ko'rkluk kishiga so'z kelar,

ya'ni, shoxi ko'p, shoxlari o'ralib ketgan daraxtga qush qo'nadi, yaxshi kishiga so'z (maqto'v) keladi. Yana: *Ardam boshi til*, ya'ni odob va fazilatning boshi tildir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida ham "Òil fazilatları, foyda va zararları haqida", "Òil ardami" deb nomlangan maxsus boblar bo'lib, ular so'zlash madaniyatiga bag'ishlangan. Ayrim namunalar keltiramiz.

So'zingni ko'dazgil boshing bormasin,
Òilingni ko'dazgil tishing sirmasin...
(So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,
Òilingga ehtiyot bo'l, tishing sirmasin...)
Esanlik tilasa saning bu o'zung,
Òilingda chiqama yarog'siz so'zung.
(Sening o'zing esonlik tilasang,
Òilingdagi yarog'siz so'zingni chiqama).
Bilib so'zla so'z biligka sonur,
Biligsiz so'z o'z boshini yeyur.
(Bilib so'zlasa, so'z donolik sanaladi,
Nodonning so'zi o'z boshini yeydi).

Bu o'rinda biz ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning nomini alohida ehtirom bilan tilga olamiz. O'z ijodi bilan so'z qudrati va notiqlik san'atini yuksak darajaga ko'targan alloma nutq madaniyati nazariyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. U "Mahbub-ul qulub" asarining 24-bobini voizlikka (notiqlik san'atiga) bag'ishlagan, "Muhokamat-ul lug'atayn" va "Majolis-un nafois" asarlari esa bevosita tilshunoslikning nazariy muammolarini hal qilishga, turkiy (o'zbek) tilining boshqa tillar orasidagi o'rmini belgilab berishga hamda nutq madaniyatini o'rganishga qaratilgan edi.

"Xamsa" ning har bir dostonida so'zga bo'lgan ehtiromini alohida qayd qiladi. Quyida dostonlarning nasriy bayonidan ayrim parchalarni keltiramiz. "Hayratul abror"dan: *So'z gavharining sharafi shunchalik yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo'la olmaydi.*

So'z jon bo'lib, ruh uning qolipidir. Òanida ruhi bor odam unga ehtiyoj sezadi. So'z dunyodagi barcha ko'ngillarning qutisidagi javhar, hammaning og'iz qutisidagi qimmatbaho gavhardir. Agar til bamisoli bir po'lat zanjir bo'lsa, so'z unga qadalgan injulardir. Òil shu chamanning ochilgan lolasi bo'lsa, so'z durlari unga qo'ngan shabnamlardir. So'z o'lgan odamning tanasiga pok ruh bag'ishlaydi. So'zdan tandagi tirik ruh halok bo'lishi mumkin.

Yaxshi so'z bilan o'lganni tiriltirib olgani uchun Iso payg'ambar o'zini "Jonbaxsh" deb atagan. So'z tufayli Xalil o'zini o'tga tashlagan. Jabroil ham so'z yukiga hammol bo'lgan. O'angri insonni sirlar xazinasiga darajasiga ko'tarib, uni so'zlash qobiliyatiga ega etib, shu sabab hayvonlardan yuksak qilib yaratdi.

Agar, qo'l bilan berib xayr qilish iloji bo'lmasa, til bilan ham naf yetkazish mumkin. Odamni bir og'iz yaxshi so'z bilan xursand qilish kerak bo'lgan vaqtda unga xazina bersang ham, u qaramaydi. So'z bilan el o'limdan najot topadi, so'z bilan o'lik tan qayta tiriladi. So'z bilan dinsizlar musulmon bo'ladi, so'z bilan hayvon deganing insonga aylanishi mumkin. Bir so'z bilan qancha balolar daf bo'ladi, qancha boylik sochsang ham bunday nafga yetishmaydi. Insonga xos konning gavhari, bu—so'zdir, odamzot gulshanining mevasi ham shu so'zdir.

"Sab' ai sayyor" dan: Har bir inson dunyoga kelgach, u so'z bilan najot topadi. Eng avval so'zni tavhid so'zi (xudoga yetishuv) deb bil, chunki vahdat ahlida (birlik ahlida) bunga ikkilanish yo'qdir. Avvalu oxiringga nazar solib, boshi ham, oxiri ham so'z ekanligini anglab ol !

Haq insonni hayvondan mumtoz aylab (ajratib, saralab), uni o'ziga mahram qildi.

Agar kamolotli xohish bildirib, ma'no durriga intilib, so'z libosini kiysa, ul tovlanib turgan ipak matoday tuyuladi. Chunki u so'zning nozik ipagidan kiyib, go'zalning jamolini o'ziga yoqimli qiladi.

Bularning barchasi so'zdagi mo''jiza, uning hikmatlari esa elni ojiz qoldiradi. Uning biri o'likka so'zi bilan jon berib, so'z bilan jonga ruh kirgizadi.

Oллоh, Oллоh, qanday so'zdir bu so'z, bundan ortiq ham yara bo'lumu so'z! So'z jism bo'stonidagi daraxtdir, so'z daraxtlardagi mevadir. Insonning jismi gulshan bo'lsa, nutq undagi xushovoz bulbuldir. Agar so'z bo'lmaganda baxtsizlik yuz bergan bo'lur edi.

Ma'noli so'z noziklikda jon rishtasiday, uning rohati rishtaga sarrishta jondaydir.

Alisher Navoiyning til madaniyatiga oid fikrlari uning boshqa asarlarida ham aytilgan. Ularning ayrinlarinigina keltirish bilan chegaralanamiz: O'ilga ixtiyorsiz—elga e'tiborsiz. So'zni ko'ngilda pishqamaguncha tilga keltima, va har nekim, ko'ngilda

bor tilga surma. Ma'dani inson gavhari so'z durur, gulshani odam samari so'z durur. Ko'p demak so'zga mag'rurlik. Va ko'p yemak nafsga ma'murlik. Öl muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, gar nopisand zahir bo'lsa, tilning ofatidur.

Yana bir allomaning nutq madaniyati va nutqiy me'yor, nutq qoidalariga oid qarashlariga qisqacha to'xtalamiz. Bu XV–XVI asr ma'naviyatining yirik vakili Mavlono Husayn Voiz Koshifiydir. Uning "Futuvvatnomai sultoniyy" asarining "Öariqat ahlining odobi" deb nomlangan beshinchi bobida inson ma'naviyati va madaniyatiga oid qarashlari e'tiborga molikdir. Olim bu bobda insonning yetti a'zosi—ko'z, quloq, til, qorin, og'iz, qo'l va farj (tanosil a'zosi) ni saqlash odobi haqida mulohaza yuritarkan, ularni inson organizmi deb emas, balki inson ma'naviyati va axloqi namoyon bo'luvchi ramziy belgilar sifatida talqin qiladi.

Jumladan, uning muomala madaniyati va muloqot odobi haqidagi qarashlari ana shu umuminsoniy fazilatlarining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Koshifiy quyidagilarni yozadi: "Öilning odobi qaysi deb so'rasalar, bu olti narsaga tilni ochish va sakkiz narsadan tilni saqlash deb aytgil. Öilni ochish kerak bo'lgan narsalar qaysi deb so'rasalar, aytgil: hojat zarurati yuzasidan ko'ngillarda yashirin bo'lgan rozni izhor etish, mazlumlar faryodiga javob berish va marhumlar imdodi uchun so'z aytish. Chunki bu so'zlar orqali zolimning zulmi mazlumlar boshidan ko'tarilishi mumkin.

Öilni saqlash lozim bo'lgan narsalar qaysi deb so'rasalar, aytgil: birinchidan, yolg'on gapirishdan, zero, yolg'onchi xudoning dushmanidir. Ikkinchi, va'daga xilof gapirish va munofiqona so'z aytishdan. Uchinchi, g'iybat va bo'hton gaplardan, chunki bo'hton fosihlar ishidadir. Öo'rtinchi, behuda bahsu munoqashadan, ayb qilishdan va gap tashishdan. Bular shayton vasvasasiga kiradi. Beshinchi, o'zini maqtash va ta'riflashdanki, bu xudbinlikka olib keladi. Oltinchi, navkar va xizmatkorlarni la'natlashdan. Yettinchi, qarg'ashdan, duoi bad qilishdan, chunki bu jonu dilning ofatidur. Sakkizinchi, mazax-masxara qilish va hazil-huzuldan" [2, 165-bet]. Olim shu bobning "Suhbat odobi haqida" deb nomlangan oltinchi faslida til odobi haqidagi mulohazalarini davom ettirib, quyidagilarni bayon qiladi: "Bilgilki, odamzodning

sharafi nutq bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir. Soʻz hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, toʻgʻri va haqqoniy boʻlishi kerak. Agar shunday boʻlmasa, jim turgan maʼqul. Shayxlar va boshqa martabaga erishganlar uchun ham, hali martabaga erishmagan kishilar, muridlar uchun ham rioya qilinishi zarur boʻlgan bir qancha suhbat odobi mavjud. Agar martabaga erishganlar suhbatda qaysi qoidalarga amal qilishi kerak deb soʻrasalar, aytgilki, quyidagi sakkiz qoidani saqlash kerak: birinchidan, har kimning ahvoriga qarab, munosib soʻz aytsin. Ikkinchidan, dagʻallik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin. Òʻrtinchidan, ovozini baland koʻtamasin, eshituvchilarga malol kelmaydigan qilib gapirsin. Beshinchidan, odamlarga nafi tegadigan maʼnoli gaplarni gapirsin. Oltinchidan, agar soʻzning qimmatiga qadri boʻlmasa, uni tilga olmasin, chunki ulugʻlarning soʻzi bamisoli urugʻdir, agar urugʻ puch yoki chirigan boʻlsa, uni qay yerga ekmang, unib chiqmaydi.

Agar martabaga yetmaganlarning suhbat odobi nechta deb soʻrasalar, bu ham sakkizta deb aytgil. Birinchidan, soʻramaguncha gapirmasin. Ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland koʻtamasin. Uchinchidan, gapirayotganda oʻngi soʻliga qaramasin. Òʻrtinchidan, gʻarazli va kinoyali gaplarni gapirmasin. Beshinchidan, qattiq gapirmasin va betgachoparlik qilmasin. Oltinchidan, pushaymon boʻlmaslik uchun oʻylab gapirsin. Yettinchidan, odamlar gapini boʻlib soʻz qotmasin. Sakkizinchidan, koʻp gapirmasin. Chunki koʻp gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz boʻlsa ham soz gapirishni shior etsin.

Agar qaysi til bilan soʻz soʻzlaysan deb soʻrasalar, sidqu-sadoqat tili bilan deb aytgil. Agar soʻzni qaysi quloq bilan eshitasan deb soʻrasalar, qabul qulogʻi bilan aytgil.

Agar soʻz senikimi yoki sen soʻznikimi deb soʻrasalar, aytgil: men soʻzniki va soʻz menikidir, chunki soʻz insonlik daraxtining mevasidir. Daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib boʻlmaydi" [2, 168-b.].

Voiz Koshifiy mana shu tarzda asarning oltinchi bobining ikkinchi faslida maʼraka tuzuvchi soʻz ahli, yaʼni notiq-lar haqida maʼlumot berib, ularni uch toifaga ajratadi: "birinchi toifa – maddohlar, gʻazalxonlar va saqqolar (meshkobchilar). Ikkinchi toifa – xossagoʻylar (dorifurushlar) va bisotandozlar

(ko'rgazmachilar). Uchinchi toifa – qissa so'ylaguvchilar va afsona aytuvchilar.

Ularning har birining fazilatlari haqida so'z yuritib, adab shakllarini birma-bir ko'rsatib, nutq so'zlaganlarida me'yorni saqlash lozimligini bir necha bor takrorlaydi [2, 176–179-b.],

O'rta Osiyo notiqligining o'ziga xos xususiyati uning xalq ommasi hayotining turli jabhalarini qamrab olganligida edi. O'sha davr nutqiy san'at ustalarining nadimlar, qissago'y-lar, masalگو'y-lar, badihago'y-lar, qiroatxonlar, muammo-go'y-lar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilganliklari ham shundan dalolat beradi.

Ќajriba shuni ko'rsatadiki, muomala odobini saqlash nihoyatda og'ir va mas'uliyatli vazifa. Garchi uning umuminsoniy va milliy qoidalari mavjud bo'lsa ham, u har bir kishida ularning o'zligini ko'rsatuvchi alohida fazilat sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bir vaziyatdagi muomala jarayoni ikkinchi holatda qaytarilmasligi mumkin. Harqalay, biz odobning umuminsoniy aqidalaridan xabardor bo'lishimiz zarur.

Muloqot jarayonida har ikki omil–til va tildan tashqaridagi omillar baravar ishtirok etganligi hamda birdek ahamiyatga ega bo'lganligi uchun bu o'rinda ularni ajratishga harakat qilmaymiz. Asosiy e'tiborni jarayonning o'ziga qaratamiz.

Ќushunishimizcha, nutq odobining zarur sharti yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan mavqeidan qat'i nazar, suhbatdoshlar o'rtasidagi samimiy munosabat va hurmat–ehtiromlar bo'lib hisoblanadi. Mana shu omillar bo'lgan joyda so'zlovchining o'z shaxsini ustun qo'yishiga, suhbatdoshini mensimasligiga, fikrini ortiqcha ovoz va harakatlar bilan ifoda etishiga o'rin qolmaydi. Bunday paytlarda, odatda, suhbat ijobiy yakunlanadi.

Faqat shu narsani ta'kidlash mumkin bo'ladiki, suhbat jarayonida ohang juda katta vazifani bajaradi. Kayfiyat qanday bo'lishdan qat'i nazar bu jarayonda eng ma'qul ohangni tanlash so'zlovchini maqsadiga erishtiradi. So'zlarni aniq-ravshan talaffuz qilish, muloyim va mayin ovoz bilan hovliqmasdan gapirish tinglovchida hamisha so'zlovchini tushunishga harakat qilish istagini paydo qiladi. Birgina **o'tiring** so'zini turli ohangda talaffuz qilish bilan vaziyatga qarab iltimos, talab, maslahat, ogohlantirish, buyruq, jerkish kabi ma'nolarni ifoda etish

munkin. Shuning uchun ham gapirganda ohangga ehtiyot bo'lish lozim.

Mustaqillikdan keyingi o'tgan davrda muomala jarayonidagi ayrim til birliklariga munosabat o'zgardi. Kishilar bir-birlari bilan uchrashganlarida salomlashuv jarayonida qisqa qilib **Salom** deyishlar kamaydi va uning o'rnini **Assalomu alaykum** egalladi. Hol-ahvol so'rashish jarayonida Alloh va unga aloqador bo'lgan so'zlar bimalol ishlatiladigan bo'ldi. **O'rtoq falonchiyev** deyishlar kam eshitiladigan bo'ldi. **Muhtaram, hurmatli, birodar** so'zlari faollashdi. Bu holatlar yana asta-sekinlik bilan muloqot jarayonida sharqona urf-odatlariga qaytish istagining ustunlik qilayotganligidan dalolat beradi. Mana shu istakni amalga oshirish jarayonida ayrim er-xotinlar o'rtasidagi bir-birlarining ismlarini aytib yoki ba'zi farzandlarning o'z ota-onalarini ruslarga taqlid qilib, sensirab murojaat qilishlari yo'qolib ketishidan umid qilish mumkin.

Qayerda nima haqda gaplashishni bilish ham nutq odobining eng zarur shartlaridan sanaladi. Masalan, to'yda o'limdan va azadan gapirish ma'qul bo'lmaganidek, azada ham to'y tantanadan so'zlash yoki kulib o'tirish, bo'lar-bo'lmasga yonmayon o'tirganlarni gapga tortish ma'qul ish emas. Atrofdagilarning kayfiyatini, mavqei va yoshini hisobga olmasdan turib hazil qilish yoki latifa aytish ham farosatli kishining ishi emas. Maqtov va xushomad ham hammaga yoqadi, ammo u nosamimiy bo'lsa, hurmat sanalmaydi.

Suhbat jarayoni turli paytlarda, turli joylarda yuz berishi mumkin. Har bir vaziyat o'z odob qoidalariga ega. Ammo ularning barchasi uchun umumiy holat shuki, so'zlashdan ko'ra tinglashga ko'proq ahamiyat berish lozim bo'ladi. Yoshi kattalarning gapirishiga ko'proq imkoniyat berish lozim. Suhbatdoshning gapini mumkin qadar ma'qullab turish, agar bildirayotgan fikrlari ma'qul bo'lmasa, buni yotig'i bilan tushuntirish, hech imkoni bo'lmasa, suhbat mavzusini boshqa tomonga burish lozim topiladi.

Xullas, nutq odobi muloqot jarayonida nihoyatda zarur bo'lib, u insonda an'anaviy urf-odatlarini o'zlashtirish, ota-onaga, ta'lim muassasalari, atrof-muhit, badiiy va ilmiy adabiyotlarni o'qish davomida o'zlashtirilib boriladi.

Harqalay, bugunga kelib nutq madaniyatiga bo'lgan talab tubdan o'zgardi. Chunki mustaqil O'zbekiston kelajakda o'ziga

xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Bu yo'lda adashmay borish uchun milliy istiqloq g'oyasini ishlab chiqdi. Ana shu milliy istiqloq g'oyasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda nutqiy ta'sirchanlik ham alohida mavqega ega. "O'mida ishlatilgan so'zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, bama'ni fikr har doim odamlarning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Muloqot jarayonida fikrga, sog'lom g'oyaga ega bo'lish masalaning bir jihati. Uning boshqa bir muhim jihati ana shu fikrlarni bayon eta olish qobiliyatidir". (1, 191-b.).

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Ustoz va shogird o'rtasidagi suhbat namunasini tuzing va undagi shogirdning nutq madaniyatini shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalarni ajratib ko'rsating.

2. Boshliq bilan xodim o'rtasidagi suhbat namunasini tuzing va undagi shogirdning nutq madaniyatini shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalarni ajratib ko'rsating.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar :

1. Nutq odobi tushunchasini izohlab bering.
2. Nutqiy muomala jarayonida so'z tanlash deganda nimani tushunasiz?
3. Oilada, ishda, jamoat joylarida nutq odobini qanday saqlash kerak?
4. Nutq odobining shakllanishida tilga bog'liq bo'lmagan –paralingvistik omillarning ahamiyati bormi?

A D A B I Y O T L A R

1. *Karimov I.A.* So'z boshi. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ò., «O'zbekiston», 2000.

2. *Husayn Voiz Koshifiy.* Futuvvatnomai sultoniy // Sharq yulduzi, 1993, 3-4-sonlar.

5-MAVZU: Nutqiy muomala shakllari

R e j a :

1. Nutqiy muomala – inson faoliyatining tarkibiy qismi.
2. Nutqiy muloqot odatidagi an'anaviylik.

3. Muloqotning til (lingvistik) va tildan tashqaridagi (paralingvistik) omillari.

4. Rasmiy va norasmiy muomala jarayonining til jihatlari.

Āyanch soʻz va iboralar : ma'naviyat, madaniyat, muloqot, an'ana, odat, taomil, mavzuning o'rganilishi, S.Mo'minov, Sh.Iskandarova, muomala mazmuni va shakli, muomalaning yosh, jins, mavqe, vaziyat, holat, ijtimoiy muhit, vaqt singari omillarga bog'liqligi, dunyo xalqlari madaniyati, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, madaniyatshunoslik, muloqot qoidalari va etikasi, muloqot ko'rinishlari, murojaat, salomlashish, xayrlashish, ko'rishish, mulozanat, manzirat, iltifot, sertavozelik, imkon berish, suhbat jarayoni, uzilishlar, noqulaylikni bartaraf qilish, muloqotning hududiy farqlanishi, shahar va qishloq madaniyati, tinglash madaniyati, so'zlovchi faoliyatidagi bosqichlar, subyektiv baho shakllari, qadriyatlar, urf-odatlar.

O'zbek xalqi dunyoda o'z ma'naviyati va madaniyati mavjud bo'lgan turkiy xalqlarning biri sifatida tildan foydalanishda ham qadimiy an'analari, odat va ko'nikmalariga ega. Zero, ana shu ana'ana va odatlar har bir xalqning o'zligini ko'rsata oladigan belgilar sanaladi. Ona tilimizning bu ijtimoiy jihatlari tadqiqotchilarimizning ham e'tiborini tortgan [5, 4, 7, 2]. Ammo keyingi o'n yillikda ushbu mavzuga bag'ishlangan ikkita yirik tadqiqot – S.Mo'minov va Sh.Iskandarovalarning monografik ishlari maydonga keldiki, biz mazkur mavzuni yoritishda bevosita ana shu kuzatishlar natijalariga asoslanamiz [3, 1].

Ma'lumki, inson faoliyati uning jamiyat mahsuli sifatida mavjudligi sanalib, ana shu faoliyat jarayonida u ma'lum harakatlarni amalga oshiradi hamda jamiyat a'zolari bilan til muomalasida: muloqotda, fikr almashishda bo'ladi. Ammo bu muomala tildan foydalanuvchilarning madaniyati darajasiga ko'tarilgunga qadar uzoq davrni bosib o'tishi tabiiy. O'zbek nutqi ham bugungi taraqqiyot bosqichiga yetgunga qadar ana shunday vaqt sinovidan o'tgan.

O'zbek tilshunosligi ilmida nutq madaniyati masalalari bimumcha durust o'rganilib, o'zining nazariy asosiga qo'yilgan bir paytda o'zbekcha muomalaning yo'l-yo'riqlarini, usullarini o'rganish ham amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Chunki o'zining boy tarixi va o'tmishi, havas qilsa va na-

muna olsa arzigulik ma'naviy-madaniy merosga ega bo'lgan o'zbek xalqining muloqot an'analari nafaqat mazmunan, balki shaklan ham rang-barangdir. Sharq ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan bu muloqot o'zbeklar bilan yonmayon yashab kelayotgan boshqa xalqlar madaniyati bilan uyg'un, ayni paytda o'ziga xosdir. Kishilarning yoshiga qarab hurmat bildirish va shunga yarasha muomalada bo'lish, suhbat jarayonidagi samimiyatga, suhbatdoshga yon berishga harakat qilish, yoshlarning qariyalarga, ayollarning erlariga yoki erlarning ayollariga, farzandlarning ota-onalariga, obro'li kishilarga, rahbarlarga bo'lgan izzat-hurmatning, mezbonning mehmonga bo'lgan ehtiromining avvalo muloqot jarayonida aks etishi ana shu o'ziga xosliklar sanaladi.

Shuning uchun ham yuqorida nomlari tilga olingan olimlarimiz mamlakatimiz mustaqil bo'lgan, xalqimiz dunyo hamjamiyati bilan banalol tillashayotgan bir paytda uning milliyligidagi mana shu xususiyatlarni chuqur o'rganish va targ'ib qilishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganligi tahsinga loyiqdir.

Shu paytga qadar tilshunoslikka oid amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma'lunki, inson nutqi g'oyatda murakkab jarayon hisoblanib, uni faqat tilshunoslik doirasida o'rganish amalda mumkin emas. Boshqacha aytganda, birgina tilshunoslik fani uni mukammal o'rganishga ojizlik qiladi. Fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida shakllangan sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, madaniyatshunoslik singari fanlarning hankorligigina bu muammolarni ijobiy hal qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, muloqot inson faoliyatidagi eng murakkab jarayon sanalib, bu jarayonning amalga oshishida ma'lum qonun-qoidalar mavjud.

Bu jarayonda so'zlovchi va tinglovchi – suhbatdoshlar zaruriy a'zo sifatida ishtirok etishadi. Muloqotga ta'sir etuvchi omillarta'sir birliklari mavjud bo'ladi. S.Mo'minov suhbatdoshlarning millatini, jinsini, yoshini, ijtimoiy belgilarini, ularning o'zaro yaqinlik darajasini, muloqot vaqtini, vaziyatni, holatni, ijtimoiy muhitni ana shu birliklar sifatida qaraydi [3, 11-b.].

Olimning fikricha, muloqot xulqi muammosini milliy xarakter – millat aholisining o'ziga xos urf-odatlarini, qadriyat va an'analari hisobga olmasdan turib o'rganish mutlaqo mumkin emas. Chunki muloqot xulqi milliy xarakterning uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, muloqotning

ham til, ham tildan tashqaridagi omillari mavjud bo'lib, ular o'zaro birlashgandagina kutilgan nutq shakllanishi mumkin.

Shuning uchun ham dastlab muloqotning ana shu omillari haqida tushunchaga ega bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu ikki omil nutqiy jarayonda chambarchas bog'langan bo'lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi va bir-birisiz yashay olmaydi. Vaziyatga bog'liq holda inson muomalasining ko'rinishlari shu qadar ko'p bo'ladiki, bir vaziyat va holatda analga oshirilgan suhbat boshqa bir o'rinda hech qachon takrorlanmaydi. Ular salomlashish, xayrlashish, tabriklash singari vaziyatlardagina umumiylikni tashkil qilishi va nutqiy odat degan ma'no ostiga birlashishi mumkin.

Masalaning mohiyatini yanada yaxshiroq va tezroq anglash uchun dastlab tildan tashqarida bo'lgan omillar haqida mu-lohaza yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Psixologik nuqtai nazardan olib qaraganda muloqotda shaklning ahamiyati nihoyatda sezilib turadi. Suhbatdoshlar o'zaro tanish-notanishligidan qat'i nazar, odatda bir-birlariga samimiyat bildirishga, iltifotli, sermulozamat bo'lishga, izzat-ikrom, hurmat ko'rsatishga, manzirat qilishga, bir-birlarining kayfiyatiga, ko'ngliga qarab gapirishga harakat qiladilar. Muloqot jarayonida ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib, ba'zan ro'y beradigan noqulay vaziyatni yumshatishga harakat qiladilar. Bir-birlariga gapirib olishga imkon beradilar. Bunday vaqtda orada jimlik, sukunat hukmron bo'lishi, suhbatda uzilishlar ro'y berishi mumkin. Lekin muloyimlik bilan uni bartaraf etish yo'llari ham axtariladi. Bunday paytlarda suhbatdoshlarning yoshi, jinsi, saviyasi albatta sezilib turadi. Suhbat jarayonida, yuqorida ta'kidlaganimzdek, undan ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib yoki suhbatdoshlarga mutlaqo bog'liq bo'lmagan holda buning aksi ro'y berishi ham mumkin.

Muloqot jarayoniga yuqorida sanab o'tilganlardan boshqa ta'sir etuvchi tashqi omillar ham kuzatiladi. Suhbat jarayoniga aralashmayotgan, ammo suhbatdoshlar uchun hurmatli bo'lgan kishining ta'siri bunga misol bo'la oladi. Suhbatdosh ustozga, sevimli yoki jamiyatda obro'si, hurmati bor kishiga, arboblarga va amaldorlarga yaqin, hatto qarindosh bo'lishi ham mumkin. Bu narsa ham ma'lum ma'noda tashqaridan suhbatdoshlar nutqini "boshqarib boradi", uning davomi va yakuniga ta'sir ko'rsatadi.

Muloqotning hududiy farqlanishini ham e'tibordan chetda qoldira olmaymiz. Ko'p yillik kuzatishlarimizdan ham, badiiy adabiyot namunalaridan ham ma'lumki, qishloq odamlarining nutqi birmuncha sodda, zamonaviy nutq madaniyati talablariga hamma vaqt ham to'liq javob beravermaydigan, shevachilik qusurlaridan butunlay qutulib keta olmagan nutq sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda bu nutq ko'nglimizga qanchalik ma'qul bo'lgan-bo'lmaganligidan qat'i nazar, uning to'g'ri, samimiy bo'lishini ham ta'kidlaymiz. Buning aksicha, necha ming yillar davomida madaniyat va ma'rifat markazi sanalib kelingan shahar muomala madaniyatida boshqacha manzarani kuzatamiz. Shaharning tub aholisi yoki unda uzoq yillar davomida yashayotgan kishilarning, ziyolilarning muomalasidagi sertavozelik, xushmuomalalik, vaziyatga, jamoaga, suhbatdoshning kayfiyatiga qarab muomalada bo'lish singari tahsinga sazovor holatlarni alohida qayd etish mumkin. Ayni paytda, bu muloqotning samimiylik yoki aksincha, sun'iylik, soxtalik darajasini baholash tinglovchi – suhbatdoshlarning aqlu zakovatiga havola etiladi.

Nutq vaziyatiga qadar suhbatdoshlar suhbat mavzusidan yoki unga aloqador ayrim faktlardan xabardor bo'lgan bo'lishlari mumkin va bu narsa ularni ma'lum darajada muloqot jarayoniga tayyorlaydi. Ammo kutilgan natijalarni berish-bermasligini shu nutqiy vaziyatning o'zi belgilaydi.

Mana shu muloqot jarayonining tuzilishini S.Mo'minov umumiy tarzda quyidagi bosqichlarga ajratadi:

I. So'zlovchi faoliyatidagi bosqichlar:

1. Salomlashish va murojaat bosqichi.
2. Òanishuv bosqichi.
3. Daromad bosqichi.
4. Muddao bosqichi.
5. Xotima va xayrlashuv bosqichi.

II. Òinglovchi faoliyatidagi bosqichlar:

1. Òinglash bosqichi.
2. Munosabat bildirish bosqichi [3, 17-b.].

Olimning kuzatishlari shundan dalolat beradiki, muloqot jarayonidagi eng qiyin faoliyat tinglashdir. Chunki hamma holatlarda insonning "men"i bo'rtib turishligi suhbat jarayonida ham bilinadi. So'zlovchi odatda tinglovchiga o'z fikrini ma'qullatish istagida bo'ladi, o'zi ko'proq gapirishga intiladi yoki shunday bo'layotganini sezmay qoladi. Bunday paytda esa, tinglovchi –

suhbatdoshga oson bo'lmaydi. Chunki tinglayotgan kishi ham xuddi so'zlayotgan kishining kayfiyati va istagida bo'lishi mumkin.

S.Mo'minov tinglashning inson psixologiyasi bilan bog'liq xususiyatlaridan yana biri har kim o'zi xohlagan narsani eshitishi ekanligini ta'kidlab, Bxagva Shri Raynshning "Örans-sendentlik haqida" nomli asaridan qiziq bir hikoyani keltiradi: Ikki kishi shovqinli, odamlar bilan gavjum trotuarda ketayotgan ekan. Kutilmaganda ulardan biri: "Eshitgin-a, chigirtka qanday chiroyli sayrayapti!" – debdi. Hech narsa eshitmagan sherigi shunday olomon orasida, buning ustiga, mashinalar shovqini ostida qanday qilib chigirtkaning ovozi eshitganini ajablanib so'rabdi. Kasbi zoolog bo'lgan hamrohi buni qanday qilib tushuntirishni bilmabdi va cho'ntagidan bitta tanga olib trotuargacha tashlabdi –yo'lovchilar darrov bunga e'tibor qilishibdi. Shunda u: "Ko'rdingmi, biz o'zimiz istagan narsaning ovozi eshitamiz" – debdi [3, 11-b.].

Harqalay, muloqot jarayonida til birliklari nutqiy vaziyat va ana shu ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib tanlanadi. Favqulodda holatlarda, qattiq ruhiy qo'zg'alish, masalan g'azablangan paytlarda ishlatiladigan so'zlar bu qamrovga kirmaydi.

Muloqot jarayonining muhim qismini murojaatlar tashkil qiladi. Murojaat esa tanish kishilarga ham, notanishlarga ham bo'lishi mumkin. Bu vaziyat esa alohida til elementlarini tanlashni taqozo etadi. Masalan, notanish kishilarga murojaat qilinganda ishlatilishi odat tusiga kirgan so'zlarni olaylik: **yigit, og'ayni, aka, uka, amaki, tog'a, jiyani, ota, buva, xola, buvi, momo, opa, singlim, qizim, bolam** kabi. Bu so'zlarga murojaat qiluvchining xohish-irodasi yoki kayfiyatiga qarab **-jon** subyektiv baho shakli qo'shilishi mumkin. Bundan tashqari bu murojaat so'zlarining dialektal ko'rinishlari ham mavjud bo'lib, ularning barchasi birgalikda qo'llanishda ma'lum hududiy-vazifaviy chegaralanishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, kasb-hunarga oid **usta** so'zini ishlatish faol. Lavozim yoki vazifani ifoda etadigan **rais buva, qozi buva, xo'jayin, damla, muallim, doktor / duxtir, shofyor / shopir** singari so'zlar ham murojaatlarda turg'unlik kasb etgan. Agar ularga **o, ey, hov, hoy** kabi undovlar qo'shib ishlatilsa, murojaat mazmuni o'zgaradi. Garchi chaqiriq masofa nuqtai nazaridan murojaat qiluvchidan nisbatan uzoqroqdagi kishiga qaratilayotganday

bo'lsa ham, bunday murojaatda ma'lum ma'noda eshituvchiga nisbatan hurmat darajasi pasayadi.

Öanishlarga qaratilgan murojaatlar ham farqlanadi. Yoshi ulug', lavozim jihatdan yuqoridagi, yaqin va hurmatli kishiga nisbatan qilinadigan murojaatlar tanish, ammo so'zlovchi uchun unchalik ahamiyatli bo'lmagan kishiga nisbatan qilinadigan murojaatdan boshqacha bo'ladi. Birinchi guruhdagi kishilarga nisbatan *dada, dadash, azizim, onam, lo'barim, dilbarim, erkam, pari, bek, gul, poshsho, botir, go'zal, malak, boyvuchcha, boyvachcha, valine'mat, shirin, oppoq, do'ndiq, nuridiyda, jon, qanot, chiroq, g'uncha, xon, xonim, poshsha, oy, shunqor, lochin, qalding'och, qo'zi, bo'ta, toy, qulun, arslon* so'zlari hamda *-cha* (qizcha, ukacha, o'g'ilcha, bolacha); *-chak/-choq/-chiq* (toychoq, qo'zichoq, kelinchak), *-kay* (bolakay); *-gina/-kina/-qina* (qizgina, bolagina); *-loq* (qizaloq, bo'taloq); *-xon* (Matlubaxon, Diloromxon), *-jon* (bolajon, ukajon, opajon, singiljon), *-boy* (Hamidboy, Hikmatboy), *-bek* (Javlonbek, Habibbek), *-qul* (Shodmonqul, Shodiqul), *-toy* (Nurislomtoy, erkatoy, kenjatoy), *-oy* (Oysuluv, Sanamoy, Oo'lg'anoy, oyimqiz), *-beka* (Qutlibeka, Zulfiyabegim), *-poshsha* (Oyposhsha, kelinposhsha), *-bibi* (Xurshidabibi, Shohidabibi), *-pari, -bonu* (Shahnozabonu, Dilnozabonu, Komilabonu), *-niso* (Guliniso, Xayriniso), *-gul* (Gulsanam, Bodongul) affiksoidlari bilan murojaat qilinadi [8, 133-138-b.]

Muloqot jarayonida so'z va iboralarning ma'lum qolipda takrorlanaverishi kishilarda odat va ko'nikmalarni keltirib chiqaradi. Har bir muomala jarayonining o'z qoida va odatlari shakllanib, u umumxalq, umummilliy xarakter kasb etadi. Muloqotda unga rioya qilish taomilga kiradi. Aksincha, undan chiqish bu odatlarga itoat qilmaslik deb qabul qilinadi.

Inson muloqot jarayonida salomlashish, tanishish, xayrlashish, biron narsani iltimos qilish, tabriklash, minnatdorchilik bildirish singari ko'plab nutqiy vaziyatlarga duch keladi va ularning har birining o'ziga xos muomala odatlari mavjud bo'ladi. Bu odatlar umuminsoniy, umummilliy urf-odat va taomillar, madaniyat va qadriyatlar doirasida bo'ladi. Masalan, salomlashish odati: *assalomu alaykum – vaalaykum assalom, hormang – bor bo'ling, xush kelibsiz – xushvaqt bo'ling, yaxshimisiz – xudoga shukur*; xayrlashish odati: *men boray, bo'lmasa – o'tirsangiz bo'lardi / cho'y ichib ketsangiz*

bo'lardi, xayr-omon bo'ling, yaxshi qoling-yaxshi boring, yana kelinglar-sizlar ham boringlar; iltimos qilish odati: iltimos, agar mumkin bo'lsa, agar sizga malol kelmasa, bemalol bo'lsa, sizdan bir narsa so'ramoqchi edim, mobodo sizga og'irlik qilmasa, imkoniyatingiz bo'lsa, nima desam ekan... so'rash sal noqulay bo'lib turibdi kabi.

O'zbek nutqiy odati tadqiqotchisi Sh.Iskandarova uning vazifa doirasini belgilab, suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish, ularning bir-birlariga iltifot ko'rsatishga harakat qilishi, suhbatni boshqarib borish, murojaat qilish, xitob, ta'sir etish singari omillarni qayd qiladi (1, 11-12-b.).

Bundan tashqari olimo nutqiy odatlar insonlar o'rtasidagi chegaralanuvini ham alohida qayd qiladi. Masalan: keksalar bilan keksalar, keksalar bilan yoshlar, tengdosh keksalar, tengdosh yoshlar, ayollar bilan ayollar, erkaklar bilan erkaklar, ayollar bilan erkaklar o'rtasidagi muloqotlar va hokazo. Ularning har birida o'ziga xos odatlar shakllangan. Birgina ayollar o'rtasidagi muloqot jarayonida qo'llanilishi odat tusiga kirgan ayrim so'z va iboralarni eslab o'taylik: *dugonajon, ovsinjon, egachi, aylanay, o'rgilay, girgittan, qoqindiq, asalim, shirinim, toychog'im* va boshqalar. Bular barcha ayollar uchun umumiy bo'lgan til birliklari—ayol, buvi, ona, tumush o'rtog'i, dugona, farzand, opa, singil, amma, xola va notanish kishi bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda ularning har birining boshqa bir ayol bilan muloqot odati yana o'ziga xos tarzda shakllangan bo'ladi.

Xullas, muloqot jarayoni g'oyatda murakkab bo'lib, suhbatdoshga vaziyatdan kelib chiqib munosabatda bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Rasmiy va norasmiy gaplashishning taxminiy matnini tuzing.

2. O'zbeklarning salomlashish odatini yozib bering.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Nutqiy muloqot deganda qanday jarayonni tushunasiz?
2. Nutqiy faoliyat qanday shakl va ko'rinishlarga ega?
3. Nutqiy muloqotni vazifaviy uslublarga ko'ra farqlab bera olasizmi?
4. Rasmiy va norasmiy muomalani misollar yordamida farqlab bering.

A D A B I Y O T L A R

1. *Iskandarova Sh.* O'zbek nutqi odatining muloqot shakllari: Filol.fan.nomz. dis.avtoref. Samarqand, 1993.
2. *Mo'min S.* So'zlashish san'ati. Farg'ona, 1997.
3. *Mo'minov S.M.* O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol.fan.d-ri dis.avtoref. Ò., 2000.
4. *Rustamov A.* So'z xususida so'z. Ò., «Yosh gvardiya», 1987.
5. *Sodiqova M., Jo'rayeva J.* So'zdan so'zning farqi bor. Ò., "Fan", 1966.
6. *Shodmonov E.* Muomala munosabatlarida qo'llanadigan so'zlarga doir // "Öilshunoslik masalalari" to'plami. Ò., Nizomiy nomidagi pedinstitut nashri, 1970.
7. *O'rinboyev B., O'rinboyeva D.* O'zbek tilining so'zlashuv uslubi. Ò., "Fan" 1991.
8. *Qo'ng'urov R.* Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. Ò., "Fan", 1980.

II b o b

NUÒQIY FAOLIYAÒ ÒURLARI

1-MAVZU: Nutqning dialogik va monologik shakllari

R e j a :

1. Dialogik va monologik nutq haqida tushuncha.
2. Dialogik nutqda munosabatlarni ifodalash usullari.
3. Monologik nutq shakllari.
4. Dialogik va monologik nutq jarayonida til vositalari qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari.

Òayanch so'z va iboralar : shartlilik, jonlilik, tugallanmaganlik, inversiya, ellipsis, so'zlarning qisqarishi, og'zaki so'zlashuvga xosligi, diplomatik munosabatlar, badiiy nutq, individuallashtirish, xarakter yaratish, dramatik janr, obrazlar to'qnashuvi. Monologik nutq turlari, ichki nutq, ochiq nutq, kechinma, mahorat.

Dialogik va monologik nutqlar insonning muloqot shakllari hisoblanadi. Inson nutqi ko'rinishlari sifatida dialogik nutq ham, monologik nutq ham nutqning shakllanishidagi umumiy qoidalarga hamda insonlar o'rtasida amalda bo'lgan muomala etikasi va tamoyillariga bo'ysunadi. Ayni paytda, ularning har biri shakllanishdagi til xususiyatlari va tildan tashqarida bo'lgan omillarga munosabati bilan bir-biridan farqlanadi. Ikki kishi o'rtasidagi har qanday suhbatni dialog sifatida e'tirof etish mumkin. Ammo bu nutqning o'ziga xos xususiyatlari ana shu ikki kishi o'rtasida yuzaga kelgan suhbat jarayonida ochiladi. Shunday ekan, yuqorida ta'kidlanganidek, bu yerda ham suhbatning maqsad va mavzusi, suhbatdoshlarning o'zaro munosabati, yoshi, jinsi, dunyoqarashi, bilimi, jamiyatda egallagan o'rni va mavqei dialogik nutqning mazmunini belgilaydi.

Avval bu nutqning til jihatlariga e'tibor beraylik. Òohir Malikning "Shaytanat" romanidan ikkita parcha keltiramiz:

Giyohvand yigitlardan birining pastki labi osilgan, ko'zlari chaqchaygan, ikkinchisining qarashlari sovuq, o'ng yuzida uzun tirtiq bor edi.

– Bilagingni ko'rsat, – dedi Zohid tirtiqqa.

U "shu ham ishm?" deganday erinibgina kurtkasini yechib, ko'ylagining yengini shimardi. Labi osilgan yigitning bilagida ham igna izlari bor edi. Ularning giyohvandligiga Zohidda shubha qolmadi.

– Kukunni qayerdan olardilaring? – deb so'radi Zohid.

– Bratanga etganmiza, qayoqdan oganuvzani, – dedi labi osilgan yigit.

– Menga ham ayt.

– Lola ko'chasida o'n yettinchi uyda turadigan Sharif aka degan kishi.

– Ikkoving birga borganmisan?

– Bir xil paytda men borardim, bir xil paytda u borardi, bir xil paytda ikkalavuza borardik.

Zohid hali Hamdandan olgan suratlarni cho'ntagidan chiqarib, uchtasini ajratib oldi-da, stol ustiga yoyib, labi osilganni chaqirdi.

– Qara, Sharif akang qaysi biri?

Yigit o'rdakka o'xshab lapanglab kelib suratlarga uzoq tikildi-da, bittasini ko'rsatdi.

– Joyingga o'tir, – Zohid shunday deb suratlarning joyini almashtirdi-da, tirtiqni chaqirdi. U boshqa suratni ko'rsatdi.

– Oxirgi marta qachon boruvdilaring? – deb so'radi Zohid.

– Uch kun bo'ldi.

– Balki to'rt kundir?

– Vey bratan, man o'zim borganman, Soqqa yo'g'idi, qarzga bergan. Nishtyak odam u. O'zini laboratoriyasi bor. Ayn moment tayyorlab beradi.

– Laboratoriyaga kirganmisan ?

– Kirganman-de. Shundoq chap tomonda.

– Ayvondan o'tgandami?

– Ha-de, bilib turib so'ruvasizmi?

Zohid "bu yog'iga nima deysiz?" deb Hamdamga qaradi.

– Ayvonning oldi rommi?

Labi osilgan yigit o'ylanib qoldi.

– Rom bo'lsa kerak, – dedi ikkilangan holda.

– *Yolg'on gapirma!* – dedi Hamdam baqirib.

– *Bratan, aldavotganim yo'q* (44–45).

Jalil biroz kutib qolganmi, tuntayganroq ko'rinishda kirib keldi. Asadbek uni o'rnidan turib qarshiladi.

– *Kiravermay, o'tirdingmi?* – dedi Asadbek. – *Bunaqa odating yo'g'idi-ku?*

– *Hurmating bor, oshnam. Biz bir bekorchi odam bo'lsak, – u shunday deb qo'ltig'iga qistirib olgan eski gazitga o'rog'lik narsani uzatdi. – Òo'yga kelolmadim. Yaxshi o'tkazib oldingmi?*

– *Òo'yga kelmaganingga gina qilib o'tiruvdim, tinchlikmi o'zi, nimaga kelmading?*

– *Sen meni to'yga aytdingmi?* – *Jalil ovozi bir parda ko'tardi.*

– *Birinchi bo'lib senga xabar bergandirman.*

– *Katta bo'lsang o'zingga, bu birinchidan, boyvachcha bo'lsang ham o'zingga, bu ikkinchidan, xo'pmi! Laychalariningni yuborib to'yga ayttirdingmi? O'zingning oyog'ing yetmadimi?*

– *Endi oshna, to'ychilik, shoshib qolarkansan.*

– *O'zingga o'xshagan boyvachchalarni aytishga shoshmangandirsan?*

– *Xo'p, tavba qildim, men ahmoqman, – Asadbek ham ovozi ko'tardi, – o'zim bormabman* (241–242).

Matnlarning til jihatiga e'tibor berilganda shu narsa ma'lum bo'ladi, suhbat jarayonidagi gaplar asosan savol-javoblardan iborat bo'ladi, ya'ni gaplarning ma'lum qismini so'roq gaplar tashkil qiladi. Bu gaplar tuzilishiga ko'ra sodda va to'liqsiz gaplardan iborat bo'ladi. Òo'liqsiz bo'lishining sababi ma'lum, albatta. Undagi ma'no yoki avvalgi gapdan yoki umuman suhbat mazmunidan anglashiladi. Ayrim gaplarda uzilishlar ro'y beradi (*– Lola ko'chasida o'n yettinchi uyda turadigan Sharif aka degan kishi*) va uzilishlar ham aniq bir maqsadni ko'zda tutadi. Gapdagi bu kalavalanishlar giyohvand yigitlarning Sharifni tanimasligidan dalolat berib turibdi. *Bratan, soqqa, nishtyak, ayn moment birliklari bu toifa odamlarning o'ziga xos tili mavjudligiga, etganmiza, oganuvza, ikkalavuza, aldavotganim yo'q, kirganman-de, ha-de, so'ruvrasizmi* so'zlari ularning Òoshkent shevasi vakillari ekanligiga ishoradir. Suhbat jarayoni og'zaki so'zlashuv uslubida tuzilgan. Ayrim gaplarning zarur a'zolari tushib qolgan (*Shundoq chap tomonda*) va hokazo. Bu til elementlari-

ning har biri asarda ma'lum ma'noda badiiy uslubga tegishli vazifalarni bajargan.

Ikkinchi parchadan yana shu narsa anglashiladiki, suhbatdoshlarning xarakteri, kayfiyati, suhbatlashayotgan kishisiga munosabati ham nutq jarayonida reallashadi. Aslida aytgani-aytgan, degani-degan, qamchisidan qon tomadigan, boshqalarga nihoyatda qattiqqo'l Asadbekning xarakteridagi boshqa qirralar dialog davomida ochiladi. Bolalikdagi do'sti Jalilga yon bosadi.

N.Muhiddinovning "Kremla o'tgan yillarim" asarining (Ö., «O'zbekiston», 1995) 60-64-betlarida asar muallifi va VKP(b) MK kotibi G.M.Malenkov bilan bo'lib o'tgan suhbatini keltirilgan. Bu dialogda so'z tanlash ham, gap qurilishi ham yuqoridagi matnlardan farq qiladi. Suhbatdoshlar nutqida uchragan hujjat, vakil, xodim, mazkur, masala, o'rganib chiqmoq, muhokama qilmoq, taqdim etmoq, kamchiliklarni bartaraf etmoq, astoydil intilmoq, masalaga tanqid ruhida yondoshmoq, respublikani oyogga turg'azmoq, mas'uliyatini oshirmoq, masalani o'rganib chiqmoq, masalani alohida ko'rib chiqmoq, nuqtai nazarni bayon qilmoq, partiya yo'lini og'ishmay amalga oshirmoq, ajoyib faollik ko'rsatmoq, munosib hissa qo'shmoq, nuqtai nazarimni bayon etishga ruxsat bering, yana bir masalani ko'tarishga ruxsat bering singari so'z va jumlar o'rtada bo'lib o'tgan suhbatning o'ta rasmiy, jiddiy ekanligidan, davlat va partiya hayotiga oid masalaning muhokama qilinganligidan dalolat beradi hamda yuqorida keltirilgan matnlardan farqlanadi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, garchi dialogik nutq til nuqtai nazaridan gap shakllarining to'liq bo'lmashligi, so'zlarning tushib qolishi yoki qisqarishi, inversiyaga uchrashi bilan boshqa nutq shakllaridan ajralib tursa-da, bu o'rinda ham muloqotning umumiy qoidasi va etikasini saqlab qolishga harakat qilinadi.

Matnlardagi dialogik nutqlarni ko'zdan kechirish yana shundan dalolat beradiki, ular asosan og'zaki nutq odatlarini o'zida namoyon qiladi. Adabiy matnlarda esa obraz yaratish, xarakterlarni namoyish etishning kuchli badiiy vositasiga aylanishi mumkin. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod va Xisrav, Uyg'un va Izzat Sultonning

“Alisher Navoiy” dramasiidagi Alisher Navoiy va Xusayn Boyqaro dialoglarini eslaylik.

Alohida bir kishiga taalluqli bo'lgan nutq monologik nutq sifatida baholanadi. Bu nutq ikki xil ko'rinishga ega: ochiq nutq va ichki nutq.

Ochiq nutq jamoaga qaratilgan bo'ladi va turli xarakterdagi yig'ilishlarda—qurultoylarda, sessiyalarda, ilmiy anjumanlarda, dars jarayonida, hisobot yig'ilishlarida, har xil jamoalarning majlislarida, uchrashuvlarda, bayramlarda, to'y-tomoshalarda, tug'ilgan kunlar, do'stlar uchrashuvi singari kichik davralarda, motam mitinglarida so'zlanadi. Bu yig'ilishlarning mazmuni turlicha bo'lganligi sababli ularda so'zlanadigan monologik nutq xarakteri ham bir-biridan farq qiladi. Masalan bayramlar, uchrashuvlar, to'y-tomoshalar, tug'ilgan kunlar tantanali tarzda kechadigan yig'inlar bo'lganligi tufayli ularda so'zlanadigan nutq ham tantanali ruh asosiga qurilgan bo'ladi. Hisobot yig'ilishlari va jamoalarning (ishlab chiqarish, rejalashtirish) majlislari rasmiy xarakterda bo'ladi. Qurultoy va sessiyalar keng qamrovli yig'ilishlar bo'lganligi tufayli ularda rasmiylik ham, norasmiylik va tantanavorlik ham bo'ladi. Mavzuga qarab har xil faktlar, raqamlar keltiriladi. Motam mitingida so'zlanadigan nutq esa yuqoridagi nutqlarning barchasidan tubdan farq qiladi.

Nutq mavzusining bu tarzda turli-tuman bo'lishi ular uchun til vositalarining ham tanlab ishlatilishini taqozo qiladi. Vaziyatga qarab kishilarga tantanavor ruh beradigan, ularni ilhomlantiradigan, safarbarlikka undaydigan, his-tuyg'ularini jurbushga keltiradigan, mas'uliyatini oshiradigan, tartib-intizomga chaqiradigan, ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan yoki shunchaki axborot berishga qaratilgan til vositalari tanlanadi. Motam marosimida so'zlangan nutq esa mazmuni bilan ham, tanlangan so'zlari bilan ham, tuzilishi bilan ham yuqoridagi nutq turlaridan tubdan farqlanadi.

So'zlovchining har bir nutqni so'zlash jarayonida o'zini tutishi, harakatlari, hatto kiyinishi ham farq qiladi. Boshqacha aytganda, farq qilishi kerak. Masalan, Oliy Majlis sessiyasiga to'n kiyib borish odob sanalmagani kabi, azaga e'tiborni tortadigan yaltiroq kiyimlarni kiyib borish yoki lab va qoshko'zlarni bo'yab borish ham ma'qul emas.

Demak, har bir monologik nutqiy vaziyat so'zlovchidan alohida bir munosabatni va mas'uliyatni talab qiladi. Ayni paytda, ularning barchasi uchun, avvalgi mavzularni yori-

tishda ta'kidlab o'tilganidek, umumiy bo'lgan qoidalar ham mavjud. Bu dastlab so'zlanadigan nutqning qolipi – rejasi bo'lishi. Qayerda va qanday vaziyatda so'zlanishidan qat'i nazar, har bir nutq ma'lum reja asosida bo'lishi, auditoriya, vaqt hisobga olinishi lozim. Boshqacha aytganda, nutq so'zlashdan ma'lum maqsad bo'lishi va bu maqsad amalga oshishi zarur. Buning uchun tinglovchilarga ta'sir o'tkazish, ta'sir o'tkazish uchun esa tildan foydalanishning ham, o'zini tutishning ham ta'sirchan vositalaridan foydalanish kerak bo'ladi.

Adabiy asarda monologning ichki ko'rinishi xarakterli bo'lib, badiiyat manfaati nuqtai nazaridan ular alohida vazifa bajaradi. Shuning uchun Said Ahmad: "Yozuvchi faqat qahramonning tilidagini yozmay, uni ichidan ham gapirtira bilishi kerak. Chunki ichidan gapirtirilgandagina, qahramonning ichki olami ochiladi. Qahramonning ichki olamini, ichidagi bo'lgan ohangni, ichki dardni yozuvchi o'z tili bilan olib chiqadi" degan edi [2, 618-b.]. Prof.B.Yo'ldoshev "Badiiy nutq stilistikasi" nomli kitobida o'zining ana shu qarashlariga amal qilgan yozuvchi asarlari ("Örnalar", "Alla", "O'rik donla", "Ufq",) misolida ularning obrazni individuallashtirish va xarakter yaratishdagi vazifalari xususida mulohaza yuritib, dialogik va monologik nutq tahliliga keng to'xtalgan va ularni badiiy nutq uslubidagi bayon usullari sifatida ko'rsatib bergan [1, 27-62-b.].

Darhaqiqat, yozuvchi qo'lida ichki monolog qahramon qiyofasini o'quvchi ko'z oldida butun borlig'i va murakkabligi bilan gavdalantirishga xizmat qila oladigan kuchli badiiy vosita bo'la oladi. "Shaytanat"dagi Asadbek o'quvchi ko'z o'ngida har ishga qodir bo'lgan qudratli kishi sifatida namoyon bo'lgan. Ammo u ham hamma qatori inson. Bedavo dard – saraton kasaliga yo'liqqanda uning xayolidan o'tgan kechinmalarni yozuvchi quyidagicha beradi: *Öo'yib-to'yib nafas olishga zor bo'lib o'laman. Jonim yo'tal bilan chiqsa o'lganinni bilmay ham qolishadi. Birov xabar olguncha sasib yotaveraman. Jag'imni tang'ishadi, oyoqlarimni bog'lashadi. Dod-voy... Kim yig'laydi? O'g'illarim uzoqda. Zaynab dod solar balki... Yana bir-ikki xotin qo'shilar... Xotinlarning yolg'ondan bo'lsa ham yig'lab turgani yaxshi. Bo'lmasa bu uydan o'lik chiqqanini birov bilmaydi. Xotinlarning yig'isisiz o'likning ham fayzi bo'lmasa kerak. Manzura yetib kelsa bu yog'ini o'zi eplashtiradi! Yo'-o'q... u yig'lamaydi. Jalilning onasi o'lgandamidi... ha, o'shanda yig'isini*

eshitib "Dodlashni ham o'rniga qo'yar ekansan, o'lsam maza qilib eshitib yotaman", deb hazillashganida "Voy adasi, xotinlar eriga yig'lamaydi, ayb bo'ladi", degan. Qiziq, nima uchun ayb bo'ladi? Manzuraning yig'lashi shart ham emas. Balki... qutulganiga shukur qilar?.. Menga tekkanidan beri boshi tashvishdan chiqmaydi. Endi yayrayman, deganida bolalarni o'qishga jo'natdim. Keyin chet elga yubordim. Ularni sog'indi. Sog'indi-yu, "Sog'inayapman", deb zorlanishga mendan qo'rqadi. Qiziq... urmasam ham mendan qo'rqadi-ya... Zaynabning tashvishi uni tamom qildi. Yaxshi hamki keyingi voqealardan uzoqroqda. Bilsa yuragi yorilib ketardi. Kelinlarini boshlab kelib rohat ko'raman, deganida men do'zilib yotsam... Bir jihatdan u kelguncha jo'navorganim ham yaxshi. O'ligimni ko'rmasa bir-ikki kun yig'lab, keyin ko'nikib qoladi... Meni tanish-bilishlarimning o'zlari joyimga olib borib qo'ya qolishadi. Janozaga tizilishadi. Donla aql o'rgatadi. Nima deydi? "Odam oxir-oqibat o'lmoq uchun bu dunyoga keladi", deydimi? "Pensiyaga chiqqandan keyin namoz o'qiyman, deb kutmanglar, mana bu birodarimiz ham pensiya yoshiga etmabdilar. O'lmasingizdan oldin bir marta bo'lsa ham peshonangiz joynamozga tegsin", deydimi? Yo "Yog'och otga minib kelmasingizdan avval o'z oyog'ingiz bilan masjidga kelib turing", deydimi? Keyin "Marhumning yaqinlari kim?" deb so'raydi. Kim chiqadi? Haydarmi? Mahmudmi? Yo'q, Jalil chiqadi. "Marhum birovdan qarz olgan bo'lsa, to'layman" deb so'z beradi. O'tak. Mening kimdan qarzim bor ekan? Odamlar mendan qarz. Lekin ular qarzlarini keltirib berishmaydi. O'lganindan xursand bo'lishadi. Balki o'shalar "O'ezroq o'la qolsin" deb duo qilishayotgandir. Men Jalildan qarzman. Ha... qarzim bor undan. Hovli-joy olib berishim kerak edi. Mahmudga tayinlab qo'yishim kerak, mendan keyin olib bersin. Keyin ko'tarishadi. O'obutning bir chekkasidan ushlash savob ekan. Meni ko'tarish ham savobmi? Odam yig'iladi? Yuztami, mingtami? Shundan qanchasi xursand, qanchasi xafa?.. Joyimga yotqizishib, bir kaftdan tuproq tashlashadi. Joyim... joyim qopqorong'i lahadmi? Keyin "Asadbek qanaqa odam edi?" deb so'rashadi. "Yaxshi odam edi", deyishadi. Ha... Bu gaplari to'g'ri bo'ladi. Dunyodagi eng yaxshi odam-o'lik odam. Chunki u birovga yomonlik qilmaydi.

Asadbek qanchalik mag'rur inson bo'lmasin, u ham o'linga tan berishga majbur. Mana shunday paytda atrofdagilari bima-

bir uning ko'z oldidan o'tadi. Ularning munosabatini Asadbek qanday tushunishini ochishda ichki monologning xizmati va vazifasi ana shundan iborat bo'ladi.

Xullas, bu har ikkala nutq ham qanday vaziyatda ijro etilishidan qat'i nazar ular muallifning dunyoqarashi va maslagini, ma'naviyati va madaniyatini o'zida mujassam qiladi. Insonning saviyasi qanday bo'lsa, uning muomalasi ham shunday bo'ladi. Bu har ikkala nutqning o'ziga xos xususiyatlarini bilib olganimizdan keyin biz ham vaziyatga qarab so'zlashimiz va har bir nutqiy vaziyatdan o'z maqsadimizdan kelib chiqib unumli foydalanishimiz, bor inkoniyatimizni tinglovchilarning hurmat-e'tiborini qozonishga qaratishimiz lozim bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Radioeshittiruv va teleko'rsatuvlar uchun o'quvchilar hayotidan matnlar tayyorlang.

2. Xabar, yangilik mazmunida matn tayyorlang.

3. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan olingan Farhod va Xisrav o'rtasidagi savol-javobni aks ettiruvchi ushbu dialogni tahlil qiling:

Dedi: – "Qaydinsen, ey majnuni gumrah ?!"

Dedi: – "Majnun vatandin qayda ogah?"

Dedi: – "Nedur sanga olamda pesha?"

Dedi: – "Ishq ichra majnunluq hamisha".

Dedi: – "Bu ishdan o'lmas kasb ro'zi!"

Dedi: – "Kasb o'lsa basdur ishq so'zi".

Dedikim: – "Ishq o'tidin ne fasona!"

Dedi: – "Kuymay kishi topmas nishona".

Dedikim: – "Kuymagingni ayla ma'lum!"

Dedi: – "Andin erur joh ahli mahrum!"

Dedi: – "Qay chog'din o'lding ishq aro mast?"

Dedi: – "Ruh ermas erdi tang'a payvast"

Dedi: – "Bu ishqdin inkor qilg'il!"

Dedi: – "Bu so'zdin istig'for qilg'il!"

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Dialogik va monologik nutq shakllarini, ularning o'ziga xos jihatlari tushuntirib bering.

2. Dialogik nutqda kirish so'z, undov va modal so'zlarning qo'llanish xususiyatlarini izohlang.

3. Dialogik nutqda tildan tashqaridagi (paralingvistik) vositalarning ahamiyatini ayting.

4. Monologik nutqning qanday shakllari mavjud?

A D A B I Y O T L A R

1. Yo'ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. Samarqand, SamDU nashri, 1982, 27-62-betlar.

2. Said Ahmad. Saylanma, uch jildlik. III jild. T., "Sharq" matbaa konserni, 1982, 618-bet.

2-MAVZU: Vazifaviy uslublar va nutq madaniyati

R e j a:

1. Vazifaviy, ya'ni funksional uslub tushunchasi.
2. O'zbek tili vazifaviy uslublarining shakllanishi til taraqqiyotining navbatdagi bosqichi ekanligi.
3. Vazifaviy uslublar ko'rinishlari.
4. Nutq madaniyatining vazifaviy uslublarga ta'siri.

Öayanch so'z va iboralar: uslub, uslubshunoslik, vazifaviy uslubshunoslik, yo'nalishlar, tasnifdagi omillar, lingvistik, ekstralingvistik, vazifaviy uslublar turlari, rasmiy, ommabop, ilmiy, badiiy, so'zlashuv. Rasmiy: davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalar, diplomatik munosabatlar, ish yuritish hujjatlari, aniqlik, soddalik, qolip, o'ziga xos atamalar, ot turkumiga oid so'zlar, majhul nisbat, shart mayli, faol fe'llar. Ilmiy: fan sohasi, ilmiy tafakkur, dalil, fakt, janr xususiyatlari, monografiya, risola, darslik, qo'llanma, dastur, ma'ruza, taqriz, referat, aniqlik, atamalarning qo'llanilishi, obyektivlik, mantiqiy izchillik, qisqalik, sodd yoyiq, bog'lovchili qo'shma gap, xoslangan fe'llar. Ommabop: hozirjavoblik, targ'ibot, tashviqot, axborot, novatorlik, ijtimoiy-siyosiy terminologiya, oraliq uslub, qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik, ommaviy axborot vositalari, sifatdosh oborotlar, shart mayli, ritorik so'roq, ritorik undov, murojaat, undov, bir bosh bo'lakli gaplar, turg'un birikmalar, kirish bo'lak, kirish gap, shaxsi unumlashgan gap.

O'zbek tilshunosligining nisbatan yangi sohasi sanaladigan stilistika-uslubshunoslik til birliklarining aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda qo'llanishi,

nutqni tashkil qilish qonuniyatlari, til tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma'no nozikliklarini aniqlash bilan shug'ullanadi. "Stilistika – tilda mavjud bo'lgan barcha vositalar – leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma'lum bir tipdagi forma, so'z va konstruksiyalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi. Shunga ko'ra, stilistika so'z san'ati, ifoda vositalar haqidagi alohida bir fandır" [1, 50-b.].

Öildagi ana shunday muammolar bilan shug'ullanadigan uslubshunoslikning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

1. Ölning leksik resurslarini o'rganuvchi yo'nalish.
2. Funksional stilistika – vazifaviy uslubshunoslik.
3. Badiiy adabiyot uslublari.
4. Amaliy uslubshunoslik.

Mavzu nuqtai nazaridan bu o'rinda bizni vazifaviy uslubshunoslik qiziqtiradi. Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar. Ölimizdagi vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishini taqozo qiladi. Öl birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish uslubshunoslikda yangi sohani – vazifaviy uslubshunoslikni vujudga keltirdi.

O'zbek tili uslublarni vazifaviy jihatdan tasnif qilish ikki omilga – til va tildan tashqarida bo'lgan omillarga tayanadi. Bu uslublarning N.A.Baskakov, A.Sulaymonov, A.Shomaqsudov, G'.Abdurahmonov, B.O'rinboyev, S.Muhamedovlar tomonidan tavsiya etilgan variantlari mavjud bo'lib, ularda asosan beshta uslub – so'zlashuv, ommabop, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublarni e'tirof etiladi.

Ular haqida bilimga ega bo'lish o'quvchilarga ona tilimizning nutq jarayonidagi imkoniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi.

Rasmiy uslub hozirgi o'zbek tilining davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon

bo'ladigan ko'rinishidir. Qonun matnlari, famonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas barcha rasmiy ish qog'ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlarning o'z me'yorlari mavjud.

Jumladan, aniqlik. Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o'rirlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak: *O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat beradigan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.* (O'zR Konstitutsiyasi, 7-moddada).

Qolip. Fikr-mulohaza, bayon asosan bir qolipda ifodalanadi. Solishtiramiz: *O'zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan marhum adabiyot va san'at namoyandalarini mukofotlash to'g'risida.*

Betakror iste'dodi va o'lmas ijodiy merosi bilan o'zbek milliy madaniyatining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, butun hayotini el-yurt taraqqiyoti, xalqimiz ma'naviyatining yuksalishiga baxsh etgan vatandoshlarimizning xotirasini yod etib, ularning Vatan oldidagi unutilmas xizmatlarini inobatga olib, quyidagi marhum adib va san'atkorlar "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlansin (O'zR Prezidentining 2001 yil 22 avgust Famonidan).

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi e'lon qilinganligining o'n yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi e'lon qilinganligining o'n yilligi munosabati bilan insonparvarlik tamoyiliga amal qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 20-bandiga asosan qaror qilaman (O'zR Prezidentining 2001 yil 22 avgust Farmonidan).

Shu tarzda ariza, qaror, bildirishnoma, ma'lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos bayon etish qolipi bo'ladi. Ayni paytda, ularning har birining alohida so'z va turg'un birikmalari ham mavjud bo'ladi. Masalan, huquqiy hujjatlar matniga ko'z yugurtirsak, ularda boshqa vazifaviy uslublarda deyarli uchramaydigan atamalarga duch kelamiz: *ma'muriy javobgarlik, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumonlanuvchi, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv, jabrlanuvchi bilan yarashuv* va boshqalar.

Ish qog'ozlari va hujjatlarning xilma-xilligiga qarab ularga oid atamalarning me'yorlashuvi va chegaralanuvi ham kuzatiladi. Qiyos uchun diplomatik munosabatlar doirasidagi so'z va iboralarga ko'z yugurtiraylik: *ahdlashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixona, muxtor elchi, muxtor vakil, ishonchli vakil, nota, ratifikatsiya, shartnoma, bayonot, qo'shma bayonot, deklaratsiya, tashrif, qarorgoh* kabilar.

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emotsional-ekspressiv bo'yogga ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik me'yori ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p ishlatiladi. Noaniqliklarga yo'l qo'yilmaslik maqsadida ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi: *O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ranzlarini: gerbi, bayrog'i, machiyasini ta'xis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ranzlari muqaddasdir* (1991 yil 31 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" gi Qonunning 16-moddasidan).

Bu uslubda fe'lning harakat nomi shakli faol qo'llaniladi, gapning kesimi ko'pincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat etiladi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari" haqidagi 78-moddasida *o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, qabul qilish, belgilash, tasdiqlash, tartibga solish, o'zgartirish, joriy qilish, komissiyasini tuzish, saylov kunini tayinlash, saylash, ozod etish, ratifikatsiya qilish, ta'xis etish, amalga oshirish* singari fe'lli birikmalar ishlatilgan. Ushbu hujjatda *amalga oshiriladi, asos bo'ladi, tashkil etadi, belgilanadi, asoslanadi, hisoblanadi, himoya qilinadi, amalga oshiradi, tan olinadi, ish ko'radi, ado etadi, kafolatlanadi, taqiqlanadi, tavsiya etiladi* singari fe'llarning faol ishlatilishi ham yuqoridagi fikrning tasdig'idir. Yana : *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ma'ruzasidagi konseptual qoidalar va xulosalar ma'qullansin* *handa ular Oliy Majlisning kelgusi faoliyatida inobatga olinsin. Ma'ruzaning dasturiy xulosalari prokuratura, boshqa huquqni*

muhofaza qilish organlari, sudlar faoliyati uchun asos qilib olinsin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga mustaqillik va demokratiya qo'lga kiritgan yutuqlarni himoya qilish, ijtimoiy adolat, fuqarolar tinchligi hamda totuvligini ta'minlash ishlarini kuchaytirish tavsiya etilsin. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy majlisning oltinchi sessiyasidagi ma'ruzasi yuzasidan Oliy Majlisning 2001 yil 29 avgust qaroridan).

Shu o'rinda rasmiy uslubda yozilgan matnlar uchun barcha morfologik vositalar va kategoriyalarning qo'llanilishi bir xil darajada emasligini ta'kidlash ham maqsadga muvofiq. Masalan, sonlar va olmoshlar bu uslubda boshqa so'z turkumlariga qaraganda ikkinchi darajali omil hisoblanadi.

Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda darhol ko'zga tashlanadi. Unda darak gaplar, uning ayniqsa qo'shma gap shakli ko'p ishlatiladi. Yoyiq va murakkab so'z birikmalari hamda murakkab tipdagi nomlar keng qo'llaniladi. Gap tuzilishida o'zbek tilidagi odatdagi me'yorga amal qilinadi va yuqorida sanalgan jihatlari bilan ilmiy uslubga o'xshab ketadi.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Oil birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning o'ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchillik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me'yorning o'ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Yuqorida bu kabi xususiyatlarning mushtarakligi bilan ilmiy uslub rasmiy uslubga yaqinligi aytib o'tilgan edi.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llamasini, o'quv-metodik qo'llama, dastur, ma'ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning ana shu janr ko'rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma'lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me'yoriga ko'ra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Aniqlik. Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda so'zlarni aniq, asosan bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatoridagi variantlardan

masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech bo'lmaganda, neytral variantini qo'llash taqozo etiladi. Öeminlarni qo'llash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi: *Kimyoviy tarkibiga ko'ra gerbitsidlar anorganik va organik gerbitsidlarga bo'linadi. Anorganik gerbitsidlar: natriy arsenit, ammoniy sulfat, kalsiy siyanid, sulfat kislota va boshqalar. Organik gerbitsidlar: traktor kerosini, mochevina hosilalari, xlorfenoksisirka kislota, xlorfenoksimoy kislota va boshqalar. Hozirgi vaqtda ko'proq organik birikmali va ba'zan anorganik birikmali gerbitsidlar qo'llaniladi.*

2. Obyektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi. "Mantiq" darsligidan bir misol keltiramiz: *"Epimenid "Men yolg'on gapiraman" deb aytdi. Bu paradoksni mutlaqo hal etib bo'lmaydi. Aytaylik, Epimenid rost gapirdi, bu holda uning haqiqatda yolg'on gapirgani aniq bo'ladi. Aytaylik, u yolg'on gapirdi. Bu holda uning haqiqatda ham rost gapirgani ma'lum bo'ladi"* .

Ma'lum bo'ladiki, haqqoniylik, obyektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko'rish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin.

3. Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzatslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlarda bu izchillikni yuzaga keltiruvchi *ma'lunki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinliki, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas* singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi.

4. Qisqalik. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlari-dan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi: *G'alla ekinlari urug'lari saqlashga ancha chidamli hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini sifatli urug' bilan ta'minlashda uni saqlash*

muhim tadbirdir. Ekiladigan g'alla urug'lari uchun davlat standarti belgilangan.

Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega emas. Leksikasida esa farq qiluvchi jihat sohaviy atamalarning ko'pligi hisoblanadi. Bu uslubda ham, xuddi rasmiy uslubda bo'lgani kabi, so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash, tasviriy vositalardan unumli foydalanish xos xususiyat sanalmaydi. Subyektiv emotsionallik, obrazlilik, og'zaki nutq elementlari, umuman g'ayri adabiy unsurlar kam ishlatiladi. Mumkin qadar bayon bir xil me'yorda ifoda etiladi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda fikr yuritilayotgan manba, mavzu bilan uyg'un ravishda ba'zan bu uslubda ham obrazli ifodalardan foydalanish istisno emas. Masalan: *Differensial tenglamalarning xususiy hosilalari fizikaga cho'ri bo'lib ishga kirdi, keyin u cho'ridan bekaga aylanib ketdi* (R.Bekjonov).

Muallif individualligining kam sezilarli bo'lishi ham ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari to'g'risida M.Mukarramovning "Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili" monografiyasida quyidagi fikrlar bayon qilingan:

Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. So'z turkumlaridan ot faol, ko'pincha takror qo'llanadi. Subyektiv baho shakllari xos emas. **-lar** ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifodalama-da, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qo'shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid so'zlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan.

Ilmiy nutq uchun *deyiladi, aytiladi, yoritiladi, bayon qilinadi, aniqlanadi, tekshiriladi, foydalaniladi, ta'riflanadi* singari xoslangan fe'llar mavjud. Fe'lning majhul daraja shakli ham bu uslub uchun xos. Ammo hozirgi-kelasi zamon shaklidan tashqari xarakterli zamon ko'rsatkichi yo'q. Kishilik olmoshlari kam qo'llaniladi. Bu gap faqat *muallif* va *men* ma'nolarida qo'llaniladigan hamda kamtarlik ma'nosini ifodalaydigan *biz* olmoshiga tegishli emas.

M.Mukarramov ushbu monografiyasida "Adabiy tilning konkret ko'rinishlari bo'lgan so'zlashuv, badiiy, publitsistik,

rasmiy-hujjat va ilmiy nutqlarning real mavjudligini tan olsak, u vaqtda har bir nutq turining o'z modal ma'no ifodalovchi so'zlarini ham tan olishimizga to'g'ri keladi" [5, 108-b.] degan mulohazani aytib, *demak, xullas, darhaqiqat, haqiqatan, shubhasiz, albatta, darvoqe, masalan, jumladan, ayniqsa, xususan, aksincha, afsuski* singari modal so'zlar va modal ma'no anglatuvchi boshqa birliklarni tahlil qilgan.

Shu tarzda ilmiy uslubning *ammo, lekin* kabi o'z bog'lovchilari, *bilan, uchun, kabi, singari, haqida, to'g'risida, tufayli, sababli, doir, oid, binoan, tashqari, qaraganda, asosan, muvofiq, qadar* singari ko'makchilari borligini ham qayd qilish to'g'ri bo'ladi.

Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi. Rasmiy uslubdagiga o'xshab gap tuzilishining odatdagi tartibi qo'llaniladi. Qo'shma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqeni egallaydi, so'roq va buyruq gaplar deyarli qo'llanilmaydi.

Ommabop uslub o'zbek tilshunosligida filologiya fanlari nomzodi Ò.Qurbonov tomonidan monografik yo'nalishda o'rganilgan [11].

Oil taraqqiyotida muhim omil sanaladigan publitsistika o'z navbatida tilning imkoniyatlaridan ham keng foydalanadi.

Ommabop uslub imkoniyatlarining kengligini lingvistik va ekstralingvistik (paralingvistik) – tildan tashqaridagi omillarning mustahkam aloqadorligida kuzatamiz. Publitsistik janrda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavobligi, ularning axborot hamda targ'ibot-tashviqot xarakterda bo'lishi va ommani dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilishi natijasida yuzaga keladigan novatorlik unda tabiiy ravishda yangi ijtimoiy-siyosiy terminologiyani qo'llanilishi va tilimizda me'yorlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, ommabop uslub tilning yangi so'z va iboralar hisobiga boyib borishiga ko'maklashadi.

Ommabop uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar

qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi va publitsistik janrlarga xos ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Ayni paytda, ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar uni ilmiy uslub bilan ham yonma-yon qo'yadi.

Radio va televideniyaedagi ayrim chiqishlar shuni ko'rsatadiki, bu uslubdagi matnda so'zlashuv uslubi elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkin.

Ma'lumki, publitsistika badiiy, siyosiy, ilmiy jabhalarni qamrab oluvchi yirik soha hisoblanib, ommaviy axborot vositalari sanaladigan radio va televideniyaeda, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, xabar, reportaj, tahlilnoma, bosh maqola, maqola, ocherk, feleton, pamflet, e'lon, reklama singari qator janrlarni qamrab oladi. Ana shu qamrov doirasining kengligi o'z navbatida til birliklarining har bir janrdan alohida tarzda me'yorlashuvini taqozo etadi. Bu o'rinda esa me'yorlashishning umumiy jihatlari xususida so'z yuritish imkoniyati mavjud.

Ö.Qurbonovning kuzatishicha, sifatdosh oborotlar, fe'llarning shart mayli shakllarining almashinib ishlatilishi, ritorik so'roq, ritorik murojaat, undov, bir bosh bo'lakli gaplarning faolligi bu uslubga xos xususiyatlar sanaladi [12, 35-b.]. Eng muhimi, ijtimoiy-siyosiy atamalar ko'p qo'llaniladi. Hatto umumiste'moldagi so'zlar ham ommabop uslubda yozilgan matnda atamaga aylanishi mumkin: *ovoz, ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, maslahat ovozi, qarshi ovoz, ovozga qo'ymoq, ovoz bermoq, Osiyo ovozi* singari.

Ijtimoiy-siyosiy atamalar asosan *-chi, -parast, -parvar, -xona, -nana* qo'shimchalari yordamida yasaladi. Misollar: *terrorchi, qo'poruvchi, aqidaparast, millatparvar, devonxona, bojxona, hissador, tadbirkor* kabi.

Shu o'rinda mazkur uslubda so'z yasaliş imkoniyatining boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan mahsuldor ekanligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Öurli metaforik turg'un birikmalar – *davr talabi, do'stona suhbat, yuqori hosil uchun kurash, yaratuvchilik ishlari, dunyo hamjamiyati, mustaqil mamlakatlar hamdo'stligi, mustaqillikni mustahkamlash* singarilarni faol qo'llash ham ommabop uslub tabiatiga mosdir.

So'roq gaplarning mahsuldor ishlatilishi, ularning murojaat va dialog shaklda bo'lishi, bunda savol beruvchi ham, javob

beruvchi ham muallifning o'zi hisoblanishi (G'urur nima o'zi? Rangi qanaqa? U hammada birday bo'ladimi yoki aksinchami? Menincha, g'ururli odam mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan har qanday muvaffaqiyatni o'ziga tegishli deb biladi va undan quvonadi. – Xalq so'zi, 2001 yil 20 sentabr), uyushiq bo'lakli gaplarga ko'proq murojaat qilinishi (Chunki o'qituvchi zoti mashaqqatli mehnati, hayotiy tajribasi, beqiyos mehri bilan yosh avlodga faqat ilm-fan sirlarini o'rgatib qolmay, uning yuragida Vatanga muhabbat, ajdodlar ruhiga hurmat, el-yurtga sadoqat kabi yuksak tuyg'ularni kamol toptirishda ibrat va namuna bo'ladi. – I. Karimov. O'zbekiston o'qituvchilariga va murabbiylariga tabrik, Xalq so'zi, 2001 yil 29 sentabr), undovlarning, kirish bo'laklar va kirish gaplarning (Vaholanki, ular o'z mutaxassisligi bo'yicha qayerga joylashishni bilmay yurishgandi. Albatta, bu bilan muammo bartaraf etildi, deb aytish noto'g'ri bo'lar edi. – Ishonch, 2001 yil 22 sentabr), shaxsi unumlashgan gaplarning keng qo'llanishi bilan ajralib turadi.

Ommabop uslubning badiiy uslub bilan mushtarak tomonlari, ayniqsa, uning leksikasi va frazeologiyasida seziladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yangilikni yoritishga bo'lgan intilish ommabop uslubning asosiy xususiyati sanalib, bu xususiyat tilning yangi so'z va iboralar bilan boyib borishiga sabab bo'ladi. O. Qurbonov bu uslubda so'z yasalişining ikki ko'rinishi – morfologik va kompozitsion usulning mahsuldor ekanligini ta'kidlaydi hamda bunda *-chi*, *-shunos*, *-parast*, *-xona*, *-dosh*, *-lik*, *-cha* birliklarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Badiiy uslub o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, ayni paytda o'zining alohida me'yorlariga ham ega. O'il materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga – badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi. O'abiiyki, bunday imkoniyatlar boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangan.

O'il vositalarini qo'llashda ana shu keng qamrovlilik bo'lishi bilan birga, bu uslub doirasida ularni qo'llashning ma'lum me'yorlari ham amal qiladiki, fonetik, grammatik, leksik va

frazeologik xususiyatlar tarzida ko'zga tashlanadigan ana shu me'yorlar uni boshqa vazifaviy uslublardan chegaralash inkonini beradi.

Badiiy adabiyot tilidagi fonetik o'zgarishlar asosan matnda tovushlarning qisqargan va orttirilgan (**So'rma** mendan, kim diloro / Do'stmi yo jonona deb. E.Vohidov; **Ne balolig'** kun edikim. **Oshino** bo'ldim sango. Alisher Navoiy; **Shabboda** men seni ko'rmayman, / Qo'linga tutmayman. Zulfiya), ona tilimizning tarixiy taraqqiyot va she'riyat qoidalariga mos tarzda "z" ning "y" ga (**So'yla** quyosh, nimalar bo'lgan, / Sen chiqqanda birinchi marta. H.Olimjon), "q"ning "g"ga (**Quyosh** orqasidan – behisob **chirog'** / **Nuriga** kiradi mamlakat shu **chog'**. Zulfiya) o'tgan ko'rinishlarda me'yorlashgan.

Shuningdek, badiiy uslubda, xususan poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan **qaro, yamon, yaro, oshro, talosh** singari so'zlar ham ishlatilaveradi.

O'zbek tili so'z turkumlarining grammatik shakllari turli adabiy, tarixiy hamda dialektal variantlarga ega bo'lib, ular hozirgi adabiy til me'yori nuqtai nazaridan bir tomondan, qo'llanish chastotasiga ko'ra faol yoki aksincha bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda vazifaviy-uslubiy chegaralanish ham sezilib turadi. Bu xususiyatlar so'z yasovchi hamda ko'plik, egalik, kelishik, daraja, shaxs-son, zamon, mayl, nisbat kabi ma'nolarni ifoda etuvchi affikslarning nutqdagi ishtirokida, yordamchi so'zlarning turlicha ko'rinishlari va variantlarida namoyon bo'ladi. Ularning ma'lum qismida badiiy uslubga xoslanganlik mavjud.

Masalan, **-lar** kesim tarkibida kelgan paytda hurmat (**Dadam keldilar**), kinoya, piching (**Mulla Eshmat, kelsinlar**) kabi ma'nolar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa, ta'kid, kuchaytirish, muholaga singari ma'nolar badiiy uslubda ko'proq ishlatiladi (**Shu ko'zlar yulduzday abadiy kulsin, Bahor yo'llaringga to'shasin chechak**. Zulfiya). Bu kabi holatlar ilmiy va rasmiy uslublarda ko'zga tashlanmaydi.

Bundan tashqari bu uslublarda grammatik shakllarning adabiy-me'yoriy variantlari qo'llanilsa, aksincha, badiiy uslubda bu grammatik shakllarning barcha ko'rinishlari – lahja va tarixiy variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo'llanilaveradi.

Uslubiy xoslanish kelishik qo'shimchalari variantlarining tanlanishida ayniqsa seziladi. Masalan, qaratqich kelishigining **-(i)m** (**Axir hayajonlar o'zligim manim**, / **Mayli qalbingga**

ham ko'chsin hayajon. K.Bahromova), **-n** (Qanday ko'rkam qizlar **avlodin** /Xassos didi va shoir dili. Zulfiya), **-ing** (Shavqinning shuhrasi boshing uza zar tora fido, / **Ko'ngluming** mahzani gul orazi gulnora fido. Joniy) tarzida qo'llanishi, qaratqich-qaralmish inversiyasi (Yarqirar ming bir bahor ko'rki **kamolingda sening**, /Oftobning aksi bor o'tlug' **janolingda sening**. J.Jabborov), grammatik ko'rsatkichlarsiz kelishi (Qarshingda turibdi **umrim** bir kuni, / Mening uvoq she'rim mening dilporam. J.Kamol); tushum kelishigining **-(i)n** (Uchirsang-da ko'kka yurak **kulin**, / Achchig'larnam senga nozli quyosh. Fitrat) va belgisiz shakli (Ulug' Hoqon, sendan so'rov shu erdi. / Elga sabr, bardoshdan bo'lak **narsa** ber. H. Xudoyberdiyeva); jo'nalish kelishigining **-a** (Og'larning yuzi qora. Na ko'kat bor, na lola. Ul taajjub etardi. Kunduzdagi **ahvola**. H. Olimjon), **-na** (Soya tushsa nogahon bu jismi betob **ustina**. Navoiy), **-qa** (Hajri ashkim yetkurur har dam **quyoshqa** bir hayot. Navoiy), **-g'a** (Yo ilohi, endi qilg'aysan bu bandangga nazar. Jandami, bir do'sh etib, kirdim **yo'lungg'a** darbadar. Mashrab) hamda belgisiz holatda bo'lishi (**Maktab** bordik-og'ir bo'lib qoldik daf'atan. A. Oripov); chiqish kelishigining **-din** tarzida ishlatilishi (Vatan **sevmakdin** ortiq Menga olamda shior bo'lmas. E. Vohidov), o'rin kelishigi qo'llanganda u bilan egalik qo'shimchasi o'rtasida bitta "n" tovushining orttirilishi (*Suxoningda anor guli kahrabodur, Yobaningda bodamlaring talx g'izodur, Qovun-tarvuz **qursog'inda** selitrodur, Kimlar seni bamar etdi, Obiatiingni xor etdi.* O.Hojiyeva) shu uslubga xos xususiyatlar sanaladi.

Sifat va son turkumlari doirasida qaraladigan grammatik birliklarning ko'pchiligi barcha vazifaviy uslublarda ishlatilishi bilan xarakterlansa-da, ularda ham uslubiy farqlanishlarni, stilistik ottenkalamni payqash qiyin bo'lmaydi (Bu haqda yana qarang: Qo'ng'urov R. Sifat stilistikasi // O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari. Samarqand, SamDU nashri, 1982, 3-10 betlar; *Shu muallif*. Olmosh stilistikasiga oid ayrim mulohazalar// O'zbek tili stilistikasidan kuzatishlar. Samarqand, SamDU nashri, 1981, 4-21-betlar). Masalan, sifatdagi **-lik** qo'shimchasining **-liq, -lig', -luq, -lug'** kabi shakllari (*Shohigul ermas bu o'tlug' yuzlaring hijronida.* E.Vohidov) ajralib turadi; **charog'on, shodon, za'faron** kabi so'zlar tarkibidagi **-on;** **chirkin, otashin** kabi so'zlardagi **-in** affiksalarida badiiy uslubga xos chegaralanganlik seziladi (*So'ng bu iflos zafardan Ular*

shodon yurdilar. Olamda mard yo'q ekan. Bizlar mardmiz dedilar. O.Matjon).

Olmoshlarning uslubiy chegaralanishlari badiiy adabiyotda sezilarli o'rin tutadi. Kishilik olmoshlarini olaylik. **Men, biz, sen, siz, ular** singari olmoshlarning biri o'rnida ikkinchisi, ya'ni **men** o'rnida **biz** (–Ma, ich, amir, –dedi va kuldi. – Bilib qo'y, **bizday** amirul-mo'min qo'lidan yolg'iz sen may ichursen. O.Yoqubov), **men** o'rnida **sen** (Bilmaydikim... yo'q, to'xta Muhammad Ōarag'ay! Nechun **sen** shahzodadan ranjiysen. O.Yoqubov), **siz** o'rnida **sen** (Izn ayla! Ona. Darig' tutma lutfingni, Avval shuki, **senga** qalqon bo'la olmagan Bizni – noshud farzandlarni afv etgaysen. E.Samandar) qo'llanishi bu uslub uchun me'yor sanaladi.

Fe'lda badiiy uslubga xos belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: **Emoq-ermoq** (Kecha ustod chaqirtirgan **erkan**. O.Yoqubov), **kan-kin** (**Bo'lganmikin** yer uzra bir ko'z Ko'rmak uchun seni osmonda. H.Olimjon), **-gin/-gil/-g'il** (**Qo'ygil** u kunlarni eslatma menga. A.Oripov; **Lekin hazar qilmag'il**. O.Yoqubov), **-sin/-sun** (Jonlar sening yuzginangdan **aylansun**. Fitrat) kabilar.

Uslub talabi bilan o'zaro o'rin almashishlarni mayl va nisbat kategoriyalari misolida ham kuzatamiz. Masalan, shart mayli – aniqlik mayli: *Ōerimchi chevarlar etaklab, qoplab Ōog'day xirmonlarga keltirib to'ksa, Men behad sevaman* (Zulfiya). Yoki aksincha: *Men hayot ekanman, hayotsan sen ham* (Zulfiya). Buyruq mayli – shart mayli: *Boysunqur mirzo zo'ravonlik qilsin! Men mo'minlarcha bosh egib elchi yuboray!* (O.Yoqubov), buyruq-istak mayli – aniqlik mayli: *Qayga borsin taqdiridan qochib?* (Zulfiya).

Mayl shakllarining bu tarzda qo'llanilishi ilmiy va rasmiy uslublarda chegaralangan. Ularda fe'llar asosan aniqlik mayli shaklida bo'ladi.

Badiiy uslubda fe'lning barcha nisbat shakllari ishlatiladi. Ammo aniq nisbatdagi fe'llar birmuncha faol. Ilmiy nutqda esa, aksincha, fe'llar asosan majhul nisbatda qo'llaniladi.

Badiiy asar bayonida zamon shakllarining barchasi ishtirok etadi. Lekin odatda badiiy asarlarda bo'lib o'tgan voqealarning hikoya qilinishi tufayli unda fe'lning o'tgan zamon shakllari mahsuldor hisoblanadi. Shu bilan birga, tasvirdagi keng ko'lamlilik muallif tilida hozirgi va kelasi zamon shakllarining

ishlatilishini ham taqozo qiladi. (*Sadikova M. Stilistika glagola v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike: Avtoref. dis. d-ra filol.nauk. – Ō., 1991, s.34*). Kelasi zamon–o'tgan zamon: *Qish chillasi avjida. Izg'irinli yellar esadi. Qo'l-oyoqlariga kishan solingan, kiyimlari yirtiq mahbuslar Samarqandning Registon maydonida sovuqdan qaltirab shahar qozisining hukmini tinglaydilar* (P. Qodirov).

She'riy nutqda esa, asosan fe'lning o'tgan va kelasi zamon shakllaridan foydalanish mahsuldor.

Yordamchi so'zlar ham tilimizdagi boshqa birliklar singari nutq jarayonida o'zining uslubiy imkoniyatlarini namoyon qila oladigan to'laqonli til birliklaridir. Ularning ana shu keng uslubiy imkoniyatlarini biz, eng avvalo, vazifaviy chegaralanishlarda payqaymiz.

Badiiy uslubga xoslari quyidagilar: Ko'makchilarni olaylik. **Bilan** ko'makchisining **birla, birlan, ila, -la; uchun** ko'makchisining **-chun; kabi** ko'makchisining **misol, misoli, misli; ora** ko'makchisining **aro**, shuningdek **yanglig', uzra, ichra** ko'makchilari badiiy matn uchun xos.

Lekin va **agar** bog'lovchilarining qisqargan shakli **lek** va **gar, vale, yoinki, holonki** bog'lovchilari haqida ham shu gaplarni aytish mumkin: *Yor istig'nosidan o'lmasmanu, kuydim va lek – Lobarim oldida nazmim bu qadar behol uchun* (E.Vohidov); *Gar gunch orttirsang o'zingga og'ir, Vijdon azobida qovrilsang bot-bot* (A. Oripov), *Men xud ul tifli parivashg'a ko'ngul berdim, vale. Xonumonim nogahon buzilmag'ay boshdin yana* (Bobur), *hammani olib boradimi yoinki xohlagan borib, xohlamagan qolaberadimi?* (O'zbek tili grammatikasi), **Holonki** *men sizni xondan ham yuqori qo'ygan edim* (A. Qodiriy) kabilar.

Yuklamalarda uslubiy chegaralanish aniq bilinib turmaydi. **Faqat** yuklamasining o'rni bilan sinonimi bo'lib keladigan **yolg'iz** so'zidagina badiiy uslubga xoslik ko'rinadi: *Nechun hamma darichalar qorong'i, yolg'iz uning darichasi yorug'* (O. Yoqubov)

Sintaksisda til birliklarini mazmunga mos ravishda turli kombinatsiyalarda qo'llash mumkinligi ularning uslubiy imkoniyatlari ham naqadar kengligidan dalolat beradi. Ōa'kidlash o'rinliki, prozaik asarlar sintaksisi hozirgi o'zbek adabiy tilining sintaktik me'yorlarini o'zida aks ettiradi. Buni, ayniqsa gap bo'laklarining nutqda joylashuvida kuzatamiz. Ammo poetik nutq sintaksisi boshqacha. She'riy nutqning asosiy belgilaridan sanaladigan

inversiya tufayli matnda ko'plab sintaktik qurilishlar majmui vujudga keladi.

Ekspressiv-emotsionallikni vujudga keltiruvchi vosita sifatida inversiya so'zlashuv va badiiy uslubga tegishlidir.

So'roq gaplarning ritorik turi, undov gaplar, his-hayajon gaplar ham so'zlashuv va badiiy uslubga xos. Bu uslubdagi gap qurilishi ham ma'lum darajada farqlanadi. Masalan, rasmiy va ilmiy uslublarda ko'proq qo'shma gaplar, ularning bog'langan va bog'lovchisiz turlari, so'zlashuv uslubida sodda gaplar, ayniqsa ularning to'liqsiz shakli ishlatilishi xos bo'lsa, ommabop va badiiy asarlarda gapning har ikki turi ham aralash holda kelaverishi mumkin. O'tliqsiz gaplar dramatik asarlarda, xususan dialogik nutqda ko'proq qo'llaniladi. Bir bosh bo'lakli gaplarning shaxsi noaniq turi, atov gaplar, so'z-gaplar, kiritma gaplar badiiy matnda ijodkor individual uslubini yuzaga keltiruvchi qulay grammatik vositalar sanaladi [4, 77-96-b.].

Badiiy uslub leksikasi ham alohida belgilarga ega. "Boshqa funksional stillar uchun xos bo'lgan leksika (masalan, ilmiy va rasmiy ish uslubiga xos bo'lgan teminlar)ning badiiy stilda keng qo'llanilmasligi va faqat badiiy stilda qo'llanuvchi maxsus vositalarning mavjudligi badiiy stilga xoslangan leksikani alohida ajratishga asos bo'ladi", deydi E.Begmatov (*Begmatov E. O'zbek tili leksikologiyasi*, 186-b). *Abruv, albat, amug'on, bazmuro, balqimoq, bahoriston, boda, bo'ston, gavharafshan, giryon, gulbahor, guli-ston, gulro', gulshan, debocha, dilafro'z, dilxona, dolg'a, durafshan, duto, jahonbaxsh, jondosh, jo'shmoq, jo'shqin, kabk, kuylamoq, libos, lolagun, lo'livash, maygun, mardonavor, mastona, mahvash, mahpora, moviy, moh, mujda* kabi xoslangan so'zlar lug'atlarda poetizmlar nomi bilan yuritiladi.

Ma'lumki, yozuvchining til ustida ishlash mehnati, eng avvalo, sinonimik birliklar ustida ishlash mahoratidir. Sinonimik qatordan mos, kerakli birlikni tanlab olish ekspressivlikni, subyektiv bahoni aniq ifoda etishning eng to'g'ri yo'li bo'lganligi tufayli u badiiy adabiyotda zarur lingvistik vosita sanaladi. Buning ustiga tilda sinonimik variantlar borligi uchun uslubiy me'yorni belgilash imkoniyati mavjud. A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izchli lug'ati" (O., 1974) ana shu sinonimik variantlarni farqlashda amaliy yordam beradi.

Frazeologizmlar mohiyat e'tibori bilan asosan so'zlashuv va badiiy nutq nevasidir. Ulardagi boshqa uslubga xos chegaralanishlar

esa ma'lum muddat keyin yuzaga keladi. Masalan, birgina o'lmoq ma'nosini anglatadigan yuzga yaqin frazeologizmlar sinonimik qatorining paydo bo'lishi ularning vazifaviy chegaralanish imkoniyatini tug'diradi. Masalan, bu tizimga kiradigan *olamdan o'tmoq, dunyodan o'tmoq, omonatini topshirmoq, qulog'i ostida qolmoq, jon bermoq* shakllari so'zlashuv uslubida ishlatilsa, *vafot etmoq, hayotdan ko'z yummoq, dunyodan ko'z yummoq, hayot bilan vidolashmoq* kabilar ilmiy, ommabop va rasmiy uslublarda uchraydi. *Alloh rahmatiga yo'l tutmoq, shahodat sharobini ichmoq, dorilfanodan dorilbaqqa rixlat qilmoq* singarilar esa badiiy matnga tegishlidir.

Agar badiiy adabiyotda, xususan she'riyatda ishlatilib kelinayotgan eskirgan so'zlarni bu uslubning muhim lisoniy alomatlaridan deb hisoblash mumkin bo'lsa, dialektizmlarning ishlatilishi adabiy til me'yoriga muvofiq kelmaydi.

Kichik bir xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, badiiy uslubda adabiy til boylıklaridan foydalanibgina qolinmasdan, undagi ko'plab birliklarning tilda me'yorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib borishiga doimiy ravishda ta'sir o'tkazib turadi.

So'zlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos tarzda amal qilishidir. Uni ma'lum ma'noda tildagi boshqa uslublarga qarama-qarshi qo'yish mumkin.

Bu uslubning o'ziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uyg'un bo'lishida ko'rinadi. Ayni paytda bu holat so'zlashuv uslubidagi me'yoriy holatlarni belgilashni qiyinlashtiradi. Chunki tildan foydalanuvchining shaxsi, buning ustiga, nutqiy vaziyat yagona bir me'yorni tayin etishga imkon bermaydi.

Shunday bo'lsa-da, so'zlashuv uslubining o'ziga xos me'yorlari haqida mulohaza yuritish uchun ham tilimizda dalillar yetarli. Ammo nima bo'lganda ham bu me'yorlarni so'zlashuv uslubi uchun muhim bo'lgan til va tildan tashqari omillarning uyg'unligidan axtarish bizni asl maqsadga yaqinlashtiradi.

Xo'sh, so'zlashuv uslubi qanday o'ziga xosliklarga ega? Birinchidan, nutq elliptik xarakterda bo'ladi. Lekin bunday holatda ham tinglovchiga fikr tushunarli bo'ladi. Chunki u oldin aytilgan fikrning mantiqiy davomi bo'ladi. Masalan, **qorami? ko'kmi?** shaklida beriladigan savolni ikki xil vazifada

olib ko'raylik. Agar biz uni uy bekasi tilidan eshitsak, *qora choy damlaymi* yoki *ko'k choy damlaymi?* degan ma'noda tushunishimiz mumkin. Xuddi shu savolni do'kon sotuvchisi tilidan eshitsak, *qora choy olasizmi* yoki *ko'k choy sotib olmoqchimisiz?* ma'nosida tushunishimiz ham mumkin.

Ikkinchidan, so'zlashuv nutqida til birliklari o'zining ekspressivlik imkoniyatlarini keng namoyish qiladi. Masalan, *ulguramizmi?* degan savolga *yo'q, ulgurmaymiz* deyishdan ko'ra vaziyatdan kelib chiqib, *ulgurib bo'pmiz, ulgurish qayoqda, ulgurib ham bo'ldik* singari javoblar birmuncha tabiiy va ekspressivroq bo'lib chiqadi.

Uchinchidan, bu uslubda ohang – intonatsiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ohang og'zaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keyingi muhim, hal qiluvchi vosita bo'lib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembri, so'z va gap urg'usi kabi ko'rinishlari ma'noni farqlashda, ottenkalarni ajratib ko'rsatishda, hayajonni kuchaytirishda xizmat qiladi.

So'zlashuv uslubi ham boshqa vazifaviy uslublar kabi fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosliklarga ega.

Nutqda tovushlarning uyg'unlashuvi (*ketti, ottan, yigichcha*), bir tovush o'mida ikkinchisining talaffuz qilinishi (*traktir, zaril, bironta*), tovushlarning o'rin almashishi (*turpoq, aynalmoq*), tovushlarning orttirilishi (*o'ramol, fikir, banka*), tushirib qldirilishi (*gazet, burni, egni*) kabi fonetik hodisalar avvalo so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi.

So'zlashuv uslubi leksikasida ikki qatlam alohida ajralib turadi. Birinchi qatlam – bu kundalik turmush muomalasida faol qo'llaniladigan ijtimoiy hayot va uy-ro'zg'or yumushlari bilan bog'liq so'zlar. Bundan tashqari bu uslubda "siyosat, san'at, madaniyat, sport va so'zlovchining kasb-hunarga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko'plab ishlatiladi" [8, 15-b.].

Ikkinchi qatlam – og'zaki nutqdagi ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar. Ular neytral qiymatdagi so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi: *kichkina (bolagina), yiqildi (quladi), buzoq (ish bilmas, galvars), og'zi ochiq (yig'loqi)* kabi.

Bu uslubning *burnini ko'tarmoq, ko'zini shira bosmoq, qo'li kaltalik qilmoq* singari o'z frazeologizmlari mavjud. Kishi nomlarini

Abdi, Bek, Zuli, Dili tarzida qisqartirib ishlatish mumkin. So'zlarning metonimik ko'lamida juda keng tarqalgan. Masalan: *auditoriya kuldi, kengash bo'ldi, dasturxonaga o'tirdi, samovarga chiqdi* kabi.

So'zlashuv uslubida nutqiy vaziyatning ahamiyati juda katta. *Salom, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, xayr, ha, yo'q, albatta, aha, xo'p* singari so'zlar nutqda ko'p ishlatiladi.

So'zlashuv nutqi o'zbek tilshunosligida prof. B.O'rinboyev tomonidan durustgina ishlangan [9, 10-b,]. Bu nutq kitobiy nutqdan bir qadar farq qilib, *Asal, asal, barmog'ingni tishlab olasan; Ish, faqat tugmachani bossang bas; Kechaday kecha; Boladay bola* kabi gap shakllari odatdagi hol hisoblanadi.

Kitobiy nutq uchun bog'lovchisiz qo'shma gaplar odatda xos emas, og'zaki so'zlashuv nutqi uchun esa, aksincha, xarakterlidir. So'zlashuv nutqidagi sodda gaplar ko'pincha fe'l bilan ifodalangan kesimning yo'qligi bilan xarakterlanadi. Hatto ba'zan shunday holatlar ham bo'ladi, bunday gaplarga fe'l-kesimni qo'yib ham bo'lmaydi. Masalan, *Biz siznikiga. Biz magazinga; Men, odatda ishga avtobusda, ishdan piyoda* kabi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Ushbu matnning qaysi uslubga tegishli ekanligini aniqlang va uning o'ziga xos til jihatlari ko'rsatib bering: *Obiatdagi jismlarning ma'lum sharoitda elektr zaryadga ega bo'lishi (elektrlanishi) maktab fizika kursidan ma'lum. Jismda elektr zaryadining borligi uning boshqa zaryadlangan jismlar bilan o'zaro ta'sirlanishidan namoyon bo'ladi.*

Elektr zaryadlari ikki turda bo'lib, shartli ravishda musbat va manfiy deb ataladi. Bir xil ishorali zaryadlar bir-birini itaradi, har xil ishoralilari esa o'zaro tortishadi.

Elektr zaryadi elementar zarralar deb ataladigan ba'zi zarralarning asosiy xususiyatlaridan biridir. Barcha elementar zarralarning zaryadi (agar uning zaryadi nolga teng bo'lmasa) absolyut qiymati jihatdan birday bo'ladi.

2. Ushbu matnning ham qaysi uslubga tegishli ekanligini aniqlang va uning o'ziga xos til jihatlari ko'rsatib bering:

Prezidentimiz tomonidan 2000 yilning "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qilinishi bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan

tadbirlarni yanada kengaytirdi. Joylarda mana shu masala yuzasidan turli xil tadbirlar o'tkazilmoqda. Maqsad—onalik va bolalikni muhofaza etish, sog'lom avlodni tarbiyalash, oila va nikohni har tomonlama mustahkamlashdan iboratdir. Lekin shunga qaramasdan, ayrim paytlarda yosh qizlarni hali balog'at yoshiga yetmasdan tumushga uzatish hollari sodir etilayapti. Shu sababli tuman hokimligi bu masalada joylarda turli xil yig'ilishlarni o'tkazmoqda, maqsad yuqorida aytib o'tilgan salbiy ko'rinishlarning oldini olishdan iboratdir ("Og'daryo ovozi" gazetasidan).

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Uslub tushunchasini izohlab bering.
2. Nutq uslublari, ya'ni vazifaviy uslublarning deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbek tilida vazifaviy uslublarning qanday ko'rinishlari mavjud?
4. Nutq madaniyatining uslublarga yoki aksincha uslublarning nutq madaniyatiga ta'siri bormi?

A D A B I Y O T L A R

1. *Abdurahmonov G'*. Stilistik nomalar haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1969, 6-son.
2. *Baskakov N.A.* Strukturnie i funktsionalnie stilisticheskiye modifikatsii v sovremennix tyurkskix yazikax // Razvitiye stilisticheskix sistem literatumix yazikov narodov SSSR. — Ashxabad, 1968.
3. *Boboxonova D.A.* Hozirgi o'zbek adabiy tilining rasmiy-ish uslubi, ND. Ò., 1978.
4. *Karimov S.* O'zbek tilining badiiy uslubi. «Zarafshon», 1992.
5. *Mukarranov M.* Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. — Ò., «Fan», 1984.
6. *Muhammedov S.* O'zbek tili funktsional stillarini belgilash to'g'risida // O'zbek tili va adabiyoti, 1983.
7. *Sulaymonov A.* Òil stillari haqida // Sovet maktabi, 1964, 6-son.
8. *Shomaqsudov A.* va boshq. O'zbek tili stilistikasi. Ò., «O'qituvchi», 1983.
9. *O'rinboev B.* Funktsional uslubiyat va uning mohiyati. Ò., «Fan», 1992.
10. *O'rinboev B., O'rinboeva D.* O'zbek tilining so'zlashuv uslubi. Ò., «Fan», 1991.
11. *Qurbonov Ò.I.* Hozirgi o'zbek adabiy tilining publitsistik uslubi. ND Ò., 1987.
12. *Qo'ng'urov R.Q., Karimov S.A., Qurbonov Ò.I.* O'zbek tilining funktsional stillari. — Samarqand, SamDU nashri, 1984.

3-MAVZU: Nutq uslublarida sinonimiya

R e j a:

1. Sinonimiya tushunchasi.
2. Leksik va grammatik sinonimlar.
3. Sinonimlarning vazifaviy uslublarda namoyon bo'lish xususiyatlari.

Çayanch so'z va iboralar: o'rganilishi, ta'rifi, dubletlar va sinonimiya, variantdorlik, parallellik, atamalar va sinonimiya, sinonimlardagi vazifaviy chegaralanganlik, parallellik va mustaqillik, til qatlamlarida sinonimiya, so'z va evfemizm, so'z va perifraza, matn ko'magi, me'yor, sinonimlarda ma'no munosabatlarining mustahkamligi, yon so'zga birikishdagi noziklik, lug'aviy, semantik va grammatik sinonimlar, uslubiy va nutqiy sinonimlar.

Sinonimiya muammolari bilan shug'ullanishda o'zbek til-shunosligi katta tajriba to'plagan va bu borada turli hajmdagi tadqiqotlar yuzaga kelgan. O'zbek tilidagi sinonimiya hodisasi va bu hodisa jarayonida yuz beradigan til birliklari o'rtasidagi o'zaro ma'no munosabatlari haqidagi ilk qarashlar o'zbek tilining leksikologiya yo'nalishini yoritishga bog'ishlangan hamda ta'limning turli bosqichlarida foydalanish uchun yaratilgan darslik va qo'llanmalarda o'z ifodasini topgan. Faxri Kamolning "O'zbek tili leksikasi" (Ö., 1954) va "Hozirgi zamon o'zbek tili" (Ö., 1957), Ya.D.Pinxasovning "Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi" (Ö., 1960) va "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (Ö., 1969), M.Mirzayev va boshqalarning "O'zbek tili" (Ö., 1962), mualliflar jamoasining "Hozirgi o'zbek adabiy tili, ikki tomlik, 1 tom" (Ö., 1966), U.Öursunov va boshqalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (Ö., 1965, 1992), U.Öursunov va N.Rajabovlarning "O'zbek tili leksikasining ba'zi masalalari" (Samarqand, 1971), Sh.Shoabdurahmonov va boshqalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (Ö., 1980) hamda "O'zbek tili leksikologiyasi" (Ö., 1981) akademik nashrlarini misol tariqasida keltirish mumkin. O'zbek tili sinonimlarining lingvostilistik tabiati maxsus monografik tadqiqot obyekti ham bo'lgan. S.Isamuhamedova va A.Doniyorovlar sinonimiya mavzusida nomzodlik dissertatsiyalari yozishgan [3, 2].

Sinonimiyaga oid o'zbek tilshunosligida yozilgan maqolalar ham salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Afsuski, bu o'rinda ularning barchasini sanab o'tishning imkoni yo'q. Faqatgina R.Qo'ng'urov va S.Karimovlar tomonidan tuzilgan "O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati" (Samarqand, 1984) bibliografik ko'rsatkichidagi 62, 108, 148, 202, 205, 206, 224, 233, 234, 241, 337, 384, 526, 606, 609, 640, 734, 749, 751, 752, 855, 980, 1093 hamda S.Karimov va O.Jo'rayevlar tomonidan tartib berilgan "O'zbek tili uslubshunosligi va nutq madaniyati" (Samarqand, 2001) bibliografik ko'rsatkichida 61, 111, 273, 315, 360, 428-raqamlarda qayd etilgan adabiyotlarni eslatib o'tamiz. Bular orasida M.Rahmatullayevaning "Alisher Navoiy tilidagi sinonimlarni o'rganish masalasiga doir" (O., 1965) mavzusida yozilgan nomzodlik dissertatsiyasi diqqatga sazovor.

Sanab o'tilgan adabiyotlarning ko'pchiligida sinonimlar sifatida leksik birliklar va ular o'rtasidagi ma'no munosabatlari qaralib, ularga ma'nolari bir xil yoki ma'nolari bir-biriga yaqin so'zlar deb baho beriladi. Ammo o'zbek tilidan olingan qator misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, keltirilgan bu ta'riflarning birontasi ham sinonimiya deb ataladigan lingvistik hodisaning mohiyatini to'liq qamrab ololmaydi.

Birinchidan, tabiat va jamiyatda bir-biriga aynan o'xshash narsa va hodisaning o'zi bo'lmagani singari ularning aynan mohiyatini aks ettiradigan ikki yoki undan ortiq so'zlarni topish qiyin. O'zimizda *respublika-jumhuriyat, universitet-dorilfunun, arxitektura-me'morchilik, lingvistika-tilshunoslik, stilistika-uslubshunoslik* singari dubletlar yashab kelmoqda. Garchi dublet sanalsa ham, nutqda biri o'rmini ikkinchisining bosa olmasligi ularning yashovchanligini ta'minlaydi. Garchi rasmiy hujjatlar va chiqishlarda *O'zbekiston Respublikasi* deb qayd etilgan holda, *jumhuriyat* birligi so'zlashuv nutqi bilan chegaralanadi. *Samarqand Davlat universiteti, Samarqand Davlat dorilfununi* desa bo'ladi, ammo *hayot dorilfununi* deyish mumkin bo'lgani holda uni *hayot universiteti* tarzida qo'llab bo'lmaydi.

Bu esa *respublika, universitet* so'zlarining baynalmilal xarakterda ekanligi bilan, *jumhuriyat* so'zining bir qadar eskirganligi, hududiy chegaralanganligi, *dorilfunun* so'zining ma'nosi *universitetga* qaraganda qamrovi kengligi, umumiyligi, *universitet* so'zida esa bu ma'noning aniqligi, atama mazmunida ekanligi bilan

bog'liq. Demak, faqat yuzaki qaraganimizdagina bu so'zlarning ma'nosini bir deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Matnlar esa aslida bunday emasligini tasdiqlaydi. Ular, hech bo'lmaganda, vazifaviy uslublararo chegaralanishi bilan, ya'ni uslubiy nuqtai nazardan farqlanadi.

Ikkinchidan, ma'nolari bir xil sinonimlar tilda bo'lganda ham ularning barchasi baravar ravishda, doimiy holda yashay olmaydi. Oilning amalda bo'lish qonuniyatlariga ko'ra, aytaylik, parallellikni xush ko'masligidan kelib chiqib, vaqt o'tishi bilan ularning biri ikkinchisiga o'z o'mini bo'shatib berishga majbur bo'ladi. Masalan: *partiya-firqa, grajdanin-fuqaro, agitatsiya-tashviqot, propaganda-targ'ibot, komitet-qo'mita, soldat-askar, intelligent-ziyoli, leksiya-ma'ruza, programma-dastur, student-talaba, ekonomika-iqtisodiyot, internatsional-baynalmilal, sotsial-ijtimoiy, satirik-hajviy, sekretar-kotib, simvol-ranz* kabi birliklar o'rtasidagi qo'llanish nisbatini olib qaraylik. Agar o'zbek tilining mustaqillikcha bo'lgan davrida ularga leksik dubletlar, variantlar sifatida qarab, baravar qo'llab kelgan bo'lsak, mustaqillikdan keyingi davrda bu so'zlarga bo'lgan munosabat va ana shu munosabatlardan kelib chiqib, ularning qo'llanilishidagi muvozanat ikkinchisining foydasiga tubdan o'zgardi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, gap faqat ma'nolarning bir xilligida bo'lganda edi, ular tilimizda baravar yashayverishi mumkin edi. Ammo vaziyatdan kelib chiqib, ular ham tilimizning umumiy yashash qonuniyatlariga bo'ysunishga majbur bo'ldi. Demak, sinonimlarning barchasining ma'nolari bir xil emas, bir xil deb qaralganlarining hammasi ham tilda parallel yashay olmaydi. Aytilganlardan esa sinonimlarning bu guruhini o'rganish uslubshunoslik uchun qiziqarli material bera olmaydi, degan xulosa kelib chiqadi.

Shunday ekan, sinonimlar tadqiqini uslubshunoslikning markaziy masalalaridan deb qaraganimizda, ularni umumiy bir ma'noni yoki tushunchani anglatishga xizmat qiladigan, ana shu maqsad yo'lida matnda bir-biriga mazmunan yaqinlashadigan va birlashadigan, ayni paytda, ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farqlanadigan til elementlari majmuini anglashimiz to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Oldagi sinonimik munosabatlar faqat leksik birliklar o'rtasidagina emas, balki fonemalarning talaffuz variantlarida, turg'un birikmalar, morfologik vositalar va sintaktik qurilmalar o'rtasida

ham mavjud. Sinonimiyaga oid umumiy qoida va talablar ularning hammasiga tegishli hamda barchasida amal qiladi.

Afsuski, yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotlarning mavjudligidan qat'i nazar o'zbek tilshunosligida sinonimlar vazifaviy-uslubiy yo'nalishda atroflicha tahlil qilingan emas. Vaholanki, bunday kuzatishlar milliy til uslubshunosligi taraqqiyoti uchun nihoyatda zarurdir. O'rni kelganda ta'kidlash lozimki, so'z va evfemizm, so'z va perifraza o'rtasidagi sinonimik munosabatlar tadqiqi ham uslubshunosligimiz uchun qiziqarli materiallar berishi mumkin. Badiiy ijod jarayonida yuzaga kelgan individual muallif sinonimlari yuzasidan olib boriladigan kuzatishlar ham ona tilimiz boyligini namoyish etishda g'oyatda qimmatlidir.

O'zbek tilida bu darajada tasviriy imkoniyatlarning ko'pligi bir tomondan til vositalarining matndagi nozik qirralarini ochib bersa, ikkinchidan, ulardagi uslubiy rang-baranglikning naqadar xilma-xil ekanligidan guvohlik beradi.

Buning ustiga o'zbek tili qatlamlaridagi sinonimiyani o'rganish ularga uslubiy nuqtai nazardan qarashdan farq qiladi. Masalan, sinonimiya lingvistik hodisa sifatida eng ko'p o'rganilgan leksikologiyada asosan so'zlarning umumiy ma'nolariga ko'ra yaqinlashishigina hisobga olinadi. Vaholanki, atroflicha tahlil uchun shu narsaning o'zi yetarli emas. Ana shunda uslubshunoslik yordamga keladi. Bu yo'nalishdagi tahlilda endi til elementlarining matndagi real imkoniyatlari hisobga olinadi. Sinonimik qatordagi birliklarning qaysi biri matnda semantik-uslubiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq qo'llana olishi mumkinligi birinchi darajali vazifaga aylanadi.

Faqat farq shundaki, til elementlaridagi leksik-grammatik ma'nolar bir qadar turg'un bo'lsa, ular anglatadigan uslubiy ma'nolarga bu talabni qo'yib bo'lmaydi. Chunki ular matniy va vazifaviy tabiatiga ko'ra matn o'zgarishi bilan ulardagi ma'no ottenkalari, emotsional-ekspressiv xususiyatlari, hatto shundan kelib chiqadigan me'yoriyligi ham o'zgarishi mumkin. Shuning uchun, aytaylik, **yuz**, **bet** so'zlaridagi denotativ muvofiqlik bir matnda saqlanib qolinsa (**yuzing qursin**, **beting qursin** kabi), boshqa bir matnda bu muvozanat buziladi. Masalan: *Odanning yuzi olmosdan qattiq—Odanning beti olmosdan qattiq*. Dastlabki misolda **yuz** ham, **bet** ham o'zining asl, birlamchi ma'nosida

qo'llanilayotgan bo'lsa, ikkinchi misolda yuz so'zining semantik doirasi butunlay o'zgarib ketadi. U qadr-qimmat, humat ma'nosini kasb etdi. *Bet* elementi esa matnga yopishmay qoldi. Nega shunday?

Shu tarzda sinonimlarning nutqiy ifodadagi rang-baranglikka, turli ma'no nozikliklarini bera olishga qiladigan xizmatlarini inkor etmagan holda ular o'rtasidagi ma'no munosabatlarining mustahkamlik darajasi xususida bosh qotirish ham muhim. Mana bu sinonimik qatorni olib ko'raylik: *ko'p, ancha, talay, sonsiz, behisob, hisobsiz, mo'l, serob, beadam, adadsiz, bisyor*. Nima uchun *ko'p suv, ancha suv, mo'l suv, serob suv* deyish mumkin bo'lgani holda *sonsiz suv, sanoqsiz suv, behisob suv, beadam suv* deyish mumkin emas. Sababi nimada?

Sababi shundaki, ularning har biridagi unchalik ahamiyatli emasday bo'lib tuyulgan, ikkinchi darajali hisoblangan ma'nolar bunga yo'l bermaydi. Aslida bu ma'no nozikliklari sinonimlarni matndan tashqarida olib qaraganda undan foydalanuvchilar uchun sezilmasligi ham mumkin. Yuqoridagi misolda *suv* so'zi oldidagi sifatlar uning miqdorini ko'rsatishga ehtiyoj tufayli o'zaro sinonim bo'ladi. Ana shu ehtiyojni *ko'p, ancha, mo'l, serob* so'zlarigina qondira olishi mumkin. Sinonimik uyadagi *sonsiz, sanoqsiz, behisob, beadam* so'zlari bu ma'noni anglatish xususiyatiga ega bo'lmagani uchun ularning birikishida g'alizlik paydo bo'lmoqda.

Shuning uchun ham *sonsiz g'isht, sanoqsiz g'isht, behisob g'isht, beadam g'isht, ko'p g'isht, ancha g'isht* deyish mumkin bo'lgani holda *serob g'isht* deyish nihoyatda g'aliz tuyuladi. Chunki bu o'rinda g'ishtning miqdorini emas, balki son-sanog'ini ko'rsatish nazarda tutiladi. *Suv* sanalmaganidek, masalani g'ishtning miqdorini aniqlash tarzida qo'yish ham mumkin emas. Buning ustiga *ser ob* shaklidagi forscha-tojikcha birikma bir so'z holiga kelib, sifatlovchiga aylangan va u to'g'ri ma'noda faqat *suv* ga tegishli.

Aytilganlar ba'zi bir juz'iy xulosalar chiqarishga olib keladi. Birinchidan, so'zlardagi, ayni paytda sinonimlardagi ma'no ottenkalari va ularning boshqa so'zlar bilan birikish, agar grammatik sinonimlar bo'lsa, ularning biri o'rnida ikkinchisining qo'llanish imkoniyatlari faqat matn tufayligina amalga oshadi. Ikkinchidan, matn sinonimlarning semantik-grammatik guruhlari farqlashga ko'maklashadi. Uchinchidan,

sinonimlardagi ma'no nozikliklari, emotsional-ekspressivlik va grammatik rang-baranglik u bog'lanayotgan va bog'layotgan so'zlar ma'nolariga hamda grammatik shakllariga qarab reallashadi. O'rtinchidan, leksik-grammatik sinonimlar o'rtasidagi yaqinlik nisbiy, hatto, aytish mumkin bo'lsa, matniy xarakterga egadir. Buning ustiga, so'zlarni o'zaro bog'liqlikda qo'llashda ma'lum ko'nikma ham bo'lishi kerak. Chunki yuqoridagi *beadad g'isht* tarzidagi birikishlar ko'nikmalarsiz nutqiy jarayonga singishib ketmaydi.

Shunday qilib, yunon tilidagi "sinonim" so'zi "bir xil" degan ma'noni bildiradi va bu tushuncha atrofida matnda mazmunan bir-biriga mos keladigan so'z va iboralar, so'z birikmalari va gap qurilmalari tarzida shakllanadigan til birliklari birlashadi.

Oilda variantlar va, yuqorida tilga olganimiz, dubletlar deb ataladigan so'z guruhlari ham mavjudki, ko'pchilik tilshunoslar ularni sinonimlardan farqlaydilar. Lingvistik jarayonlarning har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi nuqtai nazaridan bu to'g'ri ham. Ammo qanchalik farqlanmasin, ular nutqdagi vazifasiga ko'ra bir-birlariga yaqin hodisalardir, bir narsa va hodisaning turli sabablar bilan paydo bo'lib qolgan tildagi ikki xil nomlanishidir.

Bir-biriga mos keladigan *lingvistika-tilshunoslik, stilistika-uslubshunoslik, orfografiya-to'g'ri yozish, orfoepiya-to'g'ri talaffuz qilish* kabi holatlarni olaylik. Ularning birinchi qismi boshqa til elementi ekanligi ko'rinib turibdi. Bu birliklarning qo'llanishidagi bab-baravarlik faqat ma'lum muddatgina davom etishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan ularga bo'lgan munosabat o'zgaradi. Bu munosabat hech bo'lmaganda ularning qo'llanish chastotasiga ta'sir qiladi.

Leksik nuqtai nazardan variantlar va dubletlarning mavjud bo'lishi ijobiy hodisa sanalmasa ham uslubiy jihatdan ularga tildagi ortiqcha unsur sifatida qaralmaydi. Fikrni nozik ottenkalarda ifodalashga xizmat qilmagan taqdirda ham, hech bo'lmaganda, ular so'zlovchi va yozuvchini takrordan qutqaradi. Shuning o'ziyoq nutqiy jarayon uchun kam ahamiyatli emas. Shuning uchun ularni ham tilimizdagi uslubiy resurslar deb qarashga to'la asoslar bor.

Fonetik va grammatik shakllarda namoyon bo'ladigan lingvistik variantlarni garchi uslubiy imkoniyatlari nihoyatda keng va rang-barang bo'lgan sinonimlarga tenglashtirib bo'lmasa ham

ayrim matnlardagi uslubiy bo'yoqdorligini hisobga olib, ularni bir guruhda qarash mumkin.

"Normadagi variantdorlik adabiy normaning turg'unligiga qarama-qarshi tushunchadir – deydi A. Boboyeva. – Barqarorlik adabiy norma uchun adabiy tilning o'ziga xos funksiyasini o'tashi uchun imkon beruvchi obyektiv zarur, ijobiy hodisa bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, barqarorlik tilni bir qolipga soluvchi, uning vositalar imkoniyatini cheklovchi va kambag'allashtiruvchi, nutqni zerikarli qiluvchi, uslubiy xilmaxillikdan mahrum etuvchi salbiy omil bo'lishi ham mumkin. Agarda mutlaq turg'un bo'lganida til vositalari ma'no ifodalash shakl va funksiyalariga ko'ra qotib qolgan, qoliplangan hodisalar bo'lar edi. Natijada, bir so'z tilning butun tarixiy rivoji davomida faqat bir ma'no va shaklda qo'llanib, tilda bir ma'no faqat bir usulda ifodalanar, barcha kishilar mutlaq bir xil gapirib, bir xil yozar edilar.

Variantdorlik nutqda erkin va maqsadga muvofiq tanlash imkoniyati bo'lmasa adabiy til o'zining muhim badiiy estetik funksiyasini, ta'sirchanlik, ifodalilik tomonlarini ta'minlay olmas edi. Inson nutqi hissiz, o'lik qoliplar, qaytariqlardan iborat bo'lib qolar edi". (Adabiy norma va nutq madaniyati. – Ò., «Fan», 1983, 63-65-betlar).

Variantdorlikni faqatgina leksik variantlar va dubletlar doirasida cheklash to'g'ri bo'lmaydi. U tilning barcha qatlamlaridagi sinonimik birliklarga ham daxldor. Faqat shunday qamrovdagina yuqoridagi mulohazalarni atroflicha tushunishimiz mumkin bo'ladi.

Uslubiyat haqida gap ketar ekan, uning o'ta muhim unsuri hisoblanadigan sinonimlar va variantlarning o'zaro umumiy va farqli tomonlarini ajratish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ular o'rtasidagi farqlarni L.G. Barlas quyidagicha izohlaydi: variantlilik bir xil, sinonimiya har xil til birliklariga xos xususiyat. Variantlar deyilganda, shakliy jihatdan bir oz farq qiladigan bir til birligining turli ko'rinishlari tushuniladi. Ular bir so'z, bir so'z shakli yoki qurilishini tashkil etgani uchun ham leksik va grammatik ma'nolarda farqlar bo'lmasligi kerak. Sinonimlar esa ma'nolari bir-birlariga yaqin bo'lgan turli so'zlar, so'z shakllari, qurilmalardir [5, 33-b].

Sinonimlar tasnifi ham uning tadqiqotchilari diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Sh. Rahmatullayev bu hodisaning til qatlamlarida

mavjudligidan kelib chiqib, ularni dastlab *lug'aviy va grammatik sinonimiyaga* ajratadi. Yana o'z navbatida *lug'aviy sinonimiyani leksik, frazeologik va leksik-frazeologik* turlarga bo'ladi. Ma'no qirralarining farqlanishiga ko'ra esa ularning *ma'no sinonimlari* (ideografik sinonimlar), *uslubiy sinonimlar* va *nutqiy sinonimlar* singari turlarini sanab o'tadi [6, 108–112-b.].

Sinonimlarni o'rganish va tushunishni osonlashtiradigan bu kabi tasniflar orasida I.B.Golub tasnifi e'tiborga loyiq. Uning fikricha, ma'no ottenkalari bilan farqlanuvchi sinonimlar *semantik sinonimlar*, bir xil ma'noqa ega bo'lib, *uslubiy bo'yog'dorligi* bilan ajralib turuvchi sinonimlar *uslubiy sinonimlar* deyiladi. Uslubiy sinonimlarga turli vazifaviy uslublarga taalluqli bo'lgan hamda bir vazifaviy uslubga tegishli bo'lib, turli emotsional-ekspressiv ottenkalari bilan farqlanadigan sinonimlar kiradi. Ham ma'nolari, ham uslubiy bo'yog'i bilan farqlanadigan sinonimlar esa semantik-uslubiy sinonimlar hisoblanadi [1, 47-b.].

Sinonimlar tasnifi haqida Z.I.Xovanskaya quyidagilarni yozadi: "*lug'aviy sinonimlar*—bir so'z turkumiga tegishli bo'lgan, o'z ma'nosida jins va tur alomatlarini saqlaydigan, mavhumlikning bir xil sathiga aloqador bo'lgan va denotativ yoki ma'noning uslubiy komponentlari bilan farq qiladigan til birligidir.

Uslubiy tadqiqot uchun shu narsa favqulodda muhimki, sinonimik munosabatlar faqatgina til tizimida mavjud bo'lmasdan, balki u ham til birliklarining uslubiy tarmoqlanishida ishtirok etadigan, ham muomala jarayonida uslubiy vazifalarni bajaradigan barcha til sathlari birliklari hisobiga yaratiladigan matnda ham paydo bo'ladi. Bu xildagi sinonimlar *matniy sinonimlar* deyiladi" [7, 187-b.].

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Quyidagi misollarda leksik va grammatik sinonimiya bilan bog'liq bo'lgan holatlarni, ya'ni so'zlarni noto'g'ri qo'llash va grammatik ko'rsatkichlarni noto'g'ri ishlatish bilan bog'liq bo'lgan xatoliklarni aniqlang va ularni tuzatish yo'llarini ko'rsating: 1. *Shundan so'ng Safargul rayon markazidagi kursda olti oy mobaynida o'qidi.* 2. *Bozor huzurida mehmonxona va oshxona bor.* 3. *Katta bo'lmagan bu saroy, qimmatbaho bu toshlar, raqqosalar taxtda o'tirgan kishining ota-bobolaridan nasl qolgan narsalar edi,*

xolos. 4. Sigir boshini ko'tarib, atrofga nazar tashlaganicha tillarini yalardi. 5. Qiyot qishlog'ida 10 yillik maktab uch joyda qad ko'tarib turibdi. Sakkiz yillik maktab, ikkita bolalar bog'chalaridagi tozalik, tartib shahardagidan qolishmaydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Sinonimiya deganda qanday til hodisasini tushunasiz?
2. Sinonimiya faqat so'zlar o'rtasida bo'ladimi yoki boshqa birliklar orasida, masalan, qo'shimchalar o'rtasida yuz berishi ham mumkinmi?
3. Sinonimiya hodisasi nutq uslublarida qanday namoyon bo'ladi?
4. Biror sinonimik qator, masalan, yuz misolida ularning uslublararo chegaralanishini ko'rsatib bering.

A D A B I Y O T L A R

1. Golub I. B. Stilistika sovremennogo russkogo yazika. —M., 1986.
2. Daniyarov A. Stilisticheskiye funktsii sinonimov v sovremennom uzbekskom yazike: Avtoref.dis. kand.filol.nauk. Samarkand, 1967.
3. Isamuhamedova S. Sinonimi v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike: Avtoref.dis. kand.filol.nauk. Ö.,1963;
4. Rahmatullayeva M. Alisher Navoiy tilidagi sinonimlarni o'rganish masalasiga doir. Ö., "Fan" 1965.
5. Russkiy yazik. Stilistika. M., 1978.
6. Örsunov U. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Ö., «O'qituvchi», 1992.
7. Xovanskaya Z.I. Stilistika fransuzskogo yazika. M., 1984.

III b o b

MAÛNNING MAZMUNIIY - VAZIFAVIIY BELGILARI

1-MAVZU: Matn tuzilishi va matn ustida ishlash

R e j a:

1. Matn haqida ma'lumot.
2. Matnning tuzilishi: asosiy va yordamchi qismlar.
3. Matni qisqartirish va kengaytirish yo'llari.

Öayanch so'z va iboralar: *matn, matnshunoslik, muallif so'zi, asar, hujjat xarakteri, nutq parchasi, mantiq qoidalari, metod va usullar, qiyosiy-tarixiy, davriylik, nashr va tuzatish texnikasi, matn manbasi, asosiy variant, oxirgi variant, nashr, qo'lyozma, yozuv mashinkasi, komputer, tahririyat, muharrir huquqi va vazifasi, o'zbek matnshunosligi, mantiqiylik, tahrir jarayonida qo'shish, olib tashlash va qisqartirish, sinonimlar, leksik dubletlar, mustaqillik davri atamalari, tinish belgilari.*

Matn deganda biror-bir muallifga tegishli bo'lgan, ma'lum fikrlar majmuasi hisoblangan nutq, qo'lyozma yoki nashrdan chiqqan asar tushuniladi. Ammo har qanday qo'lyozmani ham matn deyaverish to'g'ri emas. Matn bo'lishi uchun u, hajmidan qat'i nazar, asar hisoblanishi va mazmunga (ilmiy, rasmiy, badiiy va hokazo) yoki hujjat xarakteriga ega bo'lishi zarur.

Matnlarning tahlili bilan shug'ullanuvchi soha *matnshunoslik* deyiladi va u ham boshqa fan sohalari singari o'z tekshirish metod va usullariga ega. Bunda dastlab qiyosiy-tarixiy metodga amal qilinadi. Alohida bir matnни ajratib olib o'rganish natija berishi qiyin. Chunki ko'zda tutilgan maqsadga matnlarni o'zaro va davriy jihatdan tahlil qilish bilangina erishiladi. Mana shunday yo'l bilan matnning shakllanishini, bir matndan ikkinchisigacha bo'lgan o'sish va takomillashishni, binobarin, muallifning fikriy rivojini ham anglash mumkin bo'ladi.

Akad.D.S.Lixachevning fikricha, matnshunoslik – matn va matn tarixini oʻrganish bilan shugʻullanuvchi fan hisoblanib, uni matnlar nashri texnikasidan farqlash lozim boʻladi [2, 7-b.].

Matn ustida ishlash murakkab va ijodiy jarayon boʻlib, uni qoʻlga olishdan nashrga tayyorlashgacha boʻlgan davr bir qator bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Ular quyidagilar:

1. Matn manbasini aniqlash.
2. Asosiy matnни aniqlash.
3. Muallifning matn boʻyicha oxirgi, haqiqiy variantini aniqlash.
4. Matnни nashrga tayyorlash.

5. Nashr turlari: hujjatli nashrlar (faksimil nashrlar), ilmiy-tadqiqot nashrlari – akademik, ilmiy, ilmiy-ommabop hamda badiiy va hokazo.

Matn tahriri bilan shugʻullanuvchi kishi dastlab ana shu matnga aloqador boʻlgan barcha qoʻlyozma va bosma materiallarni, muallifning turli xil qaydlarini toʻplaydi. Bunda matnning qoralama nusxasi bilan oxirgi oqqa koʻchirilgan varianti muhim hisoblanadi. Matnни shakllantirishda yozuv mashinkalari yoki hozirgi zamonaviy kompyuterlarning aralashuvi matn ustida ishlashning yangi usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Chunki ayrim mualliflar birdaniga ana shu texnika vositalari yordamida matnни shakllantiradilar va bu narsa ularning matn tili ustida qanday ishlaganligini va oʻziga xos uslubini bilishni murakkablashtiradi.

Harqalay, matnshunos qanday metod va usullardan foydalanmasin, asosiy va yordamchi matnlarni aniqlab olishi va diqqatni asosiy matnga qaratishi lozim boʻladi. Asosiy matn esa muallif istagidan kelib chiqib, har bir nashrda oʻzgarib borishi mumkin. Nashrga tayyorlovchilar muallif oʻzgartirishlarini albatta hisobga olishlari zarur.

Demak, matnshunosning asosiy vazifasi oʻquvchiga muallifning xohish-irodasini toʻla aks ettirgan, tashqaridan oʻzgartirishlar kiritilmagan haqiqiy matnни yetkazishdan iborat boʻladi. Matnshunos asosiy matnни oʻzgartirishga aralashmasligi kerak. U faqat oʻzi uchun noaniq, munozarali hisoblagan oʻrinlarda bir mazmundagi matnlarni bir-biriga solishtirishi, muallifning haqiqiy matnни aniqlashi zarur. Bu esa, yuqorida taʼkidlaganimizdek, oson ish emas. Chunki asar

matni muallif oxiriga yetkazdim deb hisoblagandan keyin ham nashriyotda qancha kishilarning qo'lidan o'tadi. Ular ham matn yuzasidan o'z nuqtai nazarlarini ma'lum qilishadi, hatto ba'zan muallifdan o'zlari aytgandek qilib o'zgartirishni talab etishadi. Chunki ular ham o'z nashrlari manfaati, ularning obro'yi, qisqasi o'z talab va o'lchovlari bo'lib, ba'zan o'z dunyoqarashi nuqtai nazaridan matnga munosabat bildirishga harakat qiladi. Bu esa matn muallifi nuqtai nazari bilan hamma vaqt ham muvofiq kelavermaydi. Mana shunday holatlarda matnshunosga haqiqiy manzarani aniqlash oson bo'lmaydi. "Haqiqiy muallif matnini tayyorlashda matnshunos muallif tomonidan qo'llanilgan va ko'ziga xato bo'lib ko'ringan birorta so'z yoki birorta sintaktik qurilishni olib tashlashga yoki to'g'rilashga haqqi yo'q. Bu narsa muallif shaxsiy, individual mahorati, oxir-oqibatda uning tafakkuri aks etadigan tili va uslubining o'ziga xosligiga tajovuz bo'lib hisoblanadi" deb yozadi *E.I. Proxorov* [3, 94-b.].

O'zbek matnshunosligi ham xalq og'zaki ijodi, tarixiy hujjatlar, mumtoz badiiy adabiyot namunalari to'plash va nashrga tayyorlashda katta tajriba to'plagan. Bu ayniqsa o'zbek xalq dostonlarini xalq baxshilaridan yozib olish, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarimizning badiiy merosi mujassam bo'lgan hamda turli yillarda ko'chirilgan qo'lyozmalar matnini tahrir qilish va nashrga tayyorlash bilan bog'liq bo'ldi. Bunda Hodi Zarifov, Parso Shamsiyev, Izzat Sulton, Hamid Sulaymonov, Solih Mutallibov, Vohid Zohidov, Aziz Qayumov, Suyima G'aniyeva, Ozod Sharafiddinov, Abduqodir Hayitmetov va boshqa olimlarning xizmatlari nihoyatda ulkan.

O'rta maxsus ta'lim doirasida matnshunos kadrlar tayyorlash masalasi o'rtaga qo'yilmasa-da, harqalay bu o'rinda ushbu soha bo'yicha umumiy tushuncha berish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, ta'limning ana shu bo'g'ini doirasida o'zbek tili haqida ma'lumot olayotgan o'quvchidan matn ustida ishlash qoidalarini bilish talab qilinadi. Quyida ana shu haqda ma'lumot beriladi.

Matnshunoslikka oid adabiyotlarda qayd etilishicha, har qanday matn, u ilmiymi, rasmiymi, badiiymi – bundan qat'i nazar, mantiq qoidalariga asosan shakllanishi lozim. Izchillik ana shu qoidaning birinchi talabidir. Matnda har bir so'z, har bir gap va abzatslar o'rtasida mantiqiy bog'lanish va

izchillik bo'lishi lozim. Agar shunday bo'lmasa, matnни tushunish qiyin bo'ladi: *O'rtoq Boqijon Baqoyev juda changab turgan ekan, ustma-ust to'rt piyola choy ichdi va terladi. –Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, –dedi yuzidagi terni artib. –Hm, soqol ham o'sipti, sartarosh bo'lmasa odamlar maymun bo'lib ketar edi. Maymun juni to'kilib, odam bo'lgan (Qahhor A.. Adabiyot muallimi). Misoldagi Boqijon Baqoyevning birorta gapi ham bir-biriga mantiqiy bog'langan emas.*

Matnda ba'zan bir-biriga zid gaplar berilib qoladi. Masalan: *Havo bulut bo'ldi, lekin yong'ir yog'madi. Ukam Òoshkentdan keldi, ammo ikki kun turmasdan qaytib ketdi* kabi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir-biriga zid bo'lsa ham, ular o'rtasida mantiqiy uzilish yo'q. Chunki osmonni bulut qoplasa ham, yong'ir yog'magan bo'lishi yoki biror kishi kelsa ham, ko'p turmasdan ketib qolishi mumkin. Ammo Boqijon Baqoyevning nutqi to'g'risida bu gapni aytib bo'lmaydi.

Muvaffaqiyatli tuzilmagan gap ham mantiqning buzilishiga olib kelishi mumkin: *Fema jonkuyarlari **oltioylik davlatga** sut sotish planlarini muddatdan oldin bajardilar* (gazetadan). **Otadek farzandiga** kim kuyar axir, / O naqadar og'ir farzandning dog'i (Shukrullo).

Matnни tahrir qilmoqchi bo'lgan kishi dastlab u bilan yaxshilab tanishib, to'lig'icha o'qib chiqib, masalaning mohiyatini tushunib olishi lozim. Birinchi o'qishdan o'q tuzatishlar kiritishga shoshilish xatoliklarga olib kelishi, bu tuzatishlar muallif muddaosini anglamasdan amalga oshirilgan bo'lishi mumkin. Matn haqida tasavvurga ega bo'lingandan keyin, unda nimalar yetishmasligi hisobga olingach, ishga kirishish lozim.

Keltirilgan faktlarning to'g'ri ekanligini tekshirib ko'rish ham muhim. Albatta, bu faktlar uchun birinchi navbatda muallif javobgar ekanligini unutish kerak emas.

Shu ishlar amalga oshirilganidan keyin matn til jihatdan tahrir qilinadi. Bunda so'zlarning imlosi ham, tinish belgilari ham, uslubiy kamchiliklar ham e'tibordan chetda qoldirilmaydi. Mana shu tuzatishlar jarayonida muallif tomonidan yozilgan bir necha nusxalar qiyoslanishi, uning roziligi bilan asosiy matndagi ba'zi o'rinlar olib tashlanishi, o'zgartirilishi mumkin.

Òahrir jarayonida ishlatiladigan umumiy texnik qoidalar mavjud bo'lib, unga hamma amal qilsa, bir-birlarini tushunish oson kechadi. Ular asosan quyidagilar:

–bitta harfni olib tashlash (*xato–xat, muassassa –muassasa*);
–bir necha harfni, soʻzni, qatorni olib tashlash (*kitob-
laringni –kitobingni, kitob va daftaringni olib kel –daftaringni
olib kel*);

–ikki yoki undan ortiq qatorni olib tashlash (*U ertalab
gulqand bilan nonushta qilishni, peshinda kobili shoʻrva va
qizil gulning bargi bilan solingan musallas ichishni yaxshi koʻrsa,
oʻzbek tilida soflikni saqlashni ham shuncha sevardi: hatto
samovar oʻrniga oʻziqaynar, elektr oʻrniga simchiroq, deb soʻz
toʻqib yurardi –U oʻzbek tilida soflikni saqlashni sevardi: samovar
oʻrniga oʻziqaynar, elektr oʻrniga simchiroq, deb soʻz toʻqib
yurardi*);

–tuzatishni bekor qilish (*oʻzbek tilida soflikni saqlashni
ham shuncha sevardi –oʻzbek tilida soflikni saqlashni sevardi*);

–bir yoki bir necha soʻzni qoʻshish (*oʻqigan asarlardan
maʼlum boʻldiki –oʻqigan asarlardan shu narsa maʼlum boʻldiki*);

–soʻzni yoki matnning maʼlum qismini boshqa joyga koʻchirish
(*Saidiy hujrasiga yarim kechada qaytib keldi –Saidiy yarim
kechada hujrasiga qaytib keldi*);

–katta harfni kichik harfga yoki kichik harfni katta harfga
almashtirish (*Samarqand davlat universiteti –Samarqand Davlat
universiteti*);

–bir yoki bir necha harflarni boshqasi bilan almashti-
rish (*islohat –islohot, hokozo –hokazo*);

–yonma-yon turgan harf va soʻzlarning joyini almashti-
rish (*turpoq –tuproq, yogʻmir –yongʻir*);

–qatordagi soʻzlarning joyini almashtirish (*shu narsa
aytilganlardan maʼlum boʻldiki –aytilganlardan shu narsa maʼlum
boʻldiki*);

–Yangi qator (abzats) dan boshlash (*Baʼzi kundalik turmush
va xoʻjalikka oid soʻzlar, konkret predmetlar, uy-roʻzgʻor bu-
yumlari, oziq-ovqat nomlari, shuningdek diniy terminlar oʻzbek
tiliga ogʻzaki til orqali qabul qilingan boʻlishi kerak. Oʻzbek
tiliga ogʻzaki til orqali kirgan arabcha oʻzlashmalar boshqa
manbalar orqali kirgan soʻzlarga nisbatan kamchilikni tash-
kil qiladi*);

–oraligni yoʻqotish (*kit oblar-kitoblar, qa lamalar-qalamlar*);

–oralig hosil qilish (*buyerde –bu erda*);

–yangi qator (abzats) ni bekor qilish (*Oʻzbek tilidagi
arabcha soʻzlarning ogʻzaki til orqali oʻtganini ham inkor qilib*

bo'lmaydi. Arab og'zaki so'zlashuv tilining mahalliy turkiy shevalar bilan to'qnashgani va bu kontakt tufayli xalq tiliga ba'zi arabcha so'zlarning kirgan bo'lishi shubhasizdir.

Matni tahrir qiluvchi – muharrir matn bibliografiyasiga ham, keltirilgan ko'chimalarning yozilishiga ham e'tibor berishi lozim. Masalan, bibliografik ma'lumotlar quyidagi tartibda beriladi: muallif (familiasini, ismi, otasining ismi), asarning nomi, nashr qilingan joyi, nashriyot, nashr yili, asarning umumiy sahifasi: *O'zbek tili leksikologiyasi.* – *Ö.*, "*Fan*", 1981 – 314-b; Abdurahmonov G'. *So'z mulkingning sultoni // O'zbek tili va adabiyoti, 2002, 1-son, 20-23-betlar.*

Biror manbadan olinayotgan ko'chimalar hech bir o'zgarishsiz, qo'shtimoq ichida keltirilishi va manbasi aniq ko'rsatilishi shart. Masalan: "*Sharq tarixida juvonnardlik, tasavvuf, malumatiylik kabi bir necha qudratli ta'limotlar hukm surgani yaxshi ma'lum, albatta*" (*Haqqul I. Ishq va komillik jazbasi // O'zbek tili va adabiyoti, 2002, 1-son, 3-bet*).

Matnda, ayniqsa, rasmiy matnlarda kishilarning ismi-familiasini, lavozimlarini, tashkilot-muassasalar nomlarini, geografik joy nomlarini yozishda har xillikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan bir matnda bir ism-familiasini *Karimov S., S. Karimov, Karimov S.A., S.A.Karimov, Suyun Karimov, Karimov Suyun* tarzida turlicha berish maqsadga muvofiq emas. Shartli qisqartmalar ham o'zbek tili lug'atlarida keltirilgan tarzda amalga oshirilishi to'g'ri bo'ladi. Masalan: *ad. – adabiy, bog'l. – bog'lovchi so'z, dial. – dialektal, ot – ot turkumiga doir, taql. – taqlidiy so'z, esk. – eskirgan so'z; kg. – kilogramm, g. – gramm, t. – tonna, sm. – santimetr, m. – metr, ga. – gektar, min. – minut, sek. – sekund* kabi.

Qisqartma otlarni yozishda ham har xillikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan, *O'zb.respublikasi, O'z.respublikasi, O'z.resp., O'zb.Respublikasi, O'z.Respublikasi, O'z.resp-si* tarzida emas, balki *O'zR* yozilishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi esa *O'zR VM* shaklida bir xil yozilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xullas, bu kabi holatlarni yozish va tahrir qilishda ma'lum me'yorga keltirilgan, ko'pchilikka ma'qul bo'lib, tilda qonun-qoidalar bilan mustahkamlangan variantlardan foydalanish, aniqrog'i, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustda chiqqan "O'zbek tilining asosiy imlo

qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qaroriga tayanib ish ko'rish lozim.

Badiiy matnlar tahririning o'ziga xos nozik tomonlari mavjud bo'lib, bunda asosan so'z yoki boshqa birlikning estetik ta'sir kuchi inobatga olinadi, qaysi element ana shu vazifani yaxshiroq bajara olishi mumkinligi muhim hisoblanadi. Binobarin, til birliklarini tanlab ishlatishga bu xil matnlarda ehtiyoj kuchli bo'ladi. G'afur G'ulomning "Samarqand uchun" she'ridagi mana bu parchaga e'tibor beraylik:

Niliy gumbazlari ko'k ichida ko'k,
..... osmonda chiniy kabutar.
"Samarqand sayqali ro'yi zamin ast",
Sharqning ko'rki bo'lgan qadimiy shahar.

Parchadan olib tashlangan so'z qanday so'z? Osmon odatda **ko'k, zangori, moviy, havo rang** bo'lishi mumkin. Ularning qaysi biri shoir fikrini, tuyg'usini aniq ifoda eta oladi? **Moviy rang osmonda chiniy kabutar, Havo rang osmonda chiniy kabutar, Zangori osmonda chiniy kabutar** kabi. Ammo ularning birortasi ham shoir kutgan ma'no va hissiyotni bera olmaganidan u **lojuvard** so'zini q'llagan. "O'zbek tilining izohli lug'ati. 1 tom"ida bu so'zning **tiniq ko'k, tiniq ko'k tusli** (433-bet) ma'nolari berilgan.

Ayrim matnlar uslubiy jihatdan g'aliz bo'lib, matnda, hatto bir gapning o'zida o'rniga tushmagan jumalalar, so'z qaytariqlari ko'p bo'lishi mumkin. Mana shunday paytlarda, yuqorida keltirilgan misoldagidek, sinonimlar va leksik dubletlarning eng ma'qulini tanlash ustida ish olib boriladi. Bunda mustaqillik davridagi o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda so'z q'llash lozim bo'ladi.

Agar amalga oshiriladigan o'zgartirishlar matn mazmuniga salbiy ta'sir qiladigan bo'lsa, o'zgartirishlarni ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish kerak. Mazmunga ta'sir qiladigan bo'lsa, hatto tinish belgilariga ham qo'l urib bo'lmaydi. Ba'zi asarlarning yozilganiga bir necha yuz yillar o'tib ketgan bo'lib, uning matni hozirgi o'quvchilarga tushunarli bo'lmasligi mumkin. Bunday paytlarda nafaqat ayrim so'z yoki iboralar, balki muallifning qarashlarini ham anglash og'ir kechadi. Bunday paytlarda matnshunos izoh berish huquqiga ega.

Ma'lum bo'ladiki, matn ustida ishlash mas'uliyatli jara-yon bo'lib, u matnshunosdan ham, uni tahrir qiluvchidan

ham o'ziga nisbatan jiddiy munosabatni talab qiladi. O'quvchilarning matn tahriri bilan shug'ullanishi esa ularga o'rgangan til bilimlarini mustahkamlashga, undan foydalanishda shu paytgacha qadar yo'l qo'yib kelayotgan kamchiliklarini tuzatib olishiga, binobarin, o'z nutqining uslubiy jihatdan takmillashib borishiga ko'maklashadi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Quyidagi matnning mazmuniga qarab abzatslarga ajrating: *Asarda yozuvchining katta hayot tajribasi borligi yaqqol sezilib turibdi. Uning ko'zi o'tkir, fikri tiniq. Ayniqsa, tili o'ynoqi va jozibador. Obiat manzaralarini juda usta rassomdek noziklik bilan chizadi. Muallif hayotni o'z ko'zi bilan ko'radi. Undan ma'lum darajada falsafiy xulosalar ham chiqara oladi. Hayot tajribasi, klassiklarni qunt bilan o'rganish, o'zidan oldin shu mavzuga qo'l urgan yetuk mualliflarning asarlaridan ijodiy foydalanish muallif mahoratiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Ayniqsa, asar oxiridagi xotinboz chumchuqning boshqa chumchuqlar orasida fosh bo'lib, o'z xotini tannidan ushlab olinishi kartinasi nihoyatda yorqin, o'quvchining u yoki bu esida qoladigan darajada aniq tasvirlanishi muvaffaqiyatli ta'minlangan.*

2. Quyidagi matndan ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni topib ko'chiring: Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirishga urinib ko'ring. *Qalandar ko'ngli bir xil bo'lib, uning nozik barmoqlarini kaftlari orasiga oldi. –O'zingiz bilasiz, boshimda ming bir tashvish, bonu...*

– Bilamen... –Xurshida bonu yoshli ko'zlari jovdirab, Qalandarga tikildi. –Otamlardan xabar topdingizmi?

– Ha... –Qalandar ko'zini bonuning jovdirab turgan ko'zlaridan olib qochdi. –Olloga shukur, osoyishtalik...

– Saroydan sipohlar bormaptimu? O'opolon bo'lmaptimu?

– Yo'q, osoyishtalik...

– Olloga shukur... –Xurshida bonu ma'yus kulimsiradi-yu, yoqasiga tuflab qo'ydi. –O'ush ko'rib qo'rqgan edim.

Qalandarning yuragi orqasiga tortib:

– Ne tush? –deb so'radi.

Xurshida bonu "so'ramang, yomon tush", degan ma'noda bosh chayqadi, so'ng, xiyol qizarinqirab:

–Bir hafta bo'ldi, har kuni ko'zim to'rt bo'lib yo'lingizga tikilamen, –dedi. –Yomon o'ylarga borib, jismim zirqiraydi...

–Bonu! –Qalandar yana uning nozik qo'llaridan ushladi (Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi).

3. Berilgan matnни kengaytiring: *Zunnunxo'ja ne mashagqatlar bilan iljaydi. –Lotinchadan ancha savodingizni chiqarib qo'yishibdimi?*

Sidiqjon qo'chqorning shoxiga o'xshagan mo'ylabini burab, kulimsiragan holda, yer ostidan Zunnunxo'jaga qaradi. Zunnunxo'ja peshonasini bir-ikki ugaladi, so'ngra soqolini tutamlab, ayvonning shipidagi qaldirg'och uyasiga qaragan holda: –Unaqa betamiz odamning gapini gapirma, nega yer sening izmingda bo'lar ekan?

Kampir o'g'liga yozgan xatidan bunday ma'no chiqishini xayoliga ham keltirmagan edi (Qahhor A. Qo'shchinor chiroqlari).

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar :

1. "Matn" so'zini izohlab bering.
2. Matn qanday qismlardan iborat bo'ladi?
3. Ilmiy matnning uslubiy xususiyatlarini tushuntirib bering.

A D A B I Y O T L A R

1. *Abdurahmonov G.* So'z mulkining sultoni // O'zbek tili va adabiyoti, 2002, 1-son.
2. *Lixachev D.S.* Òkstologiya. Kratkij ocherk. M.-L., Nauka, 1964.
3. *Proxorov Ye.I.* Òkstologiya. –M., 1966.
4. O'zbek tili leksikologiyasi. Ò., "Fan", 1981.
5. *Haqqul I.* Ishq va komillik jazbasi // O'zbek tili va adabiyoti, 2002, 1-son.

2-MAVZU: Atamalar va kasb-hunar so'zlarining ma'noviy-vazifaviy xususiyatlari

R e j a:

1. Atamalar va kasb-hunarga oid so'zlar leksik birlik sifatida.
2. Atamalar ma'nosidagi chegaralanganlik va ularning baynalmilallik xususiyati.
3. Kasb-hunarga oid so'zlarning vazifaviy uslublarda qo'llanilishi.
4. Kasb-hunarga oid so'zlarning ilmiy va rasmiy uslublardagi vazifasi.

Öayanch soʻz va iboralar : taʼrifi, atama va termin, tarixiylik, atamalar shakllanishining xalq tarixi bilan bogʻliqligi, "Devonu lugʻotit-turk", sohaviylik, tor doira, jamiyat taraqqiyoti, atamalar va dunyo tillari, boyish yoʻllari, oʻzlashtirish, milliyalashtirish, jadedlar, "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingandan keyingi oʻzgarishlar, dubletlar, parallellar, oʻrin egallash, xalqaro atamalar, vaqt sinovi, vaziyat, soʻz valentligi va atama yasalishi, meʼyor. Kasb-hunar atamalari, gilamchilik, kashtachilik, toʻqimachilik, meʼmorchilik leksikasi, sohaviy meʼyorlashgan atamalar, determinatsiya.

Ilmiy adabiyotlarda taʼkidlanishicha, maʼlum fan, ishlab chiqarish sohasidagina qoʻllaniladigan va asosan oʻsha soha kishilari tushunadigan maxsus soʻzlar terminlar – atamalar sifatida qaraladi.

"Hozirgacha termin tushunchasi tilshunoslikda turlicha talqin qilinmoqda – deb qayd etishadi "Oʻzbek tili leksikologiyasi" asarining mualliflari. – Baʼzi tilshunoslar terminga ilm va texnikaga oid soʻz va iboralamigina emas, barcha uy-roʻzgʻor asboblari nomlarini, ishlab chiqarishning hozirgi darajasidagi qurollarinigina emas, balki oʻtmishdagi ibtidoiy qurollarning barcha nomlarini, shuningdek, kustarchilik kasb-hunarga oid soʻzlarni ham kiritadilar.

Agar masala shu taxlitda qoʻyiladigan boʻlsa, har bir konkret predmet nomini termin deb atash lozim boʻlar edi. Gap terminning aniq bir maʼnoni ifodalashida emas, bu jihatdan qaraladigan boʻlsa, kasb-hunar leksikasining ilmiy-texnikaviy terminlardan deyarli farqi yoʻq, termin har qanday tushunchaning aniq atamasi sifatidagina emas, balki ilmiy tushunchani ifodalovchi vosita sifatida asosan yozma shaklda maydonga keladi" [6, 32-b.].

Demak, "atama" soʻzini "termin" tushunchasi maʼnosida qoʻllaganimizda, uni umuman narsa-predmetlar, voqea-hodisalarning nomi sifatida emas, balki aniq bir ilmiy tushunchani ifodalaydigan va maʼlum bir fan sohasiga tegishli boʻlgan birliklarni anglashimiz lozim.

Shu maʼnoda kasb-hunarga oid soʻzlar atamalardan farqlanadi. Bu haqda quyiroqda toʻxtalamiz.

Oʻzbek tilshunosligida atamalarni oʻrganishga doir koʻpgina ishlar amalga oshirilgan. Koʻplab ilmiy kitoblar, risolalar,

lug'atlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu borada 200 dan ortiq lug'atlarning nashr etilishi fanimizning katta yutuqi hisoblanadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, "Lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar qo'mitasi olib borayotgan yirik hajmdagi ishlar atamashunoslik sohasining yanada yuqori bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. Oo'nyuq, Kultegin, Bilga hoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg'ul bo'lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo'shiqlarida ham mavjud bo'lgan. Ularni mujassam qilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari ularning bizgacha yetib kelishida katta tarixiy vazifani bajargan. Masalan, asardan ovchilik mavzusidagi parchalarni olib ko'raylik:

Chag'ri berib qushlatu,
O'oyg'an izib tishlatu,
O'ilki, to'ng'iz toshlatu
Ardam bila o'klalim.

Mazmuni: (Yigitlarga) chag'ri (ov qushi) berib qush ovlaylik, Ov itini (qushlarning) izidan solib tishlataylik. Oulki, to'ng'iz(lar)ni tosh bilan uraylik, Yutuqlarimiz bilan maqtanaylik. Yana:

Yigitlarig ishlatu,
Yig'ach yamish irg'atu.
Qulan, kiyik avlatu,
Bazram qilib avnalim.

Mazmuni: Yigitlarni ishlataylik, Daraxt(lar)dan meva(lar)ni qoqtiraylik, Qulon, kiyik ovlataylik, (So'ng) bayram qilib ovunaylik.

Shunday qilib, mana shu kabi tarixiy-ilmiy-badiiy manbalar orqali birgina jismoniy tarbiya va sportga oid *kurash, chopish, sakrash, chavandozlik, yoy, kamon, o'q otish, mergan, merganlik, eshkak, kema, suzish, o'zish, o'yin, tepish, tepki, to'p, to'r, chavgon, qanot, qilich, kema* yoki shaxmatga oid *shatranj, shohmot/shaxmat, shoh/shax, farzin, rux, fil, ot/asp, piyoda/*

sipoh, mot, pot/pat, dona, oq, qora, katak, qanot, yurish, kishit, hujum singari ko'plab atamalar bizgacha yetib kelgan. Bu hol ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tegishli.

Mana shu tarzda har bir davrda jamiyatning taraqqiyoti bilan bog'liq holda sohaviy atamalar ham son, ham sifat jihatdan takomillashib bordi. Uning taraqqiyotida XIX asrning II yarmidan keyingi davr va yana oradan yuz yildan ortiq vaqt o'tib O'zbekistonning mustaqillikka erishgan davri alohida o'rin tutadi. Mana shu davr ichida jahonda yuz bergan o'zgarishlar O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda ham sanoatning o'sishiga, dunyoviy fanlarning qaytadan rivojlanishiga sabab bo'ldi. Falsafa, huquq, tarix, filologiya, sotsiologiya, kimyo, fizika, matematika, biologiya, geografiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, tibbiyotga oid maxsus atamalar shakllandi va ular tilimizga kirib keldi. Bunda rus tilining ta'siri katta bo'lganligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Atamalarning o'zbek tilida son jihatdan ko'pchilikni tashkil etishi ularni mavzuviy guruhlariga bo'lib o'rganishni taqozo qiladi. Chunki o'zbek atamashunoslari S.Ibrohimov, S.Akobirov, Olim Usmon, R.Doniyorov, H.Shamsiddinov, A.Madvaliyev va boshqalar ta'kidlaganlaridek, bunday tahlil atamalarning umumiy boyligini ko'rsatishga, ularni ma'lum bir tartibga keltirishga ko'maklashadi, sohalarga bo'lib o'rganishni osonlashtiradi.

Atamalarni dastlab ikki katta guruhga ajratish to'g'ri bo'ladi:

1. Umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.
2. Xususiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

Umumiy atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo'nalishlari uchun tushunarli bo'lgan atamalar kiradi. Masalan, sportdagi *musobaqa, sovrin, sovrindor, yutuq, g'alaba, birinchilik, chempionat, ko'rik, trener, hakam* atamalarini sportning barcha turlarida bemalol qo'llash mumkin. Fizikaga oid *issiqlik, temperatura, jism, elektr, magnit, gaz, harakat, energiya, maydon* singari atamalar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin.

Xususiy atamalar esa faqatgina bitta mavzuviy guruh doirasida amal qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan fizikaga oid atamalar uning barcha sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgani holda, *gravitatsiya, diod, temoster, kondensatsiya, kapillyar hodisalar* singari atamalar yoki kimyoga oid *gidroksid, oksid, sulfat kislotasi, xlorid kislotasi* kabi atamalar tor ixtisos doirasida

qo'llaniladi. Bunday holatni fanlarning barcha yo'nalishlari va sohalarida kuzatish mumkin.

O'zbek tilining barcha leksik resurslarida bo'lgani kabi atamalarning ham o'z boyish yo'llari bor va ular tilimiz taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarga muvofiq keladi.

Dunyoda chetdan so'z o'zlashtirmagan birorta ham til yo'q, degan qarash uning terminologiyasiga ham to'g'ri keladi. "Hamma tillarda ham yangi tushunchani ifodalash uchun yo boshqa tildan tayyor termin qabul qilinadi, yo shu tilning o'zida mavjud bo'lgan so'z yoki termindan foydalaniladi, yo bo'lmasa yangi termin yasaladi" deb yozadi S. Akobirov.

E'tirof etish kerakki, o'zbek tilida chetdan qabul qilingan ilmiy-texnikaviy atamalarning salmog'i katta. An'anaga ko'ra ularni quyidagi yo'nalishlarda o'rganamiz:

1. Arabcha: *amaliyot, asar, asos, izoh, imlo, ilm, in'ikos, ilova, isloh, istiloh, islohot, maqola, misol, masala, maxraj, manfiy, musbat, mavzu, mazmun, mantiq, ma'naviy, ma'rifiy, muqaddima, mushohada, tajriba, taqriz, tahlil, uslub, fan, falsafa* va hokazo.

2. Forscha-tojikcha: *bastakor, doya, duradgor, zabtkor, navosoz, navoxon, shogird, peshqadam, sovrin, sozanda, ustoz, chavandoz, yakkaxon, havaskor, hamshira* kabi.

3. Ruscha-baynalmilal: *abzats, agronomiya, agroximiya, agrotexnika, arxeologiya, gazeta, kodeks, lingvistika, matematika, nekrolog, plenum, realizm, romantizm, sessiya, syezd, fizika, fonetika, fonologiya* va hokazolar. Ularning ma'lum qismlari:

a) lotincha: *abbreviatsiya, abstrakt ot, agglyutinatsiya, adverbializatsiya, adyektivatsiya, akkomodatsiya, aktualizatsiya, aksentologiya, alliteratsiya, altematsiya, areal, artikulyatsiya, assimilyatsiya, affiks, affiksoid, affrikata* kabi.

b) yunoncha: *allegoriya, allomorf, allofon, alfavit, amorf tillar, analitik tillar, analogiya, anomaliya, antiteza, antonim, antroponim, apokopa, arxaizm, aforizm* singari.

Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan respublikamiz miqyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tilimiz taraqqiyotiga, xususan uning terminologik rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

"Davlat tili haqida" gi Qonunning yuzaga kelishi munosabati bilan fanlarning turli yo'nalishlari bo'yicha atama-

shunoslik sohasida islohotlar o'tkazish, ularni "o'zbeklashtirish"ga imkoniyat yaratildi.

Hatto dastlab shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, atamalarini "milliylashtirish" ga ishtiyoq kuchayib ketdi. O'avsiyalar ham nihoyatda ko'paydi. Jo'yali fikrlar bilan bir qatorda, hazm bo'lishi qiyin bo'lgan takliflar ham o'rtaga tashlandi. Bu gapning tasdig'i sifatida ayrim misollarni keltiramiz: *matematika-riyoziyot, fakultet-kulliyot, rassom-musavvir, gazetxon-mushtariy, auditoriya-saboqxona, xona, o'quv xonasi, sirk-tomoshaxona, sirkul-pargar, sellofan-suvqog'oz, seyf-zarf, attestatsiya-ko'rik, samolyot-aeroplan, tayyora, aeroport-tayyoragoh, familiya-naslnoma, klub-da'vatxona, titul list-sarvaraq* va hokazo.

Bu kabi tavsiyalar mustaqillikdan keyin— "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingach, o'rtaga tashlandi. Ona tilimizning chin fidoyilari erksevar va millatsevar jadidlar tomonidan esa shu mazmundagi mulohazalar asrimizning boshlarida, mustamlakachilik paytlaridayoq o'rtaga tashlanganligi tarixdan ma'lum.

Ulug' ma'rifatparvar Fitrat 1921 yildagi til, imlo qurultoyida kontrrevolyutsion "Chig'atoy gurungi" tashkilotining dasturini bayon etib, o'zbek tilidan yot so'zlar (arabcha, forsha, ruscha) ni chiqarib tashlasak, buyuk idealimiz bo'lgan turkchilikka birlashamiz, deb ochiq-oydin aytdi.

Ular (tilning sofligi uchun kurashuvchilar—mualliflar)... ko'plab qadimiy so'zlarni tiriltirishni, o'zbek adabiy tiliga qabul qilishni tavsiya qildilar. Masalan, arabcha *zahmat, xalq, duo, nasihat, rais, olam, kitob, maktub* so'zlari o'mniga *engak, el, olqish, o'gut, boshliq, ochun, bitik, yozoq* so'zlarini, forsha *shahar, quvch, tajriba* so'zlari o'mniga *baliq, taniq, sipok* so'zlarini, ruscha *parovoz, poyezd, revolyutsiya, proletar, samovar, pochta, agronom, elektr, geografiya, botanika, astronomiya, morfologiya, sintaksis* kabi so'zlar o'mniga *o'txona, otash arava, o'zgarish, yo'qsil, o'zi qaynar, choparxona, ekin bilg'ich, simchiroq, yer biligi, o'simlik biligi, yulduz biligi, sarf, nahv* kabi so'z va iboralarni ishlatishni ko'tarib chiqdilar (5, 155-bet).

Bu qarashlar shu ma'noda diqqatga sazovorki, ularda tilni mumkin qadar chet el unsurlaridan tozalash, umumturkiy birliklarni adabiy til me'yori sifatida belgilash g'oyasi yotadi. Masalaning qo'yilishi ana shu tarzda tushuniladigan bo'lsa, yuqoridagi *riyoziyot, kulliyot, musavvir, mushtariy,*

*saboqxon*a, *pargar*, *tayyora*, *tayyoragoh*, *naslnoma*, *da'vat-xona* kabi so'zlar bu g'oyaga mos kelmaydi. O'z-o'zidan savol paydo bo'ladi: qabul qilishga tavsiya etilayotgan so'zlar umumturkiy bo'lmagach, qanday farqi bor – ruscha-baynalmilal bo'ldi nima-yu, arabcha yoki forschatojikcha bo'ldi nima?

Masalaning boshqa bir muhim tomoni bor: tavsiya etilgan birliklar adabiy tilimizga leksik me'yor sifatida qabul qilinmadi. Nega? Shuning uchunki, birinchidan, tildagi o'zgarishlar jarayoniga o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning ta'siri bo'ldi. Millatsevarlik millatchilik deb ayblanayotgan bir davrda, tilimizga bo'lgan bu kabi munosabatlar, yangilikka intilishlar qo'llab-quvvatlanmadi. Ikkinchidan, asrimizning boshlarida, hatto hozirda ham narsa va tushunchalami ifodalovchi birliklarni tavsiya etilgan so'zlar shaklida qo'llash hali me'yorlashmagan, odat tusiga kimagan edi va shundayligicha qolib ketdi.

Öilimizda qo'llanilib kelinayotgan *avtor*, *arxitektor*, *gumanizm*, *doklad*, *ideologiya*, *inspektor*, *intelligent*, *kontrol*, *komandirovka*, *komandirovochnaya*, *leksiya*, *ministr*, *oblast*, *ostanovka*, *planeta*, *problema*, *rayon*, *raport*, *redaktor*, *revolyutsiya*, *spravka*, *student*, *sekretar*, *tema*, *territoriya*, *traditsiya*, *forma* singari so'zlar o'rnini *muallif*, *me'mor*, *insonparvarlik*, *ma'ruza*, *mafkura*, *nozir*, *ziyoli*, *nazorat*, *safar*, *safanoma*, *ma'ruza*, *vazir*, *viloyat*, *bekat*, *sayyora*, *muammo*, *tuman*, *bildirishnoma* /*xabarnoma*, *muharrir*, *inqilob*, *ma'lumot*/*ma'lumotnoma*, *talaba*, *kotib* /*kotiba*, *mavzu*, *hudud*, *an'ana*, *shakl* kabi tavsiya etilgan so'zlar osonlik bilan egalladi. Chunki ular dubletlar sifatida tilimizda ozmi-ko'pmi oldindan ham qo'llanilib kelinayotgan edi.

Ko'pgina misollar tahlili atamalar, nomlanishlar turg'unligi murakkab masala ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi sobiq Ittifoq tasarrufida ekanligida, rus tilining Ittifoq hududidagi boshqa tillarga ta'siri kuchli bo'lgan paytlarda biz hech bir ikkilamadan *respublika*, *oblast*, *rayon*, *avtor*, *agitatsiya*, *propaganda*, *ideya*, *plan*, *forma*, *protsent*, *protsess*, *komandirovka*, *raport*, *spravka*, *student*, *sekretar*, *ministr* kabi so'zlarni, garchi ularning tilimizda (oldin qaysi tildan qabul qilingan bo'lishidan qat'i nazar) muqobil variantlari bo'lsa-da, ishlataverar edik. Vatanimizning mustaqillikka erishishi munosabati bilan tabiiy ravishda bu so'zlarga jamatchilik tomonidan munosabat bildirildi.

Jumhuriyat, viloyat, tunan, muallif, tashviqot, targ'ibot, g'oya, reja, shakl, foiz, jarayon, safar, bildirishnoma, ma'lumotnoma, talaba, kotib(a), vazir kabi muqobil variantlari ham 90-yillar boshlaridan ular bilan bab-baravar qo'llanila boshlandi va bu parallellik tilimizda me'yor sifatida ma'lum muddat saqlanib turdi.

Endi oradan o'n yildan ko'proq vaqt o'tgach, butunlay boshqa manzara kuzatiladi. Bu o'tgan vaqt orasida birinchi guruh so'zlar asosan ikkinchi guruh so'zlariga o'z o'rmini bo'shatib berdi, deb bemalol ayta olamiz. Nega asosan deb aytayapmiz? Shuning uchunki, saragi sarakka, puchagi puchakka deganlaridek, bu so'zlarning har biri vaqt g'alviridan o'tdi. Ayrimlari hozir ham parallellik xususiyatini saqlab qoldi: *respublika-jumhuriyat, universitet-dorilfunun* kabi. Ularning semantik-uslubiy ma'nolari aynan bir xil bo'lmagani uchun ham shunday bo'ldi.

Bunday parallel qo'llanishning boshqa sabablari ham bor. Biz tilshunosligimizda *epitet-sifatlash, derivatsiya-so'z yasalishi, affiks-qo'shimcha, abbreviatura-qisqartma so'z, anafora-misra boshidagi tovush takrori, antroponimlar-kishi ismlari, toponimlar-joy nomlari, atribut-aniqlovchi, affrikatlar-qorishiq undoshlar, stil-uslub, stilistika-uslubshunoslik* kabi o'nlab atamalarni parallel holda hozir ham ishlatib kelmoqdamiz. Buning boisi atamalarning birinchisi xalqaro temin sifatida barcha tillarda qo'llanilib kelinayotganligidadir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, yangi tavsiya etilayotgan so'zlarning ma'qul kelishi va me'yorlashishi ularni tilda avval qo'llanilib kelinayotgan yoki kelinmayotganiga ham bog'liq. Boshqacha aytganda, ularni ko'rish va eshitishga odatlanish me'yorlashishga ko'maklashadi.

Atamalar qo'llashda me'yorni saqlab turish boshqa so'zlar, masalan, ko'p ma'noli yoki sinonim so'zlar me'yorini turg'un holatda ushlab turishga nisbatan osondek tuyuladi. Aslida esa bu yerda ham o'z muammolari bor. Masalan, shu paytgacha tilimizda faol ishlatilib kelinayotgan *tovar* so'zi o'rnida *mol* so'zini ishlatish olamiz: *mol, sanoat mollari, mol ayriboshlash, mol olib kelmoq, narxi tushirilgan mollar* kabi. Ammo bunday ishlatish bemalol emas. *Sanoat mollari* deyish mumkin bo'lgan holda *oziq-ovqat mollari* deb bo'lmaydi, *mol keltirdim* deganda faqat sanoat mollari tushuniladiyu, *tovar*

keltirdim deganda farqlanmasdanni yoki *prontovari*, *prodtovari* soʻzlariga asoslanibmi, har ikkalasi ham tushunilaveradi. *Ôovar* soʻzidan *tovaroved* soʻzini yasay olamizu, *mol* soʻzidan ana shu maʼnodagi *molshunos* soʻzini yasay olmaymiz. Yasagan taqdirimizda ham u *mol* soʻzining asosiy maʼnosiga – *hayvon* maʼnosiga tortib ketadi va *hayvonni yaxshi biladigan*, *hayvon bilan shugʻullanadigan kishi* maʼnolarini anglatadi. Oʻzbek tilida esa bunday maʼnolarni ifodalashga zarurat boʻlmagan. Aytaylik, *insonshunos*, hatto hazil tariqasida *ershunos* deyish ham mumkin, ammo *hayvonshunos* deb boʻlmaydi. Shunday ekan, tilimizda *tovaroved* yoki *tovarshunos* soʻzidan foydalanib turishga toʻgʻri keladi.

Maʼlum boʻladiki, tilshunoslik ilmida, tilshunoslar va boshqa mutaxassislar faoliyatida, ayniqsa, atamalar bobida tildan foydalanishdagi vaziyatni muvofiqlashtirish, bir xillikni yuzaga keltirish, osonlik va qulaylik yaratish, eng muhimi, tushunarli boʻlishni taʼminlash maqsadida tavsiyalar berib boriladi. Aytaylik, *agroprom*, *agroximiya*, *akvarel*, *annotatsiya*, *arxeolog*, *astronom*, *vakant* soʻzlari oʻrniga *dehqonchilik sanoati*, *dehqonchilik kimyosi*, *suv boʻyoq*, *muktasar bayon*, *qadimshunos*, *falakiyotchi*, *boʻsh oʻrin* /*boʻsh lavozim* kabi soʻz va birikmalarni ishlatish taklifi (Misollar A. Berdialiyevdan olindi).

Ammo bu tavsiyalar qanchalik ilmiy, amaliy va meʼyoriy asosga ega? Bu variantlarning qaysi biri tilda yashab qolishi mumkin? Ularning qaysi biri narsa va hodisaning, predmet va tushunchaning mohiyatini toʻlaroq ifoda etadi? Bu masalani, qaysi variant maʼqul boʻlishidan qatʼi nazar, hayotning oʻzi, til elementlaridan foydalanish jarayoni hal qiladi, albatta. Lekin bunday tavsiyalarning berib borilishi, tavsiya etilayotgan variantlarning afzallik tomonlari tushuntirib berilishi mutlaqo zarur boʻlgan faoliyatdir. Faqat shunday yoʻl bilangina tilimiz takomillashib, sayqallashib, soʻz maʼnolaridagi eng nozik imkoniyatlar ham reallashib boradi. Aytilganlarning tasdigʻi sifatida bir misol keltiramiz: psixologiya faniga oid koʻplab atamalar shu soha mutaxassislarining tavsiyasiga binoan oʻz oʻrnini sharq ilmida qoʻllanib kelingan atamalarga boʻshatib berdi. *Psixologiya-ruhshunoslik*, *psixika-ruhiyat*, *psixik protsess-ruhiy jarayon*, *adaptatsiya-moslashish*, *nerv-asab*, *nerv sistemasi-asab tizimi*, *talant-iqtidor/isteʼdod*, *temperament-mijoz*, *emotsiya-joʻshqin holat* /*joʻshqinlik*, *xarakter-xulq*.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tildagi me'yoriy holatlarni tayinlashda har bir tilning o'z ichki qonun-qoidalariga tayanib, ko'pchilikka ma'qul bo'lish-bo'lmaslik jihatlari e'tiborga olinishi kerak.

Shu o'rinda yana bir misolni tahlil qilaylik. Ko'plab atamalarning muqobillarini izlash jarayonida *rayon* so'zi o'rinda *nohiya*, *depara*, *tuman* so'zlari ishlatila boshlandi. Keyinchalik, garchi so'zning asl mohiyatiga unchalik to'g'ri kelmasa ham *tuman* so'zi me'yorlashdi. Ammo, ta'kidlash lozimki, bu so'zning birgina ma'nosi – viloyatning bir qismi bo'lgan, ma'lum chegaraga ega bo'lgan, ma'muriy hudud atamasi sifatida me'yorlashdi. Ammo, lug'atda *rayon* so'zining umuman joy ma'nosini anglatish imkoniyati ham ko'rsatilgan: *prigorodniy rayon – shahar atrofi rayoni*, *promishlenniy rayon – sanoat rayoni*, *zavodskoy rayon – zavodlar rayoni*, *rayon voyennix deystviy – urush harakatlari rayoni*, *rayon boya – jang maydoni*, *oboronitelniy rayon – mudofaa doirasi* kabi. Bu birikmalarni qanday me'yorlashtiramiz? Bizning ongimizda u hozircha ma'muriy hudud tarzida shakllanib turgan ekan, *shahar atrofi tumani*, *zavodlar tumani*, *urush harakatlari tumani* tarzida ham me'yorlashib keta oladimi?

Buning ustiga, shu so'z o'zagidan yasalgan *rayonirovaniye*, *rayonirovanniy – rayonlashtirish*, *rayonlashtirilgan* so'zlari bor. Masalan, biror ekin navlari urug'ini, ya'ni biror joyning sharoitiga eng ko'p moslashtirilgan navlar urug'ini rayonlashtirish [3, 711-b]. Buni qanday me'yorlashtiramiz? *Urug'ni tumanlashtirish* debmi yoki *urug'ni joylashtirish*, *urug'ni joylarga moslashtirish* debmi? Harqalay, nazarimizda, masalaning yechimini o'tayotgan vaqt topadi.

Atamalarni almashtirish va me'yorlashtirishda ro'y bera-yotgan jarayonlarni tahlil qilib quyidagi xulosaga kelish mumkin: atamalarning bir qismi tezgina almashdi, me'yorlashdi va ommalashdi, yana bir qismi esa variantlar, dubletlar tarzida baravar ishlatilib kelinmoqda. Atama sifatida tavsiya qilingan birliklarning ma'lum qismi esa tilda o'z o'rnini topadi, ko'pchilik tomonidan ma'qul ko'rilmadi.

Demak, mustaqillikdan keyingi davr atamalarini me'yorlashtirish xususida gap ketganda ana shu jihatlarning hayotiy ekanligini inobatga olishga to'g'ri keladi.

Atamalar qo'mitasining bu jarayonni muvofiqlashtirib borishda, tartibga solib turishda xizmatlari katta ekanligini qayd qilish

lozim. Qo'mita o'z faoliyatida bu borada juda ko'p vazifalarni amalga oshirdi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, kasb-hunar leksikasi bir qancha xususiyatlari bilan terminologik leksikadan farqlanadi. Bu farqlar "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida yorqin ko'rsatib berilgan:

Asrlar davomida yaratiladigan kasb-hunarga oid so'zlar ma'lum kasb-hunar kishilari orasidagina qo'llaniladi va ular og'zaki nutq jarayonida shakllangan bo'ladi. Bu guruh so'zlarning imkoniyati bir kasb-hunar va u bilan shug'ullanadigan kishilar doirasida chegaralangan. Shu tufayli ularning dialektal variantlari mavjud bo'lishi ham mumkin. Bunday xususiyatlari bilan ular atamalarga qarana-qarshi turadi. Chunki atamalar fan va texnika, sanoat va qishloq xo'jaligi, ma'naviyat va madaniyat sohasiga doir rasmiy tushunchalarni ifodalaydi va ular tegishli mutasaddilar tomonidan nazorat qilib boriladi. Ilmiy tushuncha ifodasi sifatida asosan yozma shaklda vujudga keladi va umumjahon yoki umummilliy ahamiyatiga ega bo'ladi [6, 32-33-b.].

Kasb-hunarga oid til birliklari me'yorlari haqida so'z yuritish ham ahamiyatli. Mavjud lug'atlarni ko'zdan kechirish shundan dalolat beradiki, ulardan o'zbeklarning ijtimoiy hayoti, kasbi va hunarmandchiligiga oid atamalarning ma'lum qismigina joy olgan. Ò. Òursunovanning "O'zbek tili amaliy leksikasi" (Ò., 1978) asarida keltirilgan ayrim misollarga murojaat qilib ko'raylik: *gilam* turlarini bildiradigan *julxirs, zulbaraq, arabi, olacha, palos, xoli / g'oli, sholcha, qoqma* yoki *bosma* (1. *chakmon*. 2. *ilma, chok turi*), *birishim, bo'zastar, gulburi, dorpech, dug / duk, duxoba, do'kon* (1. *dastgoh, stanok*. 2. *magazin*), *do'ppi, yondori, jo'ypush, zardevol / zardevor, zardo'zi, zehdo'zlik, yo'rma, yo'rmodo'zlik, kallapo'sh, kalobtun, kashtado'z, kibaz, (paxta) momiq, palak, peshonaband / peshonabog', popop, popopchilik, resman, tubatoy, urchuq, choyshab, shamshirak, o'mak, qatim, qo'chqorshoxi / qo'chqorak* va boshqalar. Ulardan *gilamning* turlarini bildiradigan *arabi, palos, sholcha* so'zlari hamda *chakmon* ma'nosidagi *bosma, dorpech, dug / duk, duxoba, do'kon, do'ppi, yondori, joypuli, zardevol / zardevor, zardo'zi, zehdo'zlik, yo'rma, yo'rmodo'zlik, kallapo'sh, kalobtun, momiq, palak, popop, popopchilik, peshonaband / peshonabog', urchuq, choyshab, o'mak, qatim* singari birliklar lug'atlarda keltirilgan (Bu haqda qarang: O'zbek xalq shevalari lug'ati - Ò., 1971; O'zbek tilining imlo lug'ati. Ò., 1976; O'zbek tilining izohli

lug'ati, I–II tomlar. M., 1981). Ammo *gilamning* turlarini bildiradigan *julxirs, zulbaraq, xirs, xoli, qoqma; ilma, chok* turi ma'nosidagi *bosma* va *birishim* (ipak), *bo'zastar* (mato), *gulburi* (gul kesish), *resman* (sariq va oq g'altak ip), *tubatoy* (gulsiz oddiy do'ppi), *shamshirak* (narvon pochasisiga o'xshash yog'och), *qo'chqorshoxi / qo'chqorak* (to'qimachilikda naqsh turi) so'zlari esa yuqorida tilga olingan lug'atlarda o'z ifodasini topmagan.

Shunday bo'lsa-da, ular xalqimizning, hunarmandlarining og'zaki nutqida saqlanib kelinmoqda. XXI asrga kelib fan va texnika taraqqiyoti o'zbek milliy kosibchiligining ayrim tarmoqlari faoliyatini susaytirib qo'ydi. Ular tayyorlab yetishtiradigan mahsulotlarning ko'pchiligi kundalik ehtiyojlarni qondirishi nuqtai nazaridan ham, ma'naviy jihatdan ham eskirdi. Bu esa, o'z navbatida, ana shu sohalariga tegishli bo'lgan til birliklarining qo'llanishi darajasini pasaytirdi.

"Oo'g'ri, kasb-hunar leksikasiga oid so'zlarning semantik strukturasi nazar tashlasak, –deb yozadi O. O'rsunova, ular orasida eskirgan so'zlar qatori tarixiy so'zlar ham juda ko'p: *chakmon, mursak, paranji, chachvon, qoziq, lungi, omoch, yorg'ichoq, chig'iriy, tanga, jevak, zarkokil, qo'ltiq tumor, choch popuk* kabilar shular jumlasidandir. Ammo bunday so'zlar bilan birga kasb-hunar tarmoqlarida *bosma, sanama, chizma, iroqi, chekma, tepa, kizak, o'tqiziq, tepdov* (kashtachilikda); *o'rmak, o'rmak qurish, do'kon yugirish, gula chekish, qoqma, terma* (gilamchilikda); *tanda, dastgoh, o'rish, arqoq, kudung, shahi, atlas* (to'qimachilikda); *koshin, kosamon, sirkor, me'mor, to'sin, shift, toqi, ta'mir, ganchin naqsh* (me'morchilikda) singari hozirgi tilimizda o'zgarishsiz qo'llanayotgan, ma'nosi o'zi mansub bo'lgan sohalar bilan chegaralangan, konkret tushunchalarni anglatadigan barqaror so'zlar va so'z birikmalari ham bor" [4, 21-b.].

Öilimizning hozirgi mavqei nuqtai nazaridan nutqimizda unumli-unumsizligidan, me'yorlashgan-me'yorlashmaganligidan qat'i nazar, bu birliklar lug'atlarda qayd etilishi va kelgusi avlodlar uchun saqlab qolinishi lozim.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida turli fan sohaları va kasb-hunarga oid ko'plab so'zlar mavjud hamda ular yozma va og'zaki ko'rinishlarda me'yorlashgan. Buni, ayniqsa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matematika, fizika, kimyo, biologiya,

tibbiyot, iqtisodiyot singari turli fan sohalariga oid atamalarda kuzatamiz. Ayni paytda o'zbek tilida shunday vositalar ham borki, ularning qo'llanish chegarasini bir soha yoki bir vazifaviy uslub doirasida belgilab bo'lmaydi. Ular bir uslub doirasida yoki ma'lum sohada bir ma'nosi bilan me'yorlashgan bo'lsa, ikkinchi bir ma'nosi bilan boshqa uslub yoki sohada me'yorlashgan. Masalan: *ega, kesim, suv, aylana, zamon, asos, o'q, tekislik, sirt* singari birliklar umumiste'moldagi so'zlar bo'lish bilan birga, *ega, sirt, o'q, tekislik* geometriyada, *zamon* falsafada, *asos* qurilish-me'morchilikda atama sifatida me'yorlashgan.

Bir so'z ikki uslubda, fan sohasida atama sifatida me'yorlashgan bo'lishi ham mumkin. Masalan, *morfologiya*: 1) tilshunoslikda – tilda so'zlarning o'zgarish shakllari tizimi, grammatikaning so'z shakllarining yasash usullari hamda so'z yasash qoidalari haqidagi bo'limi; 2) botanikada – tuproqning tuzilishi va shaklini o'rganadigan fan sifatida; *assimilyatsiya*: 1) biologiyada – organizm faoliyati jarayonida organik moddalarning o'zlashishi, singishi va hazm bo'lishi; 2) tilshunoslikda – so'zlarning talaffuzida ularning tarkibidagi ikki tovushning bir-biriga ta'sir qilish natijasida bir-biriga muvofiqlashuvi, bir-biriga singib, o'xshab ketishi; 3) tarix va etnografiyada – biror xalqning ikkinchi bir xalq urf-odatlarini, madaniyati va tilini o'zlashtirishi natijasida unga aralashib qo'shilib ketishi kabi.

Oil taraqqiyotida buning aksi ham kuzatiladi. Ma'lum fan sohasi yoki kasb-hunarga tegishli bo'lgan atamalarning ma'no doirasi kengayadi – determinlashish jarayoni ro'y beradi, ya'ni ular tor atamalilik doirasidan chiqib, ommalashadi va barcha vazifaviy uslublarda qo'llanila boshlaydi. Masalan: *odami operatsiya qilmoq – valyuta operatsiyasini amalga oshirmoq – harbiy operatsiyani bajarmoq; polk shtabi – paxta shtabi, g'alla shtabi; falsafa ilmi – falsafa o'qimoq* kabi. Ular shu tariqa turg'un birikmalar tarkibida ham qo'llanila boshlaydi: *gegenonlik qilmoq, avtomat bo'lib ketmoq, monopoliya qilib olmoq, reytingi baland, gradusi baland, ishiga plyus bo'lmoq, ishiga minus bo'lmoq, qo'shtirmoqqa olmoq, zangori kema kapitani* va boshqalar.

Olda ma'lum paytda paydo bo'lib, asosan so'zlashuv nutqida qo'llanilib va me'yorlashib, lug'atlarga kirib ulgurmasdan oq iste'moldan chiqib ketadigan birliklar ham uchraydi. Ayollar ko'ylak qilib tikadigan turli xil materiallar va ayrim kiyim

nomlari haqida shunday deyishimiz mumkin: *kelin kiysin, qaynonasi kuysin; marg'ilon nusxa, xosiyatxon, bargi karam, namangan nusxa, namozshomgul, chamandagul, tohir-zuhra, gulbadan, mujda, tungi yog'du, suv parisi, skarlet, nozanin, tropikanka, esmeralda* kabilar.

Mana shu tarzda o'zbek tilida mavjud bo'lgan barcha kasb-hunarga doir so'zlarning til me'yorlari xususida tahlilni davom ettirish mumkin.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Quyidagi atamalarning ma'nolarini izohlab bering: *xat boshi, bosh gap, tinish belgilari, ot kesim, fe'l kesim, sifat, mayl, hol, amonimlar, paronimlar, sintaktik aloqa, lug'at, lahja* kabilar.

2. O'zingizning bo'lajak kasbingizga oid o'nta so'z toping, ularning sinonimlarini aniqlang.

3. Bo'lajak kasbingiz haqida hikoya qiluvchi matn tuzing, ulardan atama va kasb-hunarga oid so'zlarni ajrating.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Atamalarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Kasb-hunarga oid so'zlar qaysi uslubga tegishli?
3. Bo'lajak kasbingiz haqida hikoya qiluvchi matn tuzib, uni badiiy uslubda ifoda eting.

A D A B I Y O T L A R

1. Akobirov S. *Oil va terminologiya*. O., «Fan», 1968.
2. *Ilmiy-amaliy konferensiya tezislari*. Navoiy, 1993.
3. *Russko-uzbekskiy slovar*. — M., 1954.
4. *Qursunova O. O'zbek tili amaliy san'at leksikasi*. O., «Fan», 1978.
5. *Qursunov U., O'rinboyev B. O'zbek adabiy tili tarixi*. — O., «O'qituvchi», 1982.
6. *O'zbek tili leksikologiyasi*. O., «Fan», 1981.
7. *O'zbek tilining imlo lug'ati*. O., «O'qituvchi», 1976.
8. *O'zbek tilining izohli lug'ati, I–II tomlar*. «Rus tili», 1981.
9. *O'zbek xalq shevalari lug'ati*. O., «Fan», 1971.

IV b o b

MUNSHAOÛ VA ISH YURIÛISH

1-MAVZU: O'zbek munshaoti tarixi, uning an'analari

R e j a:

1. Munshaot haqida ma'lumot. Munshaot (ish yuritish) tarixining davlatchilik tarixi bilan bog'liqligi.
2. Ôrkiy davlatchilikning boshlang'ich davrlarida ish yuritishning og'zaki shakli.
3. Yozuv va musulmon huquqining paydo bo'lishi bilan ish yuritish hujjatlarining takomillashuvi.
4. Farmon, tarxon yorlig'i, vaqfnoma, vasiqa, shartnoma singari hujjatlarning mazmuni.
5. O'zbekiston Respublikasidagi hozirgi ish yuritish tizimi ilk turkiy davlatchilikdagi munshaotning bevosita vorisi ekanligi.

Ôayanch so'z va iboralar : *munshaot, davlat, o'zbek davlatchiligi, og'zaki nutqiy me'yorlar, an'anaviylik, turkiy hoqonliklar hujjatlari, Qur'oni Karim va hadislar, buyruq, farmon, vaqfnoma, vasiqa, shartnoma, tarxon yorlig'i, moliya hujjatlari, tilxatlar, ustoz-shogird, farzandlikka berish, qullikdan ozod qilish, hadya, savdo-sotiq, qarz, ishonch, ssuda, kafolat, zakolat, garov, ijara, nikoh, bugungi ish yuritish.*

O'zbek munshaoti tarixining shakllanish ildizlarini o'zbek davlatchiligi tarixidan izlash lozim bo'ladi.

Ôarixiy manbalar va tarixiy tadqiqotlarning guvohlik berishicha, bundan yarim million yillar muqaddam hozir biz o'zbeklar yashab kelayotgan ona zamin—O'zbekiston hududida ajdodlarimiz yashab kelganlar.

Ôarixiy va diniy manbalar yana shundan ogoh etadiki, turkiy xalqlar Nuh payg'ambarning o'g'li Yofas—Abut-turk avlodidan tarqalgan va bu ulug' zot turkiy davlatchilikning asoschisi sanaladi. Undan keyin esa poytaxti Samarqand bo'lgan Alp Er Ôo'nga davlati (miloddan avvalgi to'rt minginchi

yillar) e'tirof etiladi. Mana shu tarzda turli shakllarda davom ettirilgan va bugunga kelib O'zbekiston Respublikasi nomi bilan ataladigan mustaqil o'zbek davlati o'zining salkam uch ming yillik tarixiga ega [1].

Bu o'rinda shu narsa muhimki, o'zining ana shunday qadimiy va boy tarixiy an'analariga ega bo'lgan o'zbek davlatchiligi, shubhasiz, o'z ish yuritish tarixiga ham ega va uni o'rganish bugungi fanimizning dolzarb masalalaridan biridir.

Biz mavzuni o'zbek davlatchiligi tarixini atroflicha o'rgangan huquqshunos olim Z.Muqimov o'zining «O'zbekiston davlati va huquqi tarixi» kitobida bayon etgan fikrlarga tayanib yoritishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, davlatchilikning boshlang'ich shakllarida, hali yozuv bo'lmagan paytlarda, ma'lum odat tusiga kirgan og'zaki huquqiy me'yorlar asosida ish olib borilgan. Bu odatlarni Z.Muqimov "ma'lum bir joyning yozib qo'yilmagan, og'izdan-og'izga, avlodan-avlodga o'tib kelgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan rasm-rusumlari va tartiblaridan kelib chiqadigan qoidalar yig'indisidan iboratdir", deb izohlaydi [2, 31-b.].

Darhaqiqat, davlatchilikning hamma davrlarida ham turli shakllarda amalda bo'lgan ish yuritish qoidalari ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishning u yoki bu tarzda ko'rinishlari hisoblanadi. Ular yordamida davlatlararo va mamlakat ichidagi, shaxslararo va oilaviy munosabatlar, jinoyatga qarab jazo belgilash, tartib va intizom masalalari yo'lga qo'yilgan. Yozuv paydo bo'lgandan keyingi davrlar mahsuli hisoblanadigan qonun va kodekslar, farmon va farmoyishlar hamda boshqa mazmundagi hujjatlarning amaldagi ko'rinishlari ham aynan ana shu hujjatlarning davomi, desak xato bo'lmaydi.

Z.Muqimovning yuqorida nomi zikr etilgan kitobida ma'lumot berilishicha, turkiy hoqonliklarning hujjatlar to'plami bizgacha yetib kelgan. Sug'd hujjatlari deb nomlanadigan bu hujjatlar majmui 76 yuridik-notarial hujjatlarni qamrab olgan bo'lib, ular orasida hokimlarning bir-birlariga yuborgan xatlari, viloyatlardan kelgan ma'lumotlar, moliya-xazina hujjatlari, turli tilxatlar, mulk ijarasi, nikoh shartnomalari mavjud [2, 51-52-b.]. Shularga asoslanib, asar muallifi "turk hoqonligi davrida Sug'd yuridik aktlarni belgilangan shaklda tuzib, rasmiylashtiradigan maxsus

mahkama va mansabdor shaxs bo'lgan"ligini qayd etadi (53-54-betlar).

Ish yuritish doirasida davlat boshlig'ining buyruq-farmonlari, vaqfnomalar, vasiqalar, shartnomalar, yorliqlar, ayniqsa, tarxon yorliqlari, soliq tizimini tartibga soluvchi hujjatlar o'zining alohida nufuzi bilan ajralib turadi.

O'zbek davlatchiligining ma'lum bir bosqichi arablar istilosi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan musulmon huquqi bilan bog'liq bo'lib, u Qur'oni Karim va hadislar shaklidagi urf-odatlarini izga soluvchi hujjatlar majmuini qamrab oladi. Ular uzoq yillar davomida jamiyatni boshqarish va tartibga solishning asosiy ma'naviy-huquqiy hujjatlari bo'lib kelgan.

Bu huquq doirasida amal qiluvchi asosiy hujjatlardan biri — yer egaligi bilan bog'liq bo'lgan *vaqfnomalar* sanaladi. Vaqfnomalar yerga egalik qilish huquqi, qancha yer qachon, kimga va qancha muddatga berilganligi, uni ijaraga berish tartibi, ijara haqi me'yorlari, mulkdan olinadigan daromad, ularni sarflash yo'llari hamda to'lanadigan soliqlar kabi jihatlar mukammal aks etgan hujjat hisoblanadi.

Vasiqa ham qadimda keng tarqalgan hujjat turlaridan biri bo'lib, mulkka bo'lgan egalikni bildiruvchi, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosga qo'yuvchi hujjat sanalgan va qozilar tomonidan tasdiqlangan. Masalan, ustoz-shogird munosabatlari, boshqalarning bolasini farzandlikka olish, qullikdan ozod qilish, xususiy yoki ko'chmas mulk oldi-sotdisi, hadya etish hamda savdo-sotiq shartnomalari ana shu vasiqa hujjatlari sanalgan. Qozilarning bu vazifalarini hozirda notariuslar amalga oshirishadi.

Bundan tashqari ijtimoiy munosabatlarda shartnoma va uning topshiriq, qarzni o'tkazish, ishonch, ssuda, kafolat, zakalat, hadya, omonatga saqlab turish, qarz, garov, ijara, savdo-sotiq, o'rtoqlik, nikoh singari turlarini rasmiylashtirish keng amalda bo'lgan [2, 84-b.].

Ma'lumki, tarxonlik qadimgi turk-mo'g'ul davlatchiligida vujudga kelgan unvon bo'lib, unga davlat va vatan manfaatlari yo'lida alohida xizmat qilgan kishilar sazovor bo'lishgan hamda bu shaxsga berilgan imtiyozlar *tarxon yorliqlari* yoki *tarxon haqidagi farmon* deb atalgan maxsus hujjatlar yordamida rasmiylashtirilgan. O'rli davrlarda imtiyozi o'zgarib turgan tarxonlik huquqlari ana shu hujjatlarda aniq ko'rsatib berilgan.

Masalan, soliqlardan va o'lim jazosidan ozod etilish darajasi, ov yoki urushda qo'lga kiritilgan mulkka egalik, hukmdor saroyiga kirish va turli anjumanlarda o'tirish o'rmi kabilar.

Amir Oemur "Ouzuklar"i misolida turkiy davlatchilikda soliq undirishning mukammal tizimi mavjud bo'lganligi haqida xulosa chiqarish mumkin. "Ouzuklar"dan birgina misol keltiramiz: "Har bir mamlakat fath etilgach, turli ko'ngilsiz hodisalardan amnu omonlikda bo'lsin, uning hosil va daromadlarini hisobga olib ish tutsinlar. Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda (xirojni) tuzukka muvofiq yig'sinlar. Yana amr qildinki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig'sinlar. Chunonchi, doim, uzluksiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug'oriladigan ekin yerlarni hisobga olsinlar va unday yerlardan olingan hosildan ikki hissasini raiyatga, bir hissasini oliy sarkorlik (saltanat xazinasi) uchun olsinlar.

Bulardan tashqari kuzgi, bahorgi, qishki va yozgi dehqonchilikdan olingan hosil raiyatning o'ziga bo'lsin. Ialmikor yerlarni esa jariblarga bo'lsinlar, hisobga olingan bu yerlardan (soliq olishda) uchdan bir va to'rttdan bir qoidasiga amal qilsinlar. Har shahar va har yerdan olinadigan jon solig'i, kasb-hunardan hamda o'tloq va suvloqdan olinadigan soliqni to'plashda qadimdan kelgan tartib-qoidaga amal qilsinlar. Bordiyu bunga raiyat rozi bo'lmasa, bori-bo'lganicha ish tutsinlar" [4, 98-99-b.].

Amir Oemur davrida soliqqa oid ish yuritish ana shu ko'rsatmalarga asoslangan.

Z.Muqimovning yuqorida nomi tilga olingan asarida yana qoraxoniylar (XI-XII asrlar) davridan bizgacha yetib kelgan Yorkand sud-notarial hujjatlari to'g'risida ma'lumot beradi [2, 124-125-b.]. Ular orasida sud majlisi qarorining mavjudligi ushbu hujjat shaklining ish yuritish tarixi qadimiy ildizlarga ega ekanligidan dalolat beradi. "Ilk turk musulmon davlatlaridan bo'lgan qoraxoniylar imperatorligida shariat huquqi keng yoyilgan hamda qonunchilik rivojlangan. Sud ishlari takomillashgan, qozilik asosida ularda ish yuritish esa arab va turkiy tillarda olib borilgan" [2, 125-b.].

Ushbu o'rinda o'zbek davlatchiligi tarixida amalda bo'lgan ayrim ish yuritish qoidalari va hujjatlari to'g'risida qisman bo'lsa-da, ma'lumot berildi. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tilganidek,

mukammallikka alohida olib borilgan tadqiqotlar tufayligina erishish mumkin.

Hargalay, shu aytilganlarning o'zi ham amalda bo'lgan hujjatlarga shunchaki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatidagina emas, balki har bir davrda davlatni boshqarish madaniyatining namunasi sifatida qarash imkonini beradi.

Bugungi O'zbekiston davlatchilik tizimida bu hujjatlarining barchasi amalda bo'lmasligi mumkin va bunday bo'lishi shart ham emas. Negaki, o'tgan uzoq yillik tarixiy davr jahon sivilizatsiyasi bilan bog'liq ravishda davlatni boshqarishni, binafsin, undagi ish yuritish shakllarini tubdan o'zgartirdi, bu hujjatlarning mazmun-mohiyati zamon talablariga muvofiqlashtirildi va ayni paytda takomillashtirildi.

Hujjatlarning mukammallik darajasi davlatchilikning shakllanishi va hujjatlardan foydalanuvchilarning saviyasiga bog'liq bo'ladi. Qayerda davlatchilik an'analari uzoq tarixga ega bo'lsa, xalqning umumiy madaniyati va savodxonlik darajasi yuqori bo'lsa, o'sha yerda hujjat yuritish ishlari ham bir qadar takomillashgan deb aytish mumkin. Mana shu ma'noda o'zbek tilida ish yuritish an'analari ham o'ziga xos tarixga egaki, biz bunga yuqoridagi ayrim misollar yordamida amin bo'ldik.

Ish yuritish to'g'risidagi tahlillar shundan dalolat beradiki, o'zbek davlatchiligining bugungi taraqqiyot bosqichida o'tmishda yuritilgan hujjatlardan ham mazmunan, ham shaklan to'laligicha foydalanilayotgani yo'q. Aytish mumkin bo'lsa, ular ma'naviy jihatdan eskirdi, mazmun-mohiyati va shakli ham davr talablariga bog'liq holda o'zgarib bordi. Bu o'zgarishlarga, ayniqsa keyingi 70-75 yillikda – O'zbekiston Respublikasining sobiq SSSR tarkibida bo'lganligi jiddiy sabab bo'ldi. Chunki butun bir Ittifoq doirasida asosiy hujjatlar yagona tartib asosida va asosan rus tilida yuritildi. Hatto O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ham ularning mazmunida tub o'zgarishlar sodir bo'lgan emas. Bundan o'n yoki yigirma yil oldin ariza, bayonnoma (protokol) yoki bildirishnoma (raport) ga ehtiyoj qanday bo'lsa, bu zarurat hozirda ham mavjud. Ammo uni rasmiylashtirishda ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lishi mumkin. Bu, asosan til masalasi bilan bog'liq bo'lib, "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingach, barcha hujjatlarni o'zbek tilida rasmiylashtirishga keng yo'l ochildi.

Shuni ham qayd etish lozimki, ish yuritish hujjatlarini o'zbek tilida rasmiylashtirish bilan mavjud an'analardan butunlay xalos bo'lindi, deyish qiyin. Uzoq yillar mobaynida hujjatlar rus tilida yozilib kelinganligi sababli shablonlardan, qoliplardan kalka yo'li bilan tarjima qilish ma'lum darajada davom etmoqda. Masalan, *sizga quyidagilarni yozib ma'lum qilamanki, ushbu aktni tuzib, quyida imzo chekuvchilar, berildi ushbu ma'lumotnoma shu haqdakim va hokazo.*

"Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinganiga 14 yil atrofida vaqt o'tganligiga qaramasdan, haligacha ba'zi idora va tashkilotlarda hujjat yuritish ishlarining rus tilida olib borilayotganligi ham bu o'rinda o'z ta'sirini ko'rsatayotgan bo'lishi mumkin.

Nima bo'lganda ham, qaysi tildan yoki qaysi shakllardan andoza olinayotganligidan qat'i nazar, davlatlararo, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida olib boriladigan har qanday hujjatlar me'yoriy holatga keltirilishi, hamma uchun tushunarli va aniq bo'lishi, nihoyat, davlat tilida olib borilishi lozim.

Buning uchun esa hozirgi sharoitda ma'lum bir muddat kerak bo'ladi. Lekin ertami-kechmi bu vazifaning amalga oshishi xalqimiz o'rtasida qonunchilikning mustahkamlanishiga, bozor iqtisodiyoti va erkinlik sharoitida ish yuritish, o'z haq-huquqlaridan to'g'ri foydalana olishlariga imkoniyat yaratadi.

Ana shuning uchun ham ta'lim tizimining barcha bosqichlarida hujjat yuritish qoidalari, hujjatlarning turlari bilan tanishtirib borish g'oyatda muhim vazifani amalga oshirish bo'lib hisoblanadi. Chunki bugun ma'lumoti haqida tegishli hujjatni olgan mutaxassis ertaga ijtimoiy hayotning qaysidir bir sohasida faoliyat ko'rsatadi. U xohlaydimi-xohlamaydimi, hujjat yuritish ishlari bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. Xodim murojaat qiladigan hujjat ishga qabul qilishni so'rab yoziladigan oddiy arizadan tortib, iqtisodiy, moliyaviy va yuridik mazmunda bo'lishi mumkin. Uning savodxonlik bilan rasmiylashtirilishi fuqarolarning to'la ma'noda huquqiy erkinligini kafolatlaydi va uni himoya qiladi. Savodsizlarcha, mohiyati anglanmasdan rasmiylashtirilgan hujjat esa, hatto, uning muallifini iqtisodiy yoki jinoiy javobgarlikka tortish darajasiga olib borishi mumkin.

Mana shuning uchun ham hujjat yuritish ishlarini o'rganishga oddiy bir yumush sifatida emas, balki fuqarolik burchi sifatida,

yuksak mas'uliyat bilan, shaxsiy faoliyatdagi muhim ko'makdosh sifatida munosabatda bo'lish lozim.

Öo'g'ri, insonlarning mehnat faoliyatida, ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida qo'llanadigan hujjatlarning xillari ko'p. Ularning barchasini ajratilgan darslar jarayonida o'rganish mushkul. Buning ustiga, ba'zi bir hujjatlar faqat ma'lum mutaxassisliklar doirasidagina zarur bo'ladi. Masalan, moliyaviy yoki sud-tergov jarayonida zarur bo'lgan yuridik hujjatlar va hokazo. Ularni tibbiy yoki pedagogik ta'lim yo'nalishida o'rganishni hech kim shart qilib qo'ymaydi. Ayni paytda, bu o'quv yurtlari tayyorlaydigan mutaxassislar faoliyatida zarur bo'ladigan, aytaylik, kasallik tarixi, tibbiy xarita, o'qituvchining kalendar ish rejasi singari "o'z hujjatlari" mavjud. Shu bilan birga, o'quv yurtlarini, ular oliy yoki o'rta maxsus bo'lishidan qat'i nazar, tugatib, mustaqil faoliyatga yo'llanma oladigan har bir mutaxassisning faoliyatida ko'mak beradigan zaruriy hujjatlar yig'masi mavjudki, ularning mazmunini anglamasdan, yozilish tartib-qoidalarini o'rganmasdan turib, o'zi ishlaydigan joyda mustaqil faoliyat yuritishi qiyin bo'ladi.

Shuning uchun bo'lajak mutaxassislarning ish faoliyatidagi zarur holatlarni hisobga olib, qo'llanmaning mazkur bobida eng kerakli hujjatlar va ularni yuritish tartibi to'g'risida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda N.Mahmudov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, M.Aminovlar tomonidan yozilgan "O'zbek tilida ish yuritish" (Ö., 1990) va shu mualliflarning "Ish yuritish" (Ö., 2000) qo'llamalaridagi ayrim fikrlarga tayaniladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi Farmonini o'rganib, undan shu matn uslubiga xos bo'lgan so'z va iboralarni toping hamda grammatik qurilishini tushuntirib bering.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING
F A R M O N I**

**Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatriga
"Milliy teatr" maqomini berish to'g'risida**

Mamlakatimizda professional teatr san'atini yanada rivojlantirish, Vatanimizning boy tarixi, ajdodlarimizning o'lmas merosini, mustaqillik yillarida erishgan ulkan yutuqlarimizni, bugungi zamonaviy qahramonlar siyosini aks ettiruvchi badiiy barkamol asarlar yaratishni rag'batlantirish, xalqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirish, yosh avlod qalbi va ongiga ezgulik g'oyalarini singdirishda teatr san'atining rolini yanada kuchaytirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi, atoqli san'at namoyandalari va keng jamoatchilikning takliflarini inobatga olib, Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatriga "Milliy teatr" maqomi berilsin va u "O'zbek Milliy akademik drama teatri" deb atalsin.

2. Quyidagilar O'zbek Milliy akademik drama teatrining asosiy vazifalari etib belgilansin:

– buyuk ma'naviy merosimiz, betakror qadriyatlarimiz, o'zbek milliy teatri an'analari izchil davom ettirish, ularni yangi davr talablari asosida boyitib borish va rivojlantirish, bu sohadagi ilg'or uslublarni milliy ruh bilan uyg'unlashtirgan holda teatr san'atiga tatbiq etish;

– milliy istiqlol g'oyalariga hamohang, badiiy jihatdan yuksak, xalqchil sahna asarlari yaratish asosida o'zbek milliy teatr san'ati taraqqiyotiga hissa qo'shish;

– xalqimiz, avvalo, yoshlarimiz qalbida milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish, ularni ona-Vatanga muhabbat, unumbashariy qadriyatlarga hurmat, gumanizm g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash;

– iste'dodli san'atkorlar, yosh aktyorlar, dramaturg va rejissyorlar, sahna san'ati mutaxassislarining salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun o'ziga xos ijodiy maktab bo'lib xizmat qilish;

– mamlakatimiz miqyosida o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etish, jahonning ilg'or va nufuzli teatrlari bilan ijodiy muloqot va analiy hankorlik aloqalarini kuchaytirish, xalqaro festivallarda o'zbek teatri yutuqlarini munosib ravishda namoyish etish.

3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi va "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi Adliya vazirligi bilan birgalikda

bir oy muddat ichida O'zbek Milliy akademik drama teatrining Nizomini ishlab chiqib, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi bir oy muddatda O'zbek Milliy akademik drama teatri xodimlari mehnatiga haq to'lashning yangi tarif me'yorlarini ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlasin.

5. Ushbu Farmon ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.Sultonov zimmasiga yuklatilsin.

*O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti*

I.KARIMOV

*Òoshkent shahri,
2001 yil 21 sentabr*

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O'zbek hujjatchiligi tarixidan nimalarni bilasiz?
2. Òarxon yorliqlari, wasiqanomalar qanday hujjatlar?
3. Hujjat yuritish ishlarini o'rganish nima uchun kerak?

A D A B I Y O T L A R

1. Saidov A. O'zbekiston: Milliy istiqlol va ma'naviy huquqiy meros. Ò., 1994.
2. Muqimov Z. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. «Zarafshon», 1998.
3. Mahmudov N., Madvaliev A., Mahkamov N., Aminov M. O'zbek tilida ish yuritish. T., «Qomus», 1990.
4. Òemur tuzuklari. Ò., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

2-MAVZU: Rasmiy va shaxsiy xatlar

R e j a:

1. Xat va ularning turlari haqida ma'lumot.
1. Shaxsiy xatlar va ularning turlari.
2. Rasmiy xatlar va ularning turlari.
3. Rasmiy hujjatlar matnining grammatik qurilishi.

Òayanch so'z va iboralar: *Muloqot shakli, masofa, yozuv, jo'natish vositalari, muomala madaniyati, badiiy matnda xat, xat yozish san'ati, "Munshaot", shaxsiy, yoshi, jinsi, ishqi,*

sog'inch, xabardor qilish, rasmiy, taklif, moddiy rag'batlantirish, pul ko'chirish, qarzni so'rash, kadrlar bilan mustahkamlash, mukofotlash, nizoli masalalarni hal qilish, rejalashtirish, xat tuzilishi, ifodalarning uslubiy farqlanishi, subyektiv baho, adres.

Xat insonlar o'rtasidagi muloqot shakllaridan biri bo'lib, uning yuzaga kelishi yozuv va masofa bilan bog'liqdir. Ya'ni, u faqat yozuv yordamidagina shakllanadi va ma'lum masofada bo'lgan kishiga jo'natiladi. Unda xat muallifining fikr-mulohazalari va his-tuyg'ulari ifoda etiladi. Xatni jo'natish esa ma'lum vositalar yordamida amalga oshiriladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'zning 9 ta ma'nosi berilgan: 1. Uzoqdagi kishiga biror xabar berish yoki fikrlashish maqsadida, odatda, pochta orqali yuboriladigan, biror matn yozilgan qog'oz, noma, maktub; 2. Xatda yozilgan matn, xat matni; 3. Yozuv uchun ishlatiladigan grafik belgilar, harflar sistemasi, grafika; 4. Harflarni yozishdagi o'ziga xos uslub, ko'rinish, yozuv xili; 5. O'qish va yozish, savod, savodlilik; 6. Yozuvdagi har bir qator, satr yoki misra; 7. Chiziq, liniya; 8. Biror kimsa yoki narsani yozma ravishda sanab ko'rsatish, ro'yxatga olish, ro'yxat; 9. Rasmiy qog'oz, hujjat [5, 318–319-b.]. Bu o'rinda so'zning birinchi ma'nosi e'tiborga olinadi.

Yozuv bilan bog'liq ravishda o'z tarixiga ega bo'lgan va omma orasida keng tarqalgan xat bitish xalqimizning muomala madaniyati doirasida insonlarning bir-birlariga fikr ifoda etishining alohida usuli sanalgan va san'at darajasiga ko'tarilgan hamda ayni paytda badiiy ijodning bir turi sifatida qaralgan. Shuning uchun ham u badiiyat ilmida alohida bir janr sifatida o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar to'g'risida adabiyotshunos S.G'aniyeva «Nasr va badiiyat» asarida quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Abul Hasan al-Marg'iloniyning "Mahosinul-kalom", Muhammad bin Umar ar-Rodiyoniy (XI asr) ning "O'arjimonul balog'a", Rashididdin Vatvot (XII asr) ning "Hadoyiqus-sehr fi daqoyiq ush she'r", Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mu'jam fi maosir ush ash'or ul Ajam", O'ojud Xalaviy nomi bilan mashhur bo'lgan Ali ibn Muhammad (XIV asr) ning "Daqoyiqush-she'r" kabi badiiyat masalalaridan bahs etuvchi asarlaridagi alohida boblar, Amir Xusrav Dehlaviy (XIV asr) ning "Mahzanul-

insho", "Sahifai shohiy" nomli asarlari maxsus insho nazariyasiga bag'ishlangan edi" [3, 65-b.].

Munshaot, ya'ni nasr yoki nazmda maktublar bitish sharq poeziyasida san'at darajasiga ko'tarilgani uchun ham, u alohida she'riy janr sifatida e'tirof etilgan. Őrkiy she'riyatda uning shakllanishiga juda katta hissa qo'shgan Alisher Navoiy birinchi bo'lib o'z maktublarini 1402 yilda kitob shakliga keltirgan va uni "Munshaot" deb nomlagan. Őrkiy tilda davlat ishlari va hujjatlarini yuritish va xatlar bitishning qat'iy tarafdori bo'lgan ulug' alloma ushbu asarida ularning fors-tojik tilida yozilganidan qolishmaydigan namunalarni keltiradi.

R.Qo'ng'urov va Ő.Jo'rayevlarning "Epistoliar janrning tuzilishi va uning ayrim til xususiyatlari" (Samarqand, 1992) asari, Ő.Jo'rayevning "Hozirgi o'zbek adabiy tilida epistoliar janrning til va uslubiy xususiyatlari" nomli nomzodlik dissertatsiyasi (Samarqand, 1994) ham xatlarning tuzilishi, janri, tili va uslubiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda insoniy muomalaning xat usulidan foydalanish imkoniyatlari ham jiddiy ravishda kengaydi. Avvaliga ular ikki kishi o'rtasidagi yozishmalardagina iborat bo'lgan bo'lsa, endilikda xat bitish rasmiy uslub doirasida qaraladigan nutqiy jarayonning alohida bir ko'rinishiga – yozma turiga aylandi. Hozirgi kunda xatlar idoralar va muassasalar, tashkilotlar va korxonalar o'rtasidagi o'zaro faol aloqa vositasi, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishning qulay usuli sifatida xizmat qilmoqda. Shu ma'noda ularni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin bo'ladi: 1. Shaxsiy-xususiy xatlar; 2. Rasmiy xatlar. Bundan tashqari Ő.Jo'rayev yuqorida nomi tilga olingan dissertatsion ishida xatlarning uchinchi va to'rtinchi turlari – ommabop va xususiy-rasmiy turlari mavjudligi haqida ham ma'lumot beradi [2, 10-b.].

Kollej va litsey talabalarining imkoniyati va zaruriyatidan kelib chiqib, xatlarning yuqoridagi ikki turi haqida ma'lumot berish ham yetarli bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Shaxsiy-xususiy xatlar bir kishining boshqa bir kishiga yo'llagan xati bo'lib, bu xatlar o'zaro munosabatda va g'oyibona muloqotda bo'layotgan kishilarning yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan mavqei hamda xatni yozishdan ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib, turlicha mazmunda bo'ladi. Jumladan, bunday xatlar biron-bir yangilik, voqea-hodisa haqida,

masalan, oilada farzand tug'ilishi, to'y-tantana yoki yaqin kishining vafoti to'g'risida xabar berishi, shu bilan birga, bir-birlarini uzoq vaqt ko'rmagan kishilarning sog'inch tuyg'ularini ifodalovchi yoki ishqiy mazmunda bo'lishi mumkin.

Rasmiy xatlar orqali esa yuqorida ta'kidlanganidek, bir-biriga bo'ysunadigan yoki o'zaro teng mavqeda bo'lgan hokimliklar va mahkamalar, idoralar va muassasalar, tashkilot va korxonalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, jumladan biron-bir taklifni amalga oshirish, o'z xizmatini taklif qilish, moddiy rag'batlantirish, pul ko'chirish yoki mavjud qarzni uzish, kadrlar bilan mustahkamlash, mukofotlarga tavsiya etish, o'zaro nizoli masalalarni hal etish, ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqa ko'pgina masalalar yoritiladi.

Izohlardan shu narsa anglashiladiki, xatlarni guruhlariga ajratishda asosan mazmunga e'tibor berilgan. Ular shaklda ham o'ziga xosliklarga ega.

Shaxsiy xatlardan namunalar:

Hurmatli Anvar aka, assalomu alaykum. Hammamiz sog' va salomatmiz. Kelin oyim orqaliq berib yuborg'an xatingizni oldiq, sog'lig'ingizni, tinchlig'ingizni o'qib va eshitib juda xursand bo'ldiq: ilohi, salomat bo'lsinlar. Saniy, bizdan ahvol so'rasangiz alhamdulillah tinchmiz, xotirjam' bo'lursiz. So'ratib yuborg'an kitobingizni berib yubordim. Ayamdan sizga salom, boqiy so'zni Shayxi Sa'diydan o'qursiz deb xatni muxtasar qildim, Ra'no. (Qodiriy A. Mehrobdan chayon. 580-bet).

Hwalbori (ul tangri, ul yaratguvchi—mullif izhi) ... ko'zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o'g'limiz mulla Otabekka yetib ma'lum va ravshan bo'lg'aykim, alhamdulillah biz duogo'y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do'stlaringiz munda haq taoloning hifzi himoyatida sihat va salomat bo'lib ko'z nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aladdavom (doimo, hamisha) rabbulolamindan rajo (umid, tilak) va tamanno (istak, xohish) etmaktamiz. Janobi haq bod fursatlarda (tez vaqtda, tezlikda) yaqin va sa'id (baxtli) soatlarda to'kis tugallik birlan diyor ko'rishmikka nasib va ro'zi qilsin, amin yarabbulolamin. Ba'da (keyin, so'ng) so'zimiz: o'g'lim, Marg'ilong'a sihat va salomat yetish maktubingni olib haq taolog'a shukurlar qildiq. Bizning Oshkanddan ahvol so'rasang, balki Marg'ilong'a ham eshitilgandir, munda Azizbek qandoqdir bir kuchka tayanib Qo'qong'a isyon etdi. Xazina hisobini olish uchun kelgan devon

beklarini o'ldirib o'rda darbozasiga osdi, bunga qarshi Qo'qon ham tinch yotmag'an bo'lsa kerak. Bu kun Kirovchidan (Qurama bilan Oelov orasida katta bir qishloqdir) besh ming sipoh ila Normuhammad qushbegini Ooshkand ustiga buyurilg'anlig'in eshitdik. Fuqaroning tag'in qandog' ko'rguliklari bor ekan, o'g'lim!

Shuni ham aytib qo'yayki, bu tinchsizlik bosilmag'uncha Ooshkandga kelmasliging maslahatdir. Ooshkand tinchlangandan keyin (agar salomat bo'lsam) o'zim xabar yuborurman. Munda barcha yoru do'st salomat, mendan Hasanaliga salom ayt! Addoi otang Yusufbek hoji. Ooshkand, 27 dalv oyida 1264-nchi yilda yozildi.

Ular shakliy jihatdan ham umumiylik, ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Umumiyligi va o'xshashligi shundan iboratki, har bir xat ma'lum qurilishga ega bo'lib, muqaddima, asosiy mazmunni ifodalovchi qism va xotimadan tashkil topadi. Muqaddima qismida kimga murojaat qilinayotgani, asosiy qismida murojaat etishning sabablari va xotimada yakunlovchi, umumlashtiruvchi fikrlar bayon etiladi. Lekin xat mazmuniga qarab, bu har uch qismda qo'llanilayotgan so'z va iboralar bir-birlaridan farqlanadi. Hatto har bir qismning o'zida qo'llaniladigan so'z va iboralar ham farq qilishi mumkin.

Shaxsiy-xususiy xatning muqaddima qismidagi murojaatlarni tahlil qilib ko'raylik. Masalan, ota-onalarning amiyada xizmat qilayotgan o'g'liga yozgan xatining muqaddimasi bilan ularning o'g'li xizmat qilayotgan qism komandiriga yozgan xati muqaddimasini taqqoslaylik. Xatlar o'g'liga nisbatan taxminan *sevimli o'g'limiz, sevimli farzandimiz, ko'zimizning oqu qorasi, ko'zimizning nuri, belimizning quvvati, nuridiydemiz* singari murojaatlar bilan boshlansa, komandirga yozilgan xat boshidan *hurmatli Nurislom Suyunov* yoki *muhtaram Nurislom Hamidullayevich Suyunov* tarzida yoziladi. Har ikki holatda ham samimiyat va o'ziga xos hurmatni payqaymiz. Ayni paytda, ikkinchi holatda ma'lum ma'noda rasmiylik ham seziladi. Shunday ekan, uslub talablariga ko'ra ularning biri o'rmini ikkinchisi bilan almashtirib bo'lmaydi.

Rasmiy xatlarda ham xuddi ana shu tarzda uslubiy farqlar bilinib turadi. Masalan, mamlakatlararo davlat rahbarlariga yozilgan xatlarning muqaddimasi bilan oddiy bir tashkilot,

muassasa rahbariga yoziladigan xatning muqaddimasi ham o'zaro farq qiladi: *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov janobi oliylariga!* "Oriyon" konsemini rahbari muhtaram (humatli) Fayzulla Ziyoyevga! Respublika Prezidentiga nisbatan **humatli, muhtaram** so'zlarini qo'llash mumkin bo'lgani holda konsern rahbariga nisbatan **janobi oliylari** iborasini qo'llab bo'lmaydi.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov
janobi oliylariga*

Janobi Oliylari,

Sizni O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 11 yillik bayrami bilan muborakbod etishga ijozat bergaysiz. O'zbekiston Respublikasi xalqiga bundan buyon ham ravnaq, baxt-saadat va farovonlik tilayman. Elizaveta Ikkinchi. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi Qirolichi.

Yana xatlarning muqaddima – murojaat qismiga e'tibori-mizni qaratamiz. O'g'irlikdek, barcha xatlarda murojaat qilinayotgan, ya'ni xat yozilayotgan shaxs aniq bo'lishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga, shaxsiy xatlarda muallif va adresatning bir-birini bilish (shundaki tanish yoki yaqin do'st) va qarindoshlik (ota-ona, aka-uka, opa-singil, tog'a-jiyan va hokazo) darajasi, yoshi va jinsidagi tafovut, kayfiyati va boshqa xat yozishga turtki bo'lgan omillar bilinib turadi. Hatto bu jihatlar salomlashishga oid so'zlarni qo'llashdan o'zgarib seziladi. *Salom, salom alaykum, assalom, assalom alaykum* so'zlarini ishlatishning o'zgarib muallif va adresat o'rtasidagi munosabatning ayrim jihatlardan dalolat beradi. Masalan, *Salom, Ikromjon!* deyish mumkin bo'lgani holda *Salom, damla!* yoki *Salom, muallima!* deyish ma'qul ko'rilmaydi. Yoshi ulug' va humatli kishilarga nisbatan, *Assalom alaykum!* tarzida to'liq salomlashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hatto murojaatdagi so'zlarning joyini almashtirish ham uslubiy nozikliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Yuqoridagi *Salom, Ikrom!* yoki *Salom, Ikromjon!* deyishdan muallif uchun, avvalo, salomlashish muhim ekanligini, ayni paytda, tengdoshlarning, do'stlarning yoki yoshi katta kishining o'zidan kichikka nisbatan murojaatini anglaymiz. *Ikromjon, salom!* yoki *Ikrom, salom!* deyilganda esa kinga murojaat qilayotganligi muhim ekanligi, shu bilan birga, muallifning yoshi katta yoki rahbar ekanligi, balki ikkinchi holatda adresatni bir oz mensimayotganligi, xat yozish jarayonida

vaqtning tig'izligi, tezroq muddaoga o'tishga shoshilayotganligini payqash mumkin.

Assalam so'zining qo'llanilishida uslubiy chegaralanish mavjud bo'lib, u ko'proq yoshlar tilida va badiiy nutqda ishlatiladi hamda murojaat jarayonida ma'lum ma'noda erkalanish, ehtiros, hayajon seziladi. *Assalomu alaykum!* esa murojaatning to'liq shakli sanaladi hamda barcha holat va vaziyatlarda uni qo'llash to'g'ri bo'ladi. Boshqacha aytganda, salomlashishning turli xil shakllari orasida uni uslubiy jihatdan betaraf hisoblash mumkin.

Murojaat jarayonida salomlashishni ifoda etuvchi so'zlarga *qadrli, hurmatli, aziz, muhtaram, ardoqli, ko'phurmatli* (bu rus tilidan kalkalangan bo'lishi kerak) singari birliklar qo'shilishi mumkin. Masalan, *qadrli do'stim Bahodir Karimovich, muhtaram ustoz Jo'raboy Hamdamovich, ardoqli qizim Marhabo, sevimli o'g'lim Hikmatulla* kabi. Shu tarzda yaqinlikni aniq ifodalaydigan *do'stim, ustozim, o'g'lim, qizim* singari so'zlardan ham foydalaniladi. Ba'zan murojaat qilinayotgan kishi nomiga *-jon, -xon, -bek, -bibi* singari subyektiv baho ifodalovchi shakllarning qo'shilishi murojaat mazmunini uslubiy jihatdan boyitadi.

Murojaatdan tomonlarning, ayniqsa, muallifning kayfiyati ham anglashiladi, degan fikrga quyidagi misolni keltirish mumkin: *musibatzada qadrdonim Botirali, assalomu alaykum!* kabi.

Xatning xotima qismida ham xuddi muqaddima qismiga o'xshab, an'anaviylik mavjud. Bu an'anaviylik shaxsiy va rasmiy xatlarda o'ziga xos tarzda shakllanadi.

Masalan, shaxsiy xatlar xotimasida muallifning xayrlashishi, ayrim paytlarda kimlarga salom aytishi ma'lum bo'ladi. Fikrimizning tasdig'i uchun yozuvchi Oybekning turmush o'rtog'i Zarifa Saidnosirova va farzandlariga yozgan xatlarining xotima qismidan namunalar keltiramiz: *"Ukalarimizga salom! Ko'zlaringni o'pib, qalbiy salomlar ila Oybek"*, *"Suyukli oyimga, Ravzaga, Muborakka salomlarim. Xayr"*, *"Shu adresga xat yoz: Oatarskiy pereulok, Farmatsefticheskiy texnikum. Oybek. 19.VII.30"*, *"Sog'indim, ko'zlaringdan o'paman, Oybek.20.VII.30"*, *"Juda, juda sog'indim. Xayr. Oybek"*, *"Xayr. Ko'zlaringdan o'paman. Oybek"*, *"Uydagilarning hammasiga salom. Oybek. 9.IX.30"*, *"Xayr, Zarifa, jonim! Oybek, 15.IX.30"*, *"Men uchun Omonning ko'zlaridan o'pib qo'y. Qolganlarga salom. Oybek. 31.VIII.1932"*, *"O'zingni qanday sezasan, ilmiy ishingga qatnab*

yuribsanmi? Uzoq ishlama. Uydagilarga salom. Oybek. 25.II.37", "Iso amakingga, Sharofat ammingga salomimni ayt. Dadang: Oybek, 26.II.49" va hokazo. Quyida bu xatlardan birining namunasi keltiramiz:

"Suyukli Suyun og'a!

Xatingni o'qib juda xursand bo'ldim. Har kun sizlardan xat kutar edim. Darslaringda uncha oqsamabsan—bu yaxshi, lekin "5" olmoqqa intilishing kerak. Axir men seni aqli to'la o'g'lim, deb suyaman va faxrlanaman.

Xatingda Vanyaning yaramasligi to'g'risida yozibsən. Nega uni mashinaga xo'jayin qilib qo'yдилaring? Hozir u qayda. Bo'shatib yubordilaringmi? Agar yaxshi shofyor uchrasa, qabul qilish kerak.

Qor va yong'irda ayangga piyoda yurish qiyin. Bari-bir shofyor olishga to'g'ri keladi.

Suyunim, dadam faqat Gulrangni sog'inibdi, deb o'ylama. Men seni va Bekjon to'polonchini ham juda sog'indim.

Moskvada uzoq turmayman.

Sen Bekjon bilan urishma, ayangning so'ziga quloq sol.

Xatingda allaqanday fonar kerakligini yozibsən. Nimaga kerak. Velosipeding uchunmi? Xo'p, olib boraman.

Suyukli o'g'limni o'paman va qattiq quchoqlayman. Dadang: Oybek. 24.XI.50. Sochi".

Xuddi shunga o'xshash rasmiy xatlarning muqaddima va xotima qismlarida ham ma'lum an'anaviylik mavjud bo'ladi. Dastlab xat jo'natilayotgan tashkilot yoki muassasaning nomi va uning rahbari to'liq yoziladi. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri S.S. Gulomovga, Samarqand Davlat universiteti rektori R.I. Xolmurodovga kabi. Shundan so'ng bu rahbarning ismi-sharifi to'liq yozilib, muhtaram (yoki hurmatli) Rustam Ibrohimovich! tarzida murojaat qilinib, xatning asosiy qismiga o'tiladi. Uni yozishdan maqsad nimadan iborat ekanligi qisqa va mazmunli jumalalarda bayon etiladi. Rasmiy xatlar maxsus blanklarda yozilishi sababli, xotimada xat yozgan tashkilot yoki muassasa rahbarining faqat lavozimi va familiyasi ko'rsatiladi. Masalan: Rektor R.Xolmurodov, Hokim Z. Po'latov kabi. O'ashkilotning to'liq nomi esa blankaning yuqori qismiga yozilgan bo'ladi. Ana shunday xatning namunasi quyida keltiramiz:

Muhtaram Zarif Yusupovich!

Samarqand Davlat universitetining shu kunga qadar Vatanimiz uchun yuz minglab malakali mutaxassislar yetishtirib berganligida unda faoliyat ko'rsatgan va ko'rsatayotgan olimlar va pedagoglarning xizmatlari alohidadir. Ana shunday insonlardan biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, marhum professor Rahmatulla Qo'ng'urovich Qo'ng'urov hisoblanadi. Olim o'zidan meros qilib qoldirgan 400 ga yaqin ilmiy va ilmiy-omnabop asarlari, jumladan 30 ga yaqin alohida nashrlari, 20 ga yaqin tayyorlagan fan doktorlari va fan nomzodlari bugun ham ilm-fan taraqqiyoti va filolog kadrlar tayyorlash ishida beminnat xizmat qilib kelmoqda.

R.Q.Qo'ng'urovning xalqimiz oldidagi va milliy kadrlar tayyorlashdagi xizmatlarini inobatga olib, tavalludining 70 yilligi munosabati bilan Samarqand shahri ko'chalarining birini uning nomi bilan atash masalasini ko'rib chiqishingizni so'rayman.

Rektor

prof. R.I.XOLMURODOV

"Ish yuritish" qo'llamasining mualliflari xat orqali bajariladigan masalalar ko'lamini keng ekanligini qayd etishib, bunday yozishmalar vositasida turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushuntirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar berilishi yoki qabul qilinishini ta'kidlashadi va bunday xatlarning axborot xati, da'vo xati, ilova xati, iltimos xati, kafolat xati, so'rov xati, tasdiq xati, famoyish xati, eslatma xati singari turlari mavjudligini aytib o'tishadi hamda ularning yozilish tartib-qoidalarini izchlashadi [1, 279–301-b.] Ammo bu xatlarning faqat ma'lum soha va o'rinlarda qo'llanilishini hisobga olib, ularga alohida e'tibor berib o'tirilmadi.

Hujjatlar, jumladan xatlar hozirda turli yo'llar bilan jo'natiladi. Masalan, pochta, elektron pochta, internet, faks va modemlar orqali. Har qanday xat-hujjat yoki narsa buyumni pochta orqali jo'natishda albatta jo'natiladigan manzilning aniq yozilgan adresi bo'lishi shart. Uni konvert yuziga rasmiylashtirish tartibi quyidagicha:

1. Jo'natilishi lozim bo'lgan joy – qayerga;
2. Oluvchi shaxs yoki tashkilot – kimga;

3. Jo'natuvchi haqida ma'lumot (qayerdan, kimdan).

Jo'natiladigan narsaning yetib borish kafolatlaridan biri adresning aniq va to'g'ri yozilishidir. Uni oladigan pochta bo'limlarining shartli raqamlari – indekslarni yozish ham adresni to'liq rasmiylashtirish shartlaridan biridir. Ular konvertlarning past qismi chap tomonidagi katakchalarda yoziladi. Namuna:

Qayerdan: Samarqand viloyati, Nurobod tumani, "Ulus" shirkat xo'jaligi, Ulus qishlog'i.

Kimdan: Ubaydulla Amirov

Qayerga: Samarqand shahri, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 26-uy.

Kimga: Hikmatulla Karimovga

Indeks: 703005 (xatni qabul qiluvchi aloqa bo'limining shartli raqami)

Ma'lum bo'lmoqdaki, adresni yozish tartibi katta hududdan kichigiga qarab boradi: respublika, viloyat, tuman, shahar, ko'cha, uy va uning raqami kabi. Shundan so'ng xatni oluvchining ismi va familiyasi yoziladi.

Jo'natilayotgan xat manzili biron-bir tashkilot, korxonaga yoki muassasa bo'lganda, "kimga" degan joyga ularning aniq nomi yoziladi. Masalan:

Qayerga: Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.

Kimga: Samarqand Davlat universiteti.

Agar mana shu o'rinda muassasa rahbarining o'ziga shaxsan murojaat qilinib yozilsa, uning ismi, familiyasi aniq ko'rsatiladi:

Kimga: Samarqand Davlat universiteti,

Rektor R.Xolmurodovga kabi.

Jo'natuvchining adresi ham shu tartibda yoziladi. Ammo namunadagi kabi bosh kelishikda rasmiylashtiriladi.

Demak, jo'natilayotgan xatlar rasmiy yoki norasmiy bo'lishiga qarab, ularning rasmiylashtirilishi turlicha bo'lishi mumkin.

Xatni jo'natishning qulay va tezkor usullaridan biri faks orqali jo'natishdir. Faks apparatining ishlash usuli telefon apparatining ishlash usuliga o'xshaydi. Bunda ham faks – telefon nomeri teriladi. U tomondan javob berilgach, faksni qabul qilish so'raladi va xat apparatga joylashtirilgach, tegishli tugracha bosiladi. U tomondan qabul qilib olingan-olimaganligiga og'zaki so'roq orqali ishonch hosil qilinadi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar :

1. Quyidagi xat namunasini tahlil qiling va undan rasmiy xatdan farq qiluvchi leksik-grammatik vositalarni toping.

Yusuf savdosida beqaror Zulayxo ismidan, Majnun ishqi-da yig'lag'an Layli otidan—sizga boshindag'i sochlarimning tuklaricha behad salom. Mendan—haddu-hisobsiz gunoh, sizdan kechirish. O'tkan ishka salovat. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni eska olish manim uchun o'sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting, unutmang, men unutdim. Shuning uchun so'zimni o'zimning oxirg'i, ham chin baxt islari hidlagan tariximdan boshlayman.

Siz—qochqorsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozg'andek bo'lib qochqansiz, ikki yil bo'yi Marg'ilon kelib yurishlarinigizni men o'zimcha yeshdim, lekin topib yeshdim: sizning barcha mashaqqatlarizingiz—dushmanlarizingizdan o'ch olish uchun bo'lg'anini angladim. Yo'qsa, meni ko'rar edingiz, ko'rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko'rar edilar, to'yar edilar. Men kabi baxtsiz, men kabi g'ovg'asi ko'b sizni zeriktirib, jondan to'ydirg'an bo'lsa, ajab emaski, qocha boshlag'ansiz. Qochsangiz qochib ko'ringiz, ammo men bu kundan boshlab birovlarini quvushqa bel bog'ladim: otam bilan onam rafoqatlarida (rafoqat—hamrohlik, yo'ldoshlik, eshlik) xizmatizingizga—cho'rilig'ingizga erta-indin yuraman, suyganingiz kundoshim oldida qadru qiymatimning nima bo'lishini ham bilaman. Siz oliyjanobsiz: eski qadrdonliq hurmatiga ko'ngil uchun kulib boqarsiz. Loqaqal shugina bilan ham baxtsizni mas'uda qilarsiz. Ammo suyganingiz—kenjangizning jekirishlaridan, qarg'anishlaridan behad qo'rqaman, o'zimda yo'q qo'rqaman. Shu yaqin oradag'i uning bilan bo'ladig'an mas'ud daqiqalarizingizda xudo yo'lig'a va'da olingiz—meni og'ritmasin, raqibam keldi deb o'ylamasin. Nihoyati maqsadim ikki do'stka bir cho'rilik va shu munosabat bilan biravlarni ko'rib yurish...

Xatim oxiriga shuni ham aytib qo'yay: o'ch qaytib, men ham ko'chadan haydalmasam edi, degan xavf hamisha ko'nglimda. Agar xudo yarlaqab eshikingizda o'rinlashib olsam, u yog'ini o'zim bilar edim...

Erta-indin ko'zimga yil ko'rinur,

Yo'l bosishliq ko'ngilga bir umr ko'rinur...

3-chi hamal, Marg'ilon, Kumushingiz yozdi.

2. O'zingiz ham Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidan shaxsiy xat namunalari topib, uni leksik-grammatik tahlil qiling.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Rasmiy xat shaxsiy xatdan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?
2. Kompyuter yordamida biron-bir hujjat matnini tayyorlang, uni tahrir qilib, mazmuniga putur yetkazmagan holda o'zingiz ortiqcha hisoblagan so'z va iboralarni olib tashlang yoki ma'quli bilan almashtiring.

A D A B I Y O T L A R

1. Aminov M. va boshq. Ish yuritish. Ò., O'zME, 2000.
2. Jo'raev Ò. Hozirgi o'zbek adabiy tilida epistolyar janrning til va uslubi xususiyatlari: Filol.fan.nomz. dis.avtoref. Samarqand, 1994.
3. G'aniyeva S. Nasr va badiiyat // Navoiyning ijod saboqlari. Ò., «Fan», 1981.
4. Qo'ng'urov R., Jo'rayev Ò. Epistolyar janrning tuzilishi va uning ayrim til xususiyatlari. Samarqand, SamDU nashri, 1992.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati, II tom. M., «Rus tili», 1981.

3-MAVZU: Xizmat doirasidagi kommunikatsiya shakllari

Reja:

1. Xizmatchilik sharoitida muomala madaniyati.
2. Xizmatdagi muomala jarayoni va tejamkorlik.
3. Muomala madaniyatining inson dunyoqarashi mahsuli ekanligi.
4. Òelefon orqali so'zlashish madaniyati.

Òayanch so'z va iboralar: mehnat, xizmat, muomala, madaniyat, rasmiylik, norasmiylik, asab, vaqt, ong, dunyoqarash, muomalaning umumiy qoidalari, hurmat, samimiyat, ehtiyotkorlik, telefon, kommunikatsiyaning faol turi, shahar, qishloq, uyali aloqa, ikki kishi, mulqotning alohida turi, tartib-qoida, xizmat telefoni, qisqalik, uy telefoni.

Odamlar hayotining ma'lum bir qismi uning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bu faoliyat jarayonida xizmatchilik yuzasidan ko'plab kishilar bilan rasmiy-norasmiy mulqotda bo'ladilar. Binobarin, bu jarayonda muomala madaniyatining ahamiyati g'oyatda katta bo'ladi. Muomala ma-

daniyatining yaxshi egallanishi kishilarning bir-birlarini hurmat qilishi va e'zozlashlariga, asablarini asrash va vaqtlarini tejashlariga olib keladi.

Muomala madaniyati inson faoliyatidagi eng murakkab jarayon bo'lib, avvalgi mavzularni yoritishda ta'kidlab o'tilganidek, u kishilarning ijtimoiy va siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy, iqtisodiy va huquqiy dunyoqarashi yig'indisi hisoblanadi hamda inson tafakkuri va ruhiyatida yillar davomida shakllanadi. Uning shakllanishi qancha vaqt va bilim, qunt va intilish talab qilmasin, uni egallash umuminsoniy ma'naviyatning ajralmas qismi sifatida kundalik ehtiyojga aylanishi odamlar o'rtasida odat tusiga kirgan oddiy jarayon bo'lib qolishi lozim.

Muomala madaniyatining barchaga xos bo'lgan umumiy qoidalari mavjud. Ularga rioya qilish nafaqat har bir kishining, balki u mansub bo'lgan millatning, xalqning umumiy madaniyati darajasidan dalolat beradi. Suhbatdoshga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish, uning yoshi, jinsi, jamiyatda egallab turgan mavqei va obro'sini e'tiborga olish ana shu madaniyatning ibtidosi hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun esa so'zlovchi o'zini ham hurmat qilishi va qadr-qimmatini bilishi lozim. Chunki o'zini hurmat qilishni bilmagan kishining boshqalarni hurmat qilishiga ishonish qiyin.

Muomala jarayonida samimiyat, ochiq yuzlilik, shirinso'zlilik bilan bir qatorda, ehtiyotkorlik ham zarur. O'ylamasdan yoki shoshilib aytilgan bir so'z suhbatdoshning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun hatto jahl chiqib turgan paytda ham muloyim bo'lishga harakat qilish, mansabdor shaxs, rahbar va boshliqning oldiga biron masalani hal qilish maqsadida borganda uning kayfiyatiga qarab ish tutish masalaning ijobiy hal bo'lishiga ko'maklashadi.

Insoniy muomalaning tarkibiy qismi bo'lgan nutqiy muloqotning turlari ko'p bo'lib, ular turli vaziyatlarda, har xil mavqe va yoshdagi odamlar o'rtasida amalga oshiriladi. Bu haqda oldingi mavzularda mulohaza yuritilgan. Quyida gap ana shu jarayonning zarur bir turi – telefon orqali gaplashish madaniyati haqida boradi.

Darhaqiqat, telefon orqali muloqotda bo'lish muomala jarayonining eng faol turi hisoblanadi. Bugungi kunda kommunikatsiyaning bu turi imkoniyatlari g'oyatda kengaydi. U O'zbekiston sharoitida shaharni deyarli egallab, qishloqqa

ham asta-sekinlik bilan kirib bormoqda. Uyali telefon aloqalarining vujudga kelishi esa xizmatning bu yo'lining qamrovi g'oyatda keng ekanligini ko'rsatdi. Aloqaning bu turi tufayli hozirda dunyoning istalgan mamlakati yoki shahri bilan muloqotda bo'lish imkoniyati yaratildi.

Aytilganlar esa telefon orqali muloqotda bo'lish madaniyatiga yanada e'tibor berish lozimligini keltirib chiqaradi.

Öshunarliki, telefon orqali muloqot ikki kishi – qo'ng'iroq qiluvchi va uni qabul qiluvchi o'rtasida bo'ladi hamda muloqotda bo'lish madaniyati ularning har ikkalasidan ham talab etiladi. Lekin asosiy mas'uliyat qo'ng'iroq qiluvchining zimmasida bo'ladi. Chunki jarayonning tashabbuskori ham, qo'ng'iroqdan manfaatdor kishi ham uning o'zi hisoblanadi. Buning ustiga qo'ng'iroq'i bilan boshqa kishining vaqtini olayotgan, bema'vrid bezovta qilayotgan, asosiy shug'ullanayotgan vazifasidan chalg'itayotgan bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham, qo'ng'iroq qiluvchining chaqirig'iga javob bo'lgach, odatda go'shakni ko'targan kishiga salom beriladi. Shundan so'ng, qayerga tushganligi aniqlab olinadi va bezovta qilganlik uchun uzr so'raladi: *Assalomu alaykum, men Azamat Pardayevman yoki Assalomu alaykum, men Samarqand davlat universitetidan Azamat Pardayev bo'laman. Bezovta qilayotganim uchun uzr.* O'zini tanishtirgach, nima maqsadda qo'ng'iroq qilayotgani bayon etiladi va asosiy muddaoga o'tiladi.

Ba'zan telefon orqali bo'layotgan shunday suhbatlarga ham sherik bo'lishga to'g'ri kelib qoladiki, qo'ng'iroq qilayotgan kishi salom-alikni ham unutib, birdaniga tahdid ohangida *Allo, kim bu?!* deydi. U tomonda go'shakni olgan kishi madaniyatli va sabr-toqatli kishi bo'lib, qo'ng'iroq qilingan joy va o'zining kimligini aytib qo'ya qolsa yaxshi, unda suhbat silliqqina davom etishi, suhbatdan ko'zlangan natijaga erishilishi mumkin bo'ladi. Aksiga olib, u tomondan ham *Kim kerak sizga?!* deyilsa-chi? Hali boshlanib ulgurilmagan suhbatga sovuqlik tushib qolishi, natijada ko'zlangan maqsadga erishilmasligi ham hech gap emas. Oddiygina bir e'tiborsizlik va ehtiyotsizlik tufayli o'zi ko'rmagan suhbatdoshini mensimagan noxush vaziyat yuzaga kelishi mumkin.

Kishi faqat o'z uyiga qo'ng'iroq qilgandagina *Kim bu?* deb so'rashi mumkin. Chunki tomonlarning bir-birlarini ovozidan tanishi yuqoridagi vaziyatni keltirib chiqarmaydi.

Qo'ng'iroqqa javob berishning ham o'z qoidalari mavjud. Òlefon go'shagini ko'targan kishining *Da!* deb javob berishi ham to'g'ri emas, albatta. Bu ruscha so'z o'rniga, hech bo'lmaganda, ko'pchilik tilda qo'llaniladigan *Allo!* ni ishlatish lozim. Aslida *Labbay!* deyilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi: *Labbay! "Oriyon" konserni eshitadi* yoki *Labbay! o'zbek tilshunosligi kafedrasini eshitadi* kabi.

Agar telefon qilgan kishi o'zini tanitsa, yaxshi. Bo'lmasa, muloyimlik bilan *Kechirasiz, kim bilan gaplashayapman?* yoki *Kechirasiz, qayerdan qo'ng'iroq qilayapsiz?* yoxud *Kechirasiz, siz kim bilan gaplashmoqchi edingiz?* tarzida so'ralgani ma'qul.

Qo'ng'iroq qilayotgan kishi oilangizdagi yoki siz bilan birga ishlayotgan biron-bir kishini chaqirib berishni iltimos qilsa, odamgarchilik yuzasidan yo'q deyilmaydi. Lekin u nima uchun kerakligini surishtirish nojoizdir.

Uydagi va ishxonadagi telefondan foydalanish bir-biridan farq qiladi. Uydagi telefoningizdan istaganingizcha foydalanishingiz, shaxsiy gaplaringizni bemalol gaplashaverishingiz mumkin. Chunki telefondan foydalanganingiz uchun o'zingiz pul to'laysiz, vaqtingiz ham o'z ixtiyoringizda.

Ishxonada, ko'pchilikka taalluqli bo'lgan xizmat telefonidan foydalanish esa boshqacha. Birinchidan, uni ko'p band qilish mumkin emas. Chunki kimdir sizning ishxonangizga qo'ng'iroq qilolmay qiynalayotgan bo'lishi yoki sizdan keyin kimdir qo'ng'iroq qilishni kutib turgan bo'lishi mumkin. Faqat o'zingizga tegishli bo'lgan shaxsiy gaplarni atrofdagilarga eshittirish ham shart emas.

Xullas, xizmat telefonidan mumkin qadar qisqa foydalanish lozim. Fikrni qisqa, ixcham bayon qilish, suhbatdoshning vaqtini olmaslikka intilish zamonaviy kishining fazilati sanaladi.

Qo'ng'iroq qilinayotgan paytda mabodo biron joyga adashib tushib qolinganda, go'shakni indamasdan joyiga qo'yish odobdan emas. Albatta bezovta qilganlik uchun uzr so'raladi. Agar sizga ham kimdir adashib tushib qolsa, bu hodisa har kim bilan sodir bo'lishi mumkinligini hisobga olib, kechirimini qabul qiling va qo'pol javob qaytarmang.

Shunday qilib, telefon orqali gaplashish umummadaniyat qoidalari amal qilishning tarkibiy qismi hisoblanadi va bu jarayonda odob qoidalari rioya qilish har bir madaniyatli kishining vazifasidir.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Uzoqda o'qiyotgan do'stingiz bilan telefonda gaplashish matnini tuzing va uning til-uslub xususiyatlari to'g'risida gapirib bering.

2. Boshlig'ingiz bilan telefonda gaplashish matnini tuzing va uning til-uslub xususiyatlari to'g'risida gapirib bering.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Muomala madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Muomala jarayoni suhbatdoshlarning yoshi, jinsi, xizmat vazifasiga qarab o'zgarishi mumkinmi?
3. O'lefonida gaplashish madaniyati haqida fikringiz qanday?
4. O'lefon aloqalarining qanday turlarini bilasiz?

4-MAVZU: Hujjatlar va ularning turlari

Reja:

1. Hujjat yuritishning huquqiy asoslari.
2. Davlat ishlarining hujjat yuritish asosida tartibga solinishi.
3. Ish yuritishni tartibga soluvchi chora-tadbirlar va hukumat qarorlari.
4. "Ish yuritish" qo'llanmasi va uning amaliy ahamiyati.
5. Hujjatlar va ularning turlari.

O'ayanch so'z va iboralar: *ijtimoiy munosabatlar, huquqiy asoslar, savodxonlik, an'ana, nutqiy madaniyat, mukammallik, hukumat qarorlari, rasmiy va shaxsiy hujjatlar, ariza, annotatsiya, bayonnoma, bildirishnoma, buyruq, guvohnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, modemogramma, nizom, rezyume, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimai hol, taqriz, telegramma, telefonogramma, faksogramma, tilxat, tushuntirish xati, famoyish, shartnoma, hisobot, til va uslub, tinish belgilari.*

Ijtimoiy munosabatlar doirasida odamlar, idoralar va tashkilotlar, korxonalar va muassasalar o'rtasida o'zaro ish yuritishning ma'lum huquqiy asoslari mavjud bo'lib, ular tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish tarzida amalga oshiriladi.

Hujjatlarning mukammallik darajasi ular bilan ish ko'radigan kishilarning savodxonlik darajasi, davlatchilik tarixi va davlat ishlarini yuritishdagi mavjud an'analar, ma'lum darajada kishilar

o'rtasida shakllangan nutqiy madaniyat, ayni paytda, bu hujjatlarga bo'ladigan zaruriyat bilan bog'liq bo'ladi.

Hujjatlarni yuritish asosan davlat ishlarini huquqiy asoslarga qo'yish tarzida amalga oshiriladi. Demak, u davlat yoki davlatlararo bo'ladigan ma'lum talablar darajasida amalga oshiriladi va dunyoviy an'analarni ham o'zlashtiradi. Hujjatlarning mukammalligi davlat ishlarini yuritish takomilidan dalolat beradi.

Davlat tizimining barcha bo'g'inlarini hujjatlarsiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki uning faoliyati aynan ana shu hujjatlar yordamida tartibga solib turiladi va harakatga keltiriladi. Shuning uchun ham vaqt-vaqti bilan ish yuritishni takomillashtirishga qaratilgan hukumat qarorlari qabul qilinib boriladi. Masalan, shunday qaror O'zbekiston jumhuriyatining inqilobiy qo'mitasi tomonidan 1924 yilning 31 dekabrda qabul qilingan bo'lib (¹ 48), "Ishlarni o'zbek tilida yurgizish ham O'zbekiston jumhuriyatining inqilobiy komiteti huzurida markaziy yerlashdirish hay'ati va mahallalarda muzofot yerlashdirish hay'atlari tuzilish(i) to'g'risida" deb nomlangan.

Yurtimizning mustaqilligi arafasida (1989 yil 21 oktabr) "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi bu masalani ham huquqiy asosga qo'ydi. Yangi tahrirdagi Qonunning 9-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ishning davlat tilida yuritilishi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi alohida ta'kidlab o'tildi. Mustaqillikdan keyin esa ish yuritishni takomillashtirish, uni milliy asosga qo'yish masalasiga yana ham jiddiy e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 18 avgustdagi 424-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi viloyat, shahar va tumanlar hokimlari apparatlarida ish yuritish bo'yicha yo'riqnom", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 29 martdagi 140-son qaroriga ilova qilingan "O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, korporatsiyalari, konsermlari, uyushmalari, kompaniyalarida va boshqa markaziy muassasalarida, apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha namunaviy yo'riqnom" lar fikrimizning dalilidir. N.Mahmudov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N. Aminovlarning "O'zbek tilida ish yuritish (munshaot)", yana shu mualliflarning "Ish yuritish" amaliy qo'llanmalari esa o'zbek tilida ish yuritishning me'yoriy asoslarini belgilab berishda g'oyatda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Chunki mualliflarning ish yuritish borasida bergan yo'l-yo'riqlari xodimlarning faoliyatida metodik yordam beradi, hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalarini o'rgatadi, ish qog'ozlarining hamma joyda bir xil bo'lishini ta'minlaydi.

Ammo shunday qo'llanmaning mavjudligiga qaramasdan undan foydalanish talab darajasida deb bo'lmaydi. Chunki 2000 yilda 10000 nusxada chop etilgan bu kitob bilan hamma o'quv yurtlari ham yetarli darajada ta'minlangan emas. Vaholanki, bu kabi qo'llamalar bilan har bir kollej va litsey talab darajasida ta'minlanishi va har bir talabning qo'lida bo'lishi maqsadga muvofiq. Ma'lum ma'noda mazkur qo'llamalar o'rta maxsus o'quv yurtlari doirasida ushbu vazifani bajarishi mumkin.

Shunday qilib, ish yuritishning tarkibiy qismi bo'lgan hujjatlarni ikki qismga bo'lib o'rganish to'g'ri bo'ladi:

1. Rasmiy hujjatlar.
2. Shaxsiy hujjatlar.

Rasmiy hujjatlar xizmat hujjatlari deb ham yuritilib, ular doirasida idoralar va mahkamalar, korxonalar va tashkilotlar hamda muassasalar o'rtasida olib boriladigan yozishmalar tushuniladi. "Ish yuritish" qo'llamasining mualliflari bu hujjatlarning tasnifi haqida quyidagilarni yozishadi: "Ma'muriy-boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeiga ko'ra hujjatlar hozirgi kunda, asosan, quyidagicha tasniflanishi mumkin: tashkiliy hujjatlar, famoyish hujjatlari, ma'lumot-axborot hujjatlari, xizmat yozishmalari" (20-bet).

Alohida shaxs, jamoa tashkilotlari o'rtasidagi aloqaning huquqiy jihatlarini qamrab oluvchi tashkiliy hujjatlarga guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, qoida, ustav, shartnoma singari hujjatlar; tashkilot yoki muassasa rahbarining ish faoliyati doirasida amal qiladigan famoyish hujjatlariga buyruq, ko'rsatma, famoyish kabi hujjatlar; ma'lumot-axborot hujjatlariga ariza, bayonnoma, bildirishnoma, vasiyatnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimai hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot tarzidagi hujjatlar; alohida shaxs yoki tashkilotning faoliyatini qamrab oladigan xizmat yozishmalariga taklifnoma, telegramma, telefonogramma, modemogramma va turli mazmundagi xatlar kiradi.

Ma'lum bo'lyaptiki, ma'muriy-boshqaruv faoliyati doirasida amal qiladigan bu hujjatlarning aksariyat qismi rasmiy mazmunga ega. Demak, kim tomonidan yozilganlik, ya'ni

tegishlilik nuqtai nazaridangina ariza, vasiyatnoma, tarjimai hol, tushuntirish xati, tilxat, ishonchnoma singarilarni shaxsiy hujjatlar deyishimiz mumkin. Aslida ular ham rasmiy mazmunga ega. Hujjat deyildimi, uni rasmiy tushunish va qabul qilish to'g'ri bo'ladi.

Quyida litsey va kollej bitiruvchilari ish faoliyati doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng zarur hujjatlarning rasmiylashtirilish tartibi to'g'risida ma'lumot beramiz va bunda yuqorida nomi tilga olingan "Ish yuritish" qo'llanmasidagi ko'rsatmalarga tayanamiz.

A R I Z A

Ariza insonlar hayotida eng ko'p foydalaniladigan hujjat hisoblanadi. Ariza bir kishi tomonidan tashkilot, korxonaga yoki muassasa rahbari nomiga yoziladi.

Arizaning tarkibiy qismida quyidagilar bo'ladi: ariza yo'llangan tashkilot, korxonaga, muassasa va uning rahbarining nomi; arizachining turar joyi yoki ish joyi, vazifasi, ismi va otasining ismi; shundan so'ng Ariza degan yozuv, arizaning mazmuni, agar lozim bo'lsa, arizaga ilova qilinishi mumkin bo'lgan hujjatlar ro'yxati, arizachining imzosi, ismi-familiyasi, ariza yozilgan vaqt. Namuna*:

Samarqand tibbiyot kolleji direktori
Ya.N.Allayorovga Sug'diyona massivi 14-uy,
6-xonadonda yashovchi Amirova Marhabo
tomonidan

A R I Z A

Meni akusherlik va ginekologiya bo'limiga o'qituvchilik vazifasiga qabul qilishingizni so'rayman.

Arizaga oliy tibbiy ma'lumot haqidagi diplom, mehnat daftarchasi, so'rovnoma va yashash joyidan ma'lumotnomani ilova qilayotman.

_____ AMIROVA M.

2003.15.02.

* Namuna uchun mavjud xujjatlardan foydalanildi.

Arizalar mazmuni turlicha bo'lishi mumkin. Ammo rasmiylashtirish shakli yuqoridagi tartibda bir xil, ayni paytda, aniq va qisqa yozilgan bo'ladi.

A N N O T A T S I Y A

Annotatsiya asosan alohida nashr hisoblanadigan o'quv qo'llanmalar, darsliklar va monografiyalarga yozilib, ularda asarning qisqacha mazmuni, ahamiyati, kimlarga mo'ljallab yozilgani o'z ifodasini topadi. Namuna:

S.A. Karimovning A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyotida 2002 yilda chop etilgan "O'il ta'limi va me'yor" nomli o'quv qo'llanmasiga yozilgan

A N N O T A T S I Y A :

Mazkur o'quv qo'llanmasi V-220100 va 5-220100 - filologiya (o'zbek tili va adabiyoti) - bakalavrluk yo'nalishida tahsil olayotgan 3-kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlariga muvofiq keladigan va tanlama fan sifatida o'tiladigan "Hozirgi o'zbek tilining me'yoriy muammolari" kursi dasturi asosida yozilgan.

Qo'llanmani yaratishda me'yor hodisasining lingvistik tushunda ekanligi, uning predmeti, maqsad va vazifalari, me'yor masalasining o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi, adabiy tilga munosabati, umumiy va xususiy me'yorlar, me'yorlarning tildagi imlo, talaffuz, leksik-frazeologik, grammatik va uslubiy ko'rinishlari, me'yor va lug'atchilik, me'yor va nutq madaniyati masalalarini yoritishda mustaqillik davrida o'zbek tili va uni tadqiq etishda yuz bergan o'zgarishlar hamda erishilgan yutuqlarga tayanilgan.

H.Umurovning "Adabiyot nazariyasi"

(O., Sharq, 2002) darsligining

A N N O T A T S I Y A S I :

Respublika universitetlarining O'zbek filologiyasi yo'nalishi (fakultetlari)da "Adabiyot nazariyasi" bakalavriatning 4-kursida o'rganiladi. Unda adabiyot, badiiy asar, ijodiy jarayonning muhim qonuniyatlari, adabiy tur va janr, ijodiy metod va uslub muammolarining mohiyati, so'z va so'zshunoslikning sehra jozibasi haqida zarur nazariy ta'limot beriladi.

Ushbu darslik Oliy o'quv yurtlarining filolog talaba-bakalavrlari, magistrлари, tadqiqotchilari, aspirantlari, doktorantlari va adabiyotga qiziquvchi barcha ijodkorlarga mo'ljallangan.

BAYONNOMA (majlis bayoni)

Majlis bayoni – bayonnomalarni rasmiylashtirish ham barcha rasmiy idoralar hayotidagi ish yuritishning muhim qismlaridan hisoblanadi. Chunki turli tashkilot va muassasalar jamoalari faoliyatiga oid ko'plab masalalar yig'ilishlarda, demokratik yo'l bilan hal bo'ladi va ularni hal qilishga oid qabul qilingan qarorlar hayotga tatbiq etilishi uchun belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Ana shu rasmiylashtirilgan hujjat bayonnoma sanaladi.

Bayonnoma turli yig'ilishlardagi chiqishlar va qarorlar g'oyatda siqiq va rasmiy tilda yozilgan hujjatdir. Shu hujjat asosida jamoaning faoliyati olib boriladi va nazorat qilinadi.

Bayonnomada uni rasmiylashtirayotgan tashkilot va muassasaning nomi, *Bayonnoma* degan so'z, yig'ilish raqami, sanasi va joyi, qatnashuvchilar, kun tartibi, uning muhokamasi tafsiloti (asosiy ma'ruzachi va so'zga chiquvchilar), qabul qilingan qarorlar, majlisga raislik va kotiblik qilganlarning imzosi o'z aksini topgan bo'lishi lozim. Agar zarur bo'lsa, uning oxirida ilova ham berilishi mumkin. Namuna:

Alisher Navoiy nomidagi SamDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2002 yil 28 noyabrda bo'lib o'tgan 5-majlisi

B A Y O N N O M A S I

Qatnashdilar: kafedra mudiri prof. Karimov S.A., prof O'rinboyev B.O'., prof. Yo'ldoshev B., prof. v/b Abdurahmonov N., dots. A'zamov S., dots.Hamdamov J., dots. Aliqulov Z., dots.Usmonov Q., dots.Qurbonov O., f.f.n. Eltazarov J., f.f.n. G'afforov A., f.f.n. Jo'rayev O., f.f.n. Suvonova R., o'qituvchilar Pardayev Z., Maxmadiyev Sh., katta laborant Berdiqulova M.

Kun tartibi

I. Iqtidorli talabalar bilan ishlashning ahvoli va uni yaxshilash choralari to'g'risida.

Eshitildi: kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri prof. S.A.Karimov gapirdi. –Himmatli kafedra a'zolari! Universitet qoshidagi iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi tomonidan tashkil etilgan komissiya 2002-2003 o'quv yilida da'vogar talabalarni tegishli tartibda intihondan o'tkazib, fakultet bo'yicha iqtidorli deb hisoblangan talabalarni ma'lum qildi. Biz yaqinda dekanatdan ana shu talabalar ro'yxatini oldik. Mana ushbu ro'yxat:

<i>T/p</i>	<i>F.I.Sh</i>	<i>Kurs, guruh</i>	<i>Raven test natijasi</i>	<i>Ilmiy rahbari</i>
1	Komilova Dildor	2-01	+47/13	prof. Karimov S.
2	Narziyeva Ma'mura	2-01	+47/13	prof. Yo'ldoshev B.
3	Nasimova Zulayxo	2-01	+47/12	prof. O'rinboyev B.
4	Shodiyeva Ozoda	2-01	+50/10	dots. Usmonov Q.
5	Xoliqulova Shohista	2-01	+46/14	dots. Qurbonov O.
6	Zulfiqorova Mahbuba	3-02		dots. Aliqulov Z.

Biz bundan keyingi iqtidorli talabalar bilan ishlash faoliyatimizni ana shu ro'yxat asosida olib borishimiz lozim. Demak, ularga ilmiy rahbar sifatida birlashtirilgan professor-o'qituvchilar har bir talaba bilan individual tartibda ish olib borishi, ularda ilmiy ish olib borishga rag'bat uyg'otishi lozim. Ayni paytda, kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilari o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari bo'yicha ularga 24 soat hajmida dars o'tishlari zarur.

Aytilganlardan kelib chiqib, kafedra

qaror qiladi:

1. Iqtidorli talabalar bilan ishlash berilgan ro'yxat asosida olib borilsin.

2. Har bir talabaning ilmiy rahbariga ular bilan shug'ullanishni qat'iy reja asosida olib borish va o'zbek tilshunosligi faniga rag'bat uyg'otish vazifasi yuklatilsin.

3. Kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilariga o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari bo'yicha ularga 24 soat hajmida dars o'tishlari zarurligi uqtirib o'tilsin.

4. Iqtidorli talabalarning kafedra ilmiy hayotida faol ishtirok etish va turli nashrlarda maqolalar bilan qatnashish uchun sharoit yaratish har bir o'qituvchining pedagogik burchi deb hisoblansin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish A.A.Fafforov zimmasiga yuklatilsin.

II. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusida o'tkazilgan konferensiya yakuni to'g'risida.

Eshitildi: kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan kafedra mudiri prof. S.A.Karimov quyidagilarni bildirdi: "Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzuidagi Xalqaro ilmiy konferensiya muvaffaqiyatli o'tdi deyishga asoslarimiz bor. Bu konferensiyada kafedra professor-o'qituvchilari faol qatnashdilar. O'qibiming muvaffaqiyatli o'tishida o'z xizmatlarini ayamagan kafedra a'zolariga minnatdorchiligimizni bildiramiz. Ayniqsa professorlar B.O'rinboyev, B.Yo'ldoshev, dotsentlar J.Hamdamonov, Q.Usmonov va J.Eltazarovlarga katta rahmat. O'zkiy tillar ravnaqi yo'lida sezilarli iz qoldirgan ulug' ajbodinimiz M.Koshg'ariyga bag'ishlangan konferensiyaning Samarqandda o'tkazilishi ayni muddao bo'ldi. Bu konferensiyada aytilgan fikrlar, ilmiy yangiliklar tadqiqotchilarimiz uchun qo'llanma, yo'l-yo'riq bo'la oladi desak yanglishmaymiz.

O'tkazilgan tadbir to'g'risida prof. B.O'rinboyev, dots. Z.Aliqulov, f.f.n. J. Eltazarovlar ham o'z fikrlarini aytdilar.

Qaror qilindi:

1. Kafedra mudiri prof. S.A.Karimovning "Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusida o'tkazilgan konferensiya yakuni to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

III. Har xil masalalar.

IV. O'qov o'quv qo'llamalarini nashrga tavsiya etish to'g'risida.

ESHITILDI: ushbu masala yuzasidan kafedra mudiri prof.S.A. Karimov gapirib, kafedra a'zosi dots. J.Hamdamonov o'quv rejasida ko'rsatilgan "O'zbek tili tarixi" faniga doir to'rt qismdan iborat o'quv qo'llamasining birinchi qismini tayyorlab, 1999 yilda nashr qildirganligini ma'lum qildi. Bu o'quv qo'llanmasi kam nusxada (100 dona) chop etilgani sababli o'sha yildayoq tarqalib ketdi, nodir nashrga aylanib qoldi. Hozir talabalar orasida ushbu o'quv qo'llanmasiga ehtiyoj katta. Ularning ehtiyojini qondirish maqsadida muallif qo'llarni qaytadan ko'rib chiqib, o'zgartirishlar kiritgan, ayrim joylarini yangi materiallar bilan to'ldirib, uning ikkinchi nashrini tayyorladi. Universitetimiz talabalari uchun mo'ljallangan ushbu o'quv qo'llarni qayta nashr etish zarur deb hisoblayman.

O'aklifni kafedra a'zolari prof. B.O'rinboyev, prof. B. Yo'ldoshev va prof. v/b N. Abdurahmonovlar o'z chiqishlarida qo'llab-quvvatladilar.

Qaror qilindi:

1. *J. Hamdamov tomonidan tayyorlangan "O'zbek tili tarixi" o'quv qo'llanmasining qayta ishlangan, to'ldirilgan nusxasi nashrga tavsiya etilsin;*

2. *Universitet o'quv-uslubiy kengashidan ushbu qarorni qo'llab-quvvatlash so'ralsin.*

Kafedra mudiri prof.

Kotiba

KARIMOV S.A.

BERDIQULOVA M.X.

Har bir tashkilot yoki muassasada, ularning bo'lim va tarmoqlarida yig'ilishlar muntazam ravishda bo'lib turganligi uchun ular tartib raqami bilan rasmiylashtiriladi.

Zaruriyat yuzasidan majlis bayonnomasidan ko'chirmalar berilishi ham mumkin. Ko'chirma mazmuni ham aynan bayonnomaning o'zi bo'ladi. Farqi shundaki, *Bayonнома* so'zi o'rniga *Bayonnomadan ko'chirma* yoziladi. Qaysi masala bo'yicha ko'chirma olish lozim bo'lsa, faqat o'sha qism olinadi va oxirida ko'chirmaning asliga to'g'ri ekanligini tasdiqlovchi imzo qo'yiladi. Masalan:

Alisher Navoiy nomidagi SamDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2002 yil 28 noyabrda bo'lib o'tgan 5-majlisi bayonnomasidan

K O ' C H I R M A

II. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'mi" mavzusida o'tkazilgan konferensiya yakuni to'g'risida.

ESHITILDI: kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan kafedra mudiri prof. S.A.Karimov quyidagilarni bildirdi: "Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'mi" mavzuidagi Xalqaro ilmiy konferensiya muvaffaqiyatli o'tdi, deyishga asoslarimiz bor. Bu konferensiyada kafedra professor-o'qituvchilari faol qatnashdilar. O'z birming muvaffaqiyatli o'tishida o'z xizmatlarini ayamagan kafedra a'zolariga minnatdorchiligimizni bildiramiz. Ayniqsa professorlar: B.O'rinboyev, B. Yo'ldoshev, dotsentlar J.Hamdamiyov, Q.Usmonov va J.Eltazarovlarga katta rahmat. O'zkiy tillar ravnagi yo'lida sezilarli iz qoldirgan ulug' ajdodimiz M.Koshg'ariyga bag'ishlangan konferensiyaning Samarqandda o'tkazishligi ayni muddao bo'ldi. Bu konferensiyada

aytilgan fikrlar, ilmiy yangiliklar tadqiqotchilarimiz uchun qo'llama, yo'l-yo'riq bo'la oladi desak yanglishmaymiz.

O'tkazilgan tadbir to'g'risida prof. B.O'rinboev, dots. Z.Aliqulov, f.f.n. J. Eltazarovlar ham o'z fikrlarini aytdilar.

Qaror qilindi:

1. Kafedra mudiri prof. S.A.Karimovning "Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusida o'tkazilgan konferensiya yakuni to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Ko'chirma asliga to'g'ri

Kotiba

M. BERDIQULOVA

B I L D I R I S H N O M A

Bildirishnoma xodimning yoki quyi tashkilot rahbarining yuqori tashkilot rahbariga biron bir voqea-hodisa munosabati bilan axborot tarzida yozilgan xatidir. Bildirishnomalar tashkilotda ishlaydigan xodimni mukofotlash yoki jazolash haqidagi taklif, belgilangan rejaning bajarilganligi yoki jarayonning borish tafsiloti mazmunida bo'lishi mumkin.

Bu hujjatning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bildirishnoma muallifi yuqori tashkilot yoki uning rahbarini ma'lum voqea-hodisa to'g'risida xabardor yoki ogoh etishi bilan birga bu voqea-hodisaga o'z munosabatini ham bildiradi hamda aniq takliflarini bayon qiladi. Shundan kelib chiqib, bildirishnomani boshda bu nomanning yozilishiga sabab bo'lgan omillar, keyin muallifning unga bo'lgan munosabati va oxirida aniq taklif-mulohazalari bayon etilgan qismlardan iborat deyish to'g'ri bo'ladi.

Bildirishnoma yuboriladigan tashkilot va rahbarning lavozimi va ism familiyasi, bildirishnomani yozgan kishi yoki tashkilot va uning rahbarining lavozimi va ism-familiyasi, lozim bo'lganda, bildirishnomaning nima haqda yozilayotganini bildiruvchi sarlavha hamda yangi qatorda *Bildirishnoma* degan so'z, shundan so'ng xat mazmuni va oxirida bildirishnomani tayyorlagan xodim yoki rahbarning imzosi hamda sana yozilgan zaruriy qismlardan iborat bo'ladi.

Bildirishnomaga ayrim namunalar keltiramiz:

SamDU o'zbek filologiyasi fakulteti
dekani dotsent Ò.I. Qurbonovga o'zbek tilshunosligi
kafedrasi dotsenti Z.Aliqulov tomonidan

B I L D I R I S H N O M A

2003 yilning 15 yanvar kuni Siz rahbarlik qilayotgan fakultet II kurs talabalaridan Ahmedova Lola, Suyunova Dilnoza, Ubaydullayeva Shahnoza va Razzoqova Komilalar "Hozirgi o'zbek tili" fanidan o'tilgan darsga uzrsiz qatnashmaganligini ma'lum qilaman va sabablari aniqlangach, belgilangan tartibda chora ko'rishingizni so'rayman.

*O'qituvchi
2003.16.01.*

dots. Z. ALIQULOV

Samarqand oziq-ovqat kolleji
direktori Sh.S.G'iyosovga
o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosar
R.X. Isoqjonovdan

B I L D I R I S H N O M A

"Navro'z" bayrami munosabati bilan kollejda o'quv-tarbiya jarayonining yaxshilanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan quyidagi xodimlarni moddiy-ma'naviy rag'batlantirishingizni so'rayman:

- 1. Hamroqulov Sh.E. – bo'lim boshlig'i.*
- 2. Òo'ychiyev B.M. – bo'lim boshlig'i.*
- 3. Fayziyeva Z.D. – o'qituvchi.*
- 4. Ochilova Ò.G'. – o'qituvchi.*

*Direktor o'rinbosari
2003.25.02.*

R. ISOQJONOV

B U Y R U Q

Nisbiy ma'noda mustaqil sanaladigan, o'z muhri va shtampiga ega bo'lgan tashkilot yoki muassasa doirasida yuritiladigan asosiy hujjatlardan biri bo'lib, shu tashkilot yoki muassasa uchun muhim hisoblanadigan vazifalar uning yordamida hal etiladi.

Huquqiy hujjat bo'lgan buyruqni bajarish, mazmunidan kelib chiqib uni ijro etish vazifasi yuklatilgan shaxslar uchun

majburiy sanaladi. Ijrosi amalga oshmay qolgan taqdirda esa bu shaxslarga nisbatan ma'muriy chora ko'rilishi mumkin. Shuning uchun buyruqni chiqarish murakkab jarayon hisoblanadi va zaruriyatga qarab unga imzo chekadigan rahbar, o'z o'rinbosarlari, tegishli bo'lim boshliqlari va mazkur buyruqni bevosita bajaruvchilar bilan oldindan kelishib olinadi. Oldindan o'ylab, kelishib chiqarilgan buyruq to'laligicha bajariladi hamda tashkilot va uning rahbariga obro' keltiradi. Hayotda buning aksi ham bo'lishi mumkin. Buyruqlar ikki yo'nalishda chiqariladi: asosiy faoliyatga va kadrlarga tegishli buyruqlar.

Òashkilot yoki muassasaning asosiy faoliyati birinchi turdagi buyruqlar asosida olib boriladi. Ular asosida xodimlarning kunlik va haftalik ish vaqti, o'quv yurtlarida o'qituvchining o'quv soatlari hajmi, amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalar, ma'naviy va moddiy rag'batlantirish, maosh belgilash va lozim bo'lganda ma'muriy choralar ko'rish, ma'lum sanalarda amalga oshiriladigan tadbirlar singari holatlar rasmiy tarzda belgilab qo'yiladi. Bunday buyruqlar tashkilot yoki muassasaning o'z tashabbusi, ba'zan yuqori tashkilotlardan kelgan buyruq, famoyish va ko'rsatmalarni bajarish maqsadida yuzaga keladi. Ularning ijrosi har bir mahkamada o'zlari belgilagan tartibda nazorat qilib boriladi.

Buyruqning asl nusxasi O'zbekiston Respublikasi gerbi tushirilgan maxsus blankada – qog'ozda rasmiylashtiriladi. Dastlab yuqori tashkilot yoki vazirlikning nomi, shundan so'ng buyruq chiqaruvchi tashkilot yoki muassasaning nomi va o'rtada *Buyruq* degan so'z yoziladi. Uning pastidan chap tomonda hujjat sanasi, o'ng tomonda tartib raqami, bir oz pastdan o'rtada buyruq chiqqan joy nomi ko'rsatiladi. Yangi qatordan chap tomonda buyruqning nima haqda ekanligi, ya'ni sarlavhasi yozilgach, asosiy matn beriladi va oxirida tashkilot va muassasa rahbari tomonidan imzo chekiladi. Masalan:

B U Y R U Q ¹ 06-ij
2003.06.01.

Psixologik ekspertizalarni
o'tkazishni vaqtincha
to'xtatish haqida

Pedagogika fakulteti ish faoliyatiga oid masalalarni
bir tizimga va tartibga keltirish maqsadida

B U Y U R A M A N :

1. Psixologiya kafedrasida xodimlari tomonidan tegishli
hujjatlar rasmiylashtirilgunga qadar psixologik ekspertizalarni
o'tkazishni vaqtincha to'xtatish pedagogika fakulteti
dekani X.Ibrohimovga yuklatilsin.

2. Ushbu buyruqni tegishli idoralarga yetkazish, ularni
xarbardor qilish va uning bajarilishini nazorat etish
o'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.Mahmatmurodovga
yuklatilsin.

Asos: huquqshunos F.B.Valixo'jayeva kiritgan loyiha,
xodimlar kasaba uyushmasi raisi U.Z.Zohidov, prorektorlar
M.Muhiddinov, A.S.Soleyev, I.R.Pardayevlar roziligi
va rektor R.I.Xolmurodovning munosabat belgisi.

Rektor

XOLMURODOV R.I.

B U Y R U Q ¹ k- 530

2002.11.12.

Samarqand sh.

Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha:

1.1.Azamat Farhodovich Ayubovni –1979 yil tug'ilgan,
bakalavr ma'lumotli, shu yil 2 sentabrdan 11 r 4,663
k bo'yicha haq to'lash bilan, kontrakt tuzgan deb,
tanlov o'tkazgunga qadar, jismoniy tarbiya fakultetlararo
kafedra o'qituvchisi lavozimiga qabul qilinsin.

Asos: ariza, prorektorning munosabat belgisi, buyruq bilan tanishtirildi.

2.1. L.Bogoslovskayani – an'anaviy ijrochilik va musiqa nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchisi, shu yil 9 dekabrda kelgusida k/v rasmiylashtirish sharti bilan kasal deb hisoblansin.

Asos: bildirishnoma

Rektor

R . I . XOLMURODOV

Buyruqlar matnidan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, uning dastlabki qismida ushbu buyruq nima uchun chiqarilayotgani, bunga asos bo'lgan omillar ko'rsatib o'tiladi. Shundan so'ng nimalarni amalga oshirish to'g'risida farmoyish va ko'rsatmalar beriladi hamda har bir bandeda mumkin qadar uning ijrochisi va ijro muddati ham ko'rsatib beriladi. Va nihoyat, buyruqning oxirida ijro muddati va bu ijroni kim nazorat qilib borishi lozimligi ham aniq ko'rsatib o'tiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, buyruqning loyihasi uning bajarilishiga aloqador bo'lgan barcha mutasaddi kishilar tomonidan imzolanishi lozim. Eng muhimi, u tashkilot yoki muassasa huquqshunosi ko'rigidan o'tishi va uning ham imzosi bo'lishi shart. Shunday qilinganda bu hujjat huquqiy jihatdan asosli va mustahkam bo'ladi. Chunki huquqshunos unga imzo chekishdan avval buyruqning qonuniy jihatlari to'g'risida o'ylab ko'radi, uning amaldagi qonunlar, hukumat va tegishli vazirliklar hamda shu tashkilot tomonidan avval chiqarilgan buyruqlarga mos kelish-kelmasligini tekshirib ko'radi.

Kadrlar to'g'risidagi buyruqlar bu hujjatning ikkinchi bir turini tashkil etadi. Ular xodimlar ishga qabul qilinganda yoki bo'shatilganda, shu tashkilot yoki muassasa ichida boshqa vazifaga o'tkazilganda, mehnat ta'tiliga chiqqanda yoki ma'naviy-moddiy rag'batlantirilganda, boshliq ta'tilga ketib, uning o'miga vaqtinchalik o'rinbosari yoki boshqa bir xodim tayinlanganda, xodim malaka oshirishga yoki xizmat safariga jo'natilganda chiqariladi. Bunday buyruqlarga odatda quyida ishlaydigan rahbar va boshliqlarning bildirishnomasi yoki tavsifanomasini, xodimning arizasi yoki boshqa omillar asos va sabab bo'lishi mumkin.

Zarur bo'lgan holatda ijro etuvchilarga, xodimga yoki taqdim etilishi lozim bo'lgan idoraga buyruqdan ko'chirma beriladi.

Unga kadrlar bo'limining boshlig'i *Asliga to'g'ri* deb yozadi, imzo chekadi va muhr bosadi.

Bu mazmundagi buyruqlar ham albatta yuqorida aytilgan tartibda huquqshunos ko'rigidan o'tkaziladi.

G U V O H N O M A

Guvohnoma shaxsning xizmat lavozimini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi va u tashkilotning kadrlar bo'limi tomonidan beriladi. Guvohnoma xodimning yonida olib yurish darajasida kichik daftarcha shaklida bo'lib, uning muqova qismida *Guvohnoma* degan so'z yoziladi, davlat gerbi aks etgan bo'lishi ham mumkin. Ba'zi guvohnoma muqovalarida *Guvohnoma* degan so'z o'miga *Viloyat hokimligi, Viloyat ichki ishlar boshqarmasi* singari yozuvlarga ham ko'zimiz tushadi.

Guvohnoma ichki qismining rasmiylashtirilishida ham turlicha holatlarga duch kelamiz. Chunki har bir tashkilot yoki muassasa uning namunalarini o'zlari ma'qul ko'rgan shaklda tayyorlaydilar. Ammo bu hujjat qanday rasmiylashtirilishidan qat'i nazar unda quyidagi jihatlarning aks etishi maqsadga muvofiq bo'ladi: guvohnomani bergan vazirlik va tashkilotning nomi, guvohnoma nomeri, uning egasining familiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi, guvohnomaning qaysi vaqtgacha haqiqiy hisoblanishi va berilgan vaqti, rahbar imzosi. Guvohnomada surat bo'lishi va unga muhr bosilishi shart. Masalan:

<p><i>O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti</i></p> <p>G U V O H N O M A_____</p> <p>rasm G'AFFOROV ALISHER o'rni AHMEDOVICH Rektor R.Xolmurodov</p>	<p><i>Mazkur guvohnoma sohibi SamDU o'zbek filologiyasi fakulteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining dotsenti</i></p> <p><i>Guvohnoma 2005 yilning 1 sentabrigacha yaroqli.</i></p>
---	---

Xodimning shaxsini va lavozimini tasdiqlaydigan guvohnomadan tashqari xizmat safar guvohnomasi ham mavjud bo'lib, u xodimning tashkilot yoki muassasa faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal qilish maqsadida safarda bo'lganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Bu guvohnoma tashkilot

yoki muassasa rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi, unga tashkilot rahbari tomonidan imzo chekiladi.

Ushbu guvohnoma safarga jo'natilgan xodimning u bor-gan idorada o'zi yuborgan tashkilot yoki muassasaning va-kili ekanligi va ma'lum bir vazifani bajarishiga vakolati bor ekanligini tasdiqlaydi. Guvohnomaning bu turi muddatli bo'lib, safar tugashi bilan u ham o'z kuchini yo'qotadi. Ayni paytda, xodimga safar xarajatlarini to'lashga ham asos bo'ladi.

Guvohnoma hukumat tomonidan ma'lum bir shaxsga be-rilgan imtiyozning yoki malaka oshirganlik va boshqa holat-larni tasdiqlovchi hujjat sifatida ham taqdim etiladi.

S A F A R N O M A	
O'zbekiston Respublikasi	Berildi o'rtoq
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	(familiyasi, ismi, otasi-ning ismi, lavozimi)
Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti	(safarnomani bergan korxon nomi)
Universitet xiyoboni, 15	Safar joyi _____
"__" _____ 200__y.	Safar kunlari: _____ 200__y.dan _____ 200__y. gacha
tel.: 31-16-73	ASOS: Buyruq ¹ _____ 200__ y.dan
M.O'.	O'shkilot rahbari _____
Safar joyiga kelib ketish haqidagi belgilar	
Ketdi _____ dan Keldi _____ ga	"__" _____ 200__ y. " __" _____ 200__ y.
Muhr, imzo _____	Muhr, imzo _____

Ketdi _____ dan Keldi _____ ga	"__" _____ 200__ y. " __" _____ 200__ y.
Muhr, imzo _____	Muhr, imzo _____

D A L O L A T N O M A

Hujjatning bu turi ilgari *akt* deb yuritilgan bo'lib, ish jarayonida xodim yoki tashkilot va uning bo'limlari faoliyatida biron bir voqea-hodisaning yuz berganligini tasdiqlash maqsadida tuziladi hamda bir necha kishi, asosan shu ishga aloqador bo'lgan mas'ul xodimlar tomonidan imzolanadi. Agar u tekshirish natijalariga ko'ra tuzilsa, bir kishi – taftishchi yoki nazoratchi tomonidan imzolanishi ham mumkin.

Dalolatnoma ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, ayniqsa, moliya va hisob-kitob ishlarini yo'lga qo'yishda, unuman pul va materiallar hisob-kitobi bilan bog'liq holatlarda keng qo'llaniladi.

"Dalolatnomalar tegishli taftish o'tkazilgandan keyin, rahbarlik almashtirilayotganda, moddiy boyliklarni bir xususiy yoki yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda, qurib tugallangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin, mashina va uskunalarning yangi nusxalarini sinovdan o'tkazish chog'ida, qimmatdor buyumlarni hisobdan o'tkazish yoki hisobdan chiqarishda, tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olishda, baxtsiz hodisalar yoki tabiiy ofatlar oqibatlarini tekshirishda, sud-tergov ishlari va tibbiyot sohasida, xodimlarning moddiy, yashash jarayonlarini o'rganishda va boshqa hollarda tuziladi" (Amirov M. Ish yuritish. 186-bet). Kitobda ularning har birining rasmiylashtirilishidagi o'ziga xos xususiyatlar alohida tarzda ko'rsatib berilgan.

Dalolatnoma u tuzilayotgan tashkilot yoki muassasa, nima maqsadda tuzilayotganligini ifodalovchi sarlavha, o'rtadan yoziladigan *Dalolatnoma* degan so'z, tuzilgan vaqti va joyi, yangi qatordan uni tuzish uchun asos bo'lgan qaror yoki ko'rsatma, dalolatnomani tuzuvchilar tarkibi, bu jarayonda ishtirok etuvchilar, dalolatnoma matni mazmuni, kerak bo'lgan holda ilovalar berilsa, ularning necha sahifa ekanligi, tuzgan va ishtirok etganlarning imzosi singari zaruriy qismlardan iborat bo'ladi. Lozim bo'lgan o'rinlarda dalolatnoma tashkilot yoki muassasa rahbari tomonidan ham tasdiqlanadi. Masalan:

"Öasdiqlayman"

SamDU rektori

----- R. XOLMURODOV

2003 yil 13 yanvar

Samarqand Davlat universiteti kadrlar bo'limi boshlig'ining
ishni topshirishi haqida

D A L O L A T N O M A

2003 yil 14 yanvar

Samarqand sh.

*Asos: Universitet rektorining 2003 yil 10 yanvardagi 1
12-raqamli buyrug'i.*

Universitetning sobiq kadrlar bo'limi boshlig'i S.S.Yanova, yangi tayinlangan kadrlar bo'limi boshlig'i D.H.Otaxo'jayeve, texnika xavfsizligi bo'limi boshlig'i A. Sharipov va ish yurituvchi H.Rafiqova ishtirokida tuzildi.

Universitetning kadrlar bo'limi boshlig'i lavozimida ishlovchi S.S.Yanova ishni topshirdi, D.H.Otaxo'jayeve qabul qilib oldi.

Ishni topshirish-qabul qilish jarayonida quyidagilar aniqlandi:

1. Universitet professor-o'qituvchilari va boshqa xodimlarning shaxsiy hujjatlari va kartotekalari to'laligcha va tartib bilan saqlanmoqda. Ayni paytda, ularga oid ma'lumotnomalarning barchasi komputerdan o'z ifodasini topgan.

2. 1999 yilgacha bo'lgan va amalda o'z kuchini yo'qotgan hujjatlar arxivga topshirilgan.

Quyidagilar qabul qilib olindi:

1. Universitetda ishlaydigan 657 professor-o'qituvchi va 426 xodimning shaxsiy hujjatlari ro'yxat asosida.

2. 2000-2003 yillarda kadrlar tarkibi bo'yicha qabul qilingan 96 ta buyruqning asl nusxalari va asosnomalari.

3. Arxivga topshirilgan hujjatlar ro'yxati.

4. "Kadrlar bo'limi" yozuvi aks etgan muhr hamda imzolarning haqiqiylikini tasdiqlovchi to'rtburchak muhr (shtamp).

I l o v a : 22 bet ro'yxat 2 nusxada.

Dalolatnoma uch nusxada tuzildi.

Ishni topshirdim

Ishni qabul qildim

Ishtirok etganlar

S.S.YANOVA

D.H.OTAXO'JAYEVA

A.SHARIPOV

H.RAFIQOVA

"O'asdiqlayman"
Samarqand oziq-ovqat kolleji
direktori _____ Sh.S. G' IYOSOV
2003 yil 15 yanvar

Samarqand oziq-ovqat kollejidagi sport jihozlarini
taftish qilish haqida
D A L O L A T N O M A

2003 yil 13 yanvar Samarqand sh.

Men, Samarqand viloyati o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi boshqarmasining hisobchi-taftishchisi R.R. Masharipov, boshqarmaning 2002 yil 29 dekabrda¹ 214-buyrug'iga asosan kollejning hisobchisi Ulash Pirimqulov va moddiy javobgar-sport yo'riqchisi A.Akopyan ishtirokida mazkur o'quv yurtiga tegishli sport jihozlarini taftish qildim.

Øekshirish jarayonida quyidagilar aniqlandi:

1. 2001 yil 19 yanvardagi tekshiruv natijalari dalolatnomasi va inventarlarni ro'yxatga olish kitobiga asosan kollejdagi quyidagilar mavjud bo'lgan:

- 1. Shaxmat – 4 ta*
- 2. Shashka – 6 ta*
- 3. Bilyard – 2 ta*
- 4. Voleybol to'pi – 4 ta*
- 5. Voleybol to'ri – 1 ta*
- 6. Futbol to'pi – 3 ta*
- 7. Futbol to'ri – 2 ta*
- 8. Øennis stoli – 2 ta*
- 9. Øennis sharchalari – 16 ta*
- 10. Sekund o'lchagich – 2 ta*
va ularning barchasi mavjud.

Quyidagilar taklif etiladi: Mavjud 2 ta shashka, 1 ta voleybol to'pi, 11 ta tennis sharchasi, 2 ta futbol to'pi yarocsiz holga kelganligi uchun ularni hisobdan chiqarish maqsadga muvofiq.

<i>Boshqarma hisobchi-taftishchisi</i>	<i>R. MASHARIPOV</i>
<i>Kollej hisobchisi</i>	<i>U. PIRIMQULOV</i>
<i>Moddiy javobgar</i>	<i>A. AKOPYAN</i>

Dalolatnomalarning turlari ko'p bo'lganligi tufayli, ularning avvaldan belgilab qo'yilgan namunalari bo'lishi mumkin. Qanday namuna bo'lishidan qat'i nazar, asosiy matn boshqa hujjatlardagi

singari kirish, asosiy va xulosa qismlardan iborat bo'ladi. Ya'ni dalolatnomani tuzishga qanday hujjat yoki ko'rsatma asos bo'lganligi, uni tuzishda kimlar ishtirok etganligi, qanday ishlar amalga oshirilganligi va qanday xulosalarga kelinganligi bayon etiladi. O'gishli shaxslar imzo chekkach, dalolatnoma zarur nusxada ko'paytirilib, tegishli shaxslarga bir nusxadan beriladi.

I S H O N C H N O M A

Inson faoliyati jarayonida shunday paytlar bo'ladiki, alohida bir kishi, tashkilot yoki muassasa boshqa bir shaxs, tashkilot yoki muassasa bilan bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarini amalga oshirishda, oldi-berdi qilishda vositachilik qiladigan boshqa shaxslarning ko'magiga muhtoj bo'ladi. Ana shu vositachilikni qonun-qoidalar yordamida amalga oshirish maqsadida ularning qo'liga ishonch qog'ozi — ishonchnoma beriladi. Ishonchnomani olgan kishi boshqa bir shaxs, tashkilot yoki muassasa oldida uni berganlar nomidan ish ko'rish huquqiga ega bo'ladi.

Faoliyat qamrovidan kelib chiqib, ishonchnomalar ikki xil bo'ladi: xizmat doirasidagi ishonchnomalar va shaxsiy ishonchnomalar.

Davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasida ish yuritishda foydalaniladigan ishonchnomalar xizmat doirasidagi, bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga biron bir vazifani bajarishga o'z nomidan vakil etib tayinlanganini tasdiqlovchi hujjat esa shaxsiy ishonchnoma ma'nosida qo'llanadi.

Xizmat doirasidagi ishonchnomaning faoliyat doirasi keng bo'lib, ular asosan boshqa joydan pul yoki moddiy buyumlar olib kelish maqsadida beriladi. Ular odatda maxsus blankalar — namunaviy shakllar bosilgan ish qog'ozida rasmiylashtiriladi. Ishonchnoma moliyaviy hujjat sanalgani tufayli uning namunasidagi barcha o'rinlari aniq va savodli to'ldirilishi, tuzatishlar kiritilmagan bo'lishi lozim.

Shaxsiy ishonchnomalar asosan xodimning o'zi borib olishi imkoni bo'lmagan paytlarda boshqa bir kishiga maoshi yoki nafaqasini olish uchun beriladi. Bunday ishonchnomalar o'ziga tegishli bo'lgan hujjatlarni olib kelish uchun berilishi ham mumkin.

Xizmat doirasidagi ishonchnomaga tashkilot rahbari va uning bosh hisobchisi tomonidan imzo chekilsa, shaxsiy ishonchnoma

davlat notariusi yoki xodim ishlab turgan tashkilot, muassasa rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Ishonchnoma *Ishonchnoma* deb yozilgan soʻz, ishonch bildiruvchining toʻliq nomi, familiyasi va otasining ismi, lavozimi, ishonchnomaning mazmuni, amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifa va uning kim yoki qaysi tashkilot yoki muassasa bilan amalga oshirilishi, ishonch bildiruvchining imzosi va uni tasdiqlovchi muhr, berilgan vaqti va amal qilish muddati kabi zaruriy qismlardan iborat boʻladi.

Shaxsiy ishonchnomalar esa qoʻlda yozilishi hamda davlat notariusi va tashkilot rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi bilan maʼlum darajada xizmat doirasidagi ishonchnomalardan farq qiladi. "Ish yuritish" qoʻllanmasining mualliflari ishonchnomaning mulkni boshqarish va mulk huquqini olish, uy-joy sotish va sotib olish, ish haqi, nafaqa va shaxsiy jangʻamadagi pullarni olish, avtotransportdan foydalanish va uni sotish huquqini beradigan turlari mavjud ekanligini qayd etishadi. Namunalar:

1-bet

<p><i>Ishonchnoma 2003 yilning _____ gacha yaroqli</i></p> <p>_____</p> <p><i>(iste'molchi va uning manzili)</i></p> <p>_____</p> <p><i>(to'lovchi va uning manzili)</i></p> <p>_____ <i>hisob raqami</i> _____</p> <p><i>(bankning nomi)</i></p> <p><i>Ishonchnoma</i> ¹ _____</p> <p><i>Berilgan vaqti: 2003 yil</i> _____</p> <p>_____</p> <p><i>(berilgan shaxsning ismi, familiyasi va otasining ismi)</i></p> <p><i>Pasport seriyasi</i> _____ <i>va</i> ¹ _____</p> <p>_____ <i>da</i> _____ <i>IIB tomonidan berilgan.</i></p> <p>_____ <i>dan</i> _____</p> <p><i>(oladigan tashkilotning nomi)</i> _____ <i>(naryad, faktura raqami)</i></p> <p><i>bilan narsa-buyum olish uchun berildi.</i></p>

2-bet

Olinishi lozim bo'lgan narsa-buyumlarning ro'yxati

Ò'r	Narsa-buyum nomi	O'lchov birligi	Soni (yozuv bilan)

Ishonchnomani olgan shaxsning imzosi _____

Imzoni tasdiqlayman:

Òashkilot rahbari _____

Bosh hisobchi _____

I S H O N C H N O M A

Men, SamDU o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi Suvonova Rohila Akramovna shu kafedrada o'qituvchi bo'lib ishlaydigan Jo'rayev Òolib Òashbekovichga O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasidan nominga yozilgan fan nomzodi diplomini olishga ishonch bildiraman.

2002 yil 16 iyun.

_____ *R.SUVONOVA*

*R.Suvonovaning imzosini
tasdiqlayman.*

*SamDU kadrlar bo'limi
boshlig'i*

S.S.YANOVA

2002 yil 16 iyun.

M A ' L U M O T N O M A

Ma'lumotnoma bo'lib o'tgan voqea-hodisa yoki hozirda mavjud holat to'g'risida axborot beruvchi yoki uni tasdiqlovchi hujjat hisoblanib, rasmiy-huquqiy kuchga ega bo'ladi hamda so'ralgan taqdirdagina tashkilot yoki muassasa yoki uning bo'limlari

rahbarlari imzosi bilan beriladi. So'rovlar yuqori va teng mavqedagi tashkilotlar, ma'muriy organlar va shu ma'lumotnoma tegishli bo'lgan kishilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Ma'lumotnoma ikki xil bo'ladi: xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnoma. Xizmat ma'lumotnomasida tashkilot va uning bo'linmalarida biron bir vazifaning bajarilishi haqidagi axborot aks etgan bo'ladi. Ular turli xil jadvallar bilan to'ldirilishi mumkin. Bu kabi ma'lumotnomalar yuqori tashkilotlarning quyi tashkilotlar faoliyatidan to'liq xabardor bo'lib turishiga ko'maklashadi. Masalan:

SamDU o'zbek filologiyasi fakulteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2000-2002 yillardagi faoliyatini kompleks tekshirish natijalari haqida

M A ' L U M O T

1. 2000 yildan buyon kafedra yig'ilishlari bayonnomalari komputerga yozilgan, ammo ularning hammasi ham pechatlangan holda saqlanmagan.

Ilmiy ishlar rejalari muhokama qilingan umumiy mavzu "Mustaqillik davri o'zbek tili lug'at tarkibidagi semantik-uslubiy siljishlar" deb nomlanadi va kafedrada ilmiy tadqiqotlar ana shu mavzu rejasi asosida olib borilmoqda.

2. Kafedradagi seminar ilmiy-metodik seminar, deb nomlanadi. Kafedra hayotiga va o'zbek tilshunosligi hamda uni o'qitish metodikasiga bag'ishlangan masalalar ana shu seminarda muhokama qilib berilmoqda.

3-4. O'zR Prezidentining Oliy Majlis sessiyalarida qilgan ma'ruzalari muhokama etilib borilayotgani to'g'risidagi bayonnomalar, garchi to'liq bo'lmasa ham mavjud.

Prezident va hukumat qarorlari vazirlik, rektorat va dekanat topshiriqlari tarzida kafedra a'zolari tomonidan hayotga tatbiq etilmoqda.

5. Milliy dastur ikkinchi bosqichining amalga oshirilishi bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Kafedrada faqatgina bakalavrlar emas, balki magistrlar, aspirantlar va doktorantlar ham tahsil olishadi.

6. Kafedrada hozirda beshta magistr, oltita aspirant, bitta doktorant mavjud bo'lib, ularning tadqiqot mavzulari quyidagicha:

- Haqberdiyeva Dilrabo. Gazeta sarlavhalari va ularning semantik uslubiy xususiyatlari.

- Maxmadiyev Shavkat. O'zbek xalq eposlaridagi frazemalarning lingvopoetikasi.

– Pardayev Azamat. O'zbek tilida undovlar va modal so'zlar uslubiyati.

– Narziyeva Nazokat. O'zbek tilida tasviriy so'zlar uslubiyati.

– Do'sanova Dilorom. Abdulla Oripov asarlari frazeologiyasi.

– Ortiqova Zilola. Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonining lingvopoetikasi.

Har bir tadqiqotchi, unga berilgan mavzu va tayinlangan ilmiy rahbar kafedra yig'ilishlarida atroflicha muhokama qilib borilmoqda. Bu haqda tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan.

7. Keyingi uch yil ichida kafedrada 5 ta magistr o'qib tugatishdi va dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishdi, ulardan bir kishi – O.Yusupova aspiranturaga hozirlik ko'rmoqda.

2 kishi – R.Suvonova, M. Boboyorov nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilishdi, yana 1 kishi – F.Bobojonov shu yilning dekabr oyida himoya qiladi. Bitta doktorlik va to'rtta nomzodlik dissertatsiyasi yozib tugallanish arafasida.

8. Magistr va aspirantlarga mutaxassislik xususiyatidan kelib chiqib, ishlab chiqarish tashkilotlaridan maslahatchilar tayinlash ko'zda tutilmagan. Ammo boshqa oliy o'quv yurtlaridan bu ishni amalga oshirish tajribada sinab ko'rilmogda.

9. Magistr'larga faqat tajribali hamda ilmiy unvon va darajaga ega bo'lgan o'qituvchilar dars berib kelishmogda.

10. Olimpiada g'oliblari mavjud. 2000 yilda O.Yusupova faxrli 2-o'rinni egallagan.

11. O'zR FA Oil va adabiyot instituti bilan ilmiy hamkorlik mavjud.

12. 2000 yilda ikkita o'quv qo'llarmasi, ikkita bibliografik ko'rsatkich, 2001 yilda esa 15 ta o'quv qo'llarmasi nashr qilingan.

13. 2000 yilda 23 ta, 2001 yilda esa 71 ta maqola nashr qilingan.

14. Universitetda 10.02.02–milliy tillar (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha fan nomzodi ilmiy darajasini berishga Ixtisoslashgan kengashning hamda kafedra qoshida ilmiy seminarning mavjudligi tufayli keyingi yillarda respublikada o'zbek tilshunosligi bo'yicha yozilayotgan deyarli barcha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari shu yerda muhokamadan o'tmogda. Ularning soni har yili 10 tadan 20 tagacha boradi.

15. 2000 yilda uslubshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazilgan edi. "Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari hamda uning turkiy

xalqlar madaniyati va jahon sivilizatsiyasida tutgan o'ri" mavzidagi Xalqaro konferensiya shu yilning 25-26 noyabr kunlari o'tkaziladi.

Bu kabi ilmiy tadbirlar o'tkazilishining ahamiyati g'oyatda katta ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi.

16. Kafedrada bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarning barchasi amaliyot, xususan ta'lim jarayoni bilan bog'liq.

Ökshiruvchi:

*falsafa fanlari nomzodi,
dots. M.S. MADIRIMOVA*

Rasmiy ma'lumotnomalar yuqori tashkilotlar rahbarlari, tekshirish ishlari olib borayotgan komissiyalar nomiga yozilishi ham mumkin. Unda ma'lumotnomaning nima haqda yozilayotgani, ma'lumotnoma mazmuni aks etgan bo'ladi va rahbarning imzosi chekilib, sana qo'yiladi.

Shaxsiy ma'lumotnomalar ham rasmiy hujjat sanaladi. Ammo u bir shaxs yoki xodimning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotnoma qamrab oladi. Bunday ma'lumotnomalar uning qachon va qayerda tug'ilgani, qayerda yashashi va kim bo'lib ishlashi, sog'ligi va sudlangan-sudlanmaganligi kabi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ular blankalarda – maxsus qog'ozlarda yozilib, tashkilot devonxonasida qayd etilib boriladi. Masalan:

<i>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Öel.: 31-21-81</i>	<i>MA'LUMOTNOMA</i> <hr/> <i>haqiqatdan ham Samarqand davlat universiteti</i> <hr/> <i>fakultetining _____ (o'quv shakli) _____ kurs talabasidir.</i>
<p style="text-align: center;"><i>Ma'lumotnoma _____ _____ ga taqdim etish uchun berildi.</i></p> <p><i>M.O'. _____ Fakultet dekani _____</i></p>	

N I Z O M

Mustaqillikdan keyin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatga keng yo'l ochib berildi. Jumladan, turli yo'nalishlarda tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish masalalarining

qonunlar hamda maxsus hukumat qarorlari bilan belgilab qo'yilganligi xalqimiz tumush sharoitini yaxshilashga qaratilgan tadbirlardandir.

Mana shu imkoniyatlardan litsey va kollejlarni bitirgan va tegishli mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar ham foydalanishlari mumkin. O'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, kichik sexlar, korxonalar ochib, tadbirkorlik bilan shug'ullanib yoki dehqon-fermer xo'jaliklari tashkil qilib, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bugungi kunning dolzarb vazifalariga aylandi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida ayrim hujjatlardan xabardor bo'lish zaruriyati tug'iladi. Ya'ni firmalar, kichik korxonalar tashkil qilish tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish tarzida amalga oshiriladi. Ularni belgilangan tartibda rasmiylashtirish ishning qonuniy yo'lga qo'yilishiga ko'maklashadi.

Ana shunday hujjatlardan biri nizomdir. Nizom firma, kichik korxonalar, fermer xo'jaligi tashkil qilish jarayonida rasmiylashtiriladigan asosiy hujjat bo'lib, u ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarning huquq va majburiyatlari, burchi va vazifalari, boshqaruv va huquqiy-tashkiliy shakli, mulki va mablag'lari, mehnat turlari va ularga haq to'lash singarilarni me'yorlashtiradi va bu korxonaning butun faoliyati ana shu Nizom asosida olib boriladi. U korxonalar va muassasalar ta'sis etish paytida tuziladi va yuqori tashkilot, aniqrog'i, hokimiyatlar qarori bilan tasdiqlanadi. Bu hujjat kim tomonidan tasdiqlanganini, ta'sis etilayotgan korxonalar, xo'jalik yoki muassasaning nomi, o'rtada Nizom degan yozuv, matn, ta'sis etuvchining imzosi, sana va joyi kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Masalan:

Nizom
viloyat hokimining
2001 yil 18 iyundagi 18
qarori bilan tasdiqlangan

Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi
Ma'naviyat xalq universitetining
N I Z O M I

2001 yil

Samarqand

I. Umumiy qoidalar

Samarqand viloyati hokimligi huzurida xo'jalik hisobida faoliyat ko'rsatadigan Ma'naviyat xalq universiteti o'z faoliyatini ushbu Nizom hamda viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi Nizomiga asosan olib boradi. Jumladan, Ma'naviyat xalq universiteti (matnda bundan buyon Universitet deb yuritiladi) asosan :

- unda boshliq (rektor) va o'rinbosar (prorektor) doimiy faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, viloyat hududidagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, O'zFA Samarqand viloyat bo'limi, ilmiy tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, shu bilan birga, muassasalar, xalq ta'limi va jamatchilik tashkilotlari mutaxassislari, tajribali, faol rahbarlar, davlat va jamoat arboblardan iborat ma'ruzachilar shartnoma asosida faoliyat ko'rsatishadi;

- ma'ruzachilar tarkibi tinglovchilar auditoriyasidan kelib chiqib yangilanib turishi mumkin;

- viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi hamda markazi bilan hamkorlikda ish yuritadi;

- o'zining joriy yil va istiqbol dasturlari va rejalarini ishlab chiqadi hamda ish faoliyati davomida viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan hujjatlarga tayanadi.

II. Universitetning maqsadi

Universitet:

- Respublikamiz Prezidenti va hukumatimiz olib borayotgan islohotlar mohiyatini tushuntirish borasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishda qatnashadi;

- xalqimizning, ayniqsa, yosh avlodning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'nan boy, sog'lom, barkamol, yetuk fazilatli insonlar bo'lib yetishishida, ularni ona-Vatanga, o'z xalqiga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda faol qatnashadi:

- xalq xo'jaligining barcha jabhalarida ma'naviyat bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash jarayonini amalga oshiradi;

- maxsus qisqa muddatli kurslar orqali bosqichma-bosqich mutaxassis kadrlar o'quvini tashkil etadi. Kurs tinglovchilariga

ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa dasturlar asosida ta'lim berishni yo'lga qo'yadi.

III. Universitetning vazifalari

Universitet:

– viloyat, shahar va tumanlar hokimliklari xodimlari, viloyat hududidagi muassasa, korxonalar, tashkilot va bo'limlar hamda jamoat tashkilotlari, jamoa xo'jaliklari, ijara pudrati, dehqon xo'jalik rahbarlari, mahalla oqsogollari va fuqarolarini qisqa muddatli kurslarda o'qitish, qayta o'qitishni tashkil qiladi;

– qisqa muddatli kurslarda o'qitiladigan fanlar, ilmiy va amaliy muammolar uchun dasturlar, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar, shu bilan birga, malakali professor-o'qituvchilar, pedagoglar va sohalar mutaxassislari bilan ta'minlash vazifasini amalga oshiradi;

– lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvini, komputerni o'rgatish va boshqa qisqa muddatli kurslar orqali malaka oshirish masalalarini hal qiladi;

– xalq xo'jaligi, maorif va madaniyat tarmoqlarining barcha yo'nalishlaridagi rahbar va mutaxassis kadrlarning ma'naviy-ma'rifiy hamda madaniy bilim saviyasi qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida viloyat hokimligining bevosita rahbarligida ularni attestatsiyadan o'tkazishda ishtirok etadi;

– ma'naviy va ma'rifiy jarayonning dolzarb muammolarini atroflicha, chuqur va ilmiy o'rganish maqsadida mintaqaviy ilmiy-amaliy anjumanlar, seminar yig'ilishlari o'tkazish, tajriba almashishning boshqa usullaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yishda va bu tadbirlarning natijasi bo'lgan ilmiy maqolalar to'plamlari, risola va monografiyalar chop etishda jamoatchilik markazlariga yordamlashadi;

– o'rta o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat fidoyilari bo'lgan tajribali ziyolilar, mutaxassislar, davlat va jamoat arboblari ko'magiga tayanib ish ko'radi;

– shaharlar va tumanlarda, mahallalarda, unuman aholi o'rtasida ma'naviy qadriyatlar, ma'rifiy muammolar, hukumat qarorlari hamda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari rivoji uchun dolzarb sanaladigan mavzular yuzasidan universitetning malakali ma'ruzachilari ishtirokida targ'ibot-tashviqot ishlarini uyushtiradi;

– ma'naviyat xodimlarining malakasini oshirish maqsadida uzluksiz ravishda suhbatlar, seminarlar, uchrashuvlar va ko'chma lektoriylar tashkil etadi;

– Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi hamda bo'limlarini dolzarb mavzulardagi o'quv qo'llanmalari, dasturlar va ma'ruza matnlari, yo'riqnomalar bilan ta'minlashda faol ishtirok etadi.

IV. Universitetning huquq va majburiyatlari

Universitet :

– Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazlari mutasaddilari, faollari uchun sholar bo'yida o'qitish jarayonini tashkillashtiradi, targ'ibot-tashviqot ishlarini oshirishda ko'maklashadi. Ma'ruza matnlari sifati ustida alohida nazorat olib boradi;

– o'zining butun faoliyati, shu bilan birga, qisqa muddatli kurslar uchun belgilangan tartibda hujjatlar va ma'lumotnomalar tayyorlaydi;

– tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida darslar yakuniga ko'ra kurs talablarini yakuniy nazorat (sinov imtihonlari)dan o'tkazadi;

– Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazlarida kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish ishida bevosita ishtirok etadi va bu borada o'z fikr-mulohaza hamda xulosalarini beradi;

– ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot-tashviqot ishlarida jonbozlik ko'rsatgan va faol ishtirok etgan xodimlarni, ma'ruzachilarni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish maqsadida viloyat, shahar va tuman hokimliklariga takliflar kiritadi;

– qisqa muddatli kurslarni bitirgan tinglovchilarga tegishli sertifikat va guvohnomalar beradi;

– qisqa muddatli va muddatli kurslardagi tinglovchilarni tegishli dasturlar, qo'llama va darslik, ko'rgazmali vositalar va ma'ruzachilar hamda o'quv xonalari (auditoriyalar) bilan ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

– viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi hamda markazi olib boradigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning barcha jarayonlarida faol ishtirok etadi;

– viloyat miqyosida ma'naviy-ma'rifiy mavzularda o'tkaziladigan targ'ibot-tashviqot ishlarida, uchrashuv va suhbatlarda faol ishtirok etadi, ularni ma'ruzachilar bilan ta'minlashga ko'maklashadi;

– o'z Nizomiga, Ma'naviyat va ma'rifat kengashi va markazining tartib-qoidalari, viloyat hokimiyatining qaror va famoyishlariga rioya qiladi, ularni bajarishda faollik ko'rsatadi;

– universitet faoliyatini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqarish va fimalar, dehqon-fermer xo'jaliklari tashkil qilish hamda kitob tijorati singari yunushlar bilan shug'ullanishga imkon beriladi;

– bankda o'z hisob raqamiga, muhr va shtampiga ega bo'ladi.

V. Universitet boshqaruvi va tashkiliy ishlari

Universitetni viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tomonidan tayinlangan rektor boshqaradi.

1. Universitet rektori:

– umumiy rahbarlik, universitet faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirish;

– Ma'naviyat va ma'rifat kengashi hamda markazi, ilmiy maslahat kengashi, mas'ul xodimlar hamkorligida universitetning joriy va istiqbol rejasini tuzib chiqish;

– yuqori tashkilot rahbarlari bilan universitet faoliyatiga oid masalalarni hal qilish, muzokaralar olib borish, viloyat hokimligi, kengash va markaz rahbarligida qisqa muddatli kurslarda o'qiydigan tinglovchilarni jalb qilish maqsadida tegishli hokimliklar va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzishni tashkil qilish;

– Ma'naviyat va ma'rifat kengashi hamda markazi rahbarligida o'quv jarayonini talablar darajasida tashkil qilish uchun targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga, dars jarayonini ma'ruzachilar, tegishli o'quv materiallari, qurollari va auditoriyalar bilan ta'minlashga, qo'llar va dasturlar tayyorlashga rahbarlik qilish;

– universitet faoliyatini rivojlantirish, kengaytirish choralarini ko'rish, shu maqsadda tasdiqlangan Nizom asosida universitet negizida ma'naviyat ravnaqi uchun bevosita xizmat qilishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni belgilash, jumladan, gazeta, nashriyot, til va yozuv o'rgatish va boshqa masalalar bilan bog'liq bo'lgan turli mazmundagi kurslar ochish vazifalarini hal qilish;

– universitet xodimlari shtatlar jadvalini va harajatlar smetasini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

– universitetda ishlash uchun kadrlar tanlash, ishga qabul qilish va lozim bo'lganda bo'shatish;

– universitet xodimlarining ish faoliyatini nazorat qilish, yuqori tashkilotlarning qarorlari, buyruqlari, famoyishlari va universitetning o'zida qabul qilingan hujjatlarning vaqtida bajarilishini tekshirib borish;

– universitetning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash choralarini ko'rish;

– homiylik masalalari bilan shug'ullanishga mas'ul bo'ladi.

Rektor Ma'naviyat va ma'rifat kengashi va markaziga bevosita bo'ysunadi, olib borilayotgan ishlar yuzasidan rahbariyatga hisobot berib turadi.

2. Rektor muovini:

– o'quv jarayonini talablar darajasida tashkil qilishga mas'ul bo'ladi;

– viloyat hokimligi hamda Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda universitet tinglovchilari ro'yxati hamda ularga darslarni tashkil qilish grafigini tuzadi;

– universitet bilan aloqada bo'ladigan viloyat, shaharlar va tumanlardagi muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, jamaat tashkilotlari, uyushmalar, alohida jismoniy va yuridik shaxslar, ilmiy-maslahat

kengashi a'zolari va boshqalar bilan aloqani belgilangan tartibda yo'lga qo'yadi;

– o'qishga jalb qilingan tinglovchilar uchun tashkilotlar, korxonalar va muassasalardan o'z vaqtida mablag'lar o'tkazilishini nazorat qilib boradi;

– ma'ruzachilar ro'yxatini tuzadi, bunda respublika, viloyat, shahar, tumanlar miqyosida ma'naviyat sohasidagi yetakchi olimlar, shoir va yozuvchilar, adabiyot va san'at namoyandalari, jamoat arboblari jalb etadi;

– ma'ruzachilarning darslarga taklif qilinishini oldindan ogohlantirish bilan birga, ma'ruzalar matni, yozma va test savollarini talab qiladi;

– ma'ruzalar matni, yozma ishlar va test savollari fondini tashkil etadi;

– tinglovchilarning darslarga qatnashishlarini nazorat qilib boradi. Universitet ichki tartib-qoidalari buzilgan holatlarda dastlab o'zlarini, agar tegishli xulosa chiqarishmasa, ularning rahbarlarini tegishli tartibda ogohlantiradi;

– bitiruvchilar uchun sertifikat tayyorlashni, ularni yozishni va kurs yakunida tantanali topshirishni tashkil qiladi;

– universitetning ichki hayotiga oid rejalar, qarorlar, buyruqlar, ilmiy-maslahat kengashi yig'ilishi bayonnomalari va boshqa hujjatlarni tayyorlaydi;

– moliya-xo'jalik ishlariga doir tashkiliy, hisob-kitob, balans va shunga aloqador ishlarni nazorat qilishga mas'ul bo'ladi;

– rektor safarda bo'lganda vaqtincha uning vazifasini bajaradi.

3. Bosh hisobchi:

– barcha moliyaviy masalalarni rahbariyat bilan kelishilgan holda yuritish;

– universitet hisob raqami ochilgan bank bilan muntazam aloqa o'rnatish, unga tegishli masalalarni hal qilish;

– xodimlar maoshining, tinglovchilarga beriladigan soatbay ish haqlarining o'z vaqtida berilishini yo'lga qo'yish;

– soliq va boshqa moliyaviy nazorat organlari bilan aloqador bo'lgan masalalarni hal qilish ishlariga javob beradi;

– universitet moliyaviy ahvolini yaxshilashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

VI. Universitetning tugatilishi

Universitet xodimlarining umumiy yig'ilishi va viloyat Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari qaroriga asosan va amaldagi qonunlarda ko'zda tutilgan boshqa hollarda tugatiladi.

Viloyat hokimligi

Ishlar boshqaruvchisi

A.QANOATOV

R E Z Y U M E

Rezyume nashr qilinadigan asar yoki himoyaga tavsiya etiladigan dissertatsiyaning g'oyatda qisqa mazmuni bo'lib, odatda, ishning oxirida boshqa tillarda, masalan, hozirda rus va ingliz tillarida beriladi. Ana shu qisqa rezyume orqali asosiy matnni o'qimagan kishi ham tadqiqot haqida ayrim xulosalarga kelishi mumkin. Namuna:

Abduvali Abdusaidovning "Matbuot tili madaniyatining lisoniy muammolari" mavzuidagi 10.02.02–o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasining qisqacha mazmuni

(R E Z Y U M E S I)

Mustaqillik yillarida amaviy axborot vositalari, jumladan matbuotga e'tibor nihoyatda oshdi. Matbuotning davr talabiga javob berishi, dolzarb muammolarni aks ettirishi, ularning yechimini ko'rsatishi, ammani operativ axborot bilan ta'minlashi, o'z zimmasidagi vazifalarni munosib bajarishi, unuman, "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilishi jurnalistlarning tildan foydalanish mahoratiga ham bog'liq. Shuni hisobga olgan holda tadqiqotda matbuot tili madaniyatining lisoniy muammolari gazeta janrlarining tili va uslubi, mustaqillik yillaridagi leksik jarayon va adabiy normaga rioya etish holatlari bilan bog'liq holda nazariy hamda amaliy jihatdan ko'rib chiqilgan.

Ishning ilmiy yangiligi:

– gazeta tili ekspressiv-stilistik, nomativlik nuqtai nazaridan janrlari bo'yicha alohida-alohida birinchi marta atroflicha tadqiq etilgan;

– gazeta tilini o'rganish sohasidagi muammolar, o'zbek adabiy tili taraqqiyotida matbuotning roli va matbuot tili madaniyatini yanada ko'tarish bilan bog'liq masalalar ilk bor ummlashtirilgan;

– umumxalq tilida qo'llanilgan frazeologik birliklar (FB) va ularning variantlari, frazeologik neologizmlar, okkazonal FBlarining xususiyatlari hamda ekspressivlikni ifodalashdagi roli gazeta materiallari asosida ilk bor to'la yoritilgan;

– gazeta tilida termin (atama) qo'llash sohasidagi hozirgi jarayon (so'nggi o'n yil) tahlil etilgan;

– gazeta sarlavhalari to'la va atroflicha ummlashgan tarzda tadqiq qilingan, gazeta ruknlari birinchi marta keng yoritilgan;

– Mustaqillik davri matbuotida adabiy normaga rioya qilish holatlari o'rganilgan.

Dissertatsiya ishning umumiy tavsifi, kirish, 3 bo'linga ajratilgan 7 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat.

Ishning mazmuni 9 ta alohida nashr va 31 ta ilmiy maqolada o'z aksini topgan.

Ò A V S I F N O M A

Òavsifnoma ham xodimning mehnat va boshqa ijtimoiy faoliyatidan xabardor etuvchi ma'lumotnomaga o'xshash hujjat. Uning ma'lumotnomaga yana o'xshash tomoni shundaki, tavsifnoma ham xodimga zarur holatlarda, masalan, xodim o'qishga kirayotganda, yuqori lavozimga ko'tarilayotganda beriladi. U ham dastlab kinga (ismi, familiyasi va otasining ismi) berilayotgani, uning millati, ma'lumoti, lavozimi, agar bor bo'lsa, darajasi va unvonini aks ettirgan ma'lumot bilan boshlanadi va yangi qatorda o'rtadan *Òavsifnoma* deb yoziladi. Shundan so'ng yangi qatordan asosiy matn beriladi, imzo chekiladi, sana qo'yiladi va muhr bosiladi.

Òavsifnomaning ma'lumotnomadan yana farqi shundaki, unga ba'zan tashkilot yoki muassasa rahbari bilan birga jamoat tashkilotlari rahbarlari imzo chekishlari ham mumkin. Namuna:

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri, prof. S.A.Karimov-
ning ilmiy-pedagogik va jamoatchilik faoliyatiga

T A V S I F N O M A

*1950 yilda tug'ilgan, millati o'zbek,
1972 yilda SamDU o'zbek va tojik
filologiyasi fakultetini tugatgan.*

Karimov Suyun Amirovich mehnat faoliyatini 1972 yilda Sovet Amiyasi safida ofitserlik—vzvod komandirligi vazifasidan boshlagan. 1974-1975 yillarda Pastdarg'om tumanidagi 99-maktabda o'qituvchi, 1975-1976 yillarda Sovetobod tuman ijroiya qo'mitasida tashkilotchi-instruktore bo'lib ishlagan, 1976-1986 yillarda Samarqand Davlat universiteti tahrir-nashriyot bo'limida muharrir, katta muharrir, bo'lim boshlig'i vazifalarida faoliyat ko'rsatgan. U 1986 yildan

partiya ishiga taklif qilindi. O'zbekiston Kompartiyasi Samarqand viloyat qo'mitasi fan va o'quv yurtlari bo'limida instruktors, lektor, sektor mudiri lavozimlarida 1990 yilgacha ishladi. 1991-1993 yillarda SamDU qoshida doktoranturani o'tadi va doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgandan so'ng-1994 yildan hozirgacha o'zbek tilshunosligi kafedrasining professori va mudiri vazifasida mehnat qilib kelmoqda.

Ish davomida u mehnatsevarligi, ijrochiligi, intizomliligi, o'ziga va boshqalarga talabchanligi bilan o'zini ko'rsatdi. O'qish jarayonini zamon talablari darajasiga ko'tarish borasida jonbozlik qildi. Hozirgi paytda ham fakultetda, kafedrada sog'lom ishchi muhitini yaratish, o'qish-o'qitish jarayonini "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" asosida takomillashtirish, mehnat intizomini yaxshilash borasida faollik ko'rsatmoqda.

Shu paytga qadar nashr qilingan 70 dan ortiq turli xarakterdagi ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy-omnabop tadqiqotlari oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qish jarayonini yaxshilashga, talabalarni milliy istiqlol g'oyasi nuhida tarbiyalashga, ularning ma'naviy kamolotini yanada oshirishga qaratilgan.

Karimov S.A. siyosiy jihatdan savodli, kamtarin, halol inson, yaxshi oila boshlig'i. Dorilfunun jamoasi o'rtasida humatga sazovor. Keyingi 5 yilda universitet Ilmiy kengashining a'zosi bo'lgan. Mehnat faoliyatida erishgan yutuqlari uchun 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra "Shuhrat" medali bilan mukofotlangan.

Samarqand Davlat
universiteti rektori

prof. XOLMURODOV R.I.

Ö A V S I Y A N O M A

Öavsiyanoma ham bir shaxs yoki xodim haqida ma'lumot beradigan, uni biron lavozim yoki ijtimoiy-siyosiy tashkilotga a'zo bo'lishga tavsiya etadigan rasmiy hujjat. Unda xodimning shaxsiy fazilatlarini va xususiyatlarini, ishga munosabati va faollik darajasi, siyosiy savodxonligi va axloqi singari jihatlar aks etgan bo'ladi. Eng muhimi, xodimni ma'lum lavozimga tavsiya etish bilan birga, ma'lum ma'noda uni kafillikka ham oladi. Uning mas'uliyatli tomoni ham shunda. Öavsiyanoma matn oxirida uni bergan kishi tomonidan imzolanadi. Namuna:

Ò A V S I Y A N O M A

Men, Òjiboyev Akram, 1937 yilda tug'ilganman, hozirda Xalqaro "Navro'z" xayriya jamg'armasining Samarqand viloyati bo'limi raisi bo'lib ishlayman.

Karimov Suyun Amirovichni 1981 yildan beri yaxshi bilaman. U chuqur bilimli, yuksak madaniyatli olim. O'zining oila a'zolari, kasbdoshlari, mahalladoshlari bilan munosabatlarda samimiy, kamtar va shirinsuxanligi bilan ajralib turadi. U Bog'ishamol tumanidagi Bog'itenur mahallasida o'tkaziladigan barcha tadbirlarda faol qatnashadi.

S.A.Karimov o'z shaxsiy manfaatlaridan xalq va davlat manfaatlarini ustun ko'rishini ko'pchilik yaxshi biladi va tasdiqlaydi. U har qanday mas'uliyatli vazifani a'lo darajada bajarishiga to'la ishonaman.

_____ A. ÒJIBOYEV

2002 yil 18 iyun

Ò A K L I F N O M A

O'tkazilayotgan biron bir tadbir haqida axborot beruvchi va unga taklif etuvchi xat. U *Òaklifnoma* degan so'z, taklif qilinayotgan kishining ismi, familiyasi, taklif qiluvchi tashkilot yoki muassasaning nomi, tadbirning mazmuni, ya'ni qanday tadbirga taklif etilayotgani, uning o'tkazilish sanasi va joyi ko'rsatiladi hamda tadbirni tashkil etgan tashkilot yoki muassasaning nomi qayd etiladi. Ba'zan *Òashkiliyo* qo'mita deb yozib qo'yilishi ham mumkin. Masalan:

Ò A K L I F N O M A

Muhtaram (a) _____

Sizni 2002 yil 25 yanvar kuni Samarqand Davlat universitetida o'tkaziladigan "Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'mi" mavzusida o'tkaziladigan xalqaro konferensiyaga taklif etamiz.

Manzilimiz: Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. SamDU bosh binosi.

Konferensiya kun tartibi:

1. *Konferensiya ishtirokchilarini kutib olish va ro'yxatdan o'tkazish*—8.00. —9.00.
 2. *Universitet bilan tanishtirish*—9.00. —10.00.
 3. *Konferensiya yalpi yig'ilishining ochilishi va davom etishi*—10.00.—12.00.
 4. *Öushlik*—12.00. —13.00.
 5. *Sho''balar yig'ilishi*—13.00—18.00.
- Öashkiliy qo'mita*

Ö A K L I F N O M A

Assalomu alaykum!

Hurmatli _____

Sizni mehribon dadajonimiz Dilmurod Do'stmurodov tavalludining 75 yilligi munosabati bilan 2005 yilning 25 marti soat 17.00 da yoziladigan dasturxonimizga taklif qilamiz.

Hurmat bilan Do'stmurodovlar oilasi.

Manzilimiz: Samarqand shahri, Mo'jiza restorani.

Ö A R J I M A I H O L

Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z hayoti va faoliyatini aks ettirib yozilgan bayonnoma. Unda dastlab *Öarjimai hol* deb yoziladi, keyin muallifning ismi, familiyasi va otasining ismi to'liq ko'rsatiladi, tug'ilgan yili, kuni, oyi va joyi ham aniq yoziladi. Ota-onalar haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Shundan so'ng qayerlarda, nima ishlar qilinganligi to'g'risida batafsil, yilma-yil yoziladi, oilaviy ahvoli va turar joyi haqida ma'lumot beriladi. Oxirida yozilgan sana ko'rsatilib, imzo chekiladi. Namuna:

Ö A R J I M A I H O L

Men, Karimov Suyun Amirovich 1950 yilda O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on (hozirgi Nurobod) tumaniga qarashli Ulus qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilganman.

Otam—Karimov Amir (1928) va onam—Karimova Xanigul (1930) vafot etishgan.

1957-1967 yillarda Kattaqo'rg'on (keyinchalik Pastdarg'om) tumanidagi 46 va 99-maktablarda, shundan so'ng 100-o'rta maktabda o'qiganman, 1972 yilda Samarqand Davlat universitetining o'zbek va tojik filologiyasi fakultetini tugatganman.

Mehnat faoliyatim ofitserlikdan boshlangan. 1972-1974 yillarda Sovet Armiyasi safida xizmatda, 1974-1975 yillarda Pastdarg'om tumanidagi 99-o'rta maktabda o'qituvchi, 1975-1976 yillarda Sovetobod (hozirgi Nurobod) tumanida ijroiya qo'mita tashkilotchi instruktori, 1976-1986 yillarda SamDU tahrir-nashriyot bo'limida muharrir, katta muharrir, bo'lim boshlig'i, 1986-1990 yillarda O'zkompartiya Samarqand viloyati qo'mitasida instruktor, lektor, sektor mudiri vazifalarida ishladim.

1991-1993 yillarda SamDU qoshida doktoranturani o'tadim. 1994 yildan hozirgacha universitet o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri va professori vazifasida ishlab kelayapman.

1983 yilda o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolariga bag'ishlangan namozdlik, 1994 yilda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilganman. Shu paytga qadar 10 dan ortiq monografiya, o'quv qo'llanmalari, ma'ruzalar matni, lug'atlar hamda 60 dan ortiq ilmiy, ilmiy-amaliy maqolalarim nashr etilgan.

Mehnatda erishgan yutuqlarim uchun 1995 yilda "Shuhrat" medali bilan mukofotlanganman.

Oilalikman, 5 farzandim bor.

_____ S. KARIMOV

2003 yil 20 yanvar

Ò A Q R I Z

Òaqriz badiiy yoki ilmiy asarlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarab beriladigan bahoning yozma bayonidir. U oddiy ilmiy maqolalardan tortib, dissertatsion ishlarga, o'quv qo'llanmalari, darsliklar va monografiyalargacha bo'lgan nashrlarni qamrab olishi mumkin.

Òaqrizda himoyaga yoki nashrga tavsiya etilgan ishga atrof-licha, batafsil munosabat bildiriladi, uning ijobiy va salbiy tomonlari xolisona ko'rsatib o'tiladi, himoyaga yoki nashrga tavsiya etilish-etilmaslik haqidagi munosabat aniq bayon etiladi. Dissertatsion ishlar himoyasini o'tkazuvchi Ixtisoslashgan kengash yoki asarni bosib chiqaruvchi nashriyot bu kabi taqrizlarda aytilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, o'z xulosalarini chiqaradi.

Òaqrizning tarkibiy qismida uning qanday dissertatsion ish yoki nashrga tavsiya etilayotgan asar haqida gap bora-yotgani, Òaqriz degan soʻz (uning oʻrnida ayrimlar baʼzan *Mulohazalar* soʻzini qoʻllaydi), keyin asosiy matn, uni yozgan kishining lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, ismi, familiyasi, imzosi hamda yozilgan sana aks etadi. Imzo kadrlar boʻlimi tomonidan tasdiqlanadi. Namuna:

“Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida lugʻaviy sinonimlarni yangi pedagogik texnologiya asosida oʻqitish” mavzusida Yoʻldosheva Nilufar Abdullayevna tomonidan yozilgan nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati boʻyicha

T A Q R I Z

Mustaqillikdan buyon oʻtgan davr mobaynida oʻzbek tili lugʻat tarkibida jiddiy sifat va miqdor oʻzgarishlar sodir boʻlayotgan bir paytda uzluksiz taʼlimning barcha jabhalarida, shu jumladan, oʻzbek tilini oʻqitishni yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish zamon taqzosidir.

Yangi pedagogik texnologiyani oʻquv jarayoniga tatbiq etishdan asosiy maqsad oʻquvchilar tafakkurini, ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishdan iboratdir. Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro miqyosda nufuzi ortib borayotgan bir paytda oʻzbek tiliga boʻlgan eʼtibor ham alohida oʻrin egallaydi. Shubhasiz, bu oʻzbek tili mutaxassislari oldiga ham katta masʼuliyat yuklaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda tanlangan mavzu gʻoyatda dolzarbdir.

Òaqriz etilayotgan dissertatsion ish kirish, uch bob va xulosa-dan iborat. Ishning “Kirish” qismida tadqiqotchi pedagogika tushunchasining ildizlarini Oʻrta Osiyoda uzoq oʻtmishda Umar Xayyam, Forobiy, Ibn Sino kabi allomalarning asarlarida oʻz aksini topganligini taʼkidlaydi. Dissertantning hozirga qadar oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarning Davlat taʼlim standartlariga mos ravishda fanni zamon talablari darajasida oʻzlashtira olmayotganliklarini oʻqitish metodikasidagi qusurlaridan biri ekanligini toʻgʻri ilgʻay olgan. Oʻqitish jarayonida oʻzbek tilining jozibadorligini, oʻziga xos nozikliklarini ifodalashda lugʻaviy sinonimlarga alohida eʼtibor qaratish lozimligini dalillar asosida isbotlab berishga harakat qilgan.

Ishning birinchi bobi “Umumtaʼlim maktablarida sinonimlarni yangicha pedagogik texnologiya asosida oʻqitishning nazorat va analiyot asoslari” deb nomlanib, unda hozirgi kunda keng qoʻllanilayotgan yangi pedagogik texnologiya” tushunchasining zamirida fikrlash,

izlanish, yangicha dunyoqarashning asosiy yo'nalishlari atroflicha yoritilgan. Bu bo'limda o'rta ta'lim jarayonida ona tili darslarida sinonimlar mavzusida lug'aviy jihatdan so'zlarning tanlab qo'llanishi uslubiy jihatdan katta ahamiyat kasb etishi aniq va ravshan ko'rsatiladi. O'plangan faktik materiallar asosida dissertant o'quvchilarning leksik sinonimlardan nutq faoliyatida foydalanishining talab darajasida emasligini ta'kidlaydi. Keltirilgan misollar deklarativ xarakterda bo'lmasdan, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan. Dissertant bu bobda "til-me'yor-nutq" g'oyasini asosli ravishda ilgari suradi.

Ishning ikkinchi bobi "Lug'aviy sinonimlarni o'qitishda yangi pedagogik usullardan foydalanish" deb nomlanib, unda lug'aviy sinonimlarni o'qitishda yangi pedagogik usullardan foydalanish muammosi ko'tariladi. Dars samaradorligini oshirishning yo'llari belgilab beriladi. Ularning soni yettita (12, 13-betlar) ekanligi ta'kidlanib, "ma'nodosh so'zlar" ni mashhur tilshunos olim A. G'ulomovning fikriga tayangan holda ikki guruhga ajratadi:

1. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar;
2. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

Dissertant ikkinchi metodni dominat sifatida qabul qiladi (13-bet).

Ishning uchinchi bobi "Ona tilidagi lug'aviy sinonimlarni o'rganishga doir mashqlar tizimi va dars ishlamalari" deb nomlangan bo'lib, bu bo'limda "Sinonimlar" mavzusiga oid mashqlarning xarakter xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Bajariladigan mashqlarni retseptiv va produktiv guruhlarga ajratadi.

Ishning xulosa qismida esa, tadqiqotchi o'quvchilar nutqini sinonim so'zlar hisobiga boyitish, ularni sinonim so'zlarning uslubiy bo'yog'ini farqlash va nutqda umumli foydalanishga o'rgata borish zarurligi hamda "ma'nodosh so'zlar"ga oid materiallarni induktiv usulda berish degan g'oyani beradi (16-bet).

Dissertatsiya yuzasidan e'lon qilingan materiallar uning mazmuniga to'laligicha mos keladi. Yuqorida ko'rsatilgan ijobiy tomonlar bilan bir qatorda, bizningcha, juz'iy xarakterdagi kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, avtoreferatning 12-betida dars samaradorligini oshirish yo'llari to'g'risida to'xtalgan bo'lib, bunda nima uchundir ko'rgazmali qurollardan, komputer, televideniye materiallaridan foydalanish masalalari e'tibordan chetda qolgan. Ishning 13-betida prof. A. G'ulomovning o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar to'g'risidagi fikrlari keltirilib, ulardan ikkinchi guruhni dominant sifatida ko'rsatilishiga qo'shilish qiyin. Bizningcha, ularni birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ishning 14-betida retseptiv, produktiv mashqlar to'g'risida atroflicha fikr yuritilgan. Bu metodlar barchaga ma'lum bo'lib, yangi pedagogik

texnologiya ta'lim jarayonida shulardan qaybiri yetakchi o'rin egallashi ko'rsatilib, isbotlab berilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu ko'rsatilgan juz'iy kamchiliklar ishning qiymatiga ta'sir etmaydi. Ish davr talabidan kelib chiqib, yuqori saviyada yozilgan. U nomzodlik dissertatsiyasi oldiga qo'yilgan talablarga javob beradi.

*Alisher Navoiy nomidagi Samarqand
Davlat universiteti o'zbek tilshunosligi
kafedrası professorı:*

O'RINBOYEV B.O'.

Ö E L E G R A M M A

Ölegramma ma'lum masofaga xabar yetkazishning eng qisqa va qulay usuli bo'lib, pochta-telegraflar orqali amalga oshiriladi. Barcha kishilar va idoralar bab-baravar foydalangani uchun xabar mazmuniga qarab, uni rasmiy hujjat ham, shaxsiy hujjat ham deyish mumkin.

Mazmuni tabrik yoki oddiy xabardan iborat bo'lgan telegramma bir kishidan ikkinchi kishiga jo'natilganda, odatda, uning vazifasi telefon xizmatiga teng bo'ladi. Boshqacha aytganda, telefon xizmati yo'lga qo'yilmagan joylarda telegramma qo'l keladi. Ammo xabarni tezlikda, shoshilinch yetkazish borasida u telefon o'rnini bosa olmaganidek, telefon ham hamma vaqt telegramma o'rnini almashtiravermaydi. Masalan, idoralararo biron-bir narsani so'rab, iltimos yoki taklif qilib, ogohlantirib yoki tasdiqlab yozilgan rasmiy xat mazmunida bo'lgan telegramma o'rnini telefon bosa olmaydi. Chunki matn mazmunidan iz qoldirish hamda uning rasmiy bo'lishi maqsadida shunday qilinadi. Bunga zarurat bo'lmagan hollarda esa matn mazmuni telefon orqali yetkazilishi ham mumkin.

Ölegrammaning boshqa hujjatlardan farqi shundaki, ularning matni g'oyatda qisqa bo'lib, bir necha so'zlar yordamida fikr aniq va lo'nda ifodalinishi lozim bo'ladi. Ölegramma pochtaxonalarda mavjud bo'lgan maxsus blankalarda rasmiylashtirilib, uni yozishning o'z qoidalari bor. Qisqalik va ixchamlik talablaridan kelib chiqib, asosiy matnda tinish belgilari qo'llanilmaydi, bo'g'in ko'chirilmaydi. Shakli esa asosan quyidagicha bo'ladi: telegrammaning turi haqidagi belgi, jo'natilayotgan joyning adresi,

oluvchining ismi va familiyasi, asosiy matn, jo'natuvchining adresi.

Telegramma oddiy yoki shoshilinch tarzda rasmiylashtirilib, shaxslararo va idoralararo, hukumat va xalqaro miqyosda bo'lishi mumkin.

Hozirda xabar yetkazishning faksogramma va modemogramma shakllari ham mavjud bo'lib, telefaks va komputer tarmoqlaridan foydalanadigan bu usullar idoralararo rasmiy aloqalarda telegrammaning imkoniyatini bir qadar cheklab qo'ydi.

Bu o'rinda faksogramma va modemogramma jo'natish va qabul tartibi haqida gapirib o'tirmaymiz. Chunki faksogramma to'g'risida xatga doir mavzuning yoritilishida ma'lumot berildi, modemogramma xususida esa informatika darslarida saboq olingan.

Quyida telegramma namunalaridan ayrimlarini keltiramiz:

Ò E L E G R A M M A

*Òoshkent Yunusobod 15 uy 24 xona Mirobid Komilovga Òug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman Iroda
7003005. Orzu Mahmudov ko'chasi, 26. Iroda Davirova.*

Ò E L E G R A M M A

*Samarqand Òuron ko'chasi 29 Alisher G'afforovga 20 mart kuni 46 reys bilan Sochidan Òoshkentga uchaman Jahongir
Sochi, Yoshlar ko'chasi, 48, "O'zbekiston" sanatoriysi.*

Ò E L E F O N O G R A M M A

Shoshilinch, zarur va ayni paytda rasmiy xabarni yetkazishning yana bir qulay usuli telefonogrammadir.

Xat matni tayyorlangach, odatda, u mas'ul shaxs tomonidan imzolanadi va shundan keyin rasmiy kuchga kiradi. Òelefonogrammalar ko'pincha idoralar kotibalari tomonidan telefon orqali jo'natiladi va qabul qilinadi.

Òelefonogrammada u jo'natilayotgan adres – tashkilot yoki muassasaning nomi va rahbari, qabul qilingan vaqti va raqami, asosiy matn va imzo chekkan jo'natuvchining ismi va familiyasi

aks etgan bo'ladi. Masalan: *Samarqand viloyat hokimligi. Yetkazuvchi – Sh.Hamidova. Òelefon –35-60-50. Oliy o'quv yurtlari rektorlariga. Qabul qiluvchi –D.Otaxo'jayeva.*

Ò E L E F O N O G R A M M A

Shu yilning 22 yanvar kuni soat 15.00 da viloyat hokimligi-ning kichik majlislar zalida mahallalar obodonchiligiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkaziladi. Oliy o'quv yurtlari rektorlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosarlari taklif etiladi. Hokim o'rinbosari Yo'ldosh Suyunov.

Òelefonogramma ijroni yengillashtirish maqsadida yuzaga kelgan hujjat bo'lib, u maxsus daftarlarda qayd etiladi va mazmuni bilan tashkilot yoki muassasa rahbari hamda undagi ko'rsatmani ijro etuvchi shaxs darhol xabardor etiladi va shu asosda tegishli qaror qabul qilinadi.

Ò I L X A T

Bir kishining boshqa bir kishidan yoki ishxonadan pul-buyum va biron rasmiy qog'ozni olganligini tasdiqlaydigan hujjat. Uning yozilishi quyidagicha: *Òilxat* degan so'z, til-xatni beruvchining lavozimi, ismi-familiyasi, pul-buyum yoki boshqa biron narsaning aniq nomi va qanchaligi, agar u texnik vosita bo'lsa, uning holati kabilar ko'rsatilib, olganligi e'tirof etilgan matn, so'ngida esa sana va imzo qo'yiladi.

Òilxatga tuzatishlar kiritilmaydi. Agar guvohlar bo'lsa, ular ham ko'rsatiladi. *Òilxat* davlat notariusi, fuqarolar yig'inlari tomonidan tasdiqlanishi ham mumkin. Namuna:

Ò I L X A T

Men, SamDU o'zbek filologiyasi fakulteti laboranti Abdullayev Otabek universitet kassiri Rohat Alimovadan fakultet professor-o'qituvchilari va texnik xodimlarining 1.670.450 so'm miqdordagi 2003 yilning yanvar oyi ish haqini tarqatish uchun oldim.

_____ ABDULLAYEV O.

2003.02.02.

Ò U S H U N T I R I S H X A T I

Òushuntirish xati talaba yoki xodim, ishchi yoki xizmatchi tomonidan ta'lim-tarbiya yoki ishlab chiqarish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, tartib-qoidaga rioya qilmaganlik sabablari ko'rsatilib yozilgan xatdir.

Rahbar o'z nomiga yozilgan tushuntirish xati asosida xodimga nisbatan qanday chora ko'rish-ko'rmaslik haqida ma'lum xulosaga keladi. Uning zaruriy belgilari quyidagicha: tushuntirish xati kinga va kimdan yo'llanmoqda, *tushuntirish xati* yozuvi, asosiy matn, imzo, sana. Namuna:

SamDU o'zbek filologiyasi
fakulteti dekani Ò.Qurbonovga 3-kurs
talabasi Rayimshukurova Mohigul tomonidan

Ò U S H U N T I R I S H X A T I

2003 yilning 13 yanvar kuni ertalab Nuroboddan chiqqan avtobus Samarqand shahriga kechikib kelganligi sababli 1-juftlik darsga ulgura olmadim. Bu kamchilikni boshqa takrorlamaslikka harakat qilaman.

2003.13.02.

_____ RAYIMSHUKUROVA M.

F A R M O Y I S H

Ma'lum tashkilot yoki muassasa ma'muriyati doirasida amal qilinadigan hujjatlardan yana biri farmoyish bo'lib, u ham mazmunan buyruqqa o'xshab ketadi. Farmoyish yordamida ham xuddi buyruqdagiday shu tashkilot yoki muassasa doirasida jamoa yoki alohida xodimlar zimmasiga ma'lum yumushlarni amalga oshirish vazifasi yuklatiladi. Uning buyruqdan farqi shundaki, ular kadrlar masalasiga oid bo'lmaydi. Faqat ish faoliyati doirasini qamrab oladi va tashkilot yoki muassasa rahbari tomonidagina emas, balki o'rinbosarlar, bo'lim boshliqlari tomonidan ham chiqarilishi mumkin. Masalan, universitet doirasida farmoyishlar prorektorlar, fakultetlar dekanlari tomonidan chiqariladi va o'z faoliyatlari doirasida huquqiy-ma'muriy kuchga

ega bo'ladi. Uning buyruqdan yana bir farqi shundaki, *buyuraman* so'zi o'rniga *tavsiya qilaman*, *ruxsat beraman*, *ma'qullayman* singari so'z va iboralar ishlatiladi. Namuna:

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti

2003.22.01.

Samarqand sh.

1 05

2002–2003 o'quv yili qishki sessiyasini fakultet talabalari o'rtasida amaldagi tartib-qoidalar va talablar darajasida o'tkazish maqsadida muayyan ishlarni amalga oshirish zarur. Shu munosabat bilan quyidagilarni

T A V S I Y A E T A M A N :

1. Barcha kafedralarda 2003 yilning 26 yanvaridan 8 fevraligacha bo'lgan vaqtni qamrab oladigan qishki sessiya yakuniy nazoratlarini o'tkazish grafigi belgilansin.

2. Har bir fan bo'yicha bo'ladigan yakuniy nazoratlarni obyektiv tarzda o'tkazish maqsadida uch kishidan iborat komissiya tuzilsin.

3. Yakuniy nazoratlarning o'z vaqtida o'tishi va ballarning obyektiv qo'yilishini ta'minlash kafedra mudirlari zimmasida ekanligi yana bir bor ta'kidlab o'tilsin.

Fakultet dekani

dots. QURBONOV Ò.I.

S H A R T N O M A

Shartnoma bir kishi bilan ikkinchi kishi, bir tashkilot bilan ikkinchi tashkilot yoki odamlar bilan tashkilotlar o'rtasidagi muayyan bir vazifani amalga oshirish maqsadida tuzilgan huquqiy hujjat. Ular mehnat bitimi deb ham ataladi.

Òomonlar o'rtasida bajariladigan vazifalarning xilma-xilligidan kelib chiqib, shartnomalarning turi ham ko'p bo'ladi. Masalan, yetkazib berish, ijara, moddiy javobgarlik, hadya etish hamda mehnat bitimi shartnomaning ana shu turlari sanaladi. Ammo ularning birortasi ham amaldagi qonunlar, hukumat qarorlariga zid bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham shartnomalar imzolanishidan avval uning mazmunidan kelib chiqib, tegishli mutaxassislar va huquqshunosning roziligi olinadi.

Shartnoma Shartnoma degan yozuv, uning tuzilgan sanasi va joyi, tuzayotgan tomonlarning aniq nomi va ularning va-kolatlari, asosiy matn, tomonlarning huquqiy adreslari, imzolari va muharrirlaridan iborat tarkibiy qismlardan tashkil topadi.

S H A R T N O M A

2002 yil 5 aprel

Ulus qishlog'i

Samarqand viloyati Nurobod tumani "Ulus" shirkat xo'jaligi boshqaruvi raisi Hukimov Oshpo'lat bir tomondan va ijarachi Amirov Hamidulla ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma muddatlari

1.1. Ijarachi Amirov Hamidulla (bundan keyin "Ijarachi" deb yuritiladi) 2002 yilning 5 apreli-dan joriy yilning oxiriga qadar "Ulus" shirkat xo'jaligi (bundan keyin "Xo'jalik" deb yuritiladi) bilan shartnoma asosida ishlaydi.

Xo'jalik ijarachiga "Hovuzbuloq" uchastkasidan 6 (olti) gektar yerni qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun joriy yilning oxirigacha ijaraga beradi.

2. Ijarachining huquq va majburiyatlari

2.1. Ijaraga berilgan ekin maydonida bajariladigan barcha ishlarni, sarf-xarajatlarni o'z hisobidan amalga oshiradi.

2.2. Agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida, optimal muddatlarda bajarish, yer strukturasi-ni buzmaslik, taqiqlangan ekinlarni ekmaslik, moddiy resurslardan tejankorlik bilan foydalanishni zimmasiga oladi.

3. Xo'jalikning huquq va majburiyatlari

3.1. Ijarachiga shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab va ijara haqi to'langandan keyin 5 kunlik muddat ichida yerni o'lchab beradi.

3.2. Mavjud sharoitlardan kelib chiqib, ijarachi mablag'i hisobiga ajratilgan yerni minimal miqdorda mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishga ko'maklashadi.

3.3. Zarur bo'lgan holatlarda xo'jalik mutaxassislari tomonidan maslahatlar berilishi mumkin.

4. Hisob-kitob tartibi

4.1. Ijarachi tomonidan ijaraga olinadigan yer uchun 5 kun ichida ijara haqini xo'jalik xazinasiga naqd pul bilan to'laydi.

5. Nizolarni hal qilish tartibi

5.1. Hal qilinishi lozim bo'lgan barcha nizolar o'zaro kelishuv yo'li bilan amalga oshiriladi. Kelishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda xo'jalik sudiga murojaat qilinishi mumkin.

Shartnoma tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2002 yilning oxirigacha davom etadi.

Ò O M O N L A R M A N Z I L G O H I

XO'JALIK

Nurobod tumani "Ulus"

shirkat xo'jaligi

Boshqaruv raisi

Ò. HUKIMOV

2002 yil 5 aprel

IJARACHI

Nurobod tumani

Ulus qishlog'i

H. AMIROV

H I S O B O T

Hisobotlar rejalashtirilgan ishlarning qanday amalga oshirilganligi to'g'risidagi taqdimot tarzida tuziladi. Ular tashkilot va muassasalarda oylik, kvartal va yillik hisobot shaklida bo'lishi mumkin. Hajmi esa amalga oshirilgan ishlarning ko'lamiga bog'liq bo'ladi.

Hisobot tarkibida quyidagilar yoziladi: hisobot berayotgan tashkilot yoki uning bo'limi nomi, *Hisobot* degan so'z, hisobot matni, hisobotni tayyorlovchining imzosi va sana. Hisobot yuqori tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida professor-o'qituvchilarining 1996-2000 yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari haqida raqamli hisobot:

2000 yil 24 noyabr

Ö/r	Yillar	Öo'p-lam	Nashr etilgan maqolalar						O'quv qo'l-lanma-lari	M a'ruza matnlari	M ono-grafi-yalar	
			Chet ellarda	MDX	respub-lika	viloyat, shahar	univer-sitet	har xil				
1	1996	1			22				1	1		
2	1997	4	8	2	1		10		3			
3	1998				1	5			4			
4	1999				11							
5	2000	1	30						6			
6		6	38	2	35	5	10		14	1		

Kafedra mudiri:

prof. KARIMOV S.A.

Bundan tashqari xizmat safari va rahbarining biron-bir topshirig'ini amalga oshirish yuzasidan ham hisobotlar yoziladi. Masalan:

SamDU rektori prof.R. I. Xolmurodovga o'zbek filologiyasi fakulteti dekani dotsent Ò. I. Qurbonovning Òshkent shahrida o'tgan xizmat safari yuzasidan

H I S O B O T I

Men, Qurbonov Òohir, Sizning topshirig'ingiz va rasmiylashtirilgan buyrug'ingizga asosan 2003 yilning 13-15 yanvar kunlari Òshkent shahrida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga qarashli muammolar institutida bo'ldim va qabul qilingan yangi DòS larini o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha yo'l-yo'riqlar oldim hamda amaliyotda foydalanish uchun bir necha qo'llar va yo'riqnomalar keltirdim

O'zbek filologiyasi fakulteti dekani dots. Ò.QURBONOV

2003 yil 17 yanvar

ISH YURITISH HUJJATLARINING TILI VA USLUBI

Ish yuritish sohasi o'zbek tilining amalda bo'lish imkoniyatlarini namoyish qiladigan yo'nalishlardan bo'lib hisoblanadi. Yoziladigan hujjat faqat uning muallifining o'zi uchun yozilmasdan, ko'pchilik, shu jumladan, yuqori tashkilot va muassasalar hamda ularning rahbarlari nazaridan o'tishi ham inobatga olinsa, uni shakllantirishga jiddiy e'tibor berishga to'g'ri keladi. Chunki hujjat ma'lum ma'noda uni yozgan kishining savodxonlik darajasini ko'rsatuvchi oynadir. Shunday ekan, uni talablar darajasida rasmiylashtira olmagan yoki o'z ona tilida savodli qilib yoza olmagan xodim jamoa oldida uyalib qolishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ma'lum bir korxonada yoki tashkilotda ishlaydigan xodim o'z faoliyatida zarur bo'lgan asosiy hujjatlarning rasmiylashtirish qoidalarini puxta egallab olishi zarur.

Ish yuritish jarayonida avvalgi darslarda ta'kidlab o'tilganidek, birinchidan, "Davlat tili haqida"gi Qonun talablariga rioya qilish, ya'ni hujjatlarni o'zbek tilida yozish zarur. Ikkinchidan esa, o'zbek tilining vazifaviy jihatdan amalda istemolda bo'lish yo'llarini ham farqlab, ularni rasmiy uslubda shakllantirish lozim. Rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari

va boshqa vazifaviy uslublardan farqlari to'g'risida avvalgi darslarda ma'lumot berilgan. Harqalay bu o'rinda yana bir marta eslatib o'tish lozimki, ish yuritish hujjatlarida ehtirolarga berilib, turli xil obrazli so'zlarni qo'llash yoki shevachilikka borish, xullas, adabiy va rasmiy til me'yorlaridan chetlashish maqsadga muvofiq emas. Bu hujjatlarning matnida fikrlar g'oyatda aniq, mazmunan puxta, ayni paytda, ravon ifoda etilishi, fikrning ikki xil tushunilishiga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr mumkin qadar qisqa bayon etilishi zarur. Ularda sodda gaplarga qaraganda qo'shma gaplarning ko'proq ishlatilishini inobatga olib, so'zlar va gaplar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarga jiddiy e'tibor berishga to'g'ri keladi. Rasmiy uslubda so'z tartibining buzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Aytilgan fikrlar barcha rasmiy hujjatlar uchun umumiy talablardir. Buning ustiga har bir hujjatning o'ziga xos rasmiylashtirish xususiyatlari ham borki, ularni inobatga olmasdan bo'lmaydi. Bu o'ziga xosliklar hujjatdagi birlanchi va ikkilanchi qismlarning joylashtirilishidan tortib, so'z va iboralarni tanlash hamda gap qurilishida ko'zga tashlanadi. Hujjatlarning kirish va yakuniy qismlari deyarli bir xil. Ammo asosiy mazmunni ifoda etadigan matnda farqlar jiddiy bo'ladi. Masalan, ariza, tilxat, tushuntirish xati, tarjimai hol, ishonchnoma singari hujjatlar bir kishi tomonidan yozilgani uchun uning rasmiylashtirilishi I shaxs tilidan bo'ladi va unda *men* olmoshi, *ma'lum qilaman, iltimos qilaman, so'rayman, harakat qilaman, ishonch bildiraman, tug'ilganman, borganman, qabul qilinganman, tugatganman* singari fe'lning I shaxs o'tgan va kelasi zamon shakllari ko'p qo'llaniladi. Ma'lumotnoma, dalolatnoma, bayonnoma singari hujjatlarda esa ko'pchilikning fikri ifoda etilgani tufayli unda *berildi, tuzildi, eshitildi, qaror qilindi* singari so'z va jumlalar o'tgan zamon-da, majhul nisbatda beriladi. Buyruqlarning rasmiylashtirilishi esa tamoman boshqacha. Unda qat'iyat ohangi kuchli bo'ladi va *topshirilsin, yuklatilsin, so'ralsin, oqohlantirilsin, tayinlansin, ozod etilsin, berilsin* singari fe'l shakllari o'tgan zamonda, buyruq maylida ifoda etiladi.

Shuning uchun ham har bir hujjatning til va uslub xususiyatlarini o'rganmoqchi bo'lgan kishi uning keltirilgan namunalarini sinchiklab kuzatsa, ularning har birining o'ziga xos xususiyatlarini va qoliplarini bilib olishi qiyin bo'lmaydi. Hujjatlarni yozishda bir xillikka erishish va unga ko'nikma

hosil qilish katta yutuq sanaladi. Imlo va tinish belgilariga e'tibor berish ham g'oyatda muhim ekanligi yuqorida ta'kidlab o'tildi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun vazifalar:

1. Yuqorida yozilish namunalari ko'rsatilgan va qoidalari tushuntirilgan har bir ish qog'oziga bittadan o'zingiz namuna yozing.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Hujjat yuritishni bilish nima uchun kerak?
2. Davlat ishlarini yuritish qanday tartibga solinadi?
3. Ish yuritish doirasidagi qanday hujjatlarni bilasiz?
4. Rasmiy va shaxsiy hujjatlarning tili va uslubi qanday bo'lishi kerak?

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
I bob. Òil va nutq	7
1-mavzu. Òilning ijtimoiy mohiyati.	7
2-mavzu. Savodxonlik va nutq madaniyati asoslari	12
3-mavzu. Nutqning asosiy xususiyatlari	22
4-mavzu. Nutq odobi	43
5-mavzu. Nutqiy muomala shakllari	51
II bob. Nutqiy faoliyat turlari	60
1-mavzu. Nutqning dialogik va monologik shakllari	60
2-mavzu. Vazifaviy uslublilar va nutq madaniyati	68
3-mavzu. Nutq uslublilarida sinonimiya	87
III bob. Matnning mazmuniy-vazifaviy belgilari	96
1-mavzu. Matn tuzilishi va matn ustida ishlash	96
2-mavzu. Atamalar va kasb-hunar soʻzlarining maʼnoviy- vazifaviy xususiyatlari	104
IV bob. Munshaot va ish yuritish	118
1-mavzu. Oʻzbek munshaoti tarixi, uning anʼanalari	118
2-mavzu. Rasmiy va shaxsiy xatlar	126
3-mavzu. Xizmat doirasidagi kommunikatsiya shakllari	137
4-mavzu. Hujjatlar va ularning turlari	141
Ariza	144
Annotatsiya	145
Bayonnoma	146
Bildirishnoma	150
Buyruq	151
Guvohnoma	155
Dalolatnoma	157
Ishonchnoma	160
Maʼlumotnoma	162
Nizom	165
Rezyume	172
Òavsifnoma	173
Òavsiiyanoma	174
Òaklifnoma	175
Òarjimai hol	176
Òaqriz	177
Òellegramma	180
Òelefonogramma	181
Tilxat	182
Òushuntirish xati	183
Farmoyish	183
Shartnoma	184
Hisobot	186
Ish yuritish hujjatlarining tili va uslubi	188

*Suyun Amirovich Karimov,
Shavkat Maxmatmurodovich Maxmatmurodov,
Oysuluv Nurmonovna Karimova*

**NUŌQ MADANIYAŌI VA DAVLAŌ
ŌILIDA ISH YURIŌISH**

«O'zbekiston» nashriyoti – Ōoshkent – 2003

Muharrir *G. Karimova*
Badiiy muharrir *H. Mehmonov*
Ōexnik muharrir *T. Xaritonova*
Musahhah *Sh. Oripova*
Komputerda sahifalovchi *L. Abkerimova*

Terishga berildi 22.10.2003. Bosishga ruxsat etildi 10.12.2003. Bichimi 60x90^{1/16}. Shartli bosma tabog'i 12,0. Nash t. 12,82. Ofset bosma usulida bosildi. Nuxxasi 15000. Buyurtma ¹ . Bahosi shartnoma asosida.

«O'zbekiston» nashriyoti, 700129, Ōoshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma ¹ 157-2003.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700128.
Toshkent, U. Yusupov ko'chasi, 86.

